Bir âzdan keyin âq halati oziga yãrařgan navbatçi vraç kirdi. U éllik yãřlarni qãralab qãlgan, yúzida bitta ham ajini yoq, kohlik ayãl édi. Ong çekkasida tarãqqa sãz bermagan zulfi qulfnusha ziragiga ilinib turardi.

Âyãği nãgirãn bemãr tilga kirdi:

— Qaerlarga yũribsiz, Âyti? Iřqingizga ollik-ku!

Âyti uning haziliga hazil bilan javãb berdi:

—Bãřqa palatalarga ham jazmanlarim kop, akamullã!

—Ayãqim mundãqçikin bolmaganda sizni ozim âpqãçib ketardim.

—Undãq bolsa, ayãğingizni řu bugunãq tuzatib qoyganim bolsin.— U řunday deb yãnidagi hamřiraga yũzlandi.— Aravaçani âlib kelib âtahãnni bir bãğ aylantiring. Tãğ havãsiga organgan âdam palatada juda qiynalib ketdi.

U bemãrlarning qãn tãmirini olçab, «Zor, zor, yũrak émas, paravãz. Âvqatdan qismasak, quturib ketibsizlar»,— dedi.

— Undãq bolsa bir kunga uyga javãb bering, mãmãning qulãqiga sekretniy gapim bãr édi. Âyti, yãmãnsiz, yãmãnsiz, rais bãva, deyã çiqib ketdi. Ayãllar kirgan palata birdan yãriřib ketgandek boldi. Ulardan quvãnç va nur qãldi.

— Baraka tåpkur, zap fayzli ayål-da. Bemarning ågrigini ikki ågiz söz bilan tuzatvåradi- yå! Jalål pålvan ozim yüraman, deyişiga qoyişmay, uç kişilaşib uni aravaçaga otqazib, taşqariga ålib çiqişdi.

Havå åçiq, ğir-ğir şabbåda ésib turipti. Qolida stakan, piyåla uşlagan bemårlar suv içgani bulåk tåmånğa ketişyåpti.

Bu erdan çiqqan bulåq suvi naq buyrak kasaliking tayyår davåsi édi. Juda kop ådamlar buyrak ågrigidan vån-vånlab kelib, şu suvdan şifå tåpib, handån-huşån uylariga qaytib ketganlar. Uçta çål pålvan otirgan aravaçani navbatma-navbat itarib hiyåbon aylanişar édi.

—Bu erda ayållarning ismi qiziq ékan,— dedi Jalål pålvan hayrån bål原因.— Sangça, Åyti... bu nima degani?— Qolitiqtayåqda sudralib kelayåtgan bemår tuşuntira båşladi:

— Sizning Tåşkentingizga Tåşhån, Tåşbibi degan ayållar bårmi? Bale, bizning Buhår tiliga Sangça degani Tåşkent tiliga Tåşça degani. Ånalari båşing tågadan bolsin, dohtarim, deb şunaqa ism qoyådilar. Åyti degani asli Åytota degani. Bu Åyhåla degan mabnå beradi, orislarning tyåta degan sozi ham şundan ålingan bolişi kerak. Sizlar érkaklarni mulla aka deysizlar, biz akamullå deymiz, åpamullå deymiz. Dohtir åpaning ismi dakumentga båşqaça. yåbni İstat Fuzaylånna. Tuşundingizmi?

Pålvan, tuşundim, degandek bås irğab qoydi. Ular solimgina şiypançaga çiqib çaqçaqlaşmånçi bolişdi.

—Mehmån, ozlarini qaerdan soraymiz?— dedi iyågi silkinadigan bemår.

—Soramang,— dedi pålvan.— Ürtim juda uzåqda, tåğlar årasida. Ozlaringdan såray. Sizlarga nima bolgan? Kop dard tårtanga ohşaysizlar.

—Ha, nimasini aytasiz, Gulåyånning tåşkentlik it-yålåği uraverib, hammamizni invalid qilib ketgan. Balki eşitgandirsiz u itni? Qoçqår Jalålån degan tergåvçi, ha, ånangni...

—Håy, Håy, åğzingga qarab gapir, «Åyti» kelyåptilar— Fuzaylånna otib ketgandan keyin u sözini davåm éttirdi:— Oşa padar labnat kop işlar qilib ketdi. Butun bir şaharni bånşa etadigan bånlik ålib ketdi oşa itning bålasi.

—Sokinmay gapir,— dedi duduqlanadigan bemår arang gapirib.

—Sokinaman, nega sokmas ékanman! U ablahning átasi éşak, ânasi mâçahar! Jalâl pâlvaning vujud-vujudiga minglab igna sançilgandek boldi. U dunyâga kelib hali bunaqa haqorat éşitmagan édi. Tişini-tişiga qoyib çidadi.

—Gulâyanning ozi hafta-on kunda bir kelib Qoçqârning yiqqan-terganlarini çamadâniga sâlib âlib ketardi. Uning tergâvçilari Farğânada, Hârazmda, şu bizning Buhârâda iş âlib bârardi. U ablah juda ham şafqatsiz, jallâd édi. Hâtinlarimizni ham, kelinu qizlarimizni ham qamagan édi...

Hamşira Sangça Amânâva ularni tuşlikka çaqirdi:

— Qani, tâyçâqlarim, dombâqlarim, avqâtga. Uning bu gapiga Jalâl pâlvaning ğaşi keldi:

— İyâ, biz uning bâbâsi tengi bolsak, bu tirrança qizalâq érmak qilyâptimi?

Uçala bemâr barâbariga handân taşlab kulib yübârişdi.

— Şu qizalâqning ikki kuyâvi, bir kelini bâr. Saksâninçi yilda nevaram koriçak bolib kasalhânaga tuşib qâldi. Sangçani oşanda birinçi korişim édi. Qarasam, u til-jağli, âyâq- qoli çaqqân, suhsurdek qiz. Kenja oğlimga qiz qidirib yûrgan paytimiz édi. Bâş vraç âldiga kirib, Sangça degan hamşirangiz bâr ékan, ahlâq-âdâbi qandâq, deb soradim. Bâş vraç kuldi.

—Bu qizning birinçi éridan uç, keyingisidan tortta bâlasi bâr. Éri avariyağa uçrab halâk bolgandan keyin âtasining qistâvi bilan bâşqa bir qâbilgina érga tekkan. Âtasi bir yüz birga kirdi. Ânasi toqsân olti yâşda âlamdan otdi. Bitta âpasi hâzir saksân bir yâşda.

Jalâl pâlvan bu gapga işânqiramay «Yoğ-e», deb yübârdi.

— U Âytimullâdan uç yâş katta. Qarang, yüzida bitta ham ajini yoq. Sâçlariga haligaça âq âralamagan. Âyti éllik bir yâşda bolsa, u demak éllik tortda boladi. Hali zuvalasi pişiq. Qizlariga sâvçi kelsa, yänğlişib, Sangçani qizlardan bittasi bolsa kerak, deb gapga sâlib korişadi.

Jalâl pâlvan, yâ alhazar, deb yübârganini bilmay qâldi.

— Buhârânnig tagiga tillâ bâr. Mana şu içayâtgan suvimiz ham tillâ qumlar ârasidan otib kelayâtgan bolsa ajab émas,— dedi qoltiqtayâqda sudralib kelayâtgan bemâr. Pâşşâyü amirlar ham ahmâq émas. Tillâ piyâlada şarâb içişgan. Tillâ mebdani tâzalaydi. Âdamlar

bekârga tillâ tiş qoymaydi. Qaynâtamning dadasi zargar édi. Yiliga bir marta bitta buhâr tangani égâvlab kukunini kap âtardi. Ana şu âdam bir yüz etti yâşda âlamdan otgan.

Keçqurun Sangça Amânâva dâri içirgani kirganda pâlvân unga razm sâlib qaradi. Uning jilmayışga mâyl bolib turgan mabsum lablari, quyüq kipriklari qurşâvida qâlgan mastâna kozlari, hali pardâz kormagan yüzlari qaramaganni ham oziga qaratadi. Jalâl pâlvân etmiş yâşli çâl bolaturib unga behayâlarça qarab turganidan uyâlib ketdi. Tangrim, ozing keçir, tavba qildim, deb istiğfâr keltirganini ozi ham bilmay qâldi.

Sangça çiqib ketar ékan, bilib qoyinglar, bâlakaylarim, televizârni râvna sâat onda oçirib ketaman, dedi.

—Unday qilma, bâlam. Bugun sâat onu onda Maryâm bilan Gulbahârning kânserti boladi.

Maryâm «Qurbân olam»ni, Gulbahâr «Barnâ yigit»ni aytadi. Uçirma, jân bâlam,— deb yâlbârişdi çâllar.

—Bopti,— dedi Sangça rahmi kelib.— Mehmân,— dedi u Jalâl pâlvânga.— Siz famil çây içmay turing. Kok çây buyrakni yüvadi. Hâzir aytaman, hammanglarga bir çâynakdan kok çây keltiradilar.

Bir âzdan keyin patnisda çâynakpoş kiydirilgan tortta çâynak keltirib stâl ustiga qoyib ketişdi. İyâgi silkinadigan bemâr ançagina gapdân ékan.

— Mehmân, biz sizning ismi şarifingizni bilmaymiz, siz biznikini bilmaysiz. Keling, yâşilab tanışib âlaylik. Mening ismim Hamrâ Açil. Mana şu jâydagi kâlhâzga rais édim. Sanatâriyâ bâğiga erni ozim olçab berganman. Manavi langning, yâbniy çolâqning âti İhtiyâr Kamâl, qârakol sâvhâziga direktâr bâlgan. Anavu sâqâvning âti...

— Sâqâv dema, duduq de.

— Hop, bopti. Uning âti Zulfiqâr, fâmilasi...—aytaveraymi, deb unga qaradi. Zulfiqâr menga bari bir degandek qol siltab qoydi.— Uning fâmilasi Gadâev. Pahta zavâdiga direktâr bolgan. Ana éndi siz ozingizning ismi şarifingizni ayting.

— Men unaqa maşhur âdam émasman, poristây bir iâlvânman, hâlâ. Pâlvân aka desanglar boladi. Âraga jimlik çokdi. Har kim oz çâynagidan çây quyib qaytara bâşladi.

— Çâyni bir qaytarsang çây boladi, ikki qaytarsang mâý boladi. Uç qaytarsang, gijinglagan toy boladi,— dedi Zulfiqâr Gadâev.

Jalâl pâlvân yâna qoçqâr toğrisida gapirib qâlišmasin, deb, asli kamgap âdam bolişiga qaramay, uzundan-uzâq gap bâşladi:

— Éllik beş yildan beri kuraş tuşaman. Manaman degan zor pâlvânlar bilan bellaşganman. Hudaning mehribânligidan orgilay, umrimda engiliş nimaligini bilmay otdim. Tâ olgunimça şundâq ketaman, deb oylagandim. Ammâ bir yâş bâladan yiqilib, şarmandai şarmisâr boldim. Kasalim ham şundan. Bâla nihâyâtda kuçga tolğan, abjir, kuraş hadisini âlğan pahlavân ékan. Urđi, meni çalpak qilib erga urđi. Belbâğimni tirsagiga orab qisganda belim çort uzilib ketadiyâv, deb oyladim. Belbâğim huddi sim arkân bolib suyâk-suyâklarimgaça qisardi. Kuymiçim bilan erga zarb bilan tuşdim. İçak-çavâqlarim aralaş-quralaş bolib ketđi, deb oyladim. Davradan oğriq azâbida, yürt koziga qarayâlmay, şarmandai şarmisâr bolib çiqib ketdim. Dohtirlar buyragingiz jâyidan qozğalibdi, deyişdi. Mana éndi, qariganimda dardga çalinib otiribman.

Bemârlar uning bu gaplarini qulâq qâqmay tinglaşardi.

— Har bir âdamning içida dard bâr. É, nimasini aytasiz, biravniki âşkâra, biravniki pinhâna. Mana, bizdi âlsak...

Hamrâ Açil Zulfiqârning gapini boldi:

— Yâna anavu iflâs, itdan tarqagan Qoçqâr Jalâl toğrisida gap bâşlamâqçimisan, gadâyning bâlasi? Qoy, oşaning harâm âtini âğzingga âlma.

Pâlvân bir qizardi, bir bozardi. Nâilâj çidadi. U şunça, uzundan-uzâq gapirib ularni çalgitmâqçi bolgandi. Bari bir gap aylanib yâna oğliga kelib tohtadi...

—Értaga biznikiga nânuşta qilsak. Uyim yâqin, şu erdan korinib turadi. Bir yâyrab saryâqli şirçâyhorlik qilsak. Tandirdan yângi uzilgan, uşlagan qolni kuydiradigan mâyli patirni şirçâyga toğrab egan âdam prama jannatga tuşadi. Nima deysizlar, joralar?

—Bilmadim,— dedi pâlvân.— Bu erning qoidasini unçalik bilmayman. Dohtirlar konişarmikan?

— Bildirmaymiz-da. Ular tâ işga kelgunça biz nânuşta qilib bolamiz. Şirçây sahar paytiga içiladi. Tuşundingizmi, jora?

Pålvån yåna gap Qoçqârdan başlanmasin, deb darrâv, hop, dedi.

Hamro Açılning Håvlisi katta, imâratlari Ham raisçasiga qurilgan. Hånalari keng, şifti baland. Qandaydir patnislarga qarab çizilgan gul, tarvuz, quşlarning suvratlari bilan bejalgan édi. Håna jihâzlari nåçâr édi. Biråv havas kilsa boladigan gilamu javånlar yoq. Bir kitâb javånida beş-onta pahta gulli piyâla bilan tortta çaynak bår édi.

Pålvån kâp raislarning uylarida bolgan. Ularnikida qimmatbahâ mebellar, devârlarda ham, åyâq åstida ham érånu turkman gilamlari, yâpån, hitây, nemis çinnilari tåkçalarda, javånlarda çaqnab kozni olardi. Jalâl pålvån Hamrâ raisning zavqi pastrâq qékan, degan oyga bårdi. Yå bolmasa kop qiz uzatganu har toyda qizlar uyni boşatib ketavergan, deb dilidan otkazib qoydi.

Hamro Açıl uning konglidan otayâtgan gaplarni sezdi.

—Ajablanâpsiz-a, Polvon ako? Bu uydagi qimmatbaho buyümlar muzeylarda ham topilmasdi. Bebaho çinnilarning kopligidan yotalsang çinni åvâzi yârim sâat jaranglab hånada aylanib yürardi. Men qamalghanimda bålalarim bir çekkadan sâtib oşa ånangni...

Koçqârga åbârib berişıpti, na gilam qâpti, na çinni asbâb. Pålvån heç bolmasa şu erda Koçqrning nomi tilga ålinmas, deb oylagan édi. Yoq, bolmadi.

Dasturhånga ajâyib nebmatlar târtilgan édi. Kattaqorğonning uşlasa uqalanib ketadigan paşmagidan târtib, Buhâråning maşhur yağli hâlvasiğaça, har biri «Jiguli»ning ğildiragidek yağli patirlar...

Håvlida heç kim yoq.

— Kelinlar, qizlar saharlab bu taåmlarni tayyârlab birlari işga, birlari oqişga katişgan.

Yåşi åltmişlarga bårib qâlgan åzğın bir xâtin patnisdâ tort kâsa şırçây kotarib kirdi. Hamrâ Açıl turib, patnisdagi çinnilarni ålib dasturhånga koydi. Şunda Jalâl pålvånning kozi xâtinning barmâğiga tuşdi. Uning ong qolidagi orta barmâği huddi ipga åsib qoygandek salanglab turardi.

— Qani, şırçây sâvumasin. Patir qaynâqligida toğranglar, mazasi başqaça boladi. Murç sepsak-ku, mazasi yånayâm başqaça boladi-yâ, ammâ buyrakka aççiq narsa toğri kelmaydi-da.

Mehmānlar nihāyātda tātli širçāy bilan āvāra bolib, heç biridan sadā çiqmadi. Hamro Åçil jimlikni buzdi:

—Pālvān aka, hātinimning barmāğini korib hayrān boldingiz-a? Bu oša padarlabnat Qoçqār tergāvçining işi. Men uylanganimda ānam rahmatli barmāqlaridagi uzukni çiqarib, kelinga, bālam bu uzukni katta buvim taqqanlar, u kişidan keyin men taqqanman, éndi siz taqing, deb xātinimning orta barmāğiga taqib qoygan édilar. Uzukning ikkita māşdek ālmās kozi bār édi. U paytda hātinim āzğın, barmāqlari ham qalamdek ingiçka édi. İkki bāla tuqqandan keyin ét qoyib, semirib ketdi. Barmāqlari ham yoğānlaşib qāldi. U şu uzunki qirq yildan ārtiq taqdi. Ammā qoldan qoymadi. Tongiçimni uylantirganimizda, xātinim kelinning barmāğiga şu uzukni taqib qoymāqçi boldi. U ança urindi, barmāğidan çiqarālmadi. Uzuk goştdār barmāği terisi ārasida qālib ketibdi. Kelinga Buhārādan bāşqa uzuk āpkelib bergandim. Men qamalغانimdan keyin ham ablah Qoçqār tergāvçi uyni ābis qipti. Kelinlarimning, qizlarimning hamma taqinçāqlarini āpti. Xātinimning barmāğidagi uzukka kozi tuşib, şunça urinibdiki, çiqazālmapti. Āhiri uzukni āmbur bilan qisib bār kuçi bilan tårtibdi. Uzuk barmāqning terisini, goştlarini sidirib çiqibdi. Barmāq boğınlari uzilib ketibdi. Hāzir kordingiz-ku, bitta barmāğida jān yoq, tortta barmāq ārasida lattaga ohşab āsilib qālgan. Kir yūvālmaydi, hamir qārālmaydi, igna uşlasa, jāni yoq barmāq halaqit beradi.

Gap nimadan bāşlansa āhiri Qoçqār bilan tugardi. Jalāl pālvān Buhārāga kelganiga puşaymānlar edi. Ming olib, ming tirildi.

— Şu desangiz,— dey gapini davām éttirdi Hamro Åçil.— Érta-indin pensiyāga çiqsam, kālhzā maşinasini tāpşirişim kerak boladi. Har kalay ottiz-qirq yil maşinada yūrgan ādam piyāda qālmay, deb kenjamga bitta «Vālga» ālib berdim. Nāmer āldik. Pravāsi yoq bāla minib-ketib yūrmasin, deb kalitini xātinimga berib qoydim. Ablah Qoçqār hali māyi arilmagan yāp-yāngi maşinani ham ālib ketibdi. İlayā buyürmasin, ilāyā avariyağa uçrab oligi hār bolsin! Āta-ānasi tābuti ketida faryād urib qālsin...

Jalāl pālvān dād devāray dedi. Birdan, kutilmaganda yūragiga sançiq kirdi. Tāmiri tohtab-tohtab ura bāşladi. Hamro Åçildan yūrak dārisi bārmi, deb zorğa sorayāldi. Rais «hāzir, hāzir» deganiça yūgurib çiqib ketdi. Bir āzdan keyin dāri sālingan qutiçani kotarib kirdi.

— Xātinimning ham yūragi huruj qilib turadi. Manavuni tilingizning tagiga taşlab āling, hāzir otib ketadi.— U şunday deb pālvānga validāl tabletkasini uzatdi.

— Çaynamang, ozi érib ketsin,— dedi Zulfiqâr Gadâev.

Jalâl pâlvân yûrak âğriği qandâq bolışini éndi bildi.

— Dâktâr çaqiraylikmi?— Dedi İhtiyâr Kamâl.

— Yoq, yoq, hâjati yoq, hâzir otib ketadi,— dedi arang ozini tutib pâlvân.

Pâlvânni palataga âpkirib orniga yâtğizib qoyışdi. Sangçahon uning qân bâsimini olçab labini tişladi.

— Sizga nima bolli, qoziçâğim? Birân nimadan diqqat boldingizmi?

Pâlvân bâşini sarak-sarak qildi. İstat Fuzaylâvna Sangça vahima qilyâpti, deb bâşqatdan qon bâsimini olçadi.

Pâlvânni dâktâr korayâtğanda bâşqalar taşqariga çiqib turişgan édi.

—Bu adamning içi tola dard. Siz bilan bizdan kora alamli kunlarni korganga ohşaydi. Âğir, bâsiq adam ékan, yârilib dardini aytmayâpti.

—Sizga hayjânlanış mumkin émas. Korgan yâxşi kunlaringizni éslang,— dedi İstat Fuzaylâvna.

—Dohtir âpa, éndi menga javâb beraqâling. Hudéga şukur, buyragim durust bolib qâldi. Ürakni Tâşkentda davâlatsam ham bâladi.

Âyti bâşini sarak-sarak kildi:

— Buyrak bilan hazillaşmang. Hali tuzalgani yoq. Bilasizmi, buyragingiz jâyidan siljigan. Tâ tuzalmagunizça ketişni oylamang.

Pâlvân yâna birân ây turişga ham râzi édi. Ammâ şeriklarining gaplari uning jân-jânidan otib ketyâpti. Értalab turibâq bismillâsiga Qoçqârni padarlabnat, deb sokişadi. Keçqurun yâtişda ham yâna oşa gap. Bu gaplarga qandâq çidaydi? Oşa ablahning padari menman, siz âğizga âlib bolmaydigan uyât gaplar bilan sokayâtgan ânasi mening xâtinim, deb aytâlmasdi.

— Zulfiqâr Gadâev bundan ikki ây âldin nevarasini kuyâvga çiqazgan édi. Értaga quda çaqiriq qilişyâpti. Albatta bâring. Kopni korib dilingiz yârişadi. Yâna on marta tãmiringizga gimâdez yübârsak, kormagan dek bolib ketasiz. Éndi aravaçadan tuşing. Piyâda yûring.

Ammâ âyâqni erga zarb bilan taşlamang. Suvda suzgandek belga âğir kelmaydigan qilib yüring.

Pâlvân lâm-mim deyâlmay qâldi. Tani bâşqa dard bilmas ékan. Agar éşitayâtgan yüzlâb haqâratlarining bittasini u éşitganda édip, hâvli ortasida sâçini yâzib dâd derdi. Bilmaydida. Buni pâlvânning ozidan bâşqa heç kim bilmaydi. Éndi buyâğiga Pâlvân, kozim kor, qulâğim kar, deb yâşâşga majbur. Qiyin, juda qiyin bundâq qiliş. Na ilâj!

Értalab nânuştadan çiqib, bir stakandan bulâq suvi içib, şiypançada otirişgan édi. Zulfiqârning oğli hammalarini maşinada âlib ketdi.

Âytimullâ kopni korib dilingiz yârişadi, dstandi. Qayâqda, mehmanlar uçun dasturhân tayyârlangan hânaga qadam bâsişlari bilan pâlvânni élektir tâki urgandek boldi. Kozlari tinib, âşi aylandi. Devârdagi qip-qizil çoğdek érán gilami ortasida ilib qoyilgan zarrin ramkada nihâyâtda kohlik ayâl kişining kattalaştirilgan fâtâ suratini korgandayâq Pâlvânning rangi oçdi. Suvratdagi ayâlning qulâğida kelini Gulandâm taqib yürgan zirakni kordi. Pâlvân Gulandâmning qulâğidan âlib, salmâqlab korib, taqma, azadâr xâtinsan, âlib qoy, degan édi oşanda.

— Bu kimning suvrati?— deb soradi pâlvân İhtiyâr Kamâldan.

İhtiyâr qoltiqtayâğini devârga suyâb, stul tãmân intilar ékan, muvâzanatini yoqâtib önbâşga âğa boşladi. Pâlvân uşlab qâlmaganda yiqilişi aniq édi.

— Hâzir soramang, pâlvân aka, keyin aytaman, bu ayâl oziga ot qoygan. Koçadan қоş maşinaning ketma-ket signali éşitildi. Bâlalarning bakiriq-çaqiriqlari bâşlandi. Bunday paytlarda bâlalarga hudâ beradi. Quda taraf albatta bâlalarga turli sâvğalar âlib kelişadi. Biriga jevaçka, biriga şakâlad, biriga suvâtar toppânça tarqatadilar.

Avval ayâl qudalar hâvliga kirişdi. Zulfiqârning xâtini ularning âyâği tagiga âq surppâyandâz özdi. Kelinlik libâsida yâl-yâl yâñib kirgan navarasini bağriga bâsib, kozyâş qilib âldi. Zulfiqâr érkak kudalarga ham huddi şunaqa âq surp pâyandâz toşadi. U âldiga kelib bâş égib turgan nevarasi Bahşanda kelinçakning peşânasidan opib: «Bahtli bol, bâlam, bârgan jâyingda palak âtib, uvali-juvali bol,— deb elkasini silab qoydi.— Éndi dadang bilan koriş».

Baxşanda orik tagida opkasi tolib, hiqillab turgan dadasi âldiga bârdi. Dadasi kirqbeş yâşlardagi jpkkak, kozlari çakpab turgan çirâyli kişi édi. Baxşanda yüzidan tor pardani âlib,

dadasining boyniga asildi. Bálalik paytlaridagidek, huddi biráv áta bağridan tårtib álmâççi bolayátgandek yâpişib âlgandi.

— Ánang rahmatli kormadi bu kunlarni,— dedi u bálasining bâşlarini, elkalarini silab. U ozini tutişga urinardi. Ammâ irâdasidan hayäjâni zorlik qildi. Yiğlab yübardı.

Kuzatib turganlar ham qattiq hayäjânda édilar. Áhiri buvisi kelib Bahşandani átasi bağridan, boldi, boldi, duhtarim, bas éndi, deyâ álib ketdi.

Dasturhânga quyüq-suyüq tårtildi. Zulfiqârning kenja oğli hákandâzda isiriq tutatib çiqib ketdi. Utirganlar bahâli kudrat biri yüz somlik, biri éllik somlik uzatdilar. Udum şunaqa, isiriq tutatgan ádamga albatta pul beriş kerak.

Zulfiqâr qudalariga pâlvânni taniştirdi.

— İhtiyârni ham, Hamrâni ham taniysizlar. Pâlvân aka biz bilan sanatâriyâda birga daválanyâptilar. U kişi kop yaxşı ádam. Bâsiq, mulâhazali, andişali.

Pâlvân içidan zil ketdi. U oylardi, şu andişali, şu mulâhazali ádamning farzandi bu áilaga çeksiz jafâlar qilgan. Qarşingizda otirgan şu andişali ádam— ádam émas, borining, şâqâlning átasi...

Hali bir-biri bilan tanişib ulgurmagan ádamlar ádatda u yâqdan-bu yâqdan gapirib, áhiri suhbat mavzuini tâpib áladilar.

Ayniy teatriga Ábid qiziq bilan Mirza qiziq kelganini, râsa qiziq hangâmalar aytib ádamlarni kuldirganini, Bahovuddin pirim ziyâratidan qaytayátgan Érkin Vâhidâv bilan Abdulla Áripâv Labihâvuzga çay içgani kelişganini, ádamlar orab âlганini, Devânbegi madrasasining gumbazigaça ádam tolib ketganini, ikki sâatdan ártiq şebr oqitişganini gapirişardi.

Bu bolayátgan gaplar Pâlvânning qulâğiga kirmas, ikki kozi devârdagi suvratga qadalğan.

Nazarida suvratdagi ayâlning qulâğidagi zirak qimirlayátganga oxşayverdi. İhtiyâr Kamâl mehmânlarğa mulâzamat qilib, kirib-çiqib turgan Zulfiqârning qulâğiga nimadir dedi. U bâş irğab, hop, deb çiqib ketdi-da, bilagiga ikkita ton taşlab kirdi.

— Qudajânlar, bu mehmânlarimizni,— u pâlvân bilan İhtiyâr Kamâlğa işâra qildi,— dohtirlardan qarzga âlib kelganmiz. Ketişmasa bolmaydi. Pâlvân akaning tâmirlariga dâri yüboradigan payt boldi. Nima deysizlar? Javâb beraylig-a...

Zulfiqâr pâlvân bilan İhtiyârning elkasiğa ton taşladi.

Ular ikkâvlaşib maşinada qaytişar ékan, Zulfiqârning uyidagi ayâllarning pazandaligiga tasannâlar aytişardi.

—Dostim,— dedi Pálván, palataga kirişgaç,— oziga ot qoygan ayál toğrisida keyin aytaman, degan édingiz. Ayting, nima bolgan?

—Hunuk iş bolgan, jorajon, juda hunuk, anavu yâramas, it émgan Qoçqâr Zulfiqârni qamab, kop azâblar berdi. Zulfiqâr ham anâyi âdamlardan émas. Xânning sarâyidek uyni qurişga ğiştni qaydan âlding, tahtani qaydan âlding, deb qiyin-qistâvga tutaverdi. Zulfiqâr imârat uçun nimaiki âlğan bolsa, hammasiga ğişt zavâdidan, tahta iskalatidan, semânu tunukalargaça kvitansiyâ âlib qoygan édi. Bundan iş çiqazâlmagan terğavçi, qança pahta sâtib âlgansan, qança sâtgansan, deb qiynayveradi. Pahta zavâdini uç marta reviziyâ qiladilar, piçâqqa ilinadigan birân işkal tâpâlmaydilar. Tillangni, bâyligingni qaerga yâşirgansan, deb yâna doppâsleydilar. Zulfiqâr menda bunaqa narsalar yoq, deb azâblarga çidab beradi. Bu ârada bir yârim yilga yâqin vaqt otib ketadi. Âhiri Zulfiqâr xâtini bilan kelinini qamab terğav qiladilar. Gulâyân Qoçqor tayyârlagan hujjatlarni korib, bolmaydi, dedi. «Uni şundâq qoyib yübârsak gap tegadi. Hujjatlarni ikki yilga kesiş mumkin boladigan qilib tayyârla. Xâtini bilan kelinini şu bugun qoyib yübâr», deb ozi Qarşi tâmânga otib ketadi.

— Qoçqor Jalâlâv oşa kuni Zulfiqârning xâtinini qoyib yübâradi. Uning yâlgiz qâlgan kelini âldiga tun yârmida kiradi. Qollarini qayirib, uni zorlaydi. Qulâğidagi ziragini âlib, tângga yâqin çiqarib yübâradi. Telba bolib qâlgan juvân hali âsmân âqarmay turib uyga keladi. Hâldan tâygan qaynânasi uhlab yâtardi. Hali uyğânmagan qizi Bahşanda tepasiga kelib uzâq qarab turadi. Harâm vujudi bilan unga yâqin kelâlmaydi. Âşhânaga kirib kerâsin tola tunuka bankani kotarib çiqadiyü bâşidan quyâdi. Gugurt çaqib yübâradi.

Tâm boyi bolib ketayâtgan âlâv hâvlining u bâşidan-bu bâşiga yûgurur, şu âlâv içida ayál kişining boğiq âvoâi éşitilardi. Uyğânib ketganlar unga yâqin bârâlmadilar. Çelaklab suv sepsalar ham ot oçmasdi.

Zulfiqârni turmaning içida sud qilib ikki yil beradilar. Ykki yillik muddatni otab boldi, deb çiqarib yübâradilar. U qamâkdan çiqqanda kelinning qirqi otib bolgandi. İhtiyâr Kamâl stâldagi allaqaçân sâvub qâlgan çâyni simirib, insânning bâşi tâşdan ékan, jora, deb otirgan erida koltiqtayâğiga koksini tiradi. Taşqaridan âdamlarning âvâzi éşitila bâşladi. Bir âzdan keyin tâmirga dâri tâmizadigan mâslama kotarib Sangça kirdi.

— Bugun vaqtida ukâl âlmadinglar, jujuqlarim, gimâdez tâmiziş ham keçikib ketdi.

Sangça Pâlvânga faqat quvnâqlikka yâratilgan bir malak bolib korinadi. Er yûzi şunaqa nurli âdamlar bilan munavvar, deb oylardi u. Xudâ jami gozallarni âdamlarni mahliyâ qiliş uçun, insânlar konglidan badbinliklarni quvib, vujud-vujudini ézgulikka çulğab, yâşiliklarga çârlaş uçun yâratgandek édi.

Pálván salkam ikki sâat bilagida igna bilan bir litrli şişadagi gimâdez suyüqlikning âhirgi tãmçisi qâlgunça qimirlamay yâtdi. Kozini uyqu bâsdi. Hamşira quymiçiga ukâl kilgandagina uyğândi. Hali âftâb oçmagan. Bemârlar keçki salqinda hiyâbânlarda sayr qilib yürardilar.

İhtiyâr Kamâl hamân qoltiqtayâğini iyâgiga tirab qimirlamay otiripti. Pálvânning uyğanganini sezgaç, taşqariga çiqmaymizmi, deyâ ornidan tura bâşladi. Pálván ham turdi. İkkâvlaşib hâvliga çiqışdi. Bulâkdan bir piyâladan suv içib, ozlari organgan şiypânga çiqib otirişdi.

— Uç kundan keyin muddatim tugaydi. Ketsam, siz zerikib qâlmasmikinsiz, deb oylayman, dedi İhtiyâr Kamâl.

— Men ham ketsam kerak,— dedi Pálvân.

Aslini âlganda, bu mehribân, qayğungga qayğudâş âdamga Pálvânning mehri tuşib qâlgandi. Faqat, faqat Qoçqârdan gap bâşlamasa bolgani. Bari bir bolmadi. Qoçqârning nâmi aralaşmagani suhbat suhbat orniga otmay kâldi.

— Âyâğingizga nima qildi, deb soramadingiz, ozim aytay. Tergâvçi Qoçqor Jalâl meni qamâqqa âlgan kuniyâq, âltinlaringni, bâyliklaringni qaerga yâşirgansan, deb keçasiyü kunduzi uhlatmay sorâq qildi. Msnda bunaqa narsalar yoq, desam, işânmaydi. Uradi, tepadi, qollarimni qayiradi. Men bir çârvadâr âdam bolsam, menda tillâ nima kiladi, deyman, qani işânsa! İkki barzangi erga yâtkizib, qol-âyâğimni bâsib turdi, yâna biri stulga çiqib, ikki tizzamning koziga sakrab tuşdi. Âğriq azâbida huşimdan ketib qâpman. Tizzalarimning âşiq-mâşiği jâyidan qozğab qâpti. Dâktârlar gipsga sâlişdi, bolmadi. Âhiri râmitânlik mâş tabibni çaqirib kelişdi. Qoli engil ékan, âşiq-mâşiqni jâyiga sâldi. Âğriq qâlgandek boldi. Lekin tizzalarimdan pastda jân yoqdek. Şu-şu, qoltiqtayâqqa âsilib, sudralib yürübman. Qoçqâr Jalâl harâmi, ğarning bâlasi bitta gapni biladi. Âltin, âltin qani? Yâşirgan jâyingni ayt. Aytmasang, qollaringni ham sin-diraman, deydi. Bolmadi. Bâlalarimni, kuyâvimni çaqirtirdim. Ularni zudlik bilan âlib kelişdi. Kenjam ahvâlimni korib dâdlab yübârdi. İkki tarsakidan keyin bâlam şorlik jim bolib qldi. Ularning hammasi çopân. Savhâz qoylarini bâqışadi. Har birining hususiy ikki-uç yüzdän koyi bâr. Bunga hukumat ruhsat bergan. Terisini, junini, goştini davlatga sâtişadi. Bundan taşqari, plan ustiga qoşimça mahsulât bergani uçun yâxşigina mukâfât puli ham âlişadi. «Bâlalarim, qoylaringni bitta qâldirmay sâtinglar. Pulini manavularga keltirib beringlar», dedim. Bâlalarim âta sozidan çiqmaydigan qâbil bâlalar édi. Hop, deb çiqib ketişdi. Sâvhâz qoy sâtib âlmaydi. Âlganda ham pulini bir yil sudrab çala-yârim qilib, kattagina sâliq âlib, barakasini ketqizib keyin beradi. Mingga yâqin koyni bâzârga çiqarib bolmasa! Bâlalarim nima qilişlarini bilmay ikki mâtâtseiklda çoldagi çoponlar âldiga

bərişadi. Sâvhâzning Qizilqumda bir yüz qirq ming qoyi bâqiladi. İkki yûzdan ârtiq çopân qişin-yâzin saratânni saratân demay, çillani çilla demay, âftâb tiğida kuyib, çol boylab qoy haydaşadi. Nârmengli degan çopân ularga bâşçilik qiladi. U asli Surhândaryâning Şerâbâd tumanidan. Yâşligida Şâfirkânga kelib qâlgan. Nârmengli halâl, pâkiza âdam, çârvaçilik unga âtakasb bolgan. Bâlalarim oşa Nârmenglining âldiga bârib, niyâtlarini aytadilar. Nârmengli bâşini qaşlab uzâq otiradi. Erga kozini qadagança tinmay sigareta çekadi. Yârim sâatça şu alpâzda otirib ornidan turadi, u yâq-bu yâqqa yüradi. U nihâyâtda asabiy, hâzir birâv bilan muştlaşmâqçidek muştlarini tugadi. Nârmengli keyingi paytlarda uyqusizlik kasaliga mubtalâ bolgandi. Ana âlib ketadi, mana âlib ketadi, deb otâv âldiga çiqar, âlisda tozân kotarilsa, tâ etib kelgunça ozini qoyârga jây tâpâlmadi. Maşinada yâ zââtehnik, yâ vetvraç kelganini korgandan keyin kongli jâyiga tuşardi. Nârmenglining tuman markaziga bârmaganiga ham uç âydan âşdi. Gulâyân ayğâqçilarining kozi tuşsa uni ham royhatga tirkab qoyişlarini biladi. Yâhşisi, yâmon kozlardan yirâqrâq yüray, deb çol kezgani-kezman édi. Nârmengli bir qarârga keldi şekilli, jâyiga oti-rib: «Ketaveringlar,— deydi u,— hammang oz âtaringga bâr. Értalab âldilaringga âdam bâradi». Értalab Nârmenglining oğli tongçiçimnikiga mâtâtseikl kajavasida bir qâp sabzi-piyâz, kartâşka taşlab ketadi. Ketar çağida kelinimga piyâz tagida pul bâr, hammasini tergâvçiga bermanglar, éllik mingi ozlaringda qâlsin, hali sizlarga pul kop kerak boladi, deb jonab ketadi.

Oğlim Qoçkâr Jalâlga pulni âlib bârganda u bâla beçâruga baqirib beradi.

—Men senlarga pul deganim yoq. Tilla tanga âlib kel, deb aytganman, tuşundingmi?— deydi.

—Bizda unaqqa narsa yoq. Umrimde bir dânasini ham uşlab kormaganman.

Qoçkâr tajang boladi.

— Bunday qilasan. Hâzirâq Buhoroga bârib katta bâzârdan Aşât degan armani kabâbpazni tâpasan. Meni Qoçkâr Jalâl yübârdi, deb qoliga pullarni berasan. Huşyâr bol, âldida âdam yoq paytida u bilan gaplaş. Nima qilişni uning ozi biladi,— deb tuşuntiradi.

Nafsingga ât tuşkur Qoçkâr Jalol üzta buhâr tangani âlgandan keyin, «Aybi isbotlanmadi», deb meni koyib yübâradi.

Uyni tintuv qilganda âlib ketgan bitta kol âat bilan Parijda mukâfâtga berişgan âltin medalimni kaytib bermadi. Uni «antiqa» teri uçun âlgandim. âv hakami bilagimga har on beş daqiqada kuy çaladigan şveytsear sâatini taqib qoygandi. Afsus, juda qimmatli ésdalik édi. Hay, janâzasiga buyürsin...

Çiqqanimning értasi keç qârânğida Nârmengli keldi. Qoylardan birântasini ham sâttirmaganini, pullarni çopânlar toplaib berganini aytdi. Bunaqa âdamgarçilikdan kozlarim

yâşga toldi. Ozimni tutâlmay hiqillab yiğlab yübârdim. İflâs Qoçkâr şunça azâb berganda ham mijjamga yâş kelmagandi. Çopânlarning âdamgarçiligidan tabsirlanib ketibman.

Keçqurun palatada ulfati çâr bolib, çây içib otirişardi. Televizâr birinçi ozbek kâsmânavti Şaripâvning hânadânini korsata başladi. Qarindâş-uruğlari, qoni-qoşnilari, yâr-birâdarlari Şaripâvning âta-ânalarini tabriklaşyâpti. Hqâvli odamga tolgan. Hammaning qolida gul Çây hoplayâtgan Hamrâ Açil, qanday bahtli âila bu! deb yübârganini bilmay qâldi.

— Âtasiga rahmat!— dedi İhtiyâr.

— Şundâq farzand ostirgan ânasiga ming-ming rahmat-e!— deb yübârdi Zulfiqâr. Faqat Jalâl pâlvânning tiliga gap kelmasdi. Hamro açilning faylasufliigi tutib ketdi.

— Bilasizmi, insân nima uçun farzand ostiradi. Mehnat qilib, tâpib kelgan âş-nâni uçungina émas, olganingda goringga qoyâdigan marmar tâşi uçungina émas, él-yürtdan âlib keladigan âtangga rahmat, degan birgina sozni éşitiş uçun ostiradi. Âtangga labnat, padaringga labnat, degan soz âlib keladigan farzandning yüzini hudâ teskari qilsin!

Mana şu suhbat asnâsida Jalâl pâlvân ming olib, ming tirildi. Ozidan otganini ozi biladi. Mum tişla-gandek, tilini yütib yüborgandek zabun édi u.

— Mana, masalan, ablah Qoçkâr Jalâlning âtasiga heç kim rahmat, dermikin? Qani, aytinglarçi? Nima deysiz, Pâlvân aka?

Jalâl pâlvân nimalardir deb ğudrandi. Nima deganiga heç kim tuşinmadi. Uning rangi âqarib ketgan, qâşlari ortasiga tugunçak tuşib, bir nuhtaga tikilgança telbanamâ alpâzda otirardi.

— Yoq,— dedi İhtiyâr Kamâl.— Heç kim rahmat demaydi. Şunday iflâs bâla ostirgan sendek âtaga ming, milliân marta labnatlar yâğilsin, deydi.

Jalâl pâlvân hâlsizlanib ornidan turdi, mast âdamdek çayqala-çayqala hâvliga çiqib ketdi.

— Beçâraning yâna qân bâsimi âşib ketdi şekilli,— dedi Zulfiqâr.— Yâ yûragi huruj qildimikin? U şunday deb çontagini kavlab, validâl qidira başladi.

Jalâl pâlvân keçasi uhla yâlmadi. O yânbâşidan, bu yânbâşiga aĝdarilaverganida karavât ğiçirlab, şeriklarini uhlatmadi. Âhiri ornidan turib, şippagini kiydiyü taşqariga çiqib, har gal ârâm âladigan şiypânda otirib oy-oylab ketdi.

Keça sâkin. Tiq étgan tâvuş yoq, ây ham sindirilgan patirdek yârimtagina bolib qâlgan. Pâlvânning hâliga kulgandek yâqinginada baqa qurillaydi. Ketma-ket, çozib-çozib qurillaydi. Pâlvânning içida nimadir yânayâtgandi. İçidagi âlâv çiqib ketişga yol izlayâtganga ohşardi.

Åhiri bir horsinganida boğzini kuydirdiyü, taşqariga çiqib ketdi. Adamning jani ham şunaqa çiqib ketarmikin? Yoğe, undaymasdir. Pâlvân jilmayib turib jânberganlarni korgan.

— É, attang. Ésiz umr, ésizgina umr-a! Hudâ meni adamlarning la'natini eşitiş uçun yaratgan bolsa ilâjim qançâ!— Dedi u afsus-nadomatlar bilan.

Pâlvânning davâlaniş muddati tugadi. Uni kuzatgani aérâpártga çiqişi. Pâlvân samâlyât trapiga âyâq qoyâ turib, kutinglar, bir haftaga qâlmay kelaman, deb takrârladi.

Samâlyât havâga kotarilganda pâlvân birdan engil târti. Badbaht oğli tufayli yâğilgan harğişlar, undan azâb çekkan alamzada adamlar erda qâldi.

Qişlâq oşa-oşa, adamlar âz taşvişlari bilan âvâra. Çâllarga har kuni bolmasa ham kunâra nahârgi âş bolib turibdi. Birâv qiz uzatayâpti, birâv oğil uylayâpti. Yâna birâv âlamdan otgan âtasi yâ ânasiga yigirma âşi beryâpti.

Faqat Nurim sartarâş bu âşlarga bârâlmaydi. Adamlardan yüzi şuvit. O dokânini ham açmay qoygan. Qulâğiga bir hunuk gap kirdi-yü dokânga qulf sâldi. «Nurim oşa adam âvçisi Sâbitning âtasida, bâlasidan otib qayâqqa borardi. Boyningga lungi bâylab, kekirtagingga ustara târtib yübârişi heç gap émas. Hukumat yoli bilan bâşqa sartarâşhâna açiş kerak».

Şu gap qulâğiga kirdiyü Nurimning girg yillik kasbi barham tâpdi. Koçaga ham çiqmay tâmârqasida ğimirsib yüradi. Kunduz sâat birlarda samâlyâtdan tuşgan Pâlvân qişlâqqa kun bâtmay kirib keldi. Nurim sartaroş eşigi oldida âmbârga tiqilib kâlgan haşaklarni âlayâtgan édi. Jalâl pâlvânning qâراسi korinişi bilan işini taşlab şâşilganiça uyiga kirib ketdi. Uning Pâlvânga korinişga beti çidamasdi. Oğlini âtib ketgan bâlasi uçun albatta mendan kasâs âladi, deb oylardi. Pâlvân ésa unga qarayâlmasdi. Şu tinçgina âylani harob qilgan oqli uçun Nurim albatta mendan oç âladi, deb oylardi. Pâlvân Nurimdan, Nurim Pâlvândan qâçib yüripti. Pâlvân şu tâpda, hâzir Nurim ketmânnimi, bâltanimi kotarib çiqadi, menga taşlanadi, degan oyda sergaklanib kelardi. Nurim ésa, Jalâl hâvlimga bâstirib kiradiyü hâzirgina haşagi âlingan âmbârga meni ikki buklab tiqadi, deyâ qâçiş uçun devâr nahrasini moljalga âlib, dağdağ titrab turardi.

Yoq, Jalâl pâlvân indamay otib ketdi.

O uyiga kelganda jiyâni tomda keçagi şamol uçirib tuşirgan tarnovni jâyiga ornatayâtgan édi. O tâğasini korib, işini şâşa-pişa bitkizdi-yü, tâmga éngaşgan tut şâhiga âsilib pastga tuşdi.

— Keldingizmi, tâqa? Ahvâlingiz durustmi?

— Şukur-şukur,— dedi Pâlvân ayvân dahaniga otirar ékan.— Bitta çây qoyib ber.

Buhârâning ta'msiz suvini içaverib tinkam quridi.

Jiyâni gazga çâygum qoyib çiqdi.

—Jiyân,— dedi Pâlvân. — Şu maşinani yürqizsa boladimi, bir kor-çi.

—Akkumulyâtâri olgan, uni bir kun tokka koyiş kerak.

Koçqor maşina akkumulyâtorini çiqazib, suvini tâkib garaj tâkçasiga koygan édi.

—Zarur bolsa hoziroq ustaga berib kelaman, értalabgaça tayör qilib qoyâdi.

—Juda zarur. Buhârâga şu maşinada ketaman. Us-taga âlib bâr, oşanaqasi akangni ham çaqirib kel. Gulandâm uyda bolsa ayt, tez kelsin.

Jiyâni çây damlab çiqdi, keyin çang bâsgan akkumulyâtorni velosiped ârçasiga oqrnatib jonab ketdi.

Pâlvânning katta jiyâni avtâmâbil nazârati bâşliĝining orinbâsari édi. Buhârâga maşinani şu minib bârgani durust. Yolda inspektoâlar bolar-bolmasga tohtatmaydi.

Pâlvân nâvvât suvidek tâtimli çâyni huzur qilib içarkan, ozingga şukur, ozingga şukur, deb qoydi. Birpasda çâynaqni boşatdi. Peşânasidan terlarni sidirib yâktagining étagiga qolini artib, qovli pastidagi otinhânaga kirib ketdi. Komir kukunlari ornaşib asli rangi qandâqligi bilinmay ketgan çamadonni kotarib çiqdi. Supurgi bilan obdân çangini qâqib, latta bilan artdi. Çamadân qulflangan édi. Urinib açâlmadi. Garajga kirib âmbir bilan katta bir âtvertka âlib çiqdi.

Şu payt Gulandâm kelib qâldi. Qaynâtasi bilan yiĝlab korişdi. O éndi ozini âldirgan, kozi taglarida, iyâĝining pastida mayda ajinlar paydâ bolgan. Avvalgi şiddati yoq. Yiĝidan hol bolgan kipriklari ârasida ilgari çaqnab turadigan ot songandek édi. Âvâzi ham solĝin. Şu bir ây içida solib, értangi taqdiridan umidini uzgan aftâdahol bir alpâzda édi. Pâlvân unga qarab rahmi keldi. Beçâra...

Pâlvân uii baĝriga bâsib bâşlarini siladi. Yüpatmâqçi boldi. Nima deb yüpatadi? Uni âvutadigan qandoq soz bâr dunyâda? Gulandâm ésa uning baĝrida oksib-oksib yiĝlardi.

— Bolam, qandâq qilamiz, peşânamiz şor ékan. Baht bizga betini émas, ketini korsatgan bolsa, kimga zârlanamiz? Bâr, bâlam, muzdek ariq suvida betlaringn i yüvib âl!

Pâlvân tugunçasidan bir surat âlib unga uzatdi.

—Ïyâ, âta, bu mening ziragim-ku!— dedi hayrân bolib Gulandâm.

—Ïoq, bâlam, seniki émas, şu kelinçakniki. Sen uning ziragini taqib yûrgan éding. Éring ablah uni zorlab, keyin quloğidan çiqarib olgan. Bu kelinçak hozir yoq. Nomusi barbod bolganiga çidamay, oziga ot koygan.

Golandâm seskanib ketdi. Beihtiyâr ikki qulâğiga qol yübârdi. Şu tâpda uning ikki kulâği otda kuyâtgandek édi.

Gulandâm qaynâtasi «taqma bu zirakni», deganda âlib qoygan édi.

— Otir. Éndi manavu çamadânni açamiz.

O şunday deb çamadon qulfining tagiga âtvertka tiqib koçirib oldi, qâpqâğini açdi. Elimhaltaga sâlingan bir zarbâf tonni âlib haltadan çiqazdi. Buhârâ zardozlarining nâyöb bu namunasi aslida amir vazirlaridan biriniki édi. Pâlvân tonni namatga taşlab, hind çâyidan boşagan tunuka bankani âldi. O juda âğir édi. Qâpqâhini açib içidagilarni dasturhânga tokdi. Buhârâ tilla tangalari jaranglab ketdi.

— Bilasanmi, bâlam, şu tilla uçun éring sâvhâz direktâriining ikki oyö sindirgan.

Pâlvân bir torvani âldi. Tugunni eçib içidagilarni tokdi. Ular ayöllarning turli hil taqinçâqlari édi. Pâlvân qişiq bir uzukni qoliga âlarkan, âvâzi titrab dedi:

— É hudoyim-a, bu qandoq korgilik! Uzukka yâhşilab qara, bâlam.

Gulandâm uzukni qoliga âldi. Uzuk negadir dâira şaklida émas, tuhumga ohşaş uzunçâqrâq édi.

— Bu uzuk bir hâtinning kolidan âmbirda târtib çiqarilgan. Beçâra hâtinning barmâq boğinlari ajralib ketib, şalvirab kâlgan. Barmâq terisi şilinib, gâşti çiğib qâlgan. Koryâpsanmi, unda ombir izlari qâlgan.

Uyülib yâtgan tilla taqinçâqlarni titkilab bir medalni âldi.

— Bu uyingdagi éring taqib yürügan sâatning égasiniki. Hali hayât. Bu sâat bilan medalni Frantseyäda mukâfâtga berişgan.

Gulandâm sapçib ornidan turdi-yü koça tãmânga oqdek âtilib çiqib ketdi. Pâlvân taqinçâklarni yäna haltaga sâldi. Tilla tangalarni çây kutiga bitta-bittalab sanab taşladi.

Buhâr tanga râppa-râsa 100 dâna çiqdi. Nikâlayning surati çekilgan tanga bir yüz saksânta édi.

Pâlvân şu işlar bilan band ékan, Gulandâm kelganini sezmay qâldi.

— Mana,— dedi u,— ziraqni çamadânga taşlar ékan.— Mana sâat.

Gulandâm yügurganda sâat mehanizmlari işlab ketgan édi. Bir-ikki daqiqadan keyin sâat şoh bir kuyni çaldi. Bu sâat olib yâtgan Qoçqârning bilagida şu kuyni çalib turgandi. Pâlvân çamadân tagida yähşilab âğâzga oralgan kitâbçaga ohşaş qattiq bir narsani âlib açdi. Hali tahti buzilmagan, bankdan âlingan dâllarlar édi.

Çamadânda bulardan taşqari sâpiga âlmâs, brilliant qadalğan hanjar, tillâ, kumuş kuyma naqşlar qadalğan qizil bahmal kamar bâr édi.

Pâlvân buyümlarni jây-jâyiga qoyib, çamadân qâpçâğini yâpti.

— Mana, bâlam,— dedi Pâlvân Gulandâmgâ.—Koynimizda çayân bâr ékan. Tâpğan narsasini iniga taşyidigan kalamuş bâr ékan.

Koça tarafda maşina gurillagani eşitildi. Bir âzdan keyin eşikdan bir militseyä mayâri bilan Pâlvânning jiyâni kirib keldi. Bu marhum singlisining oğli Salâhiddin édi.

U tâğasining ança oziga kelib qâlganidan sevindi. Hâl-ahvâl soradi.

— Jiyân, sendan bitta iltimâs. Bâşliğingdan ikki kunga ruhsat sora. Manavu maşinada Buhârâga bâramiz. Juda zarur iş bâr. Yoq dema, jiyân.

Salâhiddin çakkasini qaşlab turib javâb qildi.

— Bizda yol harakati âyligi ketyâpti. Mayli, bir kunga bâray. Bâramanu yäna samâlyâtda ârqâga qaytaman. Maylimi?

— Mayli,— dedi Pâlvân jiyânidan hursand bolib.

Kiçik jiyäni maşinani yüvib, yağlarını tekşirib safarga tayyâr qilib qoydi. Éndi értalab bitta akkumulyätâr qoysa boldi. Bemalâl ketaversalar boladi.

Pâlvân értasi azânda Salâhiddin bilan yolga çiqdi.

Gulandâm eşik kesakisiga suyänib munğaygança maşina ârçasidan qarab qâldi. Pâlvân értasiga samâlyâtda qaytib keldi. Uning çehrası açiq édi. U umrida bir marta savâbli iş qildim, hamma vaqt kuraşda pâlvânlarni yiqitib ranjitardim. Raqiblarim albatta engilganlari uçun menga rahmat aytmagandirlar. Şularning uvâliga qâldim, deb oylardi.

Pâlvân qişlâkda bir nâhuşlik ustidan çiqdi. Gulandâm bir banka kerâsinni Qoçqârning goriga sepib ot qoyib yübâripti. Gor gâvullab yânipti. Tepasidagi darahtlar ham kuyib ketibdi. Gulandâmning ozi allaqayâqqa ğâyib bopti. Qayâqqa ketgan, tirikmi, olikmi, heç kim bilmasdi.

Pâlvân keçqurun samâvarga çiqdi. Çâyhorlar bilan hardamhayâl, uzuq-yüluq gaplaşib, qişlâq halqini értalab uyiga taklif qildi. «Nima, Pâlvân aka, yürtga âş berasizmi?»— deb sopraşgandi, «Értalab bilasizlar»,— dedi u çâyhânadan çiqib ketarkan.

Qişlâkda âş berilsa, âqsâqâllar sabzi toğraşga kirişadi. Masjid âmbâridan idiş- tâvâq âlişadi.

Stâl-stul, dasturhân degan gaplar bâr. Qiziq-ku, he yoq, be yoq, értalab uyga çaqiryäpti. Pâlvân uyga kelib, jiyänidan suv isitib berişni soradi. Yüvinib, tâza kiyimlarini kiydi. Huftân namâzini uzâq oqidi. İkki qolini kokka kotarib, Allâhga iltijâlar qildi.

— Tangrim, bu jânni ozing bergansan. Éndi âmânatingni âl. Sen bergan jânga qasd qilib gunâhga bâtişni istamayman. Jânimni ozing âl.

Pâlvân bu gaplarni beş-âlti martadan takrârladi. Tâğ tepasida qimirlamay turib krlgan âyga uzâq tikilib otirdi. Tun âsuda. Tiq étgan âvâz yoq.

— Bergan nebmatlaringga ming bâra şukur. Davridavrân surdim, kuraşlardan yâkkakift bolib çiqdim. Hârlizârlık kormadim. Éndi bas, qiynalib ketdim. Oz bolam meni yürt kozida şarmisâr qildi. Âmânatingni âl, Allâhim. Bas, éndi ketay. Bu dunyâda éndi yâhşilar yâşasin. Tângâtar mahali Jalâl pâlvanning jâni uzildi.

Janâzaga qishlâqning katta-kiçik hammasi keldi. Faqat Nurim sartarâş kelâlmadi. Ürt kozida uning yûzi şuvit édi. Oradan tort kun otib, Çorvoq dengizida çomilayötgan bolalar qirğ okdan bir poy tuflı topib oldilar. Bu Gulandomning tuflisi édi.

QIŞDAN QOLGAN QARĖALAR

Nasibjân hovlisidan ança berida maşınadan tuşdı. Éşik âldida ikki «Jiguli» turibdi. Kimlar keldi ékan? Uni yoqlab keladigan yâqinlari yoq édi-ku. Tinçlikmi ozi? İşqilib, tinçlik bolsin-da, deyâ âstâna hatladi. Hâtini çârpâyâda âmânatgina otirib, guruç tâzalayâpti.

Ayvânda dasturhânga tugilgan uç-tort tâğâra. Ulardan sâmsa, hasip, varaqi va allaqanday yöqimli qidlar keladi. Hâtini âyâq şarpassidan bâş kotardi.

— Tinçlikmi, nima gap ozi?— dedi Nasibjân hayrân bolib.

— Voy, uruğlaringiz kelişdi,— dedi quvânc bilan Anzirat.— Qulluq bolsinga kelişipti. Hâlangiz bilan ammagiz biram dilbar juvânlar ékan. Bir gapirib, on kulişadiyâ, baraka tâpgurlar! Tâğangizni aytmysizmi, biram mehribân, biram dâna...

Anziratning gapi âğzida qâldi.

— Mening qam uruğlarim bor ékanmi! Dadam bilan ayâm olgandan keyin bularni qarğış tegib qirilib ketgan deb yûrgan édim...

— É-é, gapingiz qursin! Kiring, içkariga kiring, ançadan beri kutib otirişipti.

Ayvân peşida sâvun qutisidek radiâpriyâmnikni qulâğiga tutib, on ikki yâşlardagi bir qiz otirardi. Uning qulâqlarida solkavoydek tilla baldâq. Boynida şâda-şâda marvarid. Hamma barmâqlarida qoşa-qoşa tilla uzuk. O Nasibjânga qarab, tilla tişga tola âğzini âçgança radiâ éşitardi.

Nasibjon hotiniga, bu kim, degandek qaradi.

— Vây, tanimasangiz, tanib âling. Bu kelinimiz. Hâlangizning qizlari, quda bolamiz, deb atayin korsatgani âlib keptilar.

— Âbbâ, bitta şu etmay turgandi.

Nasibjån hâtiniga yâmân qaraş qildi. Uning bu qaraşida, ularni nega uyga kiritding, degan magnâ bår édi.

Nasibjån bilan Anziratning turmuş qurganlariga on toqqiz yil boldi. Tongiç oğillari institutga bårdi. Nasibjån birån marta bolsin, hotinini uruğlarinikiga âlib barmagan. Ular ham jiyänimiz bår édi, deb aqalli bir marta qadam izi qilib kelişmagan. Âralaridan nima gap otgan, bilmasdi. Éri şundâq-şundâq bolgan, deb aytmagan. Anzirat oziça, uruğlaridan uylanmagani uçun yüz kormas bolib ketişgan bolsa kerak, deb oylardi. Nasibjon qarindoşlari eb-içib otirgan uyga tomon yürarkan ozi ustidan çiqarilgan hukmni éşitiş uçun sud zaliga kirayâtgandek bir alpâzda édi. O kirişi bilan katta hâlası sapçib turdiyü uni bağriga båsdi.

— Vây, sen qanaqa mehrsiz bâla çiqding! Ahir men onaginangni singlisiman. Hâlaginam olikmi, tirikmi deb birâr marta habar âlmaysan! Sen ozi kimga târtganding?!

— Ha, bu şunaqa!— deyâ uni âpasining bağridan târtib oldi Râbiyâ hâlası.

O qâşini bir-biriga ulab, énlik qilib osma qoygan semizgina, solqillama juvân édi.

— Sen tuğilganda opaginam oğil kordim, deb qandâq suyüngen édi! Seni eru kokka işonmasdim. Értâü keç opiçlab yürardim. Şu elkaginamda uhlab qolarding, şiringina bolib. Nasibjån şu mehribân Râbiyâ âlasinikiga âhirgi marta bârganida institutning ikkinçi kursida oqirdi. Tirikçiligi âğir bolganidan durustroq oqiyâlmay, stipendiyâga ilinmay qâldi. Kiyimbâşi tozigan, eyiş-içişining ham mazası yoq édi. Biron nima tamaddi qilib kelay deb şu holasinikiga bordi. Hâlası âş damlab qoygan ékan. Damlangan âşning hidi dimâğiga urdi.

— Ha, yâhşi yürıbsanmi?— dedi holası şu paytda nima qilarding kelib, degandek stâlga toqillatib çoynakni qâyârkan.— Aksiga âlib, uyda nân ham qâlmapti. Jiyänlaring bir-biridan qulâqsiz. Értalabdan javrayman, magazından nân âpkelib, keyin işingizga ketinglar deb, qani qulâq sâlsa! Şunça bâla ostirib, kunim qâtgan nânga qâlib otiribman!

Oğil-qızlar birin-ketin birâvi oqişdan, birâvi işdan kelişdi. Tâğajân-tâqajân, deb uning boyniga âsilişdi. Ânasi ularni birin-ketin imlab çaqirib, âlib çiqib ketdi. Birâzdan keyin ular lablari oğdan yiltirab kirişdi.

Hâlasining qilmişidan Nasibjåanning dili vayron boldi. Şu uyga ikkinçi qadam bâsmaganim bolsin, dediyü, çiqdi-ketdi.

— Hâý, şaşma, hâzir âvqatga unnayman! Quruqdan-quruq ketma,— Degança gâldi hâlası. Mana, yigirma uç yıl bopti uni kormaganıga. Bugun jiyänim katta lavozimğa otibdi, deb kelibdi.

— Hâlaginangân, gap mundâq. Kimsan, éndi kattakân ministrsan! Yât begânalâr yâningda eb-içib yürmasin. Baş yârılsa bork içida, degan gap bâr. Jiyäningni yâningğa âl. Pâmâşnik qilib, âl. Nima qilasan begânalarga sir berib. İlâji bolsa, jiyänlaringdan yâna bittasini ozingğa şâpir qil. Hudâ hâhlasa, ikkâvimiz quda bolamiz. Kenja qizim âqi âq, qizili qizil bolib turibdi. Êşigimdan sâvçılarning âyâği uzilmay qâldi. Şu qizim oğlingğa munâsib. Âtingni qamçıla, bolmasa quruq qâlasan!

Gapirganda yäsama tişi şiq-şiq qilib turadigan Nurmat toğasi salmâqlab gap bâşladı.

— Hâlang savâdsız bir narsa, ammâ yürt korgan hâtin. Etti yıl pæzdlarda prâvâdnik bolib, barmagan şahri qâlmagan. Ozing bilasan prâvâdnik ohir iş, bir kunda neça-neça âdam bilan gaplaşadi. Hâlang orislab sokkanida orislar ham qulâğini bekitib qâçib qâlardi. Tâpmadi émas, tâpdi. Topganini bâlalarini oqişğa joylaşğa sarfladi. Ozing yâhşi bilasan, hâzirgi dâmlalarning nafsi hakkalak âtib ketgan. Nâinsâflar, peşâna terini tokkandek, berganingni barmâğiga tuflab sanab âladı. Holang beçâra bolalarining hammasini diplâmlı qildi. Uning gaplari qulâğingda tursin, pâmâşnik masalası — oylab korsa arziydigan masala. Éndi mening gapimni êşit. Yâşım otib, kuç-quvvatdan qâlyâpman. Qariganda uruğlaringni qomsab qolarkansan. Korgim keladi. Éndi qariganımda bir yâhşilik qilib ketay. Hali sen kelguningça hâvlingni aylanib çiqdim. Éndi sen kimsan, ministrsan! Bunaqa uy, bunaqa hovli senga yâraşmaydi. Âdingğa ozingğa ohşagan kazâ-kazâlar keladi. Ularnı manavi çoldevârga qanday olib kirasan?! Éndi senga âbroyingğa yâraşa uy kerak. Ozimça çamalab çiqdim. İkki qavatlı uy quramiz. On ikki hâna boladi. Zal uyğa éng kamida âltmiş kişi siğadi. Tagida biliyârdhâna, fin hammâmi, spârt zali boladi. Menga qara, ğışt zavodlari ham senga qaraydi. Tahminan etmişta qışt zavâding bâr, deb êşitdim. Tahta iskalating ham yûzdan âşar émiş. Har qaysisidan beştadan tahta âlğaningda qam butun uruğ- aymoğingğa etadi. ârlaringğa meni korsatib, şu âdam mening vakilim, deb qoysang, tamâm, u yâğini ozim keliştiraman...

Mehribân tâğasi uni ikkinçi kursni tugatib, éndi tabtilga çiqaman, deb turganda qidirib bârgandi. Kimsan, kattakân bazaning mudiri katta bâşini kiçik qilib kelibdi.

— Hâý, sen kimga ohşagan çiqding?! Uruğimizda bunaqa âdam bolmagandi-ku?! Tâğam beçâra uçastka quryâpti, qiynalib ketgandır deb oylamadingmi? Sendan âş-nân

sorayátganim yoq. «Hárma, bår bol»ga ham yáramaysanmi? Értaga kanikulga çiqasan. Umringni bekår otkazma. Értá-indin qiliçini kotarib qış keladi, işlab beş-tort tangani belingga tugib qoysang, teşib çiqmaydi. Mardikår bázâriga çiqib, bizni uyátga qoyma! Menikiga kel. Bitta student ortáhingni yáningga olib, ğışt quyásan. Har kuni ávqatingdan ozim habar álib turaman. Uç áyda, oh-ho, qança ğışt quyiş mumkin! Értaga árib, maşinada álib kelaman. Korib olasan, keying ozing båraverasan.

Nasibján qaşqadaryálik qamkursi bilan táğasining uçastkasida uç áyda éh-he, qança ğışt quyib taşladi! Saksån mingdan áşgan çiqar... Toğa aytganini qilib, qar kuni tuşlikka ikkáviga torttadan somsa álib kelib, quyilgan ğıştlarni kozdan keçirardi. Vaalbatta, balli deb qoyardi. Ğirt piyázdan ibárat sámsa şunçalik Nasibjánning mebdasiga tegdiki, biráv ámsa desa, kongli ayniydigan bolib qáldi.

Áğaning hisáb-kitáb qiladigan payti keldi. Negadir u şaşilmasdi. Nasibjon puldan gap áçgan édi, jerkib taşladi.

— Uyálmaysanmi, begona émasman-ku! Qaçib ketayátganim yoq. Arzimagan şu hizmatningni minnat qilib, haq soragani qandoq tiling bårdi? Manavu bála, mayli, u begána. Uç-tort som bersam boladi. Ammá, sen ozimiznikisan, jiyán! Haşarga haq sorasa, ayb boladi. Unaqa past bolma, jiyán. Şu gapni sen aytmading, men éşitmadim.

Uç áylik mehnati kuygan Nasibján hamkurs ortáği áldida yüzi qára boldi.

Nasibján mehribán táğasini şundan keyin kormadi. Korgani táqati yoğ édi. Toğri, bir marta kordi. Oşa yili qış juda mijqáv bolgandi. Går yáğadi, ériydi, yáğadi, ériydi. Nasibján brezent tuflida şilt-şilt hol qár keçib, pâyabzal dokániga bårdi. Keça álgan stipendiyásiga tuflı álmáqçı boldi. Bir tuflini éndi qoliga olgan édi, taniş áváz éşitildi. Peştahta árqasida şu Nurmat táğasi turardi. Demak táğasi bazani silliqqına ápşirib, şu dokánga otib álibdi-da.

— Stipendiyá tegibdi-da, jiyán? Diding durust, yáhşi tuflı tanlading.

Án pulini sanasa uç som etmayäpti.

— Táğa, uç som etmayäpti. Etmaganini értaga taşlab otaman.

— Unağa émas-da, jiyán! Bu hukumatning áli. Reviziyá bássa, şu uç som uçun meni nima qiladi, bilasanmi? Goy, menga jabr qilma. Pulingni butlab, keyin tuflini álib ket.

Nasibjån tâğasiga «hayr» ham demadi, indamay çiqib ketdi. Mana, şundan beri «meqriban» tâğasini éndi korib turipti.

— Éndi mundoq qilsak, — dedi toğasi yäsama tişini şağillatib.— Men ham qarib qâldim. Ketadigan vaqtim bolib qâldi, şekilli. Bittagina oğlimdan konglim hâtinç. Mendan keyin u nima boladi, bilmayman, Mana, bahtimizga sen ministr bolding. Bu ham hudâning inâyâti. Sultân suyâgini horlamas, deb bekorga aytmaganlar. Şu bolani yâningga âl. Éski şahar bâzârini âlib ber. Ozing bilasan, bâzârda katta bolgan bâla, éplab ketadi. O yânida otirgan şirakayf yigitni turtdi.

— Tur orningdan, ministr tâğangga qulluq qil! Bâzâr seniki boldi, nâdân! Éndi kopam içaverma! Bunaqa içiş raqbarâdamga yäraşmaydi!

Kokragiga Brus Lining suvrati tuşirilgan mayka kiygan, barzangi yigit ornidan turib, qolini koksiga qoyib qulliq qildi. Uning âğzi tola tilla tiş, Boyniga har biri kânfet dânasidek tilla trâss âsib âlган.

 ahiga katta   ka  silgan tut tagidagi supada y  i  ltmi lardan   gan bir n tani   dam otirardi. Uning kozlari... Bundan ottiz ikki yil  ldingi Borih nning kozlari  di. Kampir, v y b lam, deb unga talpindi. Supaga y gurib b rdimi, u ib b rdimi, bilmaydi.

Ba rida o lini kordi. Undan ar q va  am y qilgan uyning hidi kelardi. Kampir buni sezmasdi.  ayibining h zir bolganidan mast-alast  di. Karaht  di, bahtiy r  di. O lining b  lariga, elkalariga koz y  lari tokilardi.

O li uning ba ridan  i i ga urinar, amm  kampirning q q suy k,  ayir qollari uni bo atmasdi.

— Nu zaçem, zaçem plaçeş, mama, vát i priehal, hvatit, hvatit,— derdi oğli. Ána bu gaplarni éshitmasdi. Éshitganda ham bari-bir tuşunmasdi.

Kampir huşini yiğib, bálásini bağridan boşatdi. Serrayib turgan Kumriga:

— Nega baqrayib turibsan, Rahmân qassábni çaqir, bálamning áyâği tagiga áğildagi qoyni soysin! Qoşnisinikida telefân bâr, aka-ukalaringga, singillaringga, akam keldi, deb habar qil!— dedi.

Qarakáz kampirning áyâği tagiga otirib álgan. Bu nâtanış ádamga ğaşlik qilib tinmay irillardi.

— Qayâqlarda yürüging?— dedi kampir oğliga. Oğli ánasi nima deyâyâtganini tuşunmay elka qisdi. Tuşunmadingmi? Sen bášqa ádam bolib ketibsan.

Kampir uning yüzlariga qarab ézilib ketdi. Qarib, adâyi tamâm bopti. Başarasiga ham oşa tamânlarning nuqsi urib, ozbekligi qálmabdi. Éllik bir yâşda etmiş yâşar çál bolib qoyâ qápti.

Rahmân qassáb allaqayâqqa ketib qálgan ékan, tâpib kelişdi. Koça tamânda qoş maşinaning gurillagani, oğil-qizlarining ávâzlari éşitildi.

Abdumalik qoy etaklab kirdi. Qizlari, kuyâvlari karton qutilarda, haltalarda meva-çeva, áлма-uzum kotarib kirişdi. Bir zumda hâvli gavjum bolib qáldi.

Borihân ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanişmadi. Borihân begâna uyga kirib qálgan ádamdek qâvuşmay turardi. U ukalariga, singillariga nima deyişni bilmasdi. Toğri, nima deyişni bilardi. Ammâ til bilmasa nima qilsin?

Oylab-oylab, «Salâm!» dedi. Jigarlari kulişni ham, yiğlaşni ham bilmay hayrân turib qálišdi.

Qassáb áğildan kattakân, bâquvdagi qoyni sudrab çiqdi. Borihânning áyâği tagiga yâ tqizib, ukam, qani bir fâtiha bering, dedi. É, darvâçe, Özbekça bilmasligingizni ésimdan çiqaribman, qani, ámin denglar, kampir énamizning umrlari uzun bolsin, qâyiblari hâzir bolgani rást çiqsin, ámin!

Qassáb şunday deb qoyning boğziga piçâq tártti.

— Nu zaçem, zaçem?— dedi Borihân.— vedb barana jalkâ, vse ravnâ yâ stâlbkâ myäsâ ne em! U nas baranina ne edyât.

Tâ yârim keçagaça kampirning hâvlisi toyhânaga aylanib ketdi. Tarqaş paytida Abdumalik akasini mehmânga taklif qildi.

Hâvli jimib qáldi. Qumri ána-bálaga supaga jáy sâlib berdi. Kampir bálásiga tikilib mijja qâkmadi. Borihân toyguniça içgan édi. Áğzidan gup-gup arâq hidi kelib turibdi.

Kampir româlining uçi bilan burnini berkitgança otiribdi. Râstdan ham şu âdam mening bâlammi, deb oylardi kampir. Qarib ketibdi, saçlari tokilib, başining yârmi yâlanğâçlanib qâpti. Kop içadigan âdamlardagina boladigan zahil bir befayzlik zâhir édi uning yüzlarida. Kozlarining tagi salqigan, tişlari tamakidan jigarrang tusga kirgan. U otasi otgan uyda, tuqqan ânasiga, jigarrangiga begâna bolibâ yâtibdi.

Saâdat kampir uni çaqalâqligida huddi şu supada beşikka belab tebratardi. Uç yâşga kirgunça şu supada bağrida âlib yâtgan édi. Borihân dombqqina bâla bolgandi. Uni yâmân kozdan asrasin, deb kiyimlariga tumoru kozmunçâqlar taqib qoyârdi. Sultonimga atab unga kâkil qâygandi. Âlti yâşga tolganda uni ér-hâtin Turkistânga âlib bârib hazrat yâssaviy maqbarasining şayhiga ataganlarini berib, kâkilini kesdirişgan, qoy soyib hudâyi qilişgan édi.

Borihân u yânbâşidan bu yânbâşiga ağdarildi. Şunda... Şunda uning ustidagi âq çâyşab sirğalib elkaları, koxi açilibqâldi. Kampir badanidan çayân ormalagandek seskandi. Özini ârqaga taşladi.

Borihânning boynidagi zanjir uçida but yâltiradi. Kampirning kozlari tindi. Bir dam uni şuur tark qildi. Telbadek sapçib ornidan turdiyü ayvân tãmânga çekindi...

Borihân armiyâ hizmatini otagandan keyin ham uyga qaytmadi. Ormân içkarisidagi qışlâq buthânasi qongirâqçisining érdan qâlgan qiziga âşiqu beqarâr bolib qâldi. Qalligining âtasi, bâşqa dindagi âdamga qizimni bermayman, deb turib âldi. Qiz Borihânni hristian diniga kirişga undadi. İşq-muhabbatdan kozini parda bâsgan Borihân heç ikkilanmay râzi boldi. Uni çerkaçva çoqintirişdi. Keyin çerkaçv âqsâqâli kelin bilan kuyâvga tâj kiydirib, nikâh oqidi. Ana şundan keyin Borihân hâtini, qaynânasi bilan har kuni çerkaçvga bârib çoqinadigan boldi. Qaynâtasi olgandan song uning orniga çerkaçv qongirâqçisi qilib qoyişdi. Nimaiki iş bolsa, barini u bajaradigan boldi. Piligi sohta bolgan şamlarning uçini qayçilaydi, yâni tamâm bolganlarini almaştiradi.

1970 yilning keç kuzida bir musulmân bâlasi dindan çiqdi...

Âh, âtaginasi tirik bolganda şu supa ustida bâlta bilan çâpib taşlardi-yâ! Kampir ayvân tãmân tisarilib bârar ékan, ana şunday oylardi. U ayvânga etâlmay huşidan ketib yiqildi. Qârakoz uning atrâfida ulib aylanardi. Qumri yâtgan uyning éşigini timdalab, uni uyğâtmâqçi boldi. Qumri uyqusini buzgan itni qarğay-qarğay hâvliga çiqdi. Qârakoz uning étagidan târtib, kampir yâtgan jâyga sudradi. Qumri ânasining behuş yâtganini korib qorqib ketdi. Qarib, muştdekkina bolib qâlgan ânasini dast kotarib ayvânga âlib çiqdi. Bâşi âstiga yâstiq qoyib, suv içirdi. Elkalarını uçaladi. Kampir kozini açadi. Hali tâng yârışmay turib, Abdumalik maşinada kelib akasını âlib ketdi. Unga Tâşkentning mustaqillikdan keyingi manzarasını korsatmâqçi, Çorsu bâzâridan uning bâlalariga sâvğa-salâmlar âlib bermâqçi édi.

Borihân uchun Özbekistanda mustaqillik boldimi, bolmadimi baribir édi. U ozga yürtning fuqarâsi, ozga ébtiqâdning sigindisi édi. Tuğilgan yürtga muhabbat tuyğusi uni tark qilganiga kop yillar bolgan. Ana tili qadim-qadim zamânlardayâk unutilib ketgan Şumer tili qatâri tumanlar ârasida kâlib ketgandi.

Értalab kampir heç narsa bolmagandek ornidan turdi. Qumri qarasa, ânasining kâlgan kâra sâçlari ham bir keçada âqarib, ajinlari kopayib ketibdi.

Qumri ânasining nega bunaqa bolayâtganini bilib turardi. Bâyä akasi tâng yârişmay hovli étagidagi yângâq tagida devârga karab çoqinayâtganini korib hayrânu lâl qâlgandi. Ayâlla umuman titimsak halq bâladi. Akasi Abdumalik bilan hâvlidan çiqib ketgaç, içkari uyda turgan çemâdanini titkiladi. Şunda sariq bahmalga oralgan bir narsaga kozi tuşdi. Uşlab kordi. Qutiçaga sâlingan narsa toppânça émasmikan, deb bahmal tugunni eçib qaradi. O hristianlarning muqaddas kitâbi İnjil édi. Uni uşlagan qollari kuyâyâtgandek şâşib yâna bahmalga orab qoydi.

Kampir bâmdâd namâzini oqiyâtib, har sajdaga bâş qoyganida jâynamâzga koz yâşlari tâmardi. U jâynamâz burçagini qayirib, ériga atab Qurbân tilâvat qildi. Bahti çâpmagan Qumriga bağışlab şu fariştaginaning yolini âç, deb Allâhga iltijâlar qildi. Ğâyibdan hâzir bolgan oğlining nâmini tilga ham âlmadi.

Saâdat ayâ şu bâlasiga tolğâq tutayâtganda âftâb çaraqqlab turardi-yü, yâmgir şarrâs quyâyâtgan édi. Derazadan hâvliga qarab turgan dâyä hâtin: «Bori bâlalayâpti», degandi. Şuning uchun ham oğliga u Borihân dsb ism qoygandi. Âradan éllik bir yil otib, bu bâlani men émas, bori tukqan ékan, degan hayâlga bârdi.

—Âyi, kiyinasizmi? Abdumalikning maşinasi hâzir kelib qâladi. Oğlingiz tayinlab ketgan.

—Ozing bâraver, men şu erda qâlamam,— dedi kampir.

—Ahir, akam, keçqurun pæzdga çikadi. Hayrlaşmaysizmi?

—Ozi kelgan, ozi ketaveradi. Maşina kelsa, çemâdanini taşlab qoy. Bu uyga éndi qaytib kelmasin,— dedi kampir katbiy qilib.

—Âyijân-ey, juda qahringiz qattiqda! Bugun ketadi, qaytib koramizmi-yoqmi, bâlam-bâtam, deb kuzatib qoyâ qâlsangiz nima qiladi-yâ!— dedi zârlanib Qumri.

—Bu bâlani men émas, bori tukqan... Bir marta dadam qani, deb soramadi-yâ! Qandâq âta di-yâ rahmatli.

Koçadan maşina âvâzi keldi. qarakoz oqdek âtilib çiqib ketdi. Bir âzdan keyin kampirning nevarasi Abdunabining atrâfida gir aylanib kirib keldi.

— İyâ, hali ham kiyinmay otiribsizmi? Uyimiz qarindâş-uruğlarga tpolib ketdi. Dadamning ortâqlari ham kelişgan. Qani, bola qâlinglar!

— Men bârmayman,— dedi kampir.— Qumri bâradi. Çemâdan olgurni âla ketinglar.

— İyâ, qiziq boldi-ku! Amakim bugun ketadilar-ku!

Kampir indamay uyga kirib ketdi, keyin derazadan bâşini çiqarib:

— Sen bâraver, bâlam. Men bilan otirib qân bolib ketding. Jigarlaring bilan birpas yâzilib kelasan,—dedi Kumriga.

Maşina ketdi. Kampir hayhâtdék hâvlida bir ozi qâldi. Uning koksiga allaqaydan kelib tuşgan bir parça muz keçadan beri érimay, vujud-vujudini qaçşatardi.

U uyga kirib tugun kotarib çiqdi. Undan Borihonning godakligida, bâlaligida kiygan kiyimlarini âlib qaradi.

İlgari kampir babzi-babzida bu kiyimlarni hidlab yiğlardi. Éndi koksidagi muz uni yiğlaşga qoymadi. U hâvli ortasiga hazân toplaib gugurt çaqdi. Gurillab yânayâtgan gulhanga Borihânning kiyimlarini birma-bir taşlay bâşladi. Gulhanda Borihânning bâlaligi yânardi. Qarakoz gulhan atrâfida aylanar, gâh alanga taftiga çidâlmay nari ketardi. Bir bohça kiyim zum otmay yâhib kulga aylandi. Şamâl kuyindilarni hâvlining tort tarafiga uçirib ketdi.

Qumrining kongli bir nimani sezdimi, koça bâşiga etmay maşinadan tuşib qâldi. Uyga kelganda, ânasi kaftini iyâgiga tirab, qimirlamay otiribdi. Qarakoz uning hayâllariga şerik bolgandek, u ham âld âyâqlariga dahanini qoygança kozlarini ümib, qimirlamay yâtibdi. qumri u yâq-bu yâqqa qaradi. Hâvlidan kuygan latta hidi kelyâpti. Qoşnilardan birârtasi éski-tuskilarni yândiryâpti şekilli, deb oyladi. Hâvlining supradek jâyi qârayib qâlganini korib hayrân boldi. Yâqin bârib qarasa, qâraygan erda bâlalar koynagiga qadaladigan on-on beşta qâvjiragan tugma sâçilib yâtibdi. Qumri nima bolganini bildi. İçidan zil ketdi.

— Äyi,— dedi u,— nima âvqat qilib beray? Értalab ham heç narsa tatimadingiz. Bunaqada tâliqib qâlasiz-ku.

Kampir bâşini sarak-sarak qildi.

— İştaham yoq, bâlam. İçim tola muz. Tanamga asta tarqalyâpti.

Qumri korkib ketdi.

— Kop kuyinmang éndi, bolar iş boldi. Hudâning irâdasi bu.

— É, qizim-a, bâla tuğmagansan-da, bilmaysan!

Kampir qiziga heç qaçân «tuğmagansan» deb aytmagan. Aytsa, tabna qilayâtgandek bolardi.

Qizining şundâq ham dardi içida. Bu gapni begâna aytsa çidaş mumkindir. Ammâ oz ânang aytsa, yüragingni kimga açasan? Qumri ânasining gapini malâl âlmadi.

—Farzand dâği yâmân boladi, bâlam.

—Ahir akam tirik-ku, şukr qilmaysizmi? Kampir uning gapini çort kesdi:

—U yoq éndi!

Kampir sozini âhiriga etkaza âlmay yânbâşiga behuş yiqildi. Qârazoz bezâvtalanib sapçib turib ketdi. Kumri ânasini kotarib, korpaça ustiga yâtzizdi.

Éşik taqilladi. Qârazoz darvâza tãmân yûgurdi. Qumri ânasi bilan âvâra édi. Hâvliga mahalla maçitining imâm-hatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvâlini korib, bir- biriga qarab âlišdi.

—Qizim,— dedi mutavalli,— bemavrid kelib qâpmiz. Ânahândan suyünçi *âlmâqçi* édik. Ular ayvân âldiga kelişdi. Songgi nafasini âlayâtgan kampirga:

—Ânajân, keça mubârak haj safaridan qaytdik.

Sizning hajingiz qabul boldi,— deyişdi.

Imâm-hatib Saâdat ayâning «Hâji badal» bolgani toğrisidagi hujjatni uzatdi. Kampir qolini kotara âlmadi. Kozini arang açib, ozingga şukur, Allâhim, deyâ âldi, hâlâs. U qiziga bir nima demâqçi bolgan édi, tili kalimaga kelmadi.

Kumri uning nima demâqçiligini bildi. Yûgurib uyga kirdiyü ikkita âhârli ton kotarib çiqdi.

— Âyim şu kunga atab saqlab yûrgan édilar.

U şunday deb ikkâvining elkasiga ton taşladi.

Kampir ikki kun şu alpâzda yâtib, sal oziga kelgandek boldi. Tilga kirdi. Aslini âlganda, uning umri tugagan édi. Bu huşhabar uning tugab bârayâtgan umriga umr ulagan édi. Bu hâl şamning oçiş âldidan bir lâp étişiga ohşardi.

— Ukalaringni, singillaringni çaqir! Vasiyât qilib qoyây. Sen qârqma, qizim. Olim haq. Bu jân degani Allâhning tandagi âmânati. Undan qaçib qutulib bolmaydi. Puf étadi-yü, çiqadi-ketadi.

Kampirning bâlalari etib kelişdi. Qumri ânasining ârqaşiga yâstiq qoyib berdi. Qatâr otirgan bâlalariga, nevaralariga qarar ékan, kampir mamnunlik bilan:

— Hudâga şukr, tâbutim âldida bâradigan hassakaşlarim kop ékan,— dedi.— Éşitinglar, bâlalarim. Abdumalik, éndi bularga sen âta ornida âtalik kilasan. Qumri, qizim, éndi sen mening ornimga qâlasan. Abdunabini şu hâvlida uylantiringlar. Yilimni kutib otirmay toy qilaveringlar. Şundâq qilsalaring, arvâhim şâd boladi. Abdunabi kelin bilan

Qumrining âldida qâlsin. Şu uy uniki. Ânam gorida tinç yâtsin, desanglar Qumrini aslâ yâlgizlatib qoymanglar.

Kampirning lablari quruşadi. Qumri piyaladagi suvga pahta bätirib âgzigâ tâמידi.

— Şaşib turibman, bälalarim. Meni âtalaring âldiga âlib ketişga kelişyâpti. Êndi buyâgini eşitinglar. Hamma tadârigimni korib qoyganman. Yilim otgunça boladigan marâsimlarga etarli pulni Qumriga berib qoyganman. Qizim, qulâgimdagi ziragimni, mahsi-kâvuşimni qassâlga bergin.— U êndigi aytmâqçi bolgan gapidan iymandi şekilli, jilmaydi.— Azaga kelgan hâtinlar âldida hunugim çiqib yâtmayin, qâşimga osma...

Kampir şu jilmaygança içidagi muz érimay âsangina jân berdi.

Hâvliga tumânat yiğildi. Unga «Hoji âna» deb janâza oқиşdi. Tobutni kotarişayâtganda Qârazozni qabristânga bârmasin, yâmân boladi, deb qoşnining hujrasiga qamab ketişdi.

Kampirning qirqi otgandan keyingina hâvlidan âdam âyâgi tâvsildi. Êgasi ketib fayzi yoqolgan hâvlida Qumri va Qârazoz munğayib qâlišdi.

Bir kun Qârazozning mijjalarida yâş korib Qum-rining yûraklari ézilib ketdi. Qârazozga qoşilib u ham yiğladi. Asta qâl yübârib, uning bâşlaridan siladi. Âldin bu itni jinidan ham yâmân korardi. Neça marta kâsâv bilan urgan. Âyâgi âstida oralaşganda tepib yübârgan. Qârazoz ham uni unçalik suymasdi.

Ana êndi ikki munğliğ bir-biriga qarab yüm-yüm yâş tokişyâpti.

Kârazoz êndi keçalari daydib ketmay qoydi. Har kuni hali tâng yârişmay turib (kampir bâmdâdga turganda) uyğânib ketardi.

Kampirşşg bälalaridan okkitasi Tâşkentda, bittasi Çirçiqda, ikkitasi Kibrayda yâşaydi. U tâng âtgandan tâ kun bätgunça hammasining uyiga bârardi. Kampirni tâpâlmay, hârib-çarçab qaytib keladi.

Bugun ham tâng sahardan Kârazoz çiqib ketdi. Pildiragança Çirçiq tâmânga yol âldi. Kimyâgarlar şaharçasida kampirning kenja qizi turadi. Oğli magnitâfân jinnisi. Hammaning âvâzini tasmaga yâzib yûradi. Şu yil bahârda buvisining âvâzini ham bildirmay yâzibdi. Oşanda kampir supada otirib, allaqayâqlarda daydib kelgan Qârazozga tanbeh berayâtgan édi.

Qârazoz Kimyâgarlar şaharçasining éng çekkadagi «dâm»ga etib kelganda kampirning nevarasi şişa bankada sut âlib kelayâtgan édi. Qârazoz unga dumini likillatib yâltâqlandi. Unga érgaşib uchinçi qavatga çiqdi. Uyga kirmay qaytib tuşdi. Bir âzdan keyin kampirning âvâzi eşitila bâşladi. Qârazozning kulâgi ding bâldi. Yâqin ikki âydan beri yoqotgan qadrdân kişisining âvâzini eşitib yiğlayâtgandek ğingşidi. Qârazozga uchinçi qavatga âtilib çiqdi. Êşikni timdalab vâvulladi. Yâna qaytib tuşdi. Bâlâhânaga qarab vâvullayverdi, vâvullayverdi...

Magnitâfândan kampirning âvâzi kelardi.

«Qarakozgina, qayâqlarda sanqib yürïbsan? Heç uyda otïrasanmi-yoqmi? Qârning ham açgandır? Tentakkina. Gapimga qulâq sâl, nega beâzâr musïçani quvasan?...»

Qarakoz akillar, erni timdalab ârçasiga tuprâq âtardi. Şu hâvlida keça toy bolgandi.

Şïrakayf yigitlar mikrâfânni baland qoyib, heç kimni uhlatmagan édi. Uyquga toymagan o-âdamlarga tâng mahali akïllayâtgan itning bu qiliği malâl kelardi. Quturgan bu it qayâqdan paydâ boldi, uni yoqotiş kerak, deb oylaşardi.

Qarakoz âdamlarni jânidan bezâr qilib, tinmay vâvullar, u yâqdan-bu yâqqa yûgurib, akïllagani akïllagan édi.

—Daydi itlarni tutadiganlarni çaqiriş kerak,— dedi birinçi qavat bâlâhânasiga çâyşab yâpinib çiqqan kasalmand bir kişi.

—Quturgan bu, bâlalarni tişlab âlmasin-da! Uni âtib taşlaş kerak! Hây, kimning miltiği bâr?— deb asabiy qiçqirdi uçinçi qavatdan bittasi.

Kampirning âvâzi hamân éşitilib turibdi. Qarakoz akillaşini qoymaydi.

Şu payt tortinçi qavatdan kimdir varanglatib oq uzdi. Qarakoz vangïllab yânbâşiga açpdarildi. Ârqa âyâğini bir-ikki silkitib jimib qâldi.

Magnitâfân tasmasi hamân aylanardi.

«... Qarakoz olmagur, Majnungina, yâna qayâqqa ketyâpsan? Mabşuqalaring âldigami? Kelinni qaçân korsatasan? Laylingni bir âlib kel, koray...»

Qarakoz kampirning âvâzi kelayâtgan bâlâhâna tâmânga yüzini burgança jânsiz yâtardi.

1999 yil, yânvarb.

MEHRIBON

Pâezd Tâşkentga yâqïnlaşgan sari Qunduzhânnïng yûragi qattiqrâq ura bâşladi. Bundan ikki yil avval şu stantsiyâdan unga âq yol tilab qâlgan ona éndi yoq. U otgan yili bahârda tuğruqhâhada olgan. Qizning nazarida, âna perrânda hamân româl silkib turgandek édi.

Pâezd stantseyâga kirib keldi. Perrân tola âdam. Hamma vagân éşigiga qarab yûguradi. Ular ârasida faqat âna, Qunduzhânnïng ânasi yoq, hâlâs.

Qiz çamadânçasini kotarib vagândan tuşdi, âdamlar ârasidan turtina-turtina çetga çiqib, dadasini qidira bâşladi. «Telegramma etib kelmaganmikin» deb dilidan otkazdi

Qunduzhân. Yoq. Dadasi âdamlar ârasida korinmadi. Ânasi bâlisa, albatta, çiqar édi. Gul tutib kutib âlardi. Qizning atrâfga javdirab turgan kozlari hâmuş erga bâqdi. Qiz kongli oksidi.

Ne-ne ârzu-umidlar bilan ostirgan farzandining balâgat yâşini korâlmagan ânalar, farzandlik qarzini otâlmay armânda qâlganlar qalbini tirnab kelgan dardu alamini ifâda qilib bolarmidi.

Atrâfni quvnâq kulgiga tâldirgan mana şu âdamlar ârasidan Qunduzhân bundan ikki yil avval yâqâtgan ânasining mehribân-munis siymâsini qidiradi. Qani u, kâzi yârib, bir parça étda âz istiqbâlini kârâlgan va unga baht tilagan âna! Yâşlik yillari uning sâçlarini maydaqilib ârib qâyädigan mehribân qâllar âni? U éndi abadiyân yâqlikka ketdi.

Qunduzhân bâşaşib çamadânçasiga âtirdi. İyâgini kaftiga tirab, bir nuqtaga tikilganiça hayâlga tâldi.

Âna âldi. Tuğruqhâna dâyesi qâlide yiğlab turgan çaqalâq hali kâz açmay âna sutidan, visâlidan begâna bâldi. U kunlari Qunduzhân Mâskvada âqişda édi. Bu qayğuli habarni qiziga qanday qilib bildirişni bilmagan âta uzâq vaqt sukut saqladi. Âhiri yâzişga majbur bâldi.

Qunduzhân âzini har qança tutişga urinmasin, âğir yâqâtişning azâbi uni qiynar, ézar édi.

Yâzgi imtihânlar bâşlandi, bir fandan yiqildi. Qayta tâpşiriş uçun yâz bâyitayârlandi. Âna âqiş bâşlanib, Tâşkentga kelâlmay qâldi. Uni faqat singlisi, hali naânasini va na âpasini kârmagan çaqalâqning ahvâli qiynar édi. «Ânasiz hâli nima keçdi ékan?» Qunduzhân faqat şu haqda âylardi.

Qunduzhân bâş kâtarib atrâfga qaradi, âdamlar allaqaçon tarqab ketgan, uni târt sutka yâl bâsib âlib kelgan pæzd bir zumda bâşab qâlgan. Gazeta kiâskada âldida sâçiga âq âralagan, ârta yâşlardagi bir hâtin unga qarab turardi.

— Siz Qunduzhân émasmisiz? Darrâv tanidim, suratingizga ohşar ékansiz.— Hâtin tez- tez yûrib kelib, u bilan quçâqlaşib korişdi. Hali ozini onglab âlmagan Qunduzhân bu hâtinning bağrida kopdan unutilgan oz ânasining isini tuydi.

Bir éslab koring! Ânalarda qandaydir bir is boladi. Bâlalik yillarimizda âna bağrida érkalanib yâtarkanmiz, dimâğimizga ornaşib qâlgan oşa âna isini katta bolganimizda ham unutâlmaymiz.

— Dadangiz zarur bir iş bilan idârada band bolib qâldilar. Ozim çiqdim. Qunduzhân bir soz demadi. Bu hâtin kim, nima uçun u Qunduzhânni kutgani çiqdi. Bu toğrida oylab ham kormadi. Âna isidan mast bolgan qiz itâat bilan uning ketidan şahar maydânçasiga çiqdi. Havâ âçiq, kuz âftâbi tilla rang yâprâqlar ustida çaqnar, tiniq âsmânda kumuşdek yâltirab kaptarlar uçardi. Maşina asfalbt yoldan tekis suzib, kuz şamâli tokkan barglarni ikki tâmânga uçirib

bârardi. Maşina âynasidan baland, huşqâmat imâratlar lip-lip otib turibdi. Koçalar gavjum, tuğilib osgan, godaklik yillarining éng beâzâr kunlari otgan «Şarq» kinâteatri âldidan otarkan, Qunduzhânning koz âldida yâna oşa munis-mehribân ânaning yâqimli siymâsi gavdalandi.

Maşina kurant roparasidagi uç qavatli binâ âldida tohtadi. Hâtin çamadânni qoliga âlib erga tuşdi-da, Qunduzga yol berdi. Katta darvâza âldidagi sahnda ortâqlari bilan oynab Yûrgan ikki yâşlardagi qizça yûgurib kelib hâtinga taşlandi.

— Taniyâpsizmi?— Hâtin Qunduzga ogirildi,— singlingiz Lâlahân.

Qunduzhân qizning koziga qaradi-yü, unda oz ânasining kozini kordi. Yûragi urib ketdi. Qizçani kotarib bağriga bâsdi. Lâla yâtsirab ozini çetga târtidi va hâtinga qarab talpindi.

— Vây, âpanglar-ku, Mâskvadagi âpanglar-ku,— dedi hâtin Lâlani bağriga bâsib. Lâla kozlarini katta-katta âçib Qunduzga qaradi.

— Menga nima olib keldingiz?

— Sengami, ança narsa âlib keldim.

— Uhlaydigan qoğirçâq ham âlib keldingizmi? Qunduz javâb orniga uning yûzidan opdi. Uyga kirişdi. Hâtin içkari hânaga kirib yol-yol halat kiyib çiqdi-da, stâl ustiga yâyibqoyilgan dasturhânni âçib yübârdi.

— Qunduzhân, avval bir duşga tuşib âlasizmi-a?

— Mayli,— Qunduzhân goyâ sehrlangandek javâb berdi.

Vaqt juda tez otardi. U duşdan çiqib artinayâtında ham «bu hâtin kim, nega munça mehribonçilik qiladi?» degan savâl miyâsidan nari ketmasdi. Hâtin kirdi, qolidagi hitây şâhisidan tikilgan halatni uning elkasiga taşlar ékan, qoşib qoydi:

— Razmeringizni bilmadim. Kengrâq bolsa tuzatib berarman.

Şu payt Lâlahân hali engi ornatilmagan koylakni étagidan sudrab kirdi.

— Âpa-çi, âpa, ayâm menga koylak tikib berdilar. Judayâm koylagim kop. Qizil koylagimni korsataymi?

Hâtin yûgurib kelib uning qolidan koylakni oldi.

— Vây, qizim tuşmagur-é, hali bitgani yoq-ku. Qunduzhân turgan erida qâtib qâldi.

Singlisining «ayâm», bu hâtinning «qizim» deyişi uning qulâğiga oqdek qadaldi. Demak, demak, u... Qunduz yûzini panjalari bilan berkitib, içkari uyga yûgurdi, ozini karavotga taşlab,

yiğlab yübordi. Uning kozi âldida yâna âna gavdalandi. U qiziga hâmuş termilar, nimadir demâqçi bolgandek lablarini juftlab turardi. Qunduz koz yâşlaridan hol bolib ketgan Yâstiqni surib qoyib, ong yânbâşiga ağdarilgan édi, devârda, zarhal ramkadan kulib qarab turgan yânasining suratiga kozi tuşdi.

Éşikdan morallab turgan Lâla Hayrânlikda kâzini pirpiratib, ârçasiga qaytdi.

— Ayâ-çi, ayâ, âpam yiğlayäptilar.

Hâtin hâmuş otirib qâldi. Élektir çâynagining jomragidan parillab buğ kotarilar, tolqini adaşgan radiâpriyâmnik muttasil hirillar édi.

— Siz ham yiğlayäpsizmi?— Lâla hâtinning elkasiga âsildi. Hâtin qizçani tizzasiga otqazib, uning bâşini siladi.

— Bâşingiz âğriyâptimi?

— Hd, qizim, bâşim âğriyâpti.

Hâtin maşaaqqat bilan ornidan turdi-da, asta-sekin yürüb Qunduzhân otirgan uyga kirdi. Qunduzhân hamân ânasining suratiga termilib, hâmuş otirardi. Hâtin ham suratga qaradi. «Qani édi, oz bâlalaringga ozing bâş bolsayding, bahtini korsayding. Men sening bahtingga şerik bolmâqçi émasdim... Sening yoqligingni bildirmasam, bâlalaring ayâzda sâvqâtmasa, kiri yüvuqsiz, qâzâni âsiqsiz qâlmasa, deyman. Ularni ozing niyät qilgandek tarbiyâ qilsam, deyman. Bayramlarda, toyü tamâşalarda oksinmasa, etimligi bilinmasa, deyman...»

Hâtin româlining uçi bilan koz yaşlarini artib âldi-da, qolini Qunduzhânning elkasiga qoydi.

— Hammasiga tuşunaman. Âğir, juda âğir. Birâq menga ham... Ozganing farzandiga âna bolışdek âğir iş yoqligini bilaman.

Hâtin yüragini tolqinlatib turgan fikrlarni aytış uçun soz tâpâlmadi. Horsindi. Darhaqiqat, âna oz bâlasini şohlik qilganda urişadi, vaqti kelganda jazâ beradi. Ammâ ozganing bâlasiga şundâq qilib boladimi. Ularga ânalik qâbiliyätining éng nâzik vâsitalari bilan yândaşmâq kerak.

Ogay ânalar haqida él âğziga tuşgan turli-tuman latifalar, çidab bolmas tabnalar tuşunçamizga elim-dek yâpişib qâlgan. Bu munâsabatlar hamân ular hizmatini kamsitib keladi.

Qunduzhân keçki âvqat vaqtida ham hâmuş otirdi. Eçinib orniga yâtarkan, tâmâğini boğib kelayâtgan alam va iztirâbni qaytarmâqçi bolib harçand urinsa ham bolmadi. Begâna hâtinni âna deb ataşga tili bârmas, bunga uni mutlaqâ huquqsiz deb bilardi.

Qoşni hânada çirâq oçdi. Devârdagi sâat on bir marta zang urdi. Hâtin hamân uhlâlmay, uy içida kuymalanib yürardi. Lolaning ijirğanib yiğlagan âvâzi eşitildi. Yâna çirâq yândi.

— Vây, qizim, isitmang bâr-ku.— Bu hâtinning âvâzi édi.

Qunduz şâşib, yâstikdan bâş kotarib, qulâq sâldi. Şkaf eşikçasi ğiyqillab açildi. Ayâq tâvuşi. Lâla hamân ingrardi.

Qunduz qiyâ açıq eşikdan qoşni hânaga qaradi. Hâtin Lâlaning qoltiğiga qoygan termâmetrni âlib çirâqqa sâlib qaradi-da, uni bir silkib stâl ustiga qoydi. Lâlaning karavâtçasiga éngaşib, uning koz milklarini yirib kordi va uni kotarib, uyning u bâşidan bu bâşiga yûra bâşladi.

Qunduz orniga kelib yâtdi. Ozganing farzandida oziga nisbatan farzandlik hissini qozğatâlgan hâtinga yûragining allaqaerida muhabbat uçquni yilt étib ketganini sezmay qâldi. Kozini uyqu bâsdi.

Dadasi işdan keç qaytdi. U iş kiyimini eçib, bâlalarini uyğâtib yübârmalik uçun âyâq uçida yûrib Lâlaning karavâti tepasiga kelib éngaşdi.

— Qunduzhân keldi.

— A?!— U hâtinining koziga qaradi.

Uning bu qaraşida uç mabnâ bâr édi. Biri, kopdan sāgingan qizini korişga şaşiliş, ikkinçisi, sevgan ânasidan ajralgan qizning iztirâbi hâlatini korişga yûragi dov bermaslik, uçinçisi ogay ânaga bolgan munâsabatda birân kongilsizlik bolmaganmikin degan şubha édi.

— Uhlayäpti,— dedi hâtin u ôtâq eşigini açayâtganida,— bezâvta qilmay qoyâ qâling, çarçab kelgan, uhlasin. U âvâz çiqarmay bir yotalib âldi-da, içkari kirdi. Stâl ustidagi kok abajurli çirâkdan Qunduzhânning yûziga havâyi bir nur tuşib turardi. «Ânasining ozi, kozi ham, yûz tuzilişlari ham huddi ânasi...» deyâ dilidan otkazdi âta. Ér-hotin allavaqtgaça uhlayâlmadi. Ér tez-tez papirâs çekar, hâtin ésa Lâlaning tepasidan nari ketmasdi.

Qunduzhân uyğânganda, dadasi katta tâşâyna âldida yûziga sâvun kopigini surib, sâqâl âlayâtgan édi. U apil-tapil kiyinib dadasining âldiga çiqdi. Âta âynadan qizining aksini korişi bilan qolidagi buyümlarini taşlab, uni bağriga basdi.

Qunduz, goyâ şu ikki yil içida heç qanday vâqea bolmagandek, ozini quvnâq tutdi.

— Qizim, dadangdan hafa émasmisan?

— Nega hafa bolay, juda toğri qilgansiz...

Ular stol atrâfiga otirişdi. Dasturhânda hânaki peçenbelar, atirgul nussha târt va turli hil mevalar bâr édi.

— Ayäng sening kelişinga uç kundan beri tayyârlanadi.

Ayäng sozi Qunduzhânning qulâğiga ğalatirâq éşitildi. Lekin âta âldida ozini tutdi. Sezdimadi.

— İşga ketadigan vaqtim bolib qâldi, ayäng Lâlani dâktârga âlib ketgan édi, sen bir âz dam âl, hâzir kelib qâlar. Âta tez-tez kiyinib, uydan çiqdi. Qunduzhân yâlgiz qâdi. U bir âz hayâl surib turgaç, içkari uyga kirib, garderâbni açdi. Kiçik ilgakçalarda Lâlaning tekis dazmâllangan koylaklari, kiçik uyga kirdi, unda Lâlaning oyinçâqlari. Hânalarning hammasi

âzâda, deraza pardalari âppâq, uy anjomlari yiltirardi. Hamma yâqda didli, mehribân hâtinning qoli sezilib turardi.

Qunduzhân yoqâtgan ânasini yâna tâpgandek boldi, bu hâtinda oz ânasini— uning mehru muhabbatini kordi.

Narigi uydan Lâlaning âvâzi éshitildi. Qunduzhân yûgurib çiqdi. Hâtin qolidagi buyümlarni stolga qoyâtgan édi.

— Dadangiz ketib qâldilarmi?

— Hâzir ketdilar. Lâla tuzukmi, ayâjon?

Hâtin turgan erida dâng qâtib qâldi. Qunduz uni ayâjân deb atadi, u yâ yângliş éshidimi?! U hursandligidan éntikdi. Bu soz uning yûragiga iliqqina bârib tegdi. Âna kongli tâgdek kotarildi. U bahtdan éntika-éntika Qunduzhânning bâşini silar, érkalardi. Qunduz uning âguşida âna isidan mast bolib kozlarini yûmdi.

1955 yil.

MUHABBATNING TUĞILIŞI

Keça juda âydin édi. Azamat teraklarning yâprâqlari kumuş astarlarini âyga tutib, ârâm uyqusiga ketişgan. Faqat ariqlardagi tinmagur suvlargina qonğirâq çalib sapçişadi, qirğâqlardagi giyâhlarning barglarini târtqilab, ularni uzâqlarga âlib ketmâqçi bolışadi.

Uyâlarida mudragan quşlar ésa uyqusirab patirlab qoyişadi. Şu ârâm va farâgatga tola saratân tunida bâğ koçadan bir qiz bilan bir yigit keladi.

Ularning sâyâleri âldinga çozilgan, huddi şu sâyâni bâsib âlmâqçi boladilar-u, etâlmaydilar. Babzan ularning bu uzun sâyâleri daraht sâyâlariga qoşilib ketadi-da, yâna paydâ boladi. Ular anhâr koprigi ustida tohtaşdi. İkkâvining sâyâsi koprik ustiga kondalang tuşib yâtib oldi.

— Qaçân ketasan?— bu qizning âvâzi édi.

— Hâzir ketaman!— dedi yigit bir qadam ârqaga tisarilib. Uning sâyâsi koprikdan âşib, suv betiga tuşdi. Âyning suv jimiridagi çaqini oçdi.

— Yoq, Mirzaçolga qaçân ketasan, deyâpman.

— Birân haftadan keyin ketsam kerak,— dedi yigit beparvâlik bilan. Éndi u yâna âldinga çozildi. Suv jilvasida yâna âyning kumuş tangasi çaqnadi.— Ozi uying qayâqda? Etay deb qâldikmi.

Qiz ârçasini ogirib âldi.

— On yil birga oqib, haligaça uyimni kormagansan-a, qoy-é.— Uning âvâzida qandaydir opkami, tabnami, nimadir bâr édi.

Ular bir neça minut sozsiz turib qâlišdi. Qiz koprik panjarasiga bağrini berib, suv âqib ketayâtgan tãmânga qarab turardi. Suv şalâplab sâhilga uriladi, ârqaga qaytmâqçi boladi, ammâ aqim kuçi uni quyiga, tunning sirru sehriga tolğan qoyniga âlib ketadi.

— Sâvqâtdim,— dedi qiz titragan tavuş bilan.

— Uyingga keta qâl bolmasa,— dedi yigit unga, rahmi kelib.

Qiz keskin burilib yigitga qaradi. Qaradi-yü, uning koziga tikilib indamay qâldi. U vujudida, qalbida nimalar bolayâtganini bilmasdi. Uning gâh yiğlagisi, gâh kulgisi, gâh butun keçani âstin-ustin qilib qoşiq aytgisi kelardi.

— Ketaman, hayr,— dedi yigit unga qolini uzatib, uning ham qoli titrardi. Yigit bir neça qadam nari ketdi. Tohtadi. Ârqasiga âgirildi, nimadir demâqçi boldi. Deyâlmadi. U ham şaraqılab âqayâtgan anhârga karadi. Şamâl ésvdi. Terak barglari şitirladi. Allaqayda buzâq uyqusirab mabradi. Kimdir, juda âlisda qoşiq aytdi. Yâna tindi. Yigit qaytib keldi-da, qizning bilagidan uşlab qattiq siqdi. Uning sâçlarini qollariga orab éntikdi. Keyin tez burilib, uzun sâyâsini ârqasiga érgaştirib keça qoyniga kirib yoq boldi. Qiz u bilan hayrlaşganini, bilagini uşlaganini, sâçlarini qollariga oraganini sezmedi. Faqat âlisdan tâş yolda kondalang tuşib, bir korinib yoq bolğan sâyâsinigina éslab qâldi, hâlâs. Qiz ham oz sâyâsini âldinga taşlab, tâş yâttqizilgan koçada asta-sekin yürüb ketdi.

Bu qiz huddi şu bugun oninçini bitirib, balâğat guvâhnâmasini âldi. Maktab hâvlisida hali ham çirâqlar yâni turibdi. Hayrlaşuv ziyâfatiga kelğan hamsinflar hali tarqalışgança yoq. Hâvlini toldirib tantsea tuşışyâpti, qoşiq aytişyâpti. Tâng âtişi bilan ular har tãmânga tarqab ketişadi. Ulardan faqat birga âldirilğan suratgina yâdgâr qâladi, hâlâs! Şundaymikini? Dostlik-çi, on yillik hâtiralar-çi, birga keçirğan aççiq-çuçuq kunlar-çi, har kuni bir neça bâr darsga çağirğan qonğırâq tâvuşi-çi, âta-ânadek mehribân oqıtuvçılar-çi... Hammasi éng şirin hâtira bolib yâdda qâladi. Mana şu aziz nurga, âhangga tolğan beğubâr hâtiralar ârasidan boy çozib, qad kotarib, hammadan âldinda, hammadan baland bâlib Âmânniing qiyâfasi korinadi. Nega?

Bu savâlgâ qiz javâb tâpâlmâsdi. Javâb ham izlab kormâsdi. Şu âydin keçada hamma narsa uning hâtiridan kotarildi-yü, birgina Âmânniing yüzi, kozi, gavdasi, butun bârliği bilan paydâ bâldi.

U tâş yoldan bitta-bitta bâsib şu yigit haqida oylab bârardi. Âmân sinfdâşlar içida éng şoh, éng urişqâq bâla édi. U qizlar bilan çiqişâlmas, ularga kun bermâs édi. Yâniga birân kiz otirib qâlsa zarda bilan bâşqa partaga otib ketardi. Pardâz qilğan qizlarni juda yâmân korardi. Bir kun Sanâbar degan kiz yüziga upa surib kelğanda uning qolini qayirib, dastromâli bilan

yüzidagi upani artib taşlagan édi. Qizlar ham uni huşlamas, ming hil laqab qoyib çakirişardi. İmtihanning dastlabki kunlari édi. Âmân sinfda heç kim yoqligini bilib eşikni ziçlab berkitdi-da, ğayri tabiiy bir tãvuş bilan dedi:

— Aziza, oninçini bitirganimizdan keyin menga tegasanmi?

Şunda Aziza jahl ustida uning yüziga bir şapalâq urdi-da, yiğlab çiqib ketdi. Bu sirni ularning ikkãvidan bolak heç kim bilmay qãldi. Âmân şundan keyin qizga robaro kelişdan qorqib, ozini çetga âlib yürdi.

Kunlar otişi bilan Aziza oşa vâqeani tez-tez éslaydigan va har vaqt éslaganda yüragingning allaqaeri jiz étib ketadigan bolib qãldi. Har gal maktab hãvlisiga kirişi bilan kimnidir, nimanidir jãnsarak bolib kidirardi. Uning şoh, quvnâq kulgilari kamrâq éşitiladigan bolib qãldi. Hamişa çaqnab turadigan kozlarida bilib bolmaydigan içki bir dardining ifãdasi sezilib turardi. Âmân ham uni zimdan kuzatar, kozi-koziga tuşganda birdan tund bolib qãlardi.

İmtihãnlar tugab birãv işga, birãv oқиşga ketadigan boldi. Aziza qoyib bersa, ihtiyârini Âmãnning koliga tãpşirişga tayör édi. Bugungi hayrlaşuv keça-sida Âmân Mirzaçolga, MTSga ketişini aytdi. Hamma uning bu qarârini çapak çalib qarşi âlganda Aziza bir seskanib ketgan édi. Tantsa bãşlandi. Aziza Âmãnni çetga çaqirib, undan uyiga kuzatib qoyişni soradi. Âmân unga javãb beriş orniga:

— Bay-bay-bay. Munça atirga belanmasang. Rãsa gupillab kethyãpti-ku,— dedi.

Azizaning «Â tentak, hammasi sen uçun» deb yübãrişiga âz qãldi. «Kel, kuzatib koyã qal» deb yãlvãrdi unga.

Şãvqin tola maktab hãvlisini ârtda qãddirib, ular ikkãvlaşib bãğ kãça tãmãnga yol âlişdi. Ây nuri bãğu-rãğlarga âppãq nur sãçib turgan şu sãkin saratãn tunida ularning ikkãvi jimgina kelişarkan na unisidan, na bunisidan sadã çiqardi. Bu jimlikni Âmõn buzdi.

— Oşa bebmani gapimni ésingdan çiqaz, Aziza.— U şunday dedi-yü bu kamgap, lekin nihãyãtda ajib bir hisu hayãjãnga tolgan qiz âldida ozini korsatiş uçun azim teraknimi, anhãr boyidagi şãhlari tarvaqaylab ketgan tãlnimi ildizi bilan kotarib âsmãnga âtgisi keldi. Qiz ham uning bu hãlatini sezib turardi.

— Qanaqa bemabni gap, ésimda yoq,— dedi qiz oşa «bemabni» gapni yãna éşitgisi kelib. Âmân til çaynadi.

— Ha, sinfda ikkãvimiz yãlgiz qãlganda bir gap aytgan édim-ku.

— Ha,— dedi Aziza çozib.— Oşa gapni bãrdi-yü ésimdan çiqazmasam-çi? Âmân yürişdan tohtadi.

— Unaqa bolsa, bu yüzimga ham yãna ur, şunday qilsang yãhşi boladi, seni kuzatmay qaytib keta qãlaman.

Aziza nima deyişini bilmay gangib qâldi:

— U vaqtda yâş bâla édik.

— Nega yâş bâla bolarkanmiz. On beş kun boldi, hâlâs. Darrâv katta bolib qâlibmiz-da.

— Âmân şu gapni aytdi-yü, şaraqlab kulib yübârdi. Tâl butâğida mudragan musiça çoçib ketdi.

— Bolmasam-çi, mana,— dedi Aziza, şu bugun bundan yârim sâatça âldin qoliga tekkan etuklik attestatini baland kotardi, balâğat guvâhnâmasining zar yâzuvlari ây nurida yâltirab ketdi.— Mana, katta âdam bolib qâlganimizning guvâhi. Éndi meni yâlgiz taşlab uyingga ketib qâlmaysanmi?

— Yoq,— dedi Âmân uning bilagidan uşlab. Azizaning badani dirillab ketdi. Darrâv qolini târtib âldi.

— Oşanda yüzimga yâmân urgansan-a.

— Aytdim-ku, u paytda yâş bâla édik. Éndi katta âdamsiz.

— Éndi oşa gapni aytsam urmaysanmi?

— Gap bilan uraman,— dedi Aziza,— Yoq, urmayman, nahâtki seni ursam. Seni uradiganning qoli sinsin.

Âmân mast âdamga Ohşab kalâvlab qâldi. Ketma-ket uç marta qâqildi. Tâlning kallagiga bâşini urib âlib, doppisini tuşirib yübârdi. Âsmânga qarab barkaşdek ây balandlab ketganini éndi bildi. Horsindi, gapi gapiga qâvuşmay, qayâqdagi keraksiz gaplarni aljiy bâşladi. Uning bu hâlatini qiz kezib turardi...

Hâzir u tâş yoldan bitta-bitta bâsib yâlgiz kelarkan, Âmân haqida, ozi qaqida, yûragini ortayâtgan allanimalar haqida oylab bârardi.

Âna uni kuta-kuta çirâqni oçirmay, supa ortasida allaqaçân uhlab qâlgandi. Qiz gulzâr çetidagi oşa supaga otirdi. Éngaşib rayhânning bir şâhini sindirdi-da, dimâğiga âlib keldi. Rayhân isi uni çinakamiga mast qilgan édi. Uning negadir okirib-okirib yiğlagisi kelardi. Gullar ârasiga kirib, çalqança yâtib, qimirlamay âyga qarab tâ u bâtib ketgunça qarab yâtgisi, şu gullarning hammasini birma-bir yûziga surtgisi, âyning âq ipak tolasidek korinmas nurlariga çirmaşib, huv oşa yûlduz tola âsmânga çiqqisi, butun âlamga etgudek âvâz bilan qoşiq aytgisi kelardi.

Âna supa ortasida şirin uyquda yâtardi. É ğâfil âna, kâzingni âç, qizingning yûragiga qulâq sâl. Uning qalbiga muhabbat keldi.

1959 yil.

KOZLARİNGDA OT BÂR ÉDİ

Zinapâyäning başida âq halatli ayâl korinişi bilan Mutal şaşib ornidan turadi. Undan birân gap çiqmagandan keyin boşaşib yäna jâyiga otiradi. U şu tahlit uç saatdan beri otiribdi. Şahar allaqaçân uhlagan. Ammâ bu erda kirdi-çiqdi. Telefân dam otmay jingillaydi. «Tez yârdam» maşinasi tinimsiz kelib-ketib turadi. Rangi bozargan, kozlari besaranjâm ayâllarni nâsilkalarda yûqâriga âlib çiqib turişibdi. Kutib turganlarning kozida taşviş bâr. İçkaridan ham quvântiradigan, ham hayjânga sâladigan habarlar çiqadi. Mutal ham oz bahtini oşa jâydan kutib otiribdi.

Zinada keksagina hamşira hâtin korindi. Hamma baravar ornidan turdi. U otirganlar ârasidan kimnidir qidirardi. Âhiri, kozi Mutalga tuşişi bilan yüzida bir çirâyli tabassum paydâ boldi.

— Hâlva mubârak bolsin, inim. Hâtinining totidek qiz tuğdi. Mutalning yûragi qinidan çiqib ketayâzdi. U râst aytyâptimi? Ahir Mutal qirq âlti yillik umrining yigirma sakkiz yilini şunday qutluğ habar eşitiş ârzusida keçirdi.

Nihâyât, nihâyât niyâtiga etdi. Hamşira hâtin aldamayâtganmikin? Râstmikin? Tuşimmi, ongimmi? Yoğ-e...

Mutal ésankirab qâlgan édi. Atrâfida nimalar bolyâpti, kimlar bâr, ozi qaerda otiribdi, bilmasdi. Ozidan-ozı dâvdirab hâvlıga çiqib ketganini bilmay qâldi. U tuğruqhâna darvâzasiga etganidagina, şunday yâhşi habar âlib çiqqan hamşiraga rahmat aytmagani, suyünçi bermaganini bilib qâldi. Şaşib ârçasiga qaytdi. Hamşira yoq édi. Uning ismini bilmaganidan, hali kop kelaman-ku, konglidan çiqarib yübâraman, deb oziga taskin berib yolıga qaytdi. Koça jimjit. Har zamân asfalbt yolni yâritib maşınalar otib qâladı. Negadir ular Mutalning âldıga etay deb qâlganda signal berişadi. Ular huddi uni tabriklayâtganga ohşaşadi. Sânsiz çirâqlar jimirlab kozni qamaştiradi. Daraht şâhlari şabadada silkinib, erdagi sâyâlerini u yâqdan bu yâqqa âtib oynaşadi. Havâ tâza, musaffâ. Tramvay-trâlleybuslar yâtgan. Uy hali uzâq. Mutal koçaning qâq ortasida bârardi. Dunyâda hâzir undan bahtli âdam yoq. Aşula aytgisi, uçragan âdamga şu tâpda qiz korganini birpasda tapirib taşlagisi keladi. Huddi uning yânginasidan bir yük maşinasi vağillab otib ketdi. Narirâq bârib şart tohtadi-yü, şâfôr kabinadan baş çiqarib, jahl bilan sokindi. Mutal unga parvâ qilmadi. Ammâ birdan huşyâr târtib ketdi. Bâyâgi quvânçlari qayâqqadir ğâyib boldi, bir zumda yûragini muz bâsgandek sâvub qâldi.

— Men ham âdam boldimmi? Râstdan ham bahtlimanmi? Şumi baht?

Bu fikr yâşin tezligida kallasini parmalab kirib, mahkam otirib âldi.

Éndi Mutal behuş qadam taşlardi. Bâya eldek uçib ketayâtgan âdam, éndi şaşılmasdi. Qayâqqa şaşadi, yigirma beş yillik hamrâhi, dosti, éng aziz kişisi bu habarni éşitsa nima boladi? Bu habar uni qân yiğlatmaydimi? İlgarilari ham Mutal şu toğrida oylaganida, yûragi ârqaga târtib ketar, oyini âhiriga etkazişdan qorqardi. Bâla koriş ârzusida yigirma beş yil ârziqib yaşagan bolsa, bu yâğidagi niyâti royâbga çiqayâtgan uç yilida bu ézgu niyâti kopinça dahşatli oylar bilan aralaşib ketardi.

Mutalning hayâtidagi bu kattakân vâqea Ébtibârhânni qulâğiga etmay qâlmaydi. Undan keyin nima boladi? Ébtibârhânni hâli nima keçadi? Ana şunisi yâmân! Uning qiynalganini koriş, kozida yâş, çehrasida ğam koriş Mutalni iztirâbga sâladi. U, yigirma beş yil Ébtibârhânni avaylab keldi.

Ébtibârhân Mutalning avvalgi hâtini édi. Tuğmadi.

Mutalning nazarida dunyâda heç qanday ér-hâtin ulardek bir-birini sevâlmadi. Bu hurmat, bu muhabbat, bu mehr-âqibat..

Mutalning hali ésida, ularning toyi ming toqqiz yüz ottiz tortinçi yilning avgustida bolgan édi. Tâ şu kungaça bir-birlarini sen deyişga tillari bârmagan. Hamişa «siz»lab gapirişardi. Qoni-qoşnilar ularning uyidan birân marta qattiq âvâz éşitişmagan. Uylari bolsa, hamma vaqt yâraqlardi. Qelgan mehmânlar ularga havas qilib ketişardi-yü, uylariga etmay, şu beçâralarga hudâ bittagina farzand bermadi-da, deb qoyişardi.

Yillar otaverdi. Ular hamân bir-birlarining qâş-qâvâğiga qarab, kunlarni yillarga ulab yaşayverişdi. Mutal qaçândir bâla korişiga işânardi. Uning işânçi Ébtibârni qiynardi. Érining siqilayâtganini bilib turardi. Koçadan bâla ota kozi oynaşini, mehmânga bârişsa bâlalarining oyiniga qoşilib ketişini Ébtibâr sezmasmidi, sezardi.

Hâtinlar ziyrak bolışadi, uydagi kânfetlarni koçadagi bâlalarga taşib tamâm qilişini bilmaydi, deysizmi? Bilardi. Uruş başlandi. Ébtibâr tort yil yoliga koz tikib Mutalni kutdn. Keldi. Yâna oşa jim, âsuda hayât. Uruşdan avval qanaqa yaşaşgan bolsa, undan keyin ham ozgarişsiz bir hil umr başlandi. Mutal bâlasiz otişga râzi édi-ku, ammâ Ébtibârsiz yaşaşga râzi bolâlmadi. U Ébtibârga şunçalar organib qâlgan, ozini hattâ Ébtibârsiz tasavvur ham qilâlmadi. Ammâ Ébtibâr érining qolida bâla korişni şunday ârzu qilardiki, birgina bâla uçun, Mutalning birgina quvânçi uçun jânini ham berişdan qaytmasdi. Qolida bâla korib olsam, toyimiz bolgan yillardagi Mutalning kozlarida çaqnagan otni yâna bir korsam, bu dunyâdan bearâm ketardim, deb oylardi. Kunlar, yillar otaverardi. Ér-hâtin hamân samimiy, hamân bir-biriga âqibatli. Bir burda nân bir-birisiz tâmâğidan otmaydi, uy hamân âzâda, saranjâm, jimjit.

Şu hilda yigirma tort yil umr otib ketdi. Na bâlasizlik, na âdamlarning kişisi bilmas ilmâqli tabnalari ularning ârasiga sâvuqçilik sâlâlmadi. Mutal tanış-bilişlar bilan uçaşib

qālganda ādatdagiča, undan bāla-čaqalarning salāmatligini soraşardi. Mutal dāvdirab nima deyişini bilmay, tayinsizrāq bir gap aytib qutulib ketmāqçi bolardi-yü, amma ādatda şu gaplardan keyin keladigan: kattasi neçaga kirdi, degan sorāqdan keyin, qiynalib-qiynalib javāb berişga majbur bolardi,

— Bālamiz yoq. Şundāq...

Soragan ādamning hijālatligini aytmysizmi.

Mutal tanişlar bilan toqnaş kelişdan bezillab qālgandi.

Bu gaplarni Ébtibār sezmasdi, deysizmi, sezardi. Sezardi-yü, iç-içidan ézilib ketardi. Érining koziga qarālmay, hāmuş bolib qālardi.

Yāna bir yil otdi. Mutal qariy bāşladi. Ébtibārning nazarida, ilgarigi çaqnaş turgan kozlaridagi ot yoqolayātganga, ozi sal narsaga çarçab qālayātganga ohşayverdi. Bir kun Mutal işdan kelib hāvlida gulqayçi bilan ālma şāhlarini butab yürganda, Ébtibār ayvānda çuçvara tugib otirgan édi. Birdan, behāsdan kozi érining boyniga tuşib qāldi. İyāklarining tagi ğijimlanib qālgandek korindi. Ornidan turib, behās āldiga bārdi. Faqat iyāgida émas, koz çetlarida, peşānasida ham ajin. Birdan Ébtibārning yūragini vahm bāsib ketdi. Qaribdi, qaribdi. Sāçi ikki çakkasidan āqāra bāşlabdi, qaribdi, qaribdi... Hali āftāb oçmagan, gullar qiyğāç açilib turgan iyūlb kuni ularning yigirma beş yillik ahil umriga yākun yāsadi.

Ébtibārning niyāti buzildi. Ketiş kerak, şu qadrdān, dunōdagi yāhşi ādamlarning éng āhşisini taşlab ketiş kerak. Qandāq qilib?

Mana şunisi qiyin édi. Şunday ketiş kerakki, koz yāşi tokilmasin. Kelgan yiğini kulgi bilan, handon kulgi bilan engiş kerak.

Ébtibār bāşqa yol tāpalmadi. Mutalni bahtli qilişning birdan-bir yoli şu édi. Oşa keça Ébtibār mijja qāqmadi. Yāna bāşqa tadbirlar ham qidirib çiqdi. Éng songgi tadbir, Mutalning konglini ozidan sāvitiş, bezār qiliş boldi.

Oşanda dam āliş kuni édi. Keçgaça Ébtibār bolar-bolmasga bahāna tāpib, érini qiynayverdi. Qopāl gapirdi, jiğiga tegdi, kongil qāldiradigan sāvūq gaplardan ham tāymadi. Mutal āğirliq qilib uning konglini ālişga urindi. Ébtibār sāvimadi. Ahir, tāqati tāq bolgan Mutal qizişmay, yātiği bilan soradi:

— Sizga nima boldi, Ébtibār? Juda qiynavārdingiz-ku?!

— Ketaman!

Mutal gangib qāldi. Nima qilişini bilmay, hātiniyning koziga qarab, angraygança qāldi.

— Ketaman, yāşamayman siz bilan.

Ébtibâr şu gapni aytdi-yü, titrab ketdi, amma buni ériga sezdimadi. İç-içidan tâşib çiqqan horsinişni kuç bilan bâsib qaytardi. Angrayib qâlgan éring koziga qaramay, uyga kirib ketdi-da, birpasdan keyin çamadân, tugunça kotarib çiqdi.

— Ébtibâr, ketmang, meni taşlab ketmang, men nima qilaman...

Mutalning kozlari hiralaşib bir gendiraklab âldi. Darmânsizlanib ayvânning labiga otirib qâldi.

Ébtibâr yûgurib bârib qoltiğidan kotargisi, peşânasidan, oşa sâçi âqarib kelayâtgan çakkalaridan silagisi, yüzini-yüziga işqab âvutgisi keldi. Lekin, bunday qilmadi. OLzini tutdi. Yüragi yiğlardi-yü, çidardi. Bu— qahramânlik édi, katta qahramânlik édi. U ozini hamân dadil tutib, éring âldiga bârdi:

— Bilasanmi,— bu érini birinçi marta senlaşi édi,— senga hiyânat qildim. Buning uçun ozimni keçir âlmayman. Sen ham keçirmaysan. Hiyânat qilgan hâtin éring uyda turişga, u bilan birga yaşaşga haqsiz. Buning uçun, bilaman, meni keçirâlmaysan.

Ébtibâr bu bahânani beihtiyâr tâpdi. Bu— zor bahâna. Heç qanday ér hiyânat qilgan hâtinni keçirâlmaydi. Butun umrini bâlu pardek pâkiza otkazgan hâtin, hiyânat u yâqda tursin, begâna érkakni hayâliga keltirmagan hâtin ozini-ozu éng pastkaşlar qatâriga qoyib otiribdi. Nima uçun? Kim uçun? Buni Ébtibârning ozi bilardi.

Ébtibâr âstânaga etib qâldi. Ogirildi:

— Meni keçirâlmaysan, keçirâlmaysan. Kozingga qarab, şafqatingni kutib yaşaşga tâqatim yoq. Kuniga ming martalab ozimni qarğab yaşaşga tâqatim yoq. Seni harâm qilişga haqqim yoq. Ketay, ketay...

Ébtibârning tâvuşi boğilib, gapirâlmay qâldi şart burildi-yü, çiqdi-ketdi.

Mutal yâlgiz qâldi. Bir kun kutdi, ikki kun, bir ây, bir yil kutdi, hâtinidan darak bolmadi, Âradan bir yârim yil otib, Ébtibârdan hat keldi. Hatda u éndi sira qaytib kelmasligini, oşa yoldan «urgan» kişi bilan qâvuşmâqçi ékanini aytibdi. Mutal yiğladi. Horligi kelib, otkazgan yigirma beş yillik umriga açinib yiğladi. Mutal yâlgizlikda sola başladi. Ajinlari kopaydi, çakkasidagi âq tâlalar manglayiga ormalab qâldi. Kuyib-yânib adâ bolay dedi. Kopçilik: uylan, yâlgizlik yâmân, deb nasihat qilişdi. Mutal yâtib qâlay dedi. Âhiri, dostlari kiçkinagina toyça qilib ozi bilan birga işlaydigan bir qari qizga uylantirib qoyişdi. Hamân Ébtibârdan darak yoq. U bevařaning qaerdaligini heç kim bilmasdi.

Mutal tuğruqhânanadan kelarkan, mana şularni ésladi. Ésladi-yü, siqilib ketdi.

— Uning bâla korganini Ébtibâr éşitsa, nima qilarkin? Ozini-ozu bir nima qilib qoymasmikin? Yâ sevinarmikin? Sevinmaydi, u hiyânatçi!

Uning koziga gâh tuğruqhânada yâtgan çaqalâği, gâh uydan qahru ğazab bilan çiqib ketayâtgan Ébtibâr korinardi.

Áradan tort kun otdi. Mutalning hâtini bilan qizi hali tuğruqhânada. Ozi bolsa, tinmay uy yiğıştiradi, keldi-ketdi uçun tayyârgarlik koradi.

Birdan éşik taqillab qâldi. Pâçtaçi. Pâsilka âlib kelibdi. Kimdan? Kimdanligi nâmablum. Mutal şâşilmay yâşikni âçdi. Çaçalâqqa koylak, fartuk, qalpâqça... Kimdan bu?

Mutal yâşikning u Yâq-bu Yâğini titkilay bâşladi. Hat. Şâşib âldi, şâşib oqiy bâşladi: «Hurmatli Mutal aka! Meni keçiring. Éşitdim. Éşitib qay ahvâlga tuşganimni tuşuntirib berâlmayman. Mening bittagina niyâtim— qolingizda bâla koriş édi. Şu niyâtimga etdim. Otgan kuni koçada sizni korib qâldim. Kozlaringizda ot yâñib turibdi. Bundan yigirma yil avval kozlaringiz şunday édi. Korib, hayrân boldim. Bilsam, âta bolibsiz. Bu qanday baht, bu qanday baht! Sevinçdan yûragim yâriley dedi. Yâtib uhlâlmadim. Tâng âtgunça korgan kunlarimizni éslab çiqdim. Qandâq tâtuv yâşadik! Qandâq mehribân édik bir-birimizga! Sizni qançalik yâhşi korardim! Qandâq ayârdim, şamâlni ham ravâ kormasdim. Keçalari sizga baht, salâmatlik tilab çiqardim. Sizdek pâk âdamga munâsib hâtin boliş uçun qolimdan nima kelsa, vijdânim nimani buyürsa— hammasini qildim. Bilsangiz, uydan ketişim, ozimga-ozim tuhmat qilib, ozimni-ozim buzuq deb ataganim ham sizga baht tilaşim édi. Éndi âçiğini aytay, umrimda hiyânat yoliga kirmaganman. Agar ozimni buzuq demaganimda, siz meni uydan har qandâq qilib ham çiqazmasdingiz. Ketdim, yâhşi boldi, siz baht tâpdingiz, bâlalik boldingiz. Niyâtim ham şu édi.

Agar men ketmaganimda sizga bu baht qayâqda édi? Éndi konglim tinçidi. Niyâtimga etdim. Baht mubârak bolsin!

Yângi kelin paytlarimda yâhşi niyât qilib, bâla korsak kiydirarman deb koylakçalar, qalpâqçalar tikkan édim. Ézilasiz deb sizdan yâşirib tikkan édim. Menga âna boliş nasib bolmadi. Íltimâs, şularni çaçalâqqa kiydiring.

Şu paytgaça şaharda édim, Yâhşilik habarini éşitib, tamâman hâtirjam boldim. Értaga butunlay ketaman. Kim biladi, qayta uçaşâlamizmi, yoqmi? Uydan çiqib ketayâtganimda etkazgan âzârlarim uçun Sizga hamişa éhtirâm bilan:

Ébtibâr âtli hâtin»

Hatga Mutalning koz yâşlari tókildi.

1959 yil.

Qışlâq yoliga burilganimda adir ârқasidan qâvun tilimidek âppâq ây kotarildi. Gullab yâtgan oriklar hira pardaga burkandi. Yol çetidan yângi niş urgan sarimsâq hidi keldi. Kâvakni tark étgan koklam élçisi qurilladi. Tonkarilib qâlgan tilla qongiz juda yâqinda dizillab-dizillab jim boldi.

Koklam nafasi gurkirab turgan mana şu yollardan yûrmaganimga on sakkiz yil bolgan. Bu ârada qançа suvlar âqib ketdi... Qançа vâqealar bolib otdi...

Yigitlar frântda jân âlib, jân berayâtgan âğir kunlar édi. Dala işlari ayâllarga qâlib ketgan, hammasi tajang, hammasi asabiy édi. Ularning intizâr kozlari front yolida, qollari mehnatda, frântçilarni zâriqtirmaslik, duşmanni tezrâq yâksân qiliş uçun tinimsiz işlar édilar. Stalingrad âstânalaridagi janglarda duşmanning uçta tankini yândirgan qahramân Osarbây Âmânbaev âilasi haqida açerk yâziş uçun huddi şu yoldan yûrib qışlâqqa kelgan édim.

Qışlâq ança fayzsiz bolib qâlgan, yollar oydim-çuqur, iş hayvânlarining tinkasi qurigan, emga yâlçimagan sigirlar sutdan qâlgan édi. Ayâllar durustgina kiyinişmas, pardâz-andâz kongillariga siğmasdi. Kimning qanaqaligi bilinib qâlgan oşa paytlarda uruşga çap berib bârmay qâlgan érkak zâti kozlariga balâ bolib korinardi.

Osarbâyning hâtini Jorahân éri frântga ketgan ayâllardan brigada tuzib, yûqâri hâsil âlişda butun âblastga âvâza bolgan yigirma beş yâşlardagi qâra qâş, loppi yüz, kokrakdor, pâlvân ayâl édi. Osarbây qahramân unvâni âlgan kunning értasigayâq kelganimda bir vâqeaning ustidan çiqqan édim. Jorahânning brigadasi işlayâtgan katta yol çetidagi terakka qizil étik kiygan hâtinçaliş bir yigit belidan hali kudungi buzilmagan sakkiztepki atlas bilan bâğlab qoyilgan édi. Uning atrâfini orab âlgan hâtinlar gâh hiring-hiring kulişar, gâh uni qarğaşardi. Birâv yigitning yüziga upa suradi, birâv qâşiga osma qoyâdi.

Jorahân ikki qolini beliga qoyib unga doq urardi.

— Şunaqami? Uruğlikka qâlganmisiz? Bu hâtinlarning érlari frântda oq tagida yûribdi-yâ, şularga koz âlaytirdingmi? Ha, nâpard! Hây, Zebi, labiga qizil surt! İşdan qaytişda şu ahvâlda guzarga âlib çiqamiz. Halâyiq korsin. Başarasiga tupursin. Qani, iş-işingga jona hammang!

Hâtinlar yigitni şu ahvâlda qâldirib, çâpiqqa tuşib ketişi.

Şiypânga çiqayâtganimizda Jorahândan bu yigitning gunâhini suriştirdim.

— Zebiga aylanişib qâpti. Şunday suqsurday éri bârki, korganning kozi tegadi.

Tirnâğiga arzimaydi bu hebbim. Tuşlikda Nârin boyiga kel, sakkiztepki atlas sâvğa qilaman debdi. Uşlab âldik.

Jorahân bu gaplarni şunday ğazab bilan aytardiki, kozlari çaqnab, peşanalari, tirişib ketardi.

— Oziniyâm şundâĝ doppâsladikki, qoyib bersam hâtinlar oldirib qoyişadigan, zorĝa ajratib âldim. Éri âmân-ésân qaytib kelgunça birântasining ham şabniga yâmân gap yüqtirmayman. İssiqmi, sâvuqmi hammamiz birga baham koramiz, qaysi birining éridan hat-habar uzâqsa, baravariga yüpatamiz. Birga yiĝlaymiz, birga kulamiz. Şuning uçun ham işning âĝirligi unça bilinmay ketadi. Ahir bu beçâralarga ham qiyin, avji oynab-kuladigan payti...

Tâ kâlhâz mehmânhanasiga etib bârgunimça mana şu vâqea ésimga tuşdi. Hâzir Jorahân ança qarib qâlgandır? Osarbây uruşdan ésân-âmân qaytib keldimikin?

Mehmânhana qârâvuli hali suv quyilmagan hâvuz âldida samâvarga taraşa sâlayâtgan édi.

U yâşi etmişlarga bârib qâlgan dilkaş çâl ékan, alla-pallagaça u yâq-bu yâqdan gaplaşib otirdik. Gap ârasida Osarbâyni suriştirdim.

— Âmân-ésân keldi. Hâzir partkâmimiz şu. Juda rejali, yâhşi bâla. Beçâra iş bilan âvunadi. Bolmasa allaqaçân ĝam eb qoyâr édi uni. Şu vaqtgaça uylanmadi. Qandâq qilib ham uylanadi...

Çâlning gaplariga tuşunâlmadim. U nima degani? Yâ Jorahân uning kelişini kutmay, turmuş qilib ketganmi, şundâq yigitning yüziga âyâq tirab-a?! Nahâki butun kâlhâz ayâllarini koz qâraçiĝidek asragan dâna hâtin unga bevafâlik qilgan bolsa? İşânmayman!

— Nima boldi? Jorahân...

Nima deyişimni bilmay ĝoldiradim. Çâl bâşini sarak-sarak qilib uh târtidi:

— Bâyaqış Jorahân Osarbây kelmasdan âlti ây burun qazâ qilgan édi... İkkâvimiz ança vaqtgaça jimib qâldik. Gullab yâtgan şaftâli şâhiga âsilgan élekr lampasiga ozini urayâtgan yârqanâtlar dasturhân ustiga tokiladi. Hâvuz çetidan aylanib otgan tsement ariqda tolib âqayâtgan botana suv qirĝâqqa şalâplab uriladi. Çâl çâynakni étagiga orab, baĝriga bâsganiça hamân jim édi. Konglim allaneçuk bolib ketdi. Jorahân haqida undan bâşqa gap soramadim. Soraşga jurbat qilâlmadim ham.

— Şunaqa, oĝlim. Jorahân tenggi yoq asl hâtin édi. Hâtin kişining qolidan şunça iş kelişiga ana oşanda işânganmiz. Jamâ bamisâli bir hânadân-u, Jorahân uning ânahâni boldi-qoydi. Qani, birân kişi uning yoriĝidan çiqsa-çi. Kuni bilan dala kezadi, keçalari uyma-uy yürüb, abzâlarning tirikçiligidan habar âladi. Yâhşi gap bilan ilân inidan çiqadi, deganlari râst ékan. Takasaltanglik qiladiganlarga ham qattiq gapirmadi. Ozi oşa paytda hamma ham bir âĝiz yâhşi gapning gadâsi édi-da. Birini qizim dedi, birini singlim dedi. İşqilib, hammani şirin soz bilan işga sâldi. Osarbâydan surunkasiga etti ây hat kelmay qoydi. Jorahânning yüzi

kuladi-yü, içi yiğlaydi. Umri qisqa ékan, hatini ham, ozini ham kormay olib ketdi, báyâqış. Ádamzâdni iş ávutadi, bolmasa ğam eb qoyâdi. Osarbâyga qarab turib içim açışadi.

Uruşni qarğayman. Nima qilsin, ilâji qança!

Çâl gapini tugatib, içkari kirib ketdi. Sorida gilam ustiga tanga-tanga bolib tokilgan şaftâli gullariga qarab hayâl suraman. Meni bu erga âşlab kelgan narsa Jorahân haqida kitâb yâziş niyâti édi. Uruş yillari frântga madadkâr bolgan ayâllar haqida kitâb yâzmâqçi bolganimda, dastavval hâtiramga Jorahân kelgan édi. Bu asl hâtin haqida birânta kitâb yâzilmay turibâq, uning ajâyib hayâti dâstânga aylanib ketganini kordim. Uning jânli, heç qaçân olmaydigan barhayât umri koz âldimdan hayäjânli râman sahifalaridek birma-bir otardi.

— Mehmân, éndi yâting, çarçab kelgansiz, horâz ham ikkini çaqirdi. Bari bir yâtib uhlâyâlmadim. Áçiq derazadan âyning yârim orâġi moralab, terakzâr ârçasiga bätib ketdi. Keç şabadasi uy içiga dimâqqa huş keladigan allaqanday giyâhlarning isini âlib keladi. Şaftâlizârda sabvaning ġâh fiġânli nâlisi, ġâh şiddatkor çaqçaqi tinmaydi. Juda uzâkda, sâkin keçaning tinçini buzib daryâ şâvillaydi.

Értalab qârâvul çâl uyġâtganda kun yâyilib qâlgan édi. Uzâq-yâqindan traktâr şâvqini éşitiladi. Quşlarning çuġur-çuġuri avjda. Çâl dasturhân qâqqan jâyda musiçalar uşâq talaşib patillaşadi. Tiniq âsmânda bu qaynâq, farâġatli maskanni qoriqlayâtgandek laylak aylanadi. Uning âppâq qanâtlari quyâş tiġida dam qiliçdek yâltirab, dam âq ipakdek tâvlanadi.

— Hâzir Usarbây kelib qâladi. Értalab şu erda nânuşta qilib, keyin dala aylanadi,— dedi çâl elib-yügurib çây damlarkan.

Sal fursat otmay ikki kişi keldi. Ulardan qaysi biri Osarbây ékanini darrâv payqab âldim.

U hali yâşi éllikka bârmay yüzini ajin bâsgan, jikkakkina bir kişi édi. Ong qolining bâş barmâġi sarġayganidan mahârka çekişini bilib âliş qiyin émasdi. Nânuşta paytida Jorahân haqida kitâb yâzmâqçiligimni aytdim. Jorahân nâmini tilga âlişim bilanâq Osarbây yângilangan dardini yâşirişga urinib, çâlning qolidan çâynakni âlib, özi quyâ bâşladi. Kozini yâşiriş, nima bilandir alahsiş uçun şunday qilayâtgani sezilib turardi.

— Mayli,— dedi u âftâbda jojalarini qanâti âstiga âlib, hurpayib âtgan tâvuqqa tikilib,— juda hursand bolamiz.

— Avval Jorahân âpaning qabrlarini bir ziyârat qilsam degan édim...

Osarbây ġalati hâlga tuşdi. Uning bu hâlâti, koz qaraşlari, rangining ġâh bozarib, ġâh âqarişi Tâşkentda bolgan bir vâqeani éslatib qoydi. Tramvayda beş yâşlardagi bir bâla yânimga otirib qâlib, undan qayâqqa ketyâpsan, deb soraganimda, uydand detdânga ketyâpman, degan édi. Áta-ânang yoqmi, deb soradim. Bâr, deb javâb berdi bâla. Bolmasa,

dadang ham, anang ham seni yamân korişar ékan-da, detdânga berişibdi, dedim. Oşanda bālaning kozi ālazarak bolib qālgan, huddi Osarbāyning hāliga tuşib, qiynalgan édi. Keyin u qiynala-qiynala past āvāz bilan «dadamlarning ham, āyimlarning ham kozlari kor» degan édi. Juda hijālat çekkan édim, şu murğak bāla qalbini tirnab yātgan alamli faryādini tiliga çiqarişga majbur qilganim uçun hali-hali ozimni keçirālmasdim. Yāna nima qilib qoydim? Nahātki Osarbāyning ham içida şunga ohşaş tilga çiqsa, tilni, dilda qālsa dilni kuydiradigan faryādi bolsa?! Nima qilib qoydim?..

Ortaga juda ham sāvuc jimlik çokdi. Çāl bir yütinib āldi. Osarbāy ornidan turib, hāvuz boyiga bārib mahārka oradi. Çālning yüpqa labi titrab, zorğa: «Jorahānning qabri yoq. U suvga çokib ketgan...» deyā āldi.

Tuşga yāqin çāy bilan ikkāvlan piyāda daryā tāmān ketdik. Yolda u Jorahānning halākatini aytib bārdi.

— Oşanda adirdan sel kelgan édi. Çārvalar hali tāqqa jonatilmagan, şu daryā çetidagi sayhānda otlab yūrgan édi. Sel juda hunuk keldi. Kop darahetni, uylarni nābud qildi. Qoy-qozilarni āqizib keta bāşladi. Suvda māl bilan éçki durust suzar ékan. Qoy jānivār dumbasidan çokib, ozini éplālmay qālarkan. Hamma āyāqqa turdi. Jorahān jān ālib, jān berib ozini suvga ātar, hali qoy, hali qozini āyāğidan sudrab çigardi. Keçasi, birāv-birāvni kormaydi. Yāmğir savalab turibdi. Birdan çopān āta suvning ortasida gāh korinib, gāh çokib, qol silkita bāşladi. Jorahān oşa tāmānga suzib ketdi. Çaqmāq nurida daryā ortasida uning koylagini bir korib qālganimni bilaman, hālās. Yāna çaqmāq çaqqanda daryā betida heç narsa korinmay qāldi. Tolqin çopon ātani narigi qirğāqqa irğitib taşlabdi. Bir haftagaça qayiq bilan Jorahānning jasadini qidirdik. Tāpilmadi... Hammamizni dāği-hasratda qāldirib ketdi.

Adir āşişimiz bilanāq daryā şamāli ésdı. Qirğāqqa yāqin kelganimizda harsang ustida mahārka çekib otirgan Osarbāyni kordim. Uning gavdasi kiçrayib, yüzidagi ajinlari kopayib ketganga ohşadi.

Heç birimizdan sadā çiqmasdi.

Daryā juda sākin. Jorahān azim daryāğa aylangan-u, mehnati singgan, peşāna teri tokilgan dalalar atrāfida javlān urib aylanardi. U yüzlab irmāqlardan qān tāmiridek āqib, kişilarga, maysa-giyāhlarga hayāt suvi ālib kelardi.

Adirdan terib kelgan lālalarni tolqinlar ustiga sāçdim.

Daryā şāvullar, tiniq, beğubār kokda quşlar javlān urib uçışardi.

1960 yil.

Kupe éşigini açişim bilan ağziga sorğıç kiygizilgan sut tola şişani kaftlari árasiga álib isitib otirgan hâtinni kordimu nima qilişimni bilmay, turib qáldim.

Hâtin ham avval ésankirab, keyin mayingina kulib qoydi. Uning bu hil, har qanday érkak qânini kopirtiradigan şaytân kulğıçini ilgari ham bir korgan édim. Tanimdan sán-sanâqsiz çumâli ormalagandek, ğalati seskaniş bilan çamadânçamni orindiqqa qoydimu yâna hâtinga qaradim. Uning tizzasida yorgaklangan bâla. Pâezd ğildiragining tâvuşiga qulâq sâlib, nimalarnidir oylayâtganga ohşardi. U menga qaramay qolidagi sut tola şişaçani stâlçaga qoydi-da, bâlani tizzasidan álib, yâniga avaylab yâtzizdi. Hamma yâqni yâlpiz hidi tutib ketdi.

U yâq-bu yâqqa qaradim. Darhaqiqat, stâlçada bir dasta çol yâlpizi yârtardi. Nima qilişimni, nima deyişimni bilmayman. Hâtin ham betimga qarayâlmaydi. Nazarimda, bu hâtinning butun vujudi sirga, kozlari sehriga tola édi.

...Men u bilan burnâĝi yili saratân kunlarining birida avtâbusda uçraşgan édim. Buvaydadan avtâbusga çiqqanimda yânimda bir juvân otirardi. Sal yol yûrişimiz bilan issiqina nafas boynimga urilgandek boldi. Yoq, nafas émas, atirgulning baĝridan çiqadigan allaqanday beĝubâr hid édi u. Qarasam, yânimda otirgan hâtin elkamga bâşini qoyib, uhlab qâpti. Qolidagi şâhi tugunçasi âyâĝim tagiga tuşibdi. Bir qolimni arang çozib tugunçani erdan áldimu uni uyĝâtib yûbârmalik uçun qimirlamay otiraverdim. Avtâbus bir silkindi.

Hâtinining bâşi sirĝalib kokragimga tuşdi. Orimga ilinmay qâlgan sâç tálalari tâmâĝim tagiga kelib qâldi. Şunda dimâĝimga yâlpiz isi urildi. Hâtinning qulâĝida solib qâlgan yâlpiz şâhini korib qáldim.

Kopçilik ortasida begâna ayâl kokragimga bâş qoyib ketişidan hijâlat târtib, uni uyĝâtmâqçi boldim. Sekin qulâĝiga piçirladim.

— Kozingizni açing, yâhşi émas.

Hâtin kozini açmadi, ingradi. İçidan alamlı bir nidâ çiqqandek boldi. Bahmaldek yümşâq lablari arang qimirladi-yü, suv, deyə áldi, hâlâs.

Éndi bildim. Hâtin behuş bolib qâlgan ékan. Árqamda otirgan çâl daşnâm berdi.

— Uka, kelinni pastga álib tuşing, kongli behuzur bolayâtganga ohşaydi.

Uylanmagan boydâq édim. Bu gap qulâĝimga ham ğalati, ham allaqanday huş yâqadigan bolib éşitildi.

Bu gap yânverimdagilarning qulâĝiga etib, birpasda avtâbus içi şivir-şivir bolib qâldi. Kimdir tez ketayâtgan avtâbusda çayqala-çayqala áldinga intildi-yü, éngaşib şâferga nimadir dedi. Avtâbus tohtadi.

— Uka, kelinni issiq kunda qiynab qoyibsiz. Pastga tuşib, suv boyida piça dam âlib otiring. Kelasi avtâbusda etib âlarsizlar.

Nima bolayâtganini bilmasdim. Hammaning kozi menda. Beihtiyâr hâtinni suyâb pastga âlib tuşarkanman, qulâgimga bir gap çalinib qâldi:

— Érining bedavâligini qarang, ozi âydekkina ékan, dardi bârga ohşaydi. Éri olgur munça lapaşang bolmasa.

Hamma yâgimdan ter çiqib ketdi. Bu mening hâtinim émas, sizlarga ohşagan âddiy yolâvçiman, deb baqirib yübârgim keldi. Ammâ elkamga âsilgan nâzik qollar bunga mânelik qilayâtgandek indayâlmasdim.

Avtâbus meni mutlaqâ nâtaniş, lekiniga qaraganning kozini kuydiradigan husni bir jahân âyâl bilan yolga taşlab ketdi.

Saratân âsmândan âlâv purkab turibdi. Uçkoprik yolidagi tâllarni bilasiz. Âhiri korinmaydigan asfalbt yol huddi pâyâni yoq sâyâbon aravaga ohşaydi. Havâning dimligidan tâl barglari ham qimirlamasdi. Belbâgimni eçib, ariq boyidagi çim ustiga yâzdim-u, uni otqazdim.

Hâtin éşitilar-éşitilmas dedi:

— Nafas âlâlmayâtibman. Şabadarâq jâyga âlib bâring.

Bu taşvişni ozimga qayâqdan ârttirdim, dedim-u malâl kelgandek uning âppâq bilaklaridan uşlab turgizdim-da, bir qolimni belidan otkazib (bâşqa ilâjim ham yoq édi), suv yâqalab âlib ketdim.

Atrâf jimjit. Na quş uçadi, na âdam otardi. Boy baravar qamişlar qilt étmaydi. Yâlanglikroq jâyga kelib tohtadik. Hâtin sal oziga keldi.

— Vây-e, kokragimga şamâl tegdi-yâ!

Uning tilga kirişidan sevinib ketib, asta otqazdim. Ammâ u hali ham astâydil oziga kelmagan édi. Âyâqlarini sal bukib, tizzamga bâş qoyib, yârim âçiq kozlarini songsiz âsmânga tikkaniça qimirlamasdi. Kişi bilmas unga qarayman. Kiprik demagan qâra duhâbaning ôzi.

Ayniqsa çinnidek âppâq yûzida yânada qârayib turardi. Qâşi tomtâqrâq. Âraliğidagi bilinar-bilinmas osma izi, iyâgidagi tarikdek hâli, boynida qimirlamay turib qâlgan ter tãmçilari bemaâl korinib turardi. İç-içimdan, bu baht qaydan keldi, deb qoyâman. Ayâlning qoli qimirladi. Giyâhlarni timirskilab, birini uzdi. Bu çol yâlpizi édi. Uni dimâğiga âlib bârdi-da, bir hidlab, menga uzatdi. Hidladim. Ana şundagina men bahtni émas, baht meni tâpğaniga işândim. Butun âlam yâlpiz hidiga tolib ketdi. Bir-birimizga tikilamiz. Ammâ na undan, na mendan sadâ çiqadi. Bir-birimiz bilan kozlarimiz gaplaşayâtganga ohşardi. Uning kozlarini kormagansiz. Hali heç bir insân bâlasi bunaqa koz kormagan.

Kozlarimiz gaplaşardi.

Bilmadim, şu alfâzda qança vaqt otirdik, Har qalay, pãdadan mãllar qaytaátgan mahal édi. Buzãqlarning ayãnçli mabraşi qulãgimga éshitilgandek boldi.

Nima boldi-yü, hãtin sapçib ornidan turib ketdi. Tugunini qoliga áldi. Éndi uning qãslari çimirilgan, qilmişidan alamzadadek korinardi. Bilaman, behuşlik begãna kişining tizzasiga bãş qoyişga majbur qilganidan qattiq iztirãb çekyãpti. U kimningdir hãtini. Bu behuşlik uni ne kunlarga bãşlaşi mumkin. Ammã u mening unaqa bemabni kişilardan émasligimni bilganda édi, bu hil hayãllarga bãrmasdi. Bãla bolib nãmard hayãllarga bãrmaganman. Şaytãnning soziga kirmaganman. Buni hãtin bilmasdi.

Kozida qorqinç va andişa ãlãvi yãnyãpti.

Ketdik. Tãl tagida avtãbus kutyãpmiz. U betimga qaramaydi. Qãvãgi sãliq. Unga hattã jahl ham yãraşardi. Har zardali qaraşida vujudim ortanib ketardi.

Avtãbus kelganda pillapãyãga ãyãq qoyãr ékan, yãna bir marta qaradi. Bu qaraşda meni érmak qilişmi, rahmat aytişmi— bilib bolmaydigan bir ifãda bãr édi.

U ketdi.

Hali-hali bu qaraşning mabnãsiga etãlmadim. Bugun vagãn kupesida unga yãna duç keldim.

U yãna kuldi. Bu mayin kulgisi meni yãna hayãlga sãldi. Nega kuladi? Érmak qilyãptimi? Prãvãdnik ikkalamizga ham bir stakandan çãy keltirib qoydi. U stakandan çoy hoplab turib, vagãn silkinişidan qalqib ketdimi, kulaman deb şunday qildimi, har qalay, atlas koýlagiga çãy tokildi. Menga qaradi.

— Éslab hali ham kulib yürgandirsiz?

Bu gapning mabnãsiga etdim.

Yãna jim ketdik. Derazadan bãğlar otyãpti. Simyãğãçlar bir-birini quvyãpti. İkkãvimiz otmiş hayãllari bilan bandmiz. Áhiri sabrim çidamay soradim.

— Éndi tuzalib ketdingizmi?

— Ha, tuzalib ketdim. Buning uçuñ sizga rahmat aytişim kerak édi. Hali ham bolsa aytib qoyiş— qiyãmat qarzim. Rahmat. Vijdãnli yigit ékansiz. Bilasizmi?— u menga bir oz tikilib turdi-da, kulimsirab qoydi.— Sizoşanda bahtingizni yoqotgansiz.

Hayãn boldim. Unga savãl nazari bilan bãqdim.

— Bilmadim,— dedi u kozlarini erga qadab.— Balki adaşayãtgandirman. Éhtimãl, bir falãkatdan qutulgandirsiz? Éhtimãl, men bahtimni tãpgandirman? Éhtimãl, bahtimni yoqãtgandirman? Bilmayman. Har qalay, oşanda yã men sinãvdan otdim, yã siz sinãvdan

otdingiz. Oşa paytda men ádam bálasiga işánmas édim. Tasádifdan orgilayki, oşanda sizga yoliqdim. Agar bášqa kişining qáliga tuşganimda bir umr vijdn azábida qálib ketarmidim...

Hátinining kozi jiqqa yášga toldi. Bir kiprik qáqsa, áppáq yüzlarini yáš yüvib ketadi.

Ammá u kiprik qáqmadi. Songsiz qára keçalarni bağriga siğdirgan bahmal kozlar bu yáslarni şimib ketgandek boldi.

Éndi u kozyáşsiz, unsiz yiğlardi.

U yána tilga kirdi. U gapirardi-yü, ávázi titrardi.

— Bálam hurmati, işáning, men oşa kuni yámán niyät bilan koçaga çiqqandim. Meni siz olimdan qutqardingiz. Qattiq alam otgan édi oşanda.

Uning tuşunib bolmaydigan gaplari yána hayrán qilib qoydi meni.

— Hayrán bolmang. Hátin kişi qattiq oç áladı. Siz érkaklar ayál zátining irádasi boş boladi, har qanday horlikka çidayveradi, deb oylaysiz. Yoq, aslá unaqa émas. Men ham érimdan oç álmáqçi édim.

Hátin deraza tarafga qarab jim bolib qáldi. Páezd katta bir koprik ustidan guvillab otib ketdi. Sal narirâq bārib gudāk berdi. Yol pastlaşayátganidan kupe éşigi sirğanib açilib ketdi. Ornimdan turib berkitib qoydim. Hátin yána ogirildi.

— Bilasizmi, ortada hurmat, andiša bolmasa, ér-hátinlik uy zindān boladi. Ayniqsa, áraga hiyānat áralasa tamām.

U ham alam, ham iztirāb bilan menga ikki yildan beri jumbāq bolib, hayālimni band qilib yūrgan sirni áça bāsladi.

— Érimni yāhşi korib tekkanman, çirāyli yigit édi. Kop qizlarni kuydirgan. Ançamunça ortaça qizlarga qayrilib ham qaramasdi. Értalab uydan çiqib ketayátganda árqasidan tamāşa qilib qálardim. Keçqurunlari ikki kozim koçada édi. U éşikdan uyimga áftābga ohşab kirib kelardi.

Ana şundāq ér menga hiyānat qildi. Jazman árttirdi. Bilasizmi, sevgan kişing, dunyāda yāğāna bahtim deb bilgan kişing hiyānat qilsa çidab boladimi? Ahir butun umrimni unga bağışlagan bolsamu, kelajak bahtimni usiz tasavvur qilālmasamu, menga hiyānat qilsa. Bunga çidab bolarmidi. Lekin butun kuçimni, butun sabrimni bir jāyga jamlab çidadim. Uni insāfga çaqirdim. Bolmadi. His-u tuyğularimni áyāq ásti qilgan kişi áldida koz yāşi tokişga ğururim yol bermadi. Bunday qilālmasdim ham. Uning jazmani áldiga bārib, érimni tinç qoy deyişga ham ğururim yol bermadi.

Butun vujudimni oç áliš hissi qamrab áldi. Ozimni oldirmāqçi boldim. Mayli, şu olimim bilan uni vijdān azābiga taşlab ketaman. Bu dāğ uni ola-olgunça qiynasin, dedim. Şu

niyät bilan uydan çıqdim. Yolda keta turib har hil hayällarga bāraman. Nimani oylasam ham, érimdan qasās ālišğa bārib taqalar édi. Ana şunda siz paydā boldingiz.

Bolmasa, bilmadim nima bolardi. Qabrimdan şu paytğaça ikki marta giyāh kokarib çıqarmidi.

U yūzlarini ikki qoli bilan tosib, oksib yiğlab yübārdi. Uni yūpatişğa soz tåpālmasdim. Hātin ingragan tāvuşda dedi:

— Keçiring. Sizdan umr boyi minnatdār bolib yaşayman. Hātiningiz qandāq bahtli ékan,

— Uning bu gaplari juda uzāqdan éşitilayātğanga ohşardi. Jahl bilan uning kozlariga qaradim. Éndi u kozlarda andişa izlari yoq édi. Allaqanday nur pārlab turardi.

— Qaysi bahtli qiz ékan u sizni sevgan. Bu gaplarimga hayrān bomang. Men éng aval vafādār ādamni, nāmusli ādamni bahtli deymen. Baht tuşunçasini oylaganimda dastavval nāmus, vafā korinadi. Mana şu ikki narsa bolmasa dost dostning, ér hātinning, hātin éring kozini oyādi. Agar men şāir bolsam, yāzuvçi bolsam, vafā haqida, insān nāmusi haqida kitāb yāzib çarçamasdim.

Bu hātinning gaplari meni oylantirib qoydi. Uning bu gaplari çin haqiqat édi. İnsānni jasāratğa, hayrli işlarga etaklaydigan şu émasmi?!

U kiçkinagina razbezdda tuşib ketdi. Konglida tugilib yātgan armānini tokib, bağrini ézib yātgan tāşni irğitib taşlab, quşdek engil bolib, manzilida tuşib qālgan édi.

Kupega qaytib kirdim.

Stālça ustida yālpizy yātardi. Ālib hidladim.

Ana şundan beri qayda yālpiz korsam, u kekxa tāllar sâyā taşlagan Buvayda yollarini koraman. Bu yollar bir nāpāk ér jabrini tårtgan, şu jabr-alam qasāsğa etaklagan dilbar, dilbaru qaysar, bir sozli juvānni éslatadi.

U érini taşlab ketdimikin? Taşlab ketgandır. Undan qasās āldimikin? Taşlab ketişdan ārtiq qasās bolmaydi-ku!

Yālpiz hidi menga ana şularni éslatib qoydi.

Farğāna, 1960 yil.

ON SAKKİZ YAŞING

Ne ajab, çun sarvināzim on sakiz yāşindadir.

On sakiz ming ālam āşubi agar bāşindadir

Navāiy

On sakkizga kirgan ádamning koziga álam jilva qiladi. Kamalakning etti rangidan etmiş ming rang yásaydi. Éçkining yáqimsiz mabraşi ham qulâgiga bul-bul navâsi bolib kiradi. Yülduzlarga qoli etadi, tubsiz ummânlar tizzasidan keladi.

On sakkizga kirmabsiz, dunyâga kelmabsiz! Mana, on sakkizga kirganlardan biri kattakân terak tagida hayâlçan turibdi. U hali şu yâşga etib âgzigga içkilik degan narsani álmagan. Ammâ qip-qizil mast. Ávâzi dorillaydi, husnbuzar tâşgan yüzlarida bir çiroyli hayâl izlari bâr. Mana şu bálaning on sakkizga kirganiga bugun ráppa-râsa tort ây boldi. Şu yâşga kirdi-yü, şunaqa hayâlçan, bolar-bolmasga horsinadigan, keçasi âyga qarab oziça şebr toqiydigan bolib qâldi.

Keksalar! Siz ham şu yâşingizni éslang!

Qişda sarimsâq piyâz egan ádamning âgzidan koklam jalasi quyib otgan terakzârning isi keladi. Siz ham bálaligingizni éslasangiz unutilgan muhabbat yâna tuğyânga keladi. Mana şu horsinib turgan, yüziga husnbuzar tâşgan yigit sizsiz, şu sizning on sakkiz yâşingiz.

Yigitça horsinib turgan koçaning bu koçaning bu betida baland imârat bâr. İkkinçi qavatning balkânida yâqinda on sakkizga kirgan bir qiz kaftini iyâgiga tirab otiribdi. Ozi unça çirâyli émas, ammâ on sakkizga kirgan qizning hunugi bolmaydi, buni bilasiz. Beçâra qiz kelin ayâsining pardâz qutisini titkilab yolakda yüziga upa surayâtganida akasi kelib qâlib bir tarsaki eganidan, yânidan bir juft kinâ bileti çiqib qâlib gap tâpib berâlmay dâvdiraganidan uning neça yâşga kirganini bilib turgandirsiz. Bunaqa iş on sakkizga kirgan qiz bálaning qolidan keladi.

É, ayâjânlar! Koçadan kuyâvnavkar ota qavib turgan korpangizni supada qâldirib devârdan qaraydigan, buvijânlar, ha, nima, on sakkizga kirmay hatlab otib ketmagandirsiz. Kulmang, ozlaringiz ham huddi şunaqa bolgansiz. yiğlagansiz, kulgansiz, horsingansiz, dorillagan âvâz éşitganingizda yûragingizda ât oynagan.

Yol ortasida ézmalanib gaplaşib kelayâtgan ikki keksa otib ketgandan keyin, yigit jadal yürüb balkân tagiga keldi. Uning şarpasini sezgan qiz barmâgini lablari ustiga kondalang qoyib qâşlarini kerdi-da, çirâqni oçirib ğâyib boldi. Zum otmay, u yigit âldida paydâ boldi. Hamma yâqni atir hidi tutib ketdi.

İkkâvi indaşmay yol öqalab ketaverişdi. Anhor tomonga burilişayâtganda qiz majnuntolning osilib yâtgan novdasidayâ barglarni qisimida sidirib âldi-da, yigitning ustidan sâçib yübârdi. Yigit undan qasdini álmâqçi bolib intilgan édi, qâçdi. Koprikka etmay yigit uni tutib, bağriga bosib, opib-opib âldi. Qiz uning quçâğidan yülqinib çiqib, katta harsangga otirib qâldi.

— Şunaqasan-da, Anvar,— dedi qiz undan opkalagandek kulib.

Anvar unga yaqin kelişga yuragi dav bermay sal narirâqda hansirab turardi.

— Boldi, éndi— dedi qiz jiddiy âhangda.—Éndi nima qilamiz. Juda bâşim qâtdi-ku. Aytdim-ku, sen bilan mendan kinâartisti çıqmaydi, deb.

Anvar qol siltadi.

— Korişâlmaydi, rejissyârinin gapini qara, ilm kerak, deydi. Nima oninçini bekârga bitirib qoyibmizmi? Râlni bersinu oynaganimizni tâmâşa qilaversin. Mayli, kimligimni ularga korsatib qoyâman. Qurilişga bâraman. Sen nima qilasan? Senga nima, sendan artist çıqadi. Sal kunda hizmat korsatgan artist Umidahânim Bâltaeva bolib ketasan.

Umida şaraqlab kulib yübârdi.

— É, âmân bol-é, bolmadi. Arizamning ustiga bolmaydi, degan rezâlyütsiyâ qoyib qaytib berişdi. Hayr, alvidâ kinâ ékrani! Toqimaçilik kâmbinatiga işga kiraman. Oşa erda havaskârlar togaragidan osib çıqaman.

Ular gâh kuyinib, gâh kulişib ança paytgaça anhâr yâqalab aylanib yurişdi.

Anvar bilan Umida bir partada on yil yânma-yân otirib oqişdi. Şu on yil içida âzmunça hayâl surişmadi. Anvar kuniga bir kasb tanlardi, Gâh uçuvçi, gâh maşhur artist, gâh diplâmat bolib dunyâ kezardi. Mana bugun hammasi çippaka çiqdi ketdi. Umida bolsa qaysi jurnalda kinâartistlarning surati çiqsa qirqib âlar, hind qizlariga ohşayman, deb ikki qâşining ortasiga hâl qoyib, kaprân şarfga pistân qadab kunâra suratga tuşardi. Uni ham kinâga âlişmadi.

Beqarâr, beqonim yaşlik ularni ne koylarga sâlmadi.

Bu keça ham ularning maslahati pişmadi. Értaga yâna şu erda uçraşigga ahd qilib ajralişdi. Yâna oşa koça betidagi balkânnin çirâği yândi. Yâna oşa hayâlçan otiriş...

Anvar bolsa mast âdamdek kalâvlab sanqib uyiga qaytdi. Orniga yâtib kozi ilinmadi. Umidaning yûzi ékranda kattakân bolib korinaverdi, U gpyâ bu yâqqa kel, deb uni ékranga çaqirayâtganga ohşayverdi. Âhiri hayâli tuşga ulanib ketdi.

İkkâvi oynagan rangli kinâ qoyilayâtgan émiş. Zalda otirganlar bir ékrandagi Anvarga, bir zalda otirgan Anvarga qarab qanday bahtli âdam ékan-a, deyişayâtgan émiş. Kinâ tugagandan keyin ularning har ikkâvini ham tâmâşabinlar orab âlib çapak çalişarmiş. Bir tâmâşabin huddi uning qulâği tagida juda ham qattiq çapak çalar émiş. Anvar uyğânib ketib qarasa, u yâtgan karavâtning bâş tâmâniga qonib âlgan horoz qanât qâqib éndi qiçqiraman, deb turgan ékan.

Anvar tuşni bolgan horâzning âyâğidan uşlab ulâqtirdi. Baribir horâz ariq labida turib uni mashara qilgandek yâna qiçqirib yübârdi.

Tokilgan âlmalarni terib yûrgan içkuyâv pâççasi piçing qildi:

— Yátaverasizmi, halq artisti. Bâşingizga âftâb kelib qâldi-ku, ishlar nima boldi? Qabul qilişmaganga ohşaydi. Yâhşisi, yüring men bilan, ékspeditsiyâga âlib ketay. İkki yil mening partiyâmda ishlab, keyin institutga kirasiz.

Anvar pâççasining işini yâmân korardi. Şu ham iş boldimi, çolu biyâbonlarda tuprâq kâvlab, éski imâratlarning qâldiğini tâpiş. Bu işda qahramân bolish qiyin. Bolsa pâççasi bolardi. Ming yil âldingi tangalarni, kozaçalarni tâpğan. Nimasi qiziq! Kâsmânavt bolsa bâşqa gap. Bir marta âsmânga çiqib ârbitani aylansa boldi, erga tuşşi bilan Âltin Yülduz tayyâr. Ammâ kâsmânavt bolish uçun matematikani, fizikani yâhşi bilish kerak. Anvar har ikkalasidan ham zorğa uçga ilingan. Undan taşqari, Anvarning boyi uzun, nâvça. Kabinaga siğmaydi, siqqanda ham ikki bukilib otirish kerak.

Bâla beçâra ming hol oylar bilan tentib quriliş maydâniga kelib qâlibdi. Hamma yâq çang, şâvqin. Samâsvallar u yâqdan-bu yâqqa vağillab otib turibdi. Şaraqlatib şağal tokadi, qaerdadir qaldirab betân qâradigan maşina aylanadi. Birpasdayâq Anvarning bâşi aylanib ketdi. Kimdir: «Qâç, é, bâla», dedi. Anvar ogirilib qarasa, tsement devârni hartumida kotarayâtgan bahaybat kranning tagiga kelib qâlgan ékan. U çetga çiqib kran bâşqarayâtgan kişining harakatlarini kuzatib turdi. Kran hartumi devârni havâlatib âbârib uchinçi qavat tâmining qirğâğiga qondirdi. Devâr qongan jâйда élekr payvandlari çaqnadi. Anvar angrayganiça turib qâldi. Krançi Anvarga qarab nimadir dedi. Anvar u nima deyâtganini tuşunmadi. U ikki barmâğini labiga qoyib nafasini içiga târtib korsatdi-da, nimanidir unga irğitdi. Keyin u dong ârqasidagi avtâlavkani korsatdi. Anvar u taşlagan narsani âlib qarasa «Belâmâr»ning paçkasiga orab taşlangan pul ékan. Anvar darrâv tuşundi-yü, papirâs âlgani dokânga qarab çâpdı. U qaytib kelganda krançi yâna bitta devârni qondirib bolgan ékan. Anvar unga papirâsni korsatgan édi, u bu yâqqa çiq, deb imladi.

Anvar şâşib temir pillapâyälarga tarmaşib çiqqa bâşladi. Kran pastdan unça baland korinmagan édi. U tâ krançining âldiga çiqquniça naq qâra terga bâtib ketdi. Birdan muzdek şamâl ésis uning bahri-dilini açib yübârdi. Papirâsni égasiga berib atrâfga qaradi. Hamma yâq korinib turibdi. Şahar çetidagi imâratlar huddi tuman ârasidan korinayâtganga ohşaydi. Hamma yâq imârat, imârat. Uzâqda kom-kok darahlar ârqasidan Kâmsâmâl koli âynadek bolib yâltirab turibdi. Kranning qâq belida Anvarning şundâq takkinasida bir gala kaptar pildirab uçadi.

Krançi papirâsni ot âldirib bir-ikki marta toyib-toyib târtıdi-da, Anvarga qaradi.

— Rahmat, akasi, zap iş qilding-da, juda humâr bolib turgap édim.

Anvar unga mabnâli iljayib qoydi.

— Oqiysanmi, işlaysanmi?— dedi krançi pastga, hartum ilgagiga tsement qârişmasi sâlingan temir tâsni ilayâtganlardan koz uzmay.

— İşlamayman ham, oqimayman ham. Oqişni bitirdim, éndi işlamâqçiman.

— Menga şâgird tuşmaysanmi?—dedi u qârişmani tortinçi qavati bitmagan binâ tepasidan aylantirib otib yângi pâydevâr qoyâyâtganlarning âldiga tuşirarkan.

Anvar nima deyişni bilmay oylanib qâldi,

— Yâ kâsmânavt bolmâqçimisan? Hâzir hamma yâşlar kâsmânavt bolişni moljallaşyâpti. Ke, sen bilan biz oşa kâsmânavtlarga uy quraylik, nima deysan!

Anvar mundâq qarasa krançilik ham ğalati işga ohşaydi. Birdan unda krançi boliş ârzusi tuğildi. Yâşlik şunaqa boladi. Tâ bir kasbning bâşini tutgunça ozini u yâqdan-bu yâqqa uraveradi. On sakkiz yâş ana şu beqarârlikning marrasi— âhiri boladi.

— Râst aytyâpman, şâgird tuşsang, sal kunda krançi qilib qoyâman. Mana şu kran ikkâvimizniki boladi. Bilasanmi, bu kran bilan respublikani aylanib çiqqanman. Bu yâğiga ikkâvimiz işlaymiz. Qarab tursam yâhşi bâlaga ohşaysan. Hoş, nima deysan?

Anvar «bopti» deb yübârganini bilmay qâldi. Tamâm! Anvarning bâlaligi bitdi!

— Hali âbedda kântâraga birga bâramiz, oşa erda işni bitkazamiz. Hâzir uyingga bârib hujjatlaringni âlib kel. Ana, éndi menga halaqit berma. Tehnika havfsizligining inspektâri korib qâlsa bâşim balâga qâlad.

Anvar pildiraganiça pastga tuşib ketdi.

Yâna oşa anhâr boyi.

Yâna oşa siçqân teşgan élakdek ây. Yülduzlar kuygan qâzân tagidek jimir-jimir qilib turişibdi. Anhâr şalâplab qirğâqqa sapçiydi. Ây aksini maydalab âqizib ketmâqçi, majnuntâl nâvdalariga âsilib bir dam tohtamâqçi boladi-yü, éplâlmaydi. Harsang tâş ustida âyâğini suvga bâtirib Umida otiribdi. Anvar hâvliqib-hâvliqib gapiradi.

— Bilasanmi, bilasanmi, dunyâda krançilikdek qâyil iş yoq. Şundâq tepasiga çiqib qarasang dunyâning narigi çekkasi ham korinadi. Men oşa erdan turib sizlarning tâmlaringizni kordim. Kollar, bâğlar, imâratlar... Bitta samâlyât huddi-huddi âyâğimning tagidan otib ketdi.

Umida kozlarini katta-katta âçib unga qarab turibdi. Çây qâğâzini burdalab taşlagandek ây tangalari suv betida milt-milt âqadi. Katta koprik ustidan otayâtgan maşina çirâqlarining aksi huddi suvga bir şonğib âlgandek narigi qirğâqqa etmay sonadi.

Qiz yigitning gaplariga çidamay ketdi.

— Kâmbinatga bârganmisan, ozing. Kâmbinatning qanaqaligini bilasanmi, ozing. Vây bo... Men tengi qiz bir yüz on ikkita dastğâhni yürityâpti. Qirq ming âdam işlaydi. Kranni gapirasana. Kraning nima bopti, bu dastğâhlarning âldida. Kâmbinatda bir yilda çiqadigan

matâni er şariga orasang erning âçiq jâyi qâlmaydi. Kranlaringu, jamiki qurilişlaringni orab taşlaydi.

Anvar ham boş kelmadi. U krançini maqtayverib âhiri gap tâpâlmay qâldi. Ammâ Umida kombinatda korganlarini gapirib tugatâlmadi.

Anvar mundâq qarasa, Umida labiga qizil surtganga ohşaydi. Tikilib korsa râst.

— Bu nima, yâpgi kalişning içidek qip-qizil qilib.

Umida piq étib kulib yübârdi. Uning bu kulgisida? Sen uçun, sen uçun tentak, degan mabnâbarq urib turardi.

Şu keça ularning hayâliga kinâartist boliş degan gap kelmadi. Har ikkâvi ham yângidan tanlagan kasblarini tildan qoymasdilar.

On sakkiz yâş şunaqa boladi. Godaklik hayâllari yaratgan ârzularini tumandek tarqatib, yângi ârzular yaratadi. Yaratadi-yü, uni haqiqatga aylantiradi.

Ajab émas, éndi bu ikki osmir kinâekranlarida artist bolib émas, artistlar bular bolib korinsa.

On sakkizga kirmabsiz, dunyâga kelmabsiz!

1965 yil.

ZUMRAD

Azizaning bu erga kelganiga éndi bir hafta boldi. U yolga çiqayâtganida, ozim ham bir dam âlib kelarman, deb oylagan édi. Dam âliş qayâqda, vaqtida âvqat eyişga ham qol tegmaydi. Bunda ikki yuzdan ârtiq bâla dam âladi. Biri çomilib şamâllasa, bâşqasi parmançak teraman deb âyâq-qolini timalatib keladi. Bularning hammasi vraçga taşviş. Ayniqsa futbâl degan narsaga bâlalarning oçligini aytmysizmi. İşqilib, kuniga yâ tirsagi, yâ tizzasi şilinib ketişiğa qaramay, top tepişgani tepişgan.

Bâlalar-ku, mayliga-yâ, kuniga savat-savat narsa taşib, uzâq-yâqindan keladigan âta-ânalarning harhaşasini aytmysizmi!

Aziza âvqat âlib kelgan âta-ânalarni lagerb içiga kiritilmaslik masalasida bâşliq bilan bir neça marta urişib ham âldi.

— Bunaqada bâlalar dam âliş u yâqda qâlib, qaytaga kasal ârttirib ketişadi-ku.

Uning bu gapiga bâşliq elka qisib, çârasizligini bildirdi.

— Qandâq qilamiz, éng kamida saksân kilâmetr yol bâsib kelsa-yü, bâlasini korâlmay ketsa, yâhşimas-da, dâktâr.

Albatta, bāshliqning gapida ham jān bār. Ammā Aziza ularning dardga çalinib qāliš havfidan bezāvta. Mana, ēşik āldida velāsiped ruliga savat ilgan orta yāşar bir kişi hansirab turibdi. Aziza uni lagerb içağa kiritmadi. Hāzir derazadan unga qarab turarkan, birdan rahmi keldi.

Beçāra saksān kilāmetrli tāğ yolidan velāsipedda kelibdi. Yāna şunça yol bāsib qaytib ketişi kerak. Terga bātib ketibdi. Uning ahvālını korib çidab turālmadi. Āldiga çiqdi:

— Nima qīlardingiz, ahir bāla sizni korib uyiga ketgisi keladi. Bu āvqatlarni ham çakki ālib kelibsiz.

U hijālat çekkandek javdirab qaradi.

— Ēndi singlim, şu bittagina bālamiz... Ānasi yiğlab ési ketyāpti. Men-ku çidayāpman... Azizaning ham bālası birgina. Bārdu-yü, u ham ālisda bolsa qay ahvālga tuşarkin, éhtimāl, bundan ham uzāq yolni piyāda bāsib kelarmidi. Birdan Azizaning kongli yümşab, jilmaydi.

— Mayli, bitta şart, āpkelgan āvqatlarni bermaysiz. Ozi bilan bemalāl toyib gaplaşa qāling.

Aziza uni bāşlab içkariga ālib kirdi-da, bālani çaqirib keliş uçun ādam yübārdu.

Içkaridan bālalarning qiy-çuvi éşitilib turibdi. Trusiçan qāra-qura bālalar u yāqdan- bu yāqqa bir-birini quvlaşib yürüştü. Tanasiga āhak surtilgan darahtlar ārasidan çādirlar, fanerdan qırqib işlangan fil, tuyā, şerlar korinib turibdi.

Kozlari qisiqqına qizça huddi éşik tagida bāyāgi kişining tizzasiga otirib ālib nimalardir deb javrayāpti. Dadasi unga qarab yāyrab iljayādi. Uning başarasi huddi érib ketayātganga ohşaydi. Sertāmır qollari bilan qizçaning sāçını silaydi, tinmay peşānasidan opadi.

Aziza unga qarab otirib juda zavqlanib ketdi. Derazaga bağrını berib, undan koz uzālmay qāldi. Dadasi qizga ikki plitka şākālad berdi. Qiz dāktārhanā tāmānga bir qarab āldida, şāşib romālçasiga orab, ārçasiga berkitdi. Aziza uning qiliğidan iljayib qoydi.

Éşik taqilladi. Aziza tā ogirilib qaragunça, éşik açilib, ottiz beş yāşlardagi bir juvān kirdi.

— Dāktār, mumkinmi?— Ayāl qimtinib unga yāqin-laşdi.

— Nima gap, tinçlikmi?

— Tinçlik, oğlim ikki-uç kundan beri bāt-bāt isitmalab qoyādi. Nimaligini bilālmayāpman. Bir korib qoying, baraka tāpkur.

Aziza bu juvānni şu atrāfda yāşaydiganlardan ékanini darrāv bildi.

— Ambulatāriyāğa bārmadingizmi? Ahir men lagerdagi bālalarga qarayman.

Juvån bir muddat indamay turib qáldi-da, yálingan áhangda dedi:

— Ozingiz korib qoyá qáling. Uyimiz unça uzâq émas. Ambulatáriyâga bâriş qiyin, on ikki kilâmetr yürîş kerak.

Aziza nâilâj qáldi, kiyinib, u bilan bâşlaşib taşqariga çiqdi. Bâuyâgi kişi hamân qizçasining bâşini silab otirar édi.

— Dâktâr, kelasi gal âyisini âlib kelsam, maylimi,— dedi u Azizaga ogirilib. Aziza kulib bâş irğab qoydi.

... Juvån âldinda soqmâqdan yol bâşlab bârardi. Aziza uning ârçasidan qarab bârarkan, bu juvânni qayda korganman, deb oylardi.

Soqmâq yûqâriga kotarila bâşladi. Juvån âyâq izi tuşaverib tekislanib ketgan kattakân harsangga çiqib Azizaga qol uzatdi.

Şunda Aziza uning ikki qâşi ârasidagi juda ham kelişgan çiziqqa kozi tuşdi. Éndi tanidi. Bu bir vaqtlar oz raqlari bilan tâmâşabinlarni maftun qilgan Zumrad édi. Nima boldi? Bu tâmânlarda u nima qilib yürîbdi? Oşa davrdagi qiyâfasidan ikki qâşining ârasidagi çirâyli çiziğu kulganda yâyilib ketadigan ong betidagi kuldirgiçi qâlipti, hâlâs.

Râstdan oşamikin?

Juvån uni qolidan târtib, âldinga otkazib âldi.

— Yoq, yoq, men ketingizda yüraman. Qâmatingiz juda çirâyli ékan, tamâşa qilib ketaman.

Juvån handân taşlab kulib yübârdi. Uning âppâq sadafdek tişlari yüzlarini yâşnatib yübârdi.

Boldi. Bu oşa Zumradning ozi. Azizaning koziga bundan beş yillar âldin Zumradning televizârdagi oyini korinib ketdi. Oşa oyun uning âhirgi oyini bolsa kerak. Şundan keyin Zumrad butunlay korinmay ketgandi.

Oşa paytlarda Aziza medinstitutni éndigina bitirib, aspirantura harakatida édi. U aspiranturaga kira âlmadi. Bekârga ikki ây umri otib ketdi. Ministrlikning taqsimâtidan ham tuşib qáldi. Uning ustiga, Hakimjânning kimligi mablum boldi. İkki yil qalbida ébzâzlangan muhabbat hislari uni aldadi. Hakimjân u bilan hamkurs, kelişgan, qâra qâş, qâra koz yigit édi. Bir-birlarini yâhşi korişardi. Institutni bitirib, toy qilişmâqçi édi. Diplâmlar qolga tekkandan keyin Hakimjân butunlay bâşqa âdam boldi qoydi. Qolida vraçlik diplâmi bola turib, éski kasbini qilib, allaqaysi pâliklinikaga tiş tehniği bolib jâylaşib âldi. Aziza kop oylardi. Oylagan sari Hakimjân undan nari ketardi. U értangi kunini koz âldiga keltirişga urinardi. Ammâ értasi Hakimjânsiz bolib korinardi.

Nimalar bolyäpti, deb ozidan sorayalmasdi Aziza. Ammâ şu hayâllar ârasida Hakimjânning qâp-qâra kozlari bir yâlt étardi-yü, uning qalbini bir dam yâritib, butun vujudiga hâkim bolib âlardi.

Aziza oyladi, oyladi, bu oylarning âhiri şu boldiki, qançalik qiyin bolmasin, uni yûrakdan sidirib taşlaş kerak, degan hulâsaga keldi.

Hakimjân éndi u bilan juda beparvâ gaplaşar, hissiz, hayäjânsiz, olik gaplar bilan uning vaqtini âlardi. Şunday uçaşuvlarning birida Aziza unga éndi uçaşmaylik, yolimiz bâşqa-bâşqaga ohşaydi, dedi.

Bu gap Hakimjânga unça malâl kelmadi. Goyâ bu gapni u kopdan kutayâtgandek:

— İhtiyâr ozingda, ammâ bilib qoy, bir kun puşaymân bolib yürma,— dedi.

Aziza uning yûziga tik qaradi:

— Heç qaçân!

Ana şundan keyin âralarida heç narsa qâlmadi. Tort âydan keyin uning uylanganini. Çoğdek gâh yilt étib, gâh sonib turardi. Éndi bu çoğning yûzini butunlay kul bâsgandek boldi. Ammâ birân bahâna bolib birinçi muhabbat ésigâ kelganda, Aziza bekâr ketgan hislariga açinardi-yü, Hakimjânning kozlari âlâvdek çaqnab, vujudining bir çetini jiz étib kuydirib qoyârdi.

U kunlar otib ketdi. Aziza çinakam muhabbatini tâpgan, şu muhabbat hislari bilan éndi u bahtiyâr édi.

Zumradning sadaf tişlari Azizani bir nafas bolsa ham bolalik koçalariga sudragandek boldi.

Tepalikka çiqqunça Aziza çarçab qâldi. İkkâvlari kokatga otirişdi. U juvânning atrâfını ajin oray bâşlagan kozlaridan kozini uzmasdi.

Qanday çirâyli qiz édi-yâ. Husn ham şunçalik tez tugarkanmi?

Bir vaqtlar husni, sanbati bilan hammani lâl qilgan qiz qandaydir ayânç bir ahvâlda Azizaning qarşisida otirardi. Uning égnida rangi oçib, gullari bilib bolmaydigan holga kelgan krepeşin koylak, âyâğida allaqaçân mâdadan qâlgan qâra tufli, bâşida durraça.

Qandâq kiyinardi-yâ! Studentlar yâtâğidagi qizlar faqat uning kiyimlarini gapirişardi, gazetadan andaza qirqib, jon matâlardan unikiga ohşagan koylak tikişardi.

Juvân ornidan turdi. Ğirillab ésayâtgan şabada koylaklarini târtqilab, étaklarini beliga orab taşladi. Hali ham uning qâmati oşanday nâzik, allaqanday yaşlik tarâvatini ufurib turardi.

Yolga tuşışdi. Pastliklardagi arçazâr ârasidan dam âliş uylarining kârpuslari, baland çoqqilarda ériğan şamdek âsilib qâlgan qâr uyümlari korinib turardi. Pastda asfalbt tasmasidan yûgurgan qizil, kok avtâbuslar bâlalarining oyinçağidek bolib kozga taşlanardi.

Ular soqmaqdan âşib, kenggina yolga çiqib âlişdi. Sal otmay, tâğ qışlâğining âbâdgina guzari korindi.

— Etdik,— dedi u.— Hu, anâvi qayrâğâçning tagi bizniki.

Guzarda bir-ikki magazin, çâyhâna, avtâbus stantsiyâsi, sartarâşhâna bâr édi.

— Şâşmang,— dedi Aziza tohtab.— Sizdan bir narsani soramâqçi édim, siz Zumradhân émasmisiz?

U bâş irğab qoydi. Ammâ bu savâl kongliga âğirraq bâtdimi, yâ birâr kongilsiz vâqeani éslatib qoydimi, jadal yürüb âldinga otib âldi-da unga qaramay dedi:

— Ha, oşa Zumradman. Mana, keldik.

Uning âvâzida qandaydir alamli titraş bâr édi.

Bir tavaqali éşikdan kenggina hâvliga kirişdi. Uy bilan ayvân pâydevâri tâğ qışlâqlariga hâs harsangdan kotarilgan bolib, devârning narigi tãmâniga qarab osgan keksa tutning ildizlari açilib yâtardi. Aziza tãmirini sel yüvib ketgan bolsa kerak, deb oyladi.

Tandirga ot qalayâtgan kampir tutayâtgan kâsâvining uçini ariqqa tiqib, çetga taşladi-da, ularning istiqbâliga çiqdi.

— Keldingizmi, aylanay. Érkinjân éndi uhladi. Ayvândagi kiçkinagina paşşahânada bâla uhlardi.

Aziza paşşahânaning çetini kotarib, bâlaning peşânasini uşlab kordi: sal isitmasi bor. Bâlaning yüz tuzilişlari, qâp-qâra qâşlari uning koksiga nayzadek sançilgandek boldi. Kim bu? Bu kimning bâlasi?

Zumrad tut tagidagi salqin supaga jây qilib bolgan édi. Aziza hardamhayâl bilan supaga keldi. U Zumradning qandaydir mahzun qiyâfasiga tikilar ékan, hayjâ-nini yâşirâlmadi.

— Menga qarang, bu erlarda nima qilib yüribsiz. Ahir siz pâytaht yigitlarining ârzusi édingiz. Nima boldi?

Zumrad kozlarini bir nuqtaga tikib turib qâldi. Kipriklari ârasida nimadir milt-milt qilib turardi. U kozini yâşirdi-da, durraçasining uçi bilan artib âldi. Zor bilan iljaydi.

— Peşâna ékan. Taqdir oyini kimlarni sarsân qilmagan.

Kampir tandirdan uzilgan bir savat nânni supa çetiga qoyib ketdi. Zumrad çoğ uşlagandek çaqqânlik bilan tortta kulçani dasturhânga âlib qoydi.

— Ayting. Zumrad, nima boldi?— deyâ yâna savâlini takrârladi Aziza.

Çây ustida Zumrad bâşidan otganlarini gapirib berdi:

— Hamma balâ bitta âziq tişim âğrişidan bâşlangan. Îndâneziyâdan kelgan meh mânlariga kântsert berişimiz kerak édi. Oşa kuni értalab tursam, tişim zirqirab âğriyâpti.

Bir kun avval parkda mârâjenâe egan édim. Âğriq zorayganidan zorayib, bir yâq yüzim-piyâladek şişib çiqipti. Nima qilişimni bilmayman. Pâliklinikaga qarab çâpdim. Yâşgina, kelişgangina tiş dâktâri jağimni âçib qarab, şiş paytida suğurib bolmaydi, deb dâri surib qoydi. Âğriq azâbida uyimga ketyâpmanu, dâktârning qâp-qâra qâşlari hayâlimdan ketmaydi. Keçqurun boladigan kântsert ham kozimga korinmay, korpaga burkanib yâtib âldim. Hali ham dâktârning qâş-kozi şundâqqina korinib turibdi. Yâna âldiga bârdim. Yâna dâri koyib, yâna értaga keling, dedi. Hâzir ésimda yoq, tişimni suğurgandan âldinmi parkka bârdik. Şu-şu boldi-yü, har kuni uçraşadigan bolib qâldik. U har kântsertimizga kelardi. Âldingi qatârga otirib, mening çiqişiimni kutardi. Men oşanda faqat unga oynab berayâtgandek butun kuçimni, sanbatimni sarf qilib oynardim. Tamâşadan keyin birga ketardik. Uyimgaça kuzatib qoyârdi. Bir kuni sahnada oynab turibmanu, zaldan uni qidiraman. Yoq. Kelmapti. Bunaqa âdati yoq édi-ku, deb taşviş qilaman. Qanday qilib oyinni tamâm qilganimni bilmadim. Sahna ârquasidan çiqib kelayâtsam, çirâylikkına bir qiz româlga oralib turibdi. Tohtadim.

Qiz bâtinqiramay âldimga keldi-da, titrâk tâvuşda dedi:

— Bahtimga ğâv bolmang. Hakimjân akamni men sevaman.

Avvaliga heç narsa tuşunmadim. Keyin birdan badanim muzlab qâlgandek boldi. Oşa kuni uyga qandâq etib bârganimni bilmayman. Értangi kântsertda birinçi raqsni juda ham yâmân oynadim. Bir-ikki âdam irimiga çapak çalgandek boldi. Bir mahal qarasam, ikkinçi qatârning çetragida Hakimjân otiribdi. Bilmadim, qaerdan kuç paydâ boldi. Bir oynab ketdim. Çapak ustiga çapak. Tort marta oynatişdi. Çiqib ketayâtganimda Hakimjân yolimni tosdi. İndamay otib ketaverdim. Bir nima deyişga tilim yoq. Uni ham haydagim, ham çaqirgim keladi. Özimni qolga âlib, éndi uçraşmaylik, sizni bâşqa âdam sevarkan, dedim. Hakimjân handân taşlab kuladi. Hadeb, vây tentak qiz-é, vây ahmaq qiz-é, deb hirlinglayverdi. Ana şundan keyin turmuş qurdik. Bâşida yâhşi yaşadik. Keyin meni teatrğa yübârmay qoydi, çidadim. Uni jânimdan ham yâhşi korardim. Nima desa tayyâr édim. U kop işlar, kop pul tâpardı. Bir bâla kordim. Érim har yâz şu Âsmasâyda dokân âçadi. Atrâfda dam âliş uylari kop bolganidan tiş âldirib, tiş sâldiradiganlarning keti uzilmaydi.

Tiş sâldiriş bahânasi bilan bir juvânga ilakişib qâldi. Har keça dokânda qâlib uning tişini kâvlaydi. Ahiri, u bilan ketdi. Bitta bâlam bilan yol pâylab otiribman. Kim biladi, birâvning bahtiga çang sâlganim uçun takdir meni jazâlayâptimi? Yâlgizlik jânimğa tegdi. Men muhabbatğa ozimni qurbân qilmâqçi édim. Yoq, bolmadi. Qars ikki qoldan çiqar ékan. Éndi yâna teatrğa qaytmâqçiman...

Bála uyğānib, ānasini çağirdi. Zumrad şaşib zinadan tuşdi-yü, ayvānga qarab çāpdi. Çāpayātganida saçlarining tolqin urışı biram çirāyli, biram oziga yāraşliqlı. Aziza piyāladagi çāyni dasturhānga qoyib, uning ketidan bārdi.

Bála kozini açgan. Zumrad tepasida mehr bilan unga qarab turardi. Aziza bālaning kozini kordi. Ha, oşa Hakimjānning kozlari.

— Ana, dāktār āpang dāri beradilar, tuzalib ketasan, qozim.

Aziza bālaning tāmāğiga çāy qāşiqning ārçasini tiqib, tanglayini qaradi, koz milklarini çāib kordi.

— Taşviş qilmang, şamāllapti. Dāri yāzib beraman, tuzalib qāladı.

— Értadan keçgaça çomilgani çomilgan. Bilasiz-ku, tāğdan muzdek qār suvi keladi, unga çomilib boladimi...

Zumrad Azizani guzargaça kuzatib çiqdi.

Keç kirib, quyāş çoqqidan hatlab otib, éndi yān bağırlarda gunafşa rang āyālar qālgandi. Aziza sākın tāğ soqmāğidan ketarkan oylardi. Oylardi-yü, oyi çuvalib, uni ālislarga sudrab ketardi.

U yāşligini, birinçi muhabbatini oylaganda, éslaganda hamışa oşa dilga mahkam ornaşib ālgan muhabbat hislari bağıriga çağirardi. Hakimjānning ālāvdek yānib turgan kozlari bir dam koksini başqatdan kuydirib otardi. Şu bir āniy hātira uni éntiktirardi.

Éndi-çi?

Aziza bağıriga çağirayātgan birinçi muhabbat bilan hāzir yüzma-yüz turibdi. U kozlarda éndi ot yoq, ular şarmsizlik āynasi, yoq, yoq, nursiz bir şişa siniği bolib korinyāpti unga.

Agar Aziza oşanda muhabbatning aldamçi hislariga berilganda, oz irādasini qoliga ālālmaganda, u ana şu aldangan ayāldan ham avval qurbān bolardi.

Aziza şuni ésladi-yü, birdan seskanib ketdi. Qadami tezlaşdi.

Zumrad-çi?

Bir vaqtlar sahnada yūlduz bolib pārlagan bu sanbatkār éndi ājiz bir ayālga aylanibdi. U şu ahvālda qālarmikin?

Çinakam zumrad pārlaşi kerak.

Sānsiz prājektārlarning nurida u hali kop ihlās-mandlarning kozini oynatişi kerak. Çinakam zumrad bolib jilvalanişi kerak.

Aziza şunday hayāllar bilan bitta-bitta bāsib ketarkan, pastda, asfaltga çiqaverişdagi yālgizāyāq yolda velāsiped minib ketayātgan kişini kormasdi. U kişi hali past-baland tāğ yolidan şu ahvālda allaqança yol bāşişi kerak.

Quyâş butunlay bâtib ketdi. Âsmânu falakda suzib yûrgan korpadek uvada bulutgina qip- qizil çoğ bolib yânardi.

1965 yil.

MOTTI

«Âhangarân hikâyâleri»dan

Înâmjân avtâbusdan tuşişi bilanâq, şaharda majnun bolib yûrmay deb sartarâşhânaga kirdi. Usta yüziga sâvun surayâtganida âynadan qiziq bir narsani korib qâldi. İkki qâvâğiga avtâbus biletidek qâğâz yapîştirib âlgan qâşi ipdek bir qiz qollarini stâlga qoyib qimirlamay otiribdi. Âq halat kiygan hâtin uning tirnâğini boyâyâtibdi. Înâmjân bu qizni qaerdadir korgandek boldi. Oylab-oylab éslâlmadi.

Uzâqdan korgan, yâqindan korgan, gaplaşgan jamiki qizlarni bir-bir ésladi. Birâq ular ârasidan bu qizni tâpâlmadi.

Usta uning sâqâllarini qirtişlab, sâçlarini tekislab qam boldiki, Înâmjân hayâldan boşamadi. Vaşillatib yüziga atir sepgandagina yüzi açişib, öziga keldi. U ornidan turib taşqariga çiqayâtganda atayin qizga tikilib qarab otib ketdi.

Înâmjân papirâs çekdi. U yâq-bu yâqqa yûrib oyladi, skameykaga otirib oyladi. Derazadan bâş suqib yâna içkariga qaradi. Éndi usta qizning qâvâğidan qâğâzlarni âlib, kiprigini tomtâq qayçi bilan qayirayâtgan édi.

Înâmjân, tâ qiz işini bitirib çiqquniça, pâylaşga ahd qildi. Âhiri qiz savzi tahtadek sumkasini koltiğiga suqib, içkaridan çiqdi.

Uning égnida âq kaprân kâfta. İçki kiyimlarining tasmalari bermalâl korinib turibdi Razm sâlib qaragan âdam yüzidağı sepkilidan elkalarida ham bârligini bilib âlsa boladi.

Belini qizil kamar bilan şunday siqib bâğlabdiki, ikki bolak âdamga ohşaydi. Agar jindek

égilsa yûqârisi tuşib ketadigandek. U Înâmjânning oziga tikilib turganini sezganidan ataylab ğamza bilan yânidan otdi. Înâmjân bezâvtalandi. «Çekilmasin!» deyilgan jâyda papirâs çekib qoygandek, hali muhabbat oti tuşmagan yigit yûragiga ğulğula tuşdi. Înâmjân beihtiyâr unga érğaşdi. Qiz tohtab, magazin vitrinasiga ozini sâlib, sâçlarini tuzatib âldi. Keyin mashara qilayâtgandek bir iljaydi-da, tohtagan avtâbusga ildam çiqib âldi.

Înâmjân Âhangarânga bundan âldin ham bir kelgan. Kursdâşlari bilan praktikaga kelib kânga tuşgan. Smena masteri uni birinçi marta er âstiga âlib tuşganida Înâmjânning boladigani bolgan édi. Bir elkasida gaz niqâb, bir elkasida batareyâ, peşânasida çirâq, tepasida uç yüz

metr qalinlikdagi er. U yánidan-bu yánidan vagánетка guvillab yúguradi, áyáğining tagidan transpártyár lentasi ğiqillab otadi. Bu erning turgan-bitgani vahima bolib tuyúlgan édi unga. Rangı qum áqarib, tili gapga kelmay qálgandı. Oşanda master uning rangini korib qorqib ketgan, smenasini tugatib çiqayátgan strelkaçi qizdan uni yúqáriga «berib yúbárgan» édi. Qiz tuşmagur ham juda şaytán ékan. Aft-başarasi qáp-qára, huddi mori tázalaganga ohşaydi. Har kulganida áppáq tişlari qáránğida gugurt çaqqandek yáltiraydi. Ayniqsa, er yüziga álib çiqadigan keletning tuşışini kutib otirişganda «Erga çiqqanimizda yárim sáatça kozingizni çirt yümib áling, birinçi marta qáránğida organgan koz yáruqqa çidamay, kor bolib qáladi» deb tayinlagan édi.

Ular erga çiqışganida qiz uni bir çekkaga otqazib, ozi allaqayáqqa ğâyib boldi.

Huddi magazinda çit yirtilyätgandek tar-tar qilib ananaslar yärilar, uruği kesaklar ustiga şitirlab sâçilib ketardi. Äyägim tagida tuzâqqa ilingan bedana besaranjâm patilladi. Bir qolimda bedana, bir qolimda qâvun— çaylaga qaytdim. Çâl eroçâqda otni gurillatib yübârgan édi. U qolimdagi qâvunga qarab iljaydi.— Şahar bâlasiligingiz şatta bilinib qâldi-da?! Qâvun degandi paykalning kesagida yärib emagan âdam, qâvun edim demasa ham boladi. Çâl kula-kula qinidan piçâğini suğurib menga uzatdi-da, çayla tepasiga ilingan tugundan nân, mayiz, turşak âlib, dasturhân yazdi. Qâvunga piçâq târtayâtganimda ham, tilimlab eyäyâtganimda ham çâl hâzir qiziq hâdisa yüz beradigandek menga qarab iljayib turardi.

Umrimda qâvun emagandek bitta ananasni pâk-pâkiza tuşirib boldim. Çâl qolimga çây tutqazdi. Bir mahal qarasam, barmâqlarim bir biriga yâpişib qâlibdi. Çâl handân taşlab kuladi. Qumğândagi qaynâq suvni çapiştirib, qolimga quyâr ékan, ana şunaqa, oğlim deb qoydi.— Bu ananasning yângi hili, uruğiga işqibâz kop. Âftâb oçgan édi. Uzâqdan turnalarning quresi baralla éşitildi. Çâl âsmânga qaradi. Qizğimtir pardaga ohşab korinayâtgan ufqdan kotarilgan turnalarning ayri karvâni otib ketgunça undan nigâhini uzmadı. Çayla ârqaqidagi turna bezâvtalanib tinimsiz qurelar, âsmânga qarab talpinardi. Turnalar âvâzi tinganiga allaqança vaqt otgan bolsa ham, çayla ârqaqidagi yâlgiz turnaning qanât silkişi tinmasdi. Birdan çâlning çehrası ozgardi. Kozlari qisilib, yûzidagi ajinlar ham kopayib ketgandek boldi. U maşaaqqat bilan ornidan turib, turnani çaylağa âlib otdi.— Ha, jânivâr, élatlaringni sâğindingmi? Élatlaring issiq tãmânlarga ketişyâpti. Uça qâl, uça qâl sen ham, jânivâr. Turna binafşa kâkillarini silkib, hamân issiq olkalarga yol âlğan qardâşlari singib ketgan ufqqa bâqardi. Çoldan turna qayâqdan bu erda paydâ bolib qolganini soradim.— Şu bu yil érta koklam Andryüşadan telegramma âldim. U, hâzirça kelmay turing, âlis safarga jonayâpmiz, debdi. Ozim oşa kezlarda Leningradga âtlanib turgan édim. Tarvuzim koltiğimdan tuşib, gangib qâldim. Bâlaginamni juda sâğingan édim-da. Yâstiqqa bâş qoyâman, qani kozim ilinsa. Hayâl olgur hali u yâqqa sudraydi, hali bu yâqqa sudraydi. Mana şunaqa qilib çokkalab otirib kozim ilingan ékan, tuşimga Fazliddinim kirib qâldi. Hafa émiş, akamni sâğindim, nega hat yâzmaydi, der émiş. Şamsiddinimning halok bolganini undan yâşirarmışman. Nima bâldiyü, tuşim çalğib, Şamsiddinni kâribman, u, nega Fazliddinning halâk bolganini mendan yâşirasiz, deb gina qilar émiş. Qulâğimga birdan ğalati tâvuş éşitildi, çopânlar éşigimizning tagidan qoy haydab otişayâtgan émiş. Uyğânib ketdim. Ongimda ham şu âvâz. Hâvliga çiqdim, hâvlimiz tepasida karvâni tozib ketgan bir gala turna faryâd çekib, çarh urib aylanayâtibdi. Umrimda turnalarning bunaqa past uçişini éndi korişim. Tuşligiga ham, ongligiga ham işânâlmay, hayrân bolib ularning âsmânda faryâd çekişini kuzatib turdim. Ular

şu koyi yärim sâat çamasi aylanib yürişdi-da, keyin yiğlayätgandek hazin qurelaşib uçib ketişdi. Ésimda: tām tepasida aylanişayätganlarida bir-ikkisi boğâtga tegay-tegay deb şonğiganini ham korib qâlgan édim. Értalab tāmârqaga çiqsam, bir turna devâr tagiga biqinib yätibdi. Ana şundan keyingina tundagi hangamaning sirini bildim. Bu turna qaerdadir yäralangan, ârtiq uçışga madâri etmay, şu erga kelganda safdan ajralib, yiqilgan. Şe-riklari uni taşlab ketâlmay faryäd çekayätgan ékanlar. Ana şundan beri turna menga juda organib qâldi. Uç kun boldimi, juda bezâvta. Ásmânda turna korinsa, ozini qoyärga jây tâpâlmaydi

— Uçâlmaydimi?— Uçâladi. Babzi-babzida uçib allaqayäqlarga bârib keladi. Çâl gapidan tohtab, nimagadir qulâq sâla bâşladi.— Pâezddan qâldingiz, bâlam. Stantsiyäga etâlmaysiz. Pâezd kelyäpti,— dedi çâl çirâq yâqar ékan. Darhaqiqat, er titrayätgandek boldi, âlisdan parâvâzning qiçqirgani éşitildi. Bir âzdan keyin terakzâr ârqsidan şiddat bilan pâezd otib ketdi.— Jây qilib beraman, uhlang, értaga ketasiz éndi. Çâl yästiq orniga çâpânini dumalâqlab qoydi-da, ozi tuzâqlardan habar âlgani ketdi. Yänbâşladim. Qayäqda uyqu keladi, deysiz. Çol ğimirsib palaklarni bâsib âlmaslik uçun éhtiyät bilan joyâkdan joyâkka sakrab, ilingan bedanalarni bir halta qilib âlib keldi. Çayla ârqsiga otganiça yärim sâat çamasi yoq bolib ketdi-da, meni uhlagan deb oylab, äyâq uçida çaylaga kirdi. Bir çekkada hâmuş yätgan turnaga tikilib, uning tâvus pati-dek çirâyli kâkilini siladi. Nimalardir deb piçirlab ham qoydi. Men çalqança yätib çâlni, uning bâlalarini âylardim. Demak, uning ikki oğli halâk bolgan. Leningradda bir oğli bâr. Nega âti Andrüşa?! Sorasammikin? Hayâl aralaş yänimga eçgan şimimning çontagidan papirâs âlib, gugurt çaqdim. Çâl ogirildi.— Uhlamadingizmi?— Yoq, uyqu kelmeyäpti, âtahân. Çâl indamay çirâqni puflab oçirdi-da, korpa ustiga çârdâna qurib otirib âldi. Äydinda uning yüzi, kozi, koksiga tuşgan äppâq sâqâli korinib turardi. Ança vaqtgaça âlida âğir yük târtayätgan parâvâzning gupillaşiga qulâq sâlib jim otirdim. Parâvâz âvâzi ham tinib, keng dalada çirildâqlar uni qâldi, hâlâs.— Äta, bir narsa sorasam malâl âlmaysizmi?— Sorang, bâlam.— Oğllaringizni gapirib bersangiz, Andryüşani ham. Çâlning éti junjidi şekilli, bir tebranib, korpani elkasiga târtidi. Äy bâtdi, éndi uning başarasini aniq korib bolmadi. U nimadir demâqçi bolib âğiz juftladi-yü, âğir horsiniq gapirgani qoymadi. Bunaqa horsiniq âdamga faqat éng yâqin kişisini qabrga qoyäötgan paytda keladi. Çâl peşânasini uqaladi, sâqâlini tutamlab, tizzasiga şapillatib bir urdi. Keyin bâşini kotarib, qârânğilik qabriga tikilib qâldi.— Oğlim, sabru bardâş degan narsa bolmasa, âdam bâlasini ğam eb qoyädi. Mana, yâşab yürübman. Yiqilib qâlmikanman, degan édim, ikki azamatimdan judâ bolib ham yiqilmadim-a! U içki dard tolkinida hikâyäsini bâşladi:

— Uruş başlangan yili Şamsiddinim yigirma ikki yaşda, Fazliddinim on toqqiz yaşda édi. Şamsiddinimni askarlikka âlişmadi. Bir kozi nâgirân édi. Umarhoja bâvvaçça oğliga sunnat toyi qilganda katta bazm berib, muşakbâzlik qildirgan édi. Oşanda Şamsiddinim yolga kirmagan buvak édi. Ânasi rahmatlik belançakka yâttqizib qoygan ékan, âsmânda yârilmay qâlgan muşak bâlaning belançagiga tuşib yârilsa boladimi! Yüzi kuyib, çap kozini butunlay kormaydigan qilib qoygan. Şuning uçun ham askarlikka âlişmay, mehnat armiyâsiga arang âlişgan édi. Fazliddinimni undan bir ây burun Pâytuq stantsiyâsidan uruşga jonatgan édim. Fazliddinim Leningraddan, Şamsiddinim Pâdgâra degan şahardan hat yâzib turişdi. Pâdgâraga bârganmisiz? Men bârganman. Şamsiddinimga haykal ornatişganda çaqirişgan édi. U erda kattakân élektrâstantsiä bor. Nemis Moskvaning éşigini qoqaman deb qol çözüb turganda poytahtga şu stantsiyâ madâr bolgan. Uning zavâdlarini şu stantsiyâ yürgizib turgan. Şamsiddinim oşa stantsiyâga kelgan komirni vagândan tuşirib, kiçkina vagânçalarga ârtar ékan. Nemis şu şaharning payiga tuşib, ustma-ust samâlyät yübârib turgan... Mingdan âr-tiq kişi keçani keça, kunduzni kunduz demay işlagan. Şamsiddinim értalab işga ketayâtganda birdan trevâga bolib, âsmânda nemis samâlyäti korinibdi. Şahar ustida ikki aylanib, stantsiyâga bâmbasini taşlayâlmay bâlalar bâğçasining hâvlisiga taşlab qâçibdi. Tasâdif bolib, labnatining bâmbasi yârilmay, bâlalar oynaydigan qumga sançilib qâlibdi. Hamma taşvişda, âdamlar ana yâriladi, mana yâriladi deb jânlarini hâvuçlab qâlişganmiş. Bâlalarni aytmysizmi! Derazadan qarab javdirab turişganmiş. Şamsiddinim yûgurib kelib, bâmbani qumdan suğurib, maydânga qarab çâpibdi. Ança nari bârib yiqilibdi. Bir kozi âjiz émasmi, şâşganidan elkasini sim yâğâçga urib âlgan ékan. Bâmba pârtlab, tilkapâra bolibdi. Uruş tugamayâq bârdim. Qabrini quçâqlab yiğladim. Oşa bâğçani Şamsiddinimning nâ-miga qoyib, hâvlisiga haykalini ornatişdi. Tongiç oğlimdan ana şundâq judâ bolganman, bâlam. Çâl éntikdi. U yiğlar édi.— Yüpatmang, bâlam. Bir âz yiğlay, dardim engilaşadi. İçimni boşatib âlay.

Çâl şunday dedi-yü, okirib-okirib yiğladi.— Akasining olganini Fazliddinimga bildirmadim. Bir yilgaça akamning adresini yübâring, deb hat yâzdi. Anâv-manâv deb paysalga sâldim. Yoq, kenjatâyimning ham umri qisqa ékan. Dengizda çokib oldi. Na qabri qâldi, na bir libâsi. Meni dâğ-hasratga taşlab ketdi... Âsmândan arğimçâq sâlib, yâna turna otdi. Çâl turnalarning qayçiga ohşaş karvâniga tikilib turib gapini davâm éttirdi:— Dunyâda farzand kormagandek yâna soqqabâş bolib qâldim. Ozimni qayâqqa qoyişimni bilmayman, devânaga ohşab gangib yürdim. Raisimiz éсли ayâl édi. Âvunsin deb qanğıllab qâlgan hâvlimga marğilânlik bir agrânâmni koçirib keldi. Andijânga âlib tuşdi. Leningraddan koçirib

keltirilgan etim bálalardan birini álib berdi. Báyä sizga aytgan Andryüşamni ana oşanda bāqib álgan édim. Uni ártmāqlab katta qildim. Qarindāşlari kop izlaşdi. Bildirmadim. Bālaning ési kirgan sari āta-ānasini yoqlaydigan boldi. Unga qarab turib yūrak-bağrim ézilib ketadi. Āhiri çidamadim. Leningradga hat yāzdirib, Andrey Karpāvni darakladim. Bālaning ātasi ham, ānasi ham qurşāvda olib ketişgan ékan. Bittayü bitta āpasi bār ékan. Bāla çidab turālmadi. Qanāt paydā qilib, āpasining yāniga uçıb bārgudek talpinib qāldi. Jigar ékan-da! Āq fātiha berib safarga kuzatmāqçi boldimu oyim buzildi. Yālgiz yūbārişga konglim bolmadi. Birga ketdim. Andryüşamni āpasining āddiga qoyib qaytdim. Yāna yākkalikda, zabunlikda qāldim... Andryüşam uylandi. Hāzir bitta oğli bār. Ātini Sābir qoyibdi. Mening ātim Sābir-da! Yāqinda kelib ketişdi. Poytuq stantsiyāsida vagānga otqazayātibmanu, yāş bāлага ohşab hong-hong yiğlayman. Bāla, deduşka, deb boynimga āsiladi. Toqqizta ananasni vagānga çiqazib berdim, aynimay bārarmikan, a, bālam?

Andryüşam ketgandan keyin yāşaşning sira ham qiziği qālmadi, har saharda hudādan olim tiladim. Nevaramni kordim, éndi sira olgim kelmaydi. Qarib qālayātganimdan okinaman. Şu bālaning kamālini korsam édi, deyman. Hay mayli, dunyāning işlari şunaqa ékan... Yāstiqqa bāş qoyib, bari bir uhlayālmadim. Belançakda yārilgan muşak, bāmba zarbidan tilka-pāra bolgan tana, zangāri tolqinlar yūtgan navqirān yigit, vagān āynasidan bābāsiga talpingan godak kozimga korinaverdi. Şunday hayāllar bilan kozim ilingan ékan, qulāğimga élas-élas turna āvāzi éşitildi. Yāqin āradan qandaydir quş besaranjām qanāt qāqqandek boldi. Çāl sapçib turdi. Men ham kozimni açdim.— Ketdi!— dedi çāl alamli bir tāvuşda. Çāl tikilgan tāmānga qaradim. Kokda arğimçāq sālīb uçayātgan turnalar karvāniga qarab çālning turnasi ham şitāb bilan uçıb bārar édi. Ana, uning karvānga etişiga āzgina qāldi. Karvān yārim dāira yāsab unga peşvāz çiqdi. Karvānning safi buzildi. Tozğib ketgan turnalar toyhānadagi hātinlarning qiy-çuvini éslatuvçi bir tāvuşda şāvqin sālīşdi. Keyin karvān safīni onglab, biz qarab turgan çayla tepasida bir aylanib silkinib-silkinib ufqqa qarab otib ketdi. Çāl quvānçmi, mabyüslikmi, bilib bolmaydigan ğalati āhangda:— Ke-etdi-i-i!!!— dedi. Har bahār kokda turnalar karvānini korganimda, ularning beğubār firuza āsmānda arğimçāq sālīb uçışini kuzatganimda alamzada, hijrānzada, lekin metin irādali oşa Sābir bābāni éslayman. Bu turnalar menga ananas hidi anqigan çaylani, āppāq sāqāli koksiga tuşgan nurāniy çālını, uning mard, olimdan ham zor oğillarini, Andryüşani, kiçik Sābirni éslatadi. Oşa mayib turna çālning qolida şifā tāpib, yāna oz karvāniga qoşilganini bilarmikin? Har koklam oşa çayla ustidan otayātganda bābāsini éslab qoyārmikin? Éslasa kerak deyman! Men uning şu çayla ustidan çirāyli binafşa kākillarini silkib, bābāga tabzim qilib otişini juda-juda istardim.

1960 yil.

IQBÁL ÇIRÁQLARI

Daryä şamâlidan seskangan âtning badani dirillab ketdi. Jilâvni boş qoyib yübârdim. Çakmânini elkasiga taşlab, qumğân tagiga ot qalayâtgan parâmçi çâl ât dukurini eşitib ornidan turdi:— Keling, mehmân, yol bolsin?— GÉSga otmâçqi édim. Çâl sâqâlini tutamlab daryäga qaradi:— Suv qutirib kelâpti, paromni çirpirak qilib olib ketadi.— Yoğ-é, işim jadalrâq édi-ku, a!— Értalabgaça sabr qiling. Hâzir çoy qaynaydi, çaççaqlaşib tong ottiramiz. Noiloj otdan égarni âlib, suvliğini çiqardim-da, yâvvâyi jiydaga bâğladim. Çâl vaqirlab qaynab turgan qumğânga kok çây sâlib damladi. Budkaga kirdik. Budkaning içi ançagina keng édi. Uning bir tãmânida arqân karavât, ikkinçi tãmânida ésa tahtasi randalanmagan qopâlgina skameyka. Devârga gazeta va jurnallardan yirtib âlingan turli suratlar yâpiştirilgan. Çâl tâşçirâqning piligini kotarar ékan, menga qaramay soradi:— Qârin qalay, mehmân?— Qoşqonâqda âvqatlanarman degan umid bilan yolga çiqqa bergan édim. Çâl mening javâbimni kutmay deraza âldiga qoyilgan âyâği ayri stâlça ustiga belbâğini yâzib, qâzikedagi tugundan nân va qand âlib qoydi.— Çâyni maydalab turing, savatdan habar âlib kelay. Çâl çiqib ketdi. Piyâlaga çây quyib, devârdagi suratlarni tamâşâ qila bâşladim. Allaqaysi bir jurnaldan yirtib âlingan bir surat menga juda tanış tuyüldi, fânarni suratga yâqinrâq âlib bârdim. Égniga kâmbinezân kiyib, qoliga élektrâsvarka şçitini uşlab turgan payvandçi qizning kulib turgan yüzi menga juda tanış édi. Bu bir vaqtlar meni, şâirâna qilib aytgan-da, oziga asir qilgan İqbâl édi. Çâl kirdi.— Baliq ilinmabdi. Suv nâtinç-da. Baliqlar yüzaga çiqmaydi. Çâl bilan ançagaça u yâq-bu yâqdan gaplaşib otirdik. Sâatga qaradim, birdan âşibdi.— Uyqungiz keldi-yâv, jây qilib beraman, dam âling. Çâl belançakka ohşaş arqân karavâtga korpaça yâzib, çâpânini buklab yâstiq qilib berdi-da, fânarni kotarib çiqib ketdi. Eçinib yânbâşladim. Fikru hayâlim İqbâlde édi. Hayâl meni İqbâl bilan otkazgan kunlarga etakladi. Koz âldimga tâğ qâyâleri, daryä tolqinlari, azamat GÉS binâsi keldi. Çâl qârângida timirskilanib nimadir âlib çiqib ketdi. Daryäning narigi qirğâğida çaqin çaqdi. Uning kokimtir-pistâqi şublasi âsmânda suzib yürgan pastak bulutlarni ham yâritdi. Âzrâq vaqt otgaç, bâyâgi çaqin tez-tez takrorlanaverdi. Turib derazadan oşa tãmânga qaradim. Gulhan yânida tor yâmab otirgan çâl menga ogirildi.— Uhlamadingizmi, mehmân, şublaga qarayâpsizmi? Qoşkonâqda GÉS qurişyâpti. Bu élektrpayvandning şublasi. İqbâl ham oşa vaqtda GÉSda payvandçi édi. Daryä

boyidagi t ş uyim derazasiga ham huddi  unaqa  ubla tu ib, menga uyqu bermasdi. Tuni bilan t ş qop rib, t ng  tgun a  qb l haqida oylardim. Ke qurunlari ikk vimiz  olga  iqib ketib,  sm nda asta-sekin koz   ay tgan sahr  y lduzlariga tikilib otirardik. Atr fimizda ot-olanlar silkinar,  igirtkalar  irillar  di.  unday ke alarning birida  qb lga y ragimdagi gaplarni aytdim. U jim otirib hammasini tingladi. Hali  y kotarilmagani u un uning y zida, kozida qanday ozgari lar bolay tganini bil lmadim. U jav b bermadi. Y nma-y n y rib tungi smena i lab turgan u astkaga qarab yol  ldik. Qizlar zemly nkasi  ldiga etganimizda, u qolimni  datdagidan kora qattiqr q qisib hayrლა di. Y , balki, menga  unaqa tuy ldimi, hali-hali bil lmayman.  radan u  kun otga ,  qb l tungi smenaga i ga otdi. U G Sning azamat pe t qlarida temir par alarini bir-biriga payvand qilar,  lektr d tay q asidan  aqnagan u qun pastga qarab goy  nurli t m i bolib tokilar, uning  ublası  olning  lis- lislariga a y ritardi. Kuni bilan b   to anda t ş kop rib  ar a imiga qaramay,  ol  ralab tort kil metrlik yolni piy da b sib, G S qurili iga b rardim. Yolni  qb l  aqnatgan kokimtir nur y ritib turardi. Temir  atiga tirma ib  qb l i lay tgan bet nli dev rga kotarilardim-da, uning y nida otirib,  aqnagan nurdan y şlangan kozlarimni kepkam bilan tosardim.  qbol juda  aqq n i lardi. Pr rab «halaqit berasan» deb ne a marta meni dev rdan quvib tu irar, men  sa y na tirma ib  iqaverardim.  u dev r ustida,  ol  abadasi uning s  larini toz itib turgan bir paytda, kozni  luv i kokimtir nur  rasida birin i b r uning y zidan opib  lganman.  qb l arazlagandek menga er  stidan  alati qilib bir qaradi-y , y na  lektr dni temir par asi ustiga qoydi. U qun  aqnadi, uning qoli bilinar-bilinmas titraganini sezdim. Hali-hali bil lmayman, uning vujudidagi bu titr q  azabdanmi, y  hay j ndanmi...  u kundan b şlab  qb l hay l an bolib q ldi. Mendan ozini  lib q  ar, u ra gan  nlarimizda y zimga tik qaray  lmas  di.  kskavat r ma inistiga y rdam i bolib  ldim.  şlar kopayib q ldi. Ke asi kursga qatnayman, kunduz  kskavat r b şqaraman,  u kunlar  qb ldan an a uz qla ib q ldim. U astka agitpunktida kurs ma  ul ti bolay tganda felbd er h tin meni imlab  aqirdi.  iqdim. U qolimga bir q   z tutqazdi.   şib oqidim. Unda  u gaplar y zilgan  di. «...Kasalh nadaman, vaqtingiz bolsa bir kelib ketsangiz.  qb l». Kasalh naga y gurdim. Kasallardan suri tirdim. Meni palataga  lib kiri di. Bu erda  q halat kiygan, y z-kozi d ka bilan tan ib ta langan bir ay ldan b şqa he  kim yoq  di.— Mana,  qb l!— dedi ham ira.  q d ka  rasidan mening n mimni aytgan  v z  iqdi. Bu  qb lning  v zi  di.—  qb l! Nima boldi?!  qb l y ngi yolga kirgan b lalardek dev rni u lab turma  i boldi. Tez b rib uning qolidan u ladim. Karavat qir   giga otirdik.—  lektr d u quni kozimga sa radi.  qb lning  v zi titradi. Uning b şini siladim.— Meni deraza  ldiga  lib b ring,— y lini   hangida dedi  qb l. Uning aytganini qildim.— Hav    iqmi?— dey  soradi u.— Hav    iq, y lduzlar  aqnay pti,— dedim. U uz q jim turib q ldi.

Derazadan qolini  iqazib goy  y m ir y g ptimi, yoqmi, bilm q i bolgandek panjalarini y ydi. Svarka apparatida  aqnagan nur  qbolning y ziga  ul angan  q d akalarni ham kokimtir tusga kiritgan  di.— Nah t, umrb d kor bolib q lsam-a? Vra  men i haydab  iqargun a uning  ldidan jilmadim.  radan bir hafta otga ,  qb l ni T şkentdagi koz klinikasiga  lib keti di. Men  sa armiy ga jonab ketdim. Songgi b r  qb l bilan u ra gan kunim hali  simdan  iqmaydi. Armiy ga jona   ldidan uning h lidan habar  lgani T şkentga tu dim.  rta kuz  di. Klinika h vლისidagi darahlarning bargi sar aygan, keksa dub barglarigina kok  di.  qb lning bilagidan u lab, gulz r  etidagi skameykaga  lib keldim. Otirdik.  qb l timirskilab qolimni t pdi-da, uz q jim turib, keyin horsinib qoydi.— Kety pman deng... Keti   ldida sizni oz kozim bilan kor lmadim. Qani  ndi, kozim  čila q lsa-y  bir korsam. Harbiy f rmada qanaqa  kansiz.— Kozingiz  čiladi,— dedim unga ruh beruv i  hangda.— Pr fess r ham  unday dedi, balki konglimni kotari  u un aytgandir. Men unga pr fess r bilan gapla ganimni, u menga ham huddi  unday deganini aytdim.— Juda kutilmagan h disa boldi-da,  unday usta payvand i, nah tki beparv lik qilib, kozga u qun sa ratib  lsangiz.  qb l qolimni y na mahkamr q qisdi. U  olda,  ydin ke ada birga y  a ni taklif qilganimda jav b orniga qolimni huddi  unday qisgan  di.— Bilasizmi, o a kuni qolim va kozim i da  di-y ... U gapir lmay  ntikdi. Juda  alati bolib ketdim. Ayni zam nda kongilni ham  adlantiruv i, ham  zuv i bu gapdan gangib q ldim.—  qb l!..— gapimni tugat lmay sap ib ornimdan turib ketdim. Nima qili imni bilmay turgan erimda serrayib q ldim.— Kozim  čiladi,— dedi  qb l i  n  bilan.— Y na kori amiz. Faqat tezm q kozim a ilsa-y , b glarni, maysalarni,  damlarni korsam. Hay tning, tabiatning qan alar  ir yli  kanini  ndi y h ir q sezdim.  unki h zir ularni koz bilan  mas, y ragim bilan korib turibman.  ollarda  aqnagan  ir qlarni kory pman. Tezm q, tezm q kozim a ilsa. Kozlarimga tan ilgan d akalarni yirtib ta lab, hay tga qarasam deyman.— Kozingiz  čiladi. Albatta  čiladi, y na u ra amiz, birga turmu  qilamiz. Ana o anda siz  ollarda k mbinez n kiyib y rmaysiz. Mening uyimda, huddi malikalardek y sanib,  ah na hay t...  qb l qolini  art t rtib  ldi. Nazarimda, kongilsiz bir v qa  siga tu ib q lgandek seskanib ketdi. Y  menga  unday tuy ldimikin? Halihali bil lmayman.  u kuni  qb l bilan q   q raygun a gapla ib otirdim. U menga  q yol tiladi. «Kutaman, Samad aka» dedi-y , mu amalasi sal s vuqr q korindi, bu gap y rakdan  mas,  un aki aytilganga oh adi. Ketdim. Koz  ldimda  qb lning  q d akaga  ul angan qiy fasi q ldi...  radan be  yil otdi.  u  rada unga y zgan onlab hatlarimga jav b  l lmadim.  hiri  qb lning izini yoq tdim. Mana, dary  suvi  avillagan  ydin ke ada, par m ining budkasida uning suratiga termilib otiribman.  lisda  qb l ni  slatuv i y  il nur  aqnab turibdi. Uning otkir nuri deraza  ynasidan otib uy dev ridagi suratlarni ham g h  lip-lip y ritib qoy di.  qbal hay t  kan. Nima u un  un a

hatlarimga javáb bermadi? Ahir, men unga birán yámán gap aytmagandim-ku. Uning suratiga termilib birga keçirgan kunlarimizni, bir-birimizga aytgan iliq-issiq gaplarimizni sozma-soz hátirladim. Biráq aytilgan gaplarda biránta ham nájoyási yoq édi. Qani éndi uçraşsak. Oşa vaqtda aytganimdek, malikalardek... Ésladim! Íqbálning izzat-nafsiga, ğaşiga tekkan narsa éndi ayán boldi. Qiziq, kişi ozining hatâsini sezişi şunçalar qiyinmi? Neçun şu paytğaça bu narsa yâdimga tuşmadi? Nega? Gugurt çaqib Íqbálning suratiga qaradim. Uning hâzirgi hâlati men tasavvur qilgan malikadan ming marta afzal édi. Oz bahtini ozi yârata âladigan kişi ozgadan baht kutmaydi. Íqbálni mendan sâvutgan narsa ham mening şu bir âğiz nájoyä gapim édi. Gugurt çopi âhirigaça yänib qolimni kuydirdi. Demak, Íqbál hayät, uning kozlari avvalgidek ravşan. Biráq u hâzir qærda! Ér qilganmikin? Kim ékan u bahtli yigit? Mumkin émas! Íşanmayman. Qani éndi, uni hâzir şu tâpda korsam, oşa kokimtir nur içida bir korsam. Hu oşa çollarda çaqnagan kokimtir çaqin şublasida u haqda hayäl sursam... Yâşlikni, biz işlagan oşa azamat qurilişlarni éslasam, birga ârzu qilganimizça yâşasak... Qaydasan, qaydasan, Íqbál?!

Asta-sekin tâng yârişa bâşladi. Kiyinib taşqariga çiqqanimda çâl parâm ketida éşkak burib, daryâning qâq ortasida narigi qirğâqqa qarab ketardi. Âtni égarladim. Ustiga ikkita yük maşinasini ârtgan parâm ârtga qaytdi. Çâlning âppâq sâqâllari şamâlda silkinar, englari bilagigaça şimarilgan baquv-vat qollari éşkakni épçillik bilan bâşqarib kelardi. Tuni bilan çaqin çaqqan tâmândan éndi quyâş kotarildi. Keçasi kumuşdek tâvlangan daryä suvi sarğimtir tusga kirgan édi. Parâmdagi maşinalar qirğâqqa çiqib, şağal bâsti-rilgan yoldan mâtarlarini gurillatib ketişi.— Âta, bir iltimâsim bâr édi, aysam, hop deysizmi?— Sorang, bâlam. Çâlني budkaga bâşlab kirdim-da, devârdagi suratni menga berişini soradim.— É, mendan sorab nima qilasiz, ozidan sorang-da.— Ozini beş yildan beri tâpâlmayman.— Mendan sorab qoyä qâlmabsiz-da.— Taniysizmi?! Hâzir qærda u?!— Qiziqsizmi? Oz qizimdek bolib qâlgan bir kişini tanimay jinni bopmanmi? Keçasi bilan Qoşqonâkda çaqmâq çaqib çiqqan oşa siz qidirgan Íqbál-da. Bu atrâfdagilar keçasi şunaqa çaqmâq çaqişi bilan darrâv: «Íqbál çirâği yândi» deyişadi, sâatingiz neça? Etti boldimi, hâzir ozi işdan qaytib qâladi. Mana şu parâmda uyga otadi. Qani, uyga âlib ketay.— Ér qilgani yoqmi?— deyä şâşib soradim undan. Çâl qol siltadi.— Nazarimda, érga çiqmâqçi émasga ohşaydi. Ne-ne yigitlar kişi qoydi. Konmaydi. Hâtin-halajning gapiga qaraganda, allaqaysi GÉSda işlaganda bir yigitga kongil bergan émiş. Yigit bevařâlik qilganmiş, unday desam, kimni kutadi?! Hullas, bu toğrida bir nima deyiş qiyin... Çâl mendan soramay âtning égarini âlib suvluğini boşatib qoydi. Men tongakka

hâtirjam otirib papirâs çeka bâşladim. Daryä hamân şävillar, çâl suv ortasida tolqinlar bilan âlişib, quyâş çiqayâtgan qirğâqqa tãmân intilar édi.

1956 yil.

RAHMAT, AZIZLARIM

Buvaydadan avtâbusga çiqişim bilanâq Muazzamga kozim tuşib qâldi. U tirsagini derazaga qoyib hayâl surib bârardi. Bâşida rangi kotarilgan sarğış kâsinka, égnida âddiygina ştapelb koylak. Sâçini nari-beri orib ârqaşiga taşlab qoyâqâlgan. Muazzamni heç şu ahvâlda kormagan édim. U studentlar içida éng yâhşi mâdalarni tanlab kiyârdi, sâçini bolsa kuniga har hil priçyâska qilmasa kongli jâyiga tuşmasdi. Uning ondan ârtiq sumkaçalari bolguçi édi. Hâzir u âğziga qâğâz yâpib ip bilan bâğlangan şışa banka, kâstryülka, âlma sâlingan tor savatni tizzasiga qoyib otiribdi. Muazzam şu ahvâlda ham çirâyli édi. Uning yâniga bârişni ham, bârmaslikni ham bilmay, ikkilanib turib qâldim. Ahir kormaganimga ikki yildan âşdi. Uning ustiga Muazzam meni jinidan yâmân korardi. Studentlikda har iş otadi, hâzir oşa işlarni oylasam badanimdan sâvuq ter çiqib ketadi. Kursdâşlarimiz ârasida Muazzamning işqida kuymagani yoq desam mubâlağa bolmas. Men-ku jinnidan battar édim. Şu uçun kuniga sâqâl qirardim, yüvilaverib asli rangi qanaqaligi bilinmay ketgan şimimga kuniga dazmâl bâsardim. Ammâ u menga qaramasdi. Men bolsam hadeb atrâfida aylanişaverardim. Keyin bilsam, u frântdan duduq bolib kelgan Âdil degan bâla bilan kinâga bârib yürar ékan. Juda diqqatim âşib ketdi. Şu bevafâ dunyâda yâşab nima qildim, deb ozimni piçâqlamâqçi ham boldim. Âhirgi marta ozimga kuç yiğib, yâtâğining éşigini şartta âçib kirdimu, bilagidan uşlab: Muazzam, seni yâhşi koraman, sensiz yâşayâlmayman, dedim. U hiringlab kuldi.— Mensiz bermalâl yâşayverasiz,— dedi Muazzam kozimni baqraytirib turib.— Ozimni âsib qoyâman,— dedim. Bilmadim oşanda bu gapni baqirib aytdimmi yâ piçirlab aytdimmi, ésimda yoq. Muazzam battar érmak qilib kuldi.— Âsâlmaysiz, jân şirin. Agar âsadigan bolsangiz, spârt zalida arqân bâr, oşa yâqqa kirib âsing! Kozimga qân tolib ketdi. Yâtâq éşigini taraqlatib yâpdimu, spârt zaliga yügurdim. Darhaqiqat arqân bâr ékan. Âlib bir uçini bâğlaydigan jây qidirayâtganimda huşim jâyiga keldi. Şâşma, ozimni âsişga-ku âsaman. Undan keyin nima boladi? Âsilib yâtgan oligimni korganlar ham, âsilib olganimni éşitganlar ham, "ahmâq ékan" deydi-ku. Albatta şunday deydi. Ozimni oldirib bopman! Men hali unga korsatib qoyâman.

Ammâ nima qilib unga korsatib qoyişni oylab-oylab tãpãlmadim. Oqişlar tugab, har qayãqqa tarqab ketdik hamki, unga korsatib qoyãlmadim. Bãlalarining aytişiga qaraganda, uning koziga korinmay qãlgan paytlarimda, ulardan meni sorarkan, ular kormadik deyişsa: hudã rahmat qilsin, yãhşi bãla édi... Deb kularkan. Éşitib battar jahlim çiqardi. Bu gaplarga ham ikki yil bopti. Vaqtning tez otişini qarang! Mana, Muazzam bilan bir avtãbusda otiribmiz. Uning ilgariği ãliftaliklari qãlmagan korinadi. Nima boldi? Nahãtki şunday tam-tam qiz darrãv bãşqaça bolib qãlgan bolsa? Yã érga tekkan bolsa, éri mundayrãq ádam çiqib qãldimikin? Torvadagi narsalarni qayãqqa álib ketyãpti? Bãşiga birãn kulfat tuşdimikin? Balki unga narsa álib ketayãtgandir? Sabrim çidamadi. Éski ginalarni unutib, áldiga bãrib otirdim. U meni korişi bilan kopdan yoqãtgan kişisini tãpib álgandek kozlari yãşnab ketdi. Şu mahal dilimdan bir gap otdi. Uning bu qaraşini ozimça yoyib, nega senga tegmadim, senga tekkanimda bu ahvãlga tuşmasdim, degan mabnãni anglabman. Korişdik, hãl-ahvãl soraşdik. İşlarimni soradi. Uylanganimni, hãtinim vraç ékanini aytdim. U bilinar-bilinmas kulib qoygandek boldi. Men undan ártiqça gap soramadim. Nimani ham sorayman. Ahvãli mablum bolib turibdi-ku. Turmuşi yãhşi émasligi, érdan bahtsiz bolgani kiyim-bãşidan, rangi royidan bilinib turibdi.

Qoqãnda avtãbusdan tuşdik. Ástanãvkada meni kutib turgan şãfyãrim rãsa éşitadiganini éşitdi. Ğildirak el çiqazib yübãrganini aytsa ham qulãq sãlmay sokaverdim. Muazzamga ozimning kimligimni korsatib qãyiş uçun atayin şunday qildim. Maşinaga çiqã turib Muazzamga qol uçini berib hayrlaşmãqçi bolgandim, u gapim bãr, ketmay turing, deb qãldi. Aha, dedim içimda, menga etkazgan ázãrlaringning qasdini ályãpman, deb iç-içimdan sevinib ketdim.— Sizni korib qãlganim yãhşi boldi. Yüring, bir jãyga bãrib kelamiz. Şãfyãrga javãb berib yübãravering! Rãzi boldim. İkkãvlaşib piyãda ketdik.— Yoldan qãldirganim uçun hafa bolmaysiz-da. Atayin şunday qildim. Ádiljãnni korib kelasiz. Yürişdan tohtab qãldim. Oşa ozim yãmãn koradigan Ádilning áldiga bãramanmi? Kallamni şartta kesib taşlasa ham bãrmasman.— Yürãvering, yürãvering, sizni korsa sevinib ketadi. U qolimdan uşlab sudradi. Beihtiyãr yürüb ketdim. Ança jãygaça indamay bãrdik. Muazzam yol çetida ásilib turgan tãl nãvdasidan kom-kok barglarini qisimlab sidirib áldida, mabüs gapira bãşladi.— Bilaman, meni yãmãn korasiz. Ádiljãnni bolsa korarga kozingiz yoq. Heç bolmasa birga oqiganimizning hurmati bãrdir. Bilasizmi, hafa bolmangu, sizni hali ham unça huş kormayman. Kongil huşlamagan, har bir ádam duşman émas-ku! Hayrãnman, nima demãqçi, nima qilmãqçi? Şunaqa tuşunib bolmaydigan hayãllar bilan şahar kasalhãnasi yãqiniga kelib qãlibmiz.— Şu erda birpas kutib tura turing. Hãzir çiqaman. U şunday dedi-yü, şãşib kasalhãna darvãzasiga kirib ketdi. Ança hayãllab qãldi. Pãylab otirib, zerikib ketdim. Bu erda

men nima qilib otiribman, deb ozimdan sorayman. Meni yãmân koradigan ádamning ketidan nima qilib érgašib yürüibman? Keta qálaymi? Šu otirišda Muazzamning meni horlaganlari kozimga korinaverdi. Ornimdan turdim. Éndi ketmâqçi bolib turgan édim, Muazzam çiqib qáldi. Uning kozlari qizargan, bášidagi kâsinkasi sirğalib elkasiga tušib qálgan édi. U áldimga kelib nimadir demâqçi boldi-yü, gapirâlmay birdan hongrab yiğlab yübârdi. Nima deyišimni, nima qilišimni bilmay serrayib turib qáldim. Bâya Ádilning áldiga álib bâraman degan édi. Demak, Ádil kasalhânada. Nima boldi? Tinçlikmikan? Ádilning tanasida yârilgan bâmbaning parçasi bâr, davâlatmay yürüibdi, deyišardi. Dardi ošadir?— Ketmâqçimisiz? Ketmang!— dedi Muazzam yâlingan áhangda.— Ketib qolsangiz kim menga hamdam boladi?— Nima boldi? Ayt? Muazzam éntikdi, jiqqa yâš tola kozlarini javdiratib qaradi.— Értaga Ádiljânniň áyâğini kesišmâqçi. Titrab ketdim. Bugun Muazzamni korganimdan beri kallamga kelgan qasâs âliš niyâti, maqtaniš, unga ozimni korsatib qoyiš niyâtlarim birdan qayâqqadir uçib ketdi-yü, vujudimga hâkimlik qilayâtgan oša tuyğular ornini šafqat, ádamiylik, hamdardlik égallab áldi.— Áldiga kiring, yüpating, darmân boling. Maktabdâšini korib tanasiga quvvat kiradi. Yoq demang! Nahâtki yoq desam. Nahâtki birgina bâqišim, yânida bir dam turišim olimni engiš uçun kuç bolsa-yü, yoq desam. Men ham ádamman. Vraçlar meni Ádilning áldiga kiritišmadi. Çarçagan, âperatsiyâ áldidan dam âlsin, deyišdi. Otirib hat yâzdim. Qiziq-qiziq gaplardan yâzdim. Universitetda qilgan qiziq-qiziq iŝlarimizni, oša paytda aytgan latifalarimizni yâzib kiritdim. Hat tagiga imzâ qoydim.

Oqib yürügan paytimizda devâriy gazetaga burnimni katta qilib urib çiqiŝgan édi. Ésimda turgan ékan, huddi ošanday qilib surat çizib qoydim. Ozimga juda ohšaydi. Hatni álib, albatta, hursand boladi. Bilaman. Bunaqa paytlarda bemârning hayâlidagi dahšatli oylarni qâçiriš uçun ŝunday qiliš kerak. Kulgi dahšatni quvadi. Olimni engadi! Muazzam bilan yâna Buvaydaga qaytdim. Uni yâlgiz qáldirgim kelmadi. Men ketsam, u qandâq qilib tâng áttiradi? Šunday paytlarda yânida ádam bolsa tirgâviç boladi. U telefân stantsiyâsining ârçasidagi kiçkinagina hâvlida turar ékan. Uy égasi— keksagina hâtin bizni koriši bilan taŝvišlanib ayvânga tušdi. Muazzamning kozlari qizarganidan qorqib ketdi ŝekilli, menga savâl nazari bilan qaradi.— Tinçlikmi, Ádiljânniň ahvâli qalay? Yâhši gap bilan kampirni tinçlantirdim. Muazzam uyga kirib ketgança qaytib çiqmadi. Uning uyida çirâq ham yânmadi. Kampir menga supaga jâý qilib berdi. Eçinmay yânbâšladim. Çelakda muzlagan suvdek nursizgina ây kotarildi. Kampir hamân ğimirsib, nimalardir qilib yürüibdi. U mening uhlamaganimni bilib áldimga keldi.— Yâširmang, mehmân, Ádiljânniň ahvâli qalay?— dedi u ŝivirlab.— Értaga áyâğini kesišmâqçi,— dedim horsinib. Kampir qimirlamay turib qáldi. Áy ârqa

tãmândaligidan uning yüzi korinmas, faqat saçlari kumuşdek yiltirardi. U şu koyi ança turib qâlgandan keyin birdan tizzasiga urib âh urdi.— Vây âydekkina bâla-yâ, vây şundâq guldek yigit-a! Vây ésiz bâla. Uruşga qirân kelsin, uruşni er yütsin! Bu qirğın kelgurdan yigirma yildayâm qutulmasak...— Sekin, sekin, ayâ! Nima qilasiz Muazzamning yüragiga vahima sâlib. Mana korarsiz, kormagandek bolib ketadi. Kampir bâşini sarak-sarak qilib, ayvânga qarab ketdi. Uhlayâlmadim. Hayâl ming yâqqa âlib ketadi. U yâqqa ağıdarilaman, bu yâqqa ağıdarilaman, kozim ilinmaydi. Bilib yâtibman. Muazzam ham şu ahvâlda. U dunyâda éng yâqin kişisi halâkat yâqasida turgan şu daqiqalarda uning tanasiga jân bolib kirişga tayyâr. U éri bilan baravar olim yolini tosayâtibdi. Toşakda yâtgan bemâr hayât uçun yâlgiz ozi kuraşmayâtganini bilib turibdi. Dost mehri, yâr muhabbati har qanday âfatni daf qila âlišini bilib turibdi. Muz parçasidek âyni âppâq tâng nafasi éritib yübârdi-yü, azim teraklar uçidagi yâprâqlar alvândek yâltiradi. Şu tarâvatli tâng payti maktabdâşimga umr tiladim:— Yâşâşing kerak! Hali âldingda uzâq umr yoli bâr, hayâtda hali haqqing kop, hayât jâmini umring âhirigaça sipqâr, azizim! Yâna kasalhâna âstânasidamiz. Bu gal Muazzam bilan ikkâvimizga âq halat kiydirib içkariga bâşlaşdi. Uzun kâridârdan âyâq uçida éntikib, éntikib baryâpmiz. Âdilni tezrâq kora qâlsam, âperatsiyâga yâtişi âldidan bir ikki qiziq-qiziq gaplar aytib ruhini kotarsam deyman. Palataga kirdik. Burçakdagi karavâtda Âdil kokka bâqib yâtibdi. U nimanidir oylab, har zamân iljayib qoyâdi. Âhiri âdam şarpasini sezib, bâşini biz tãmânga burdi-da, birdan kozlari yâşnab ketdi. Muazzam ildam yürib, uning tepasiga keldi. Hayâjânini yâşirib uning hâl-ahvâlini soradi. Âdil hârğın-hasta tâvuşda javâb berdi.— Burunbâyning hati menga jân berdi. Suratini korib, bir kulaman, hatini oqib, bir kulaman. Âyâğimni qirtillatib kesişyâpti hamki, kulgim qistaydi. U menga qarab mamnunlik bilan iljaydi. Demak, şu keçâyâq âyâğini kesişibdi.— Rahmat, Burunbây...

Muazzamning kozlaridan duv étib yâş tokilib ketdi.— Hafa bolma, Muazzam, âmân qâldim-ku! Sizlar bolmasanglar olib ketadigan narsa édim. Âperatsiyâni kotaradigan hâlim yoq édi. Vraç, bemârni çarçatib qoyâsizlar deb, bizni çiqazib yübârdi. Taşqarida âftâb yâşnagandan yâşnab ketgan. Tiniq beğubâr âsmânda bir gala kaptar nurga çomilayâtgandek gâh şonğıydi, gâh parlariga qongan nurni tokib yübârmâqçidek qanâtlarini tinimsiz silkitadi. Yâna avtâbus âstanâvkasida tohtadik. Muazzam çirâyli bir tabassum bilan qol berib hayrlaşdi.— Rahmat! Bâşimdan zar saçsalar, âyâqlarim âstiga pâyândâz yâzsalar, nurdan koylak tikib kiydirsalar, baridan keçardim-u, şu bir âğiz soz bilan qâlardim. İnsân koksidan tâşib çiqqan, uning qalbida éng ézgu hislari-tuyğulari tâblagan samimiy taşakkuridan

qimmatlirâq mukâfât bârmi âdam bâlasiga! Bugun men ozimni tanidim. Bunga siz sababçisiz, azizlarim!

1958 yil.

ÂNAJÂNLAR

Bugun uç kun boldi kampirdan darak yoq. Unga juda organib qâlgan édik. Har gal u sutmi, shaftâlimi âlib kelganida, baragimizga kirib, u yâq-bu yâqni sinçiklab qarardi-da, kâyişga tuşib ketardi. İdişlarimiz yüvuqsiz, orinlarimiz yiğıştirilmay qâlganini u kelgandagina sezardik... Toğrisi, uning kâyişlari bizga yâqardi. Uning tâvuşini éşitganda har kim qışlâqda qâlgan oz ânasini éslab ketardi. U ketganda kuni bilan jaziramada işlab çarçaşimga qaramay uyimni, ânamni, ukalarimni oylab, ança vaqtgaça uhlayâlmay yâtardim. Saratân âftâbi qâvjiratgan sahrâ giyâhlari keç şabadada allaqanday hid çiqarib, butun çol boylab aylanib yürardi. Âsmân tola yûlduz. Oy tepaga kelib, qimirlamay turib âladi. Daryâ şavillaydi. Toğân tepasida élektrpayvand çaqin çaqadi. Uning okdek yûgurik kokimtir nuri tepamdan otib, çol qoyniga kirib ketadi. Bu manzara, bu hislarni kopinça sezmay qâlardim. Kampir kelib-ketgan kunlardagina şunaqa hislar vujudimni qamrab âladi. Âlamni korayâtgandek bolaman. Şu sâkin âqşâmda qaerdadir, juda âlisda jang ketayâtganini, ot çaqinlari ârasida kampirning oğli gâh émaklab, gâh yûgurib âldinga intilayâtganini korib turgandek bolaman. Âramizda ânalik mehriга toymagan etim bâlalar ham bâr édi. Ular kampir kelganda atrâfida girdikapalak bolişardi. Tâpğan-tutganlarini âldiga tokib sâlişardi. Şunday bolsa ham u kâyişdan tinmasdi. Hadeb bizni urişaverardi. Bilaman, ânalar şunaqa boladi. Bâlani, hattâ u bâla-çaqalik bolganda ham kâyiiverişadi. Kim bilsin, u ham yâlgizlikdan ortanib, dilini yâziş uçun âldimizga kelayâtgandir. Kim bilsin, u bizni korganda oğlini korgandek bolar. Uç kun boldi uni kormaganimizga. Bugun iş zor boldi. Kuni bilan zavâddan qaynâq tsement taşidim. Maşınamning kabinasi jaziramada dazmâldek qizib ketdi. Hârib-çarçab kelarkanman, kampir toğân ustida meni kutib turardi.— Nebmatdan hat, oqib ber, bâlam. Uning qolidan uç burçak hatni âlib, tabelçining budkasiga bâşladim. Naryâdçi qiz kursisini boşatib berdi. Hatni oqiyâtganimda kampir ikki qolini tizzasiga tirab, jimgina qulâq sâlib otirdi. Oğli sâğ-salâmatligini aytib, yâralanib gâspitalga tuşib qâlganini, yâqinda uyiga butunlay javâb tegişini ayrgan édi. Kampirning kozlari besaranjâm bolib qâldi. Qolimdan hatni âlib ârqa-ongini

ağdarib qaradi.— Hammasini oqidingmi? Birån jâyini taşlab ketmadingmi? Qaeridan yäralanganini oqib bermading-ku! Hatda Nebmat qaeridan yäralanganini aytmagan édi. Kampir taşvişda qâldi. Hat bilan bolib, budkaga qizlar kirişganini, ular jim turib suhbatimizga qulâq sâlişayâtganini bilmay qâlibmiz. Qizlar kampirni alahsitiş uçun birdan çuvillab yüborişdi.— Hâljân, oğlingiz kelganda meni kelin qilasizmi? Kampir unga qarab kulib yübordi.— Senimi? Ahvâlingni qara, sâçing pahmâq, burning puçuq.— Hâ,— dedi gap qâtgan qiz,— Yâhşilab qarang, pardâz qilsam âydek kelin bolaman. Hammamiz qâtib-qâtib kulişdik. Kampir birdan qizlarni kâyib ketdi.— Ozlaringga qarasangiz bolmaydimi, qiz bâla degan oziga qarab turadi. Uyimga keling, qatiq ivitib qoyganman, bâş-mâşlaringni yüvib âlasanlar. Osmam ham âtqulâq bolib yâtibdi. Kampir ketdi. U ketdi-yü, qizlarning kulgilarini ham ozi bilan âlib ketgandek boldi. Birdaniga hammasining uyi, ânasi, ânasining beâzâr kâyişlari ésigâ tuşib ketdi. Qâziqda dazmâllanganiça qâlib ketgan atlas koylaqdan târtib, kongilni râm qilgan yigitigaça, ariq boyidagi âşrayhândan târtib, bâlamning nasibasi deb edirmay, ariga talatmay ânalari saqlab qoygan soridagi uzumgaça şu ânda budka içiga kelib qâlgandek boldi.

Şu-şu boldi-yü, kampir baragimizga kelmay qoydi. Uni gâh katta yolda, dasturhânga tugilgan pahtani bâşiğa qoyib, gâh çelakda âhak âlib ketayâtganini korib qâlardik.

Bilib turibmiz. U oğlining kelişiga tayyârlanayâtibdi.

Uning uyi bâş toğân tuşayâtgan dongning nari yâğidagi orikzârda édi. Hâvlisidagi bir tup azamat sadaqayrağâç uzâkdan korinib turadi. Éri daryâda qayiqçilik qilgan. İslâhât yillari érini duşmanlar daryâğa çoktirib yübârişgan. Bitta-yü bitta oğli frântga ketgan. Huvillab qâlgan katta hâvlida bir ozi yâşaydi. Keçqurunlari éşiği âldidagi supada hassasini erga tirab, oğlining yoliga koz tutib otiradi. Qârânği tuşgandagina kirib, alla-pallagaça uhlamay, tiq étsâ éşikka qarab yâtadi. Diqqati âşib, dili qârânği bolib ketgan kezlarda çelakni şaftâliga toldirib, yâtâğmizga kelib qâladı. Bizni kâyib-kâyib taftini bâsib ketadi.

Ozingiz bilasiz, nimaiki yângi gap çiqsa, avval şâfyâr halqi biladi. Bâşliğimizning maşinasini haydaydigan hamkasbim bir gap aytib qâldi. Értadan daryâning éski yoli tosilmış. Suv kotarilganda orikzârni suv bâsarmış. Uç-tort kundan keyin oşa erda yâşaydiganlar koçirilarmış.

Şu gapni éşitdimu, yûragim jiz étib ketdi. Demak, kampir ham bâşqa yâqqa koçiriladi. Ahir, u oğlining kelişiga uy âqlab, devâr-tâşlarini tuzatayâtgan édi-ku!

Oşnamning aytgani keldi. Garajda majlis bolib, bizni orikzârliklarni koçirişga ajratişdi. Kampirni koçirişni ozim sorab âldim.

Érta bilan ming hijâlatda maşinamni kampirning uyiga âlib bârdim. Kampir supada ikki tizzasiga qolini tirab otirardi. Bâş kotarib menga qaramadi. Atrâfga razm sâldim. Imârati ança nurab qâlgan bolsa ham, devârlari âqlanib, deraza âynalari artilib, tâp-tâza qilib qoyilgan édi. Hâvli supurilgan. Ariq boyida atirgul, qaşqargul âçilib yâtibdi. Devâr yânidagi ikki tup şaftalining şâhlari égilgan. Supadan daryâ, toğândagi kranlar korinib turibdi. Hâvli içi jimjit. Mâtârlarning şâvqini éşitilmaydi.

Îlgarigi vaqtlarda hâtinlar bazm qilişganda, érkaklar éşitmasin deb deraza âldilariga suv tola çelaklarni terib qoyişardi, deb éşitardim. Demak, suv âvâzni tosar ékan-da. Bolmasa qulâqni bitiradigan mâtâr tâvuşlari éşitilmasmidi. Kampir bâşini kotarmay, «keldingmi?» dedi.

Nim^a deyişimni bilmay serrayib turib qâldim.

— Yoq, uyimga açinmayman. Hukumatdan ayâydigan jâyim yoq. Âdamlar jânini ayâmayâptiku, şu kulbaga hukumatdan pul âlamanni?! Men şunaqa tanti hâtinman. Faqat Nebmatginam kelganda meni tâpâlmay sarsân bolmasmikin, deyman.

Yüragim tolqinlanib ketdi. Kampir tizzasiga tiralib ornidan turdi:

— Yüklarni tugib qoyganman. Maşinangga âlib çiqaver. Menda nima ham bâr, deysan. Kelinga atagan bisâtimdan bâşqa narsam yoq. Sigirni értaga ozim etaklab ketaman...

Yüklarni taşib bolgunimça kampir hassasiga tayänib, sadaqayrağâçga tikilib turaverdi. Maşina jâyidan qozğalganda uning opkasi tolib horsindi. Yiğlarmikin degan édim. Yiğlamadi. Qayrilib ârqasiga qaramadi ham. Ammâ men bir kiprik qâqsam tamâm. Kozlarimdan yâş âqaman deb turibdi.

Ahir bu hâtin şu kulbada éllik yil umr keçirib, ne kunlarni kormagan. Âçligiga ham, toqligiga ham, bahtiga ham, bahtsizligiga ham guvâh bolgan uy, uning alamli kunlarini sir qilib saqlagan devârlar qâldi.

Tâ tsement zavâdi pâsyâlkasiga etgunimizça undan sada çiqmadi. Yângi qurilgan, yâni da çârbâğçasi bâr uyga koçlarni tuşirdik. Kampir uylarini aylanib, çârbâğni kezib çiqdi. Uning yüzidan, kozidan yângi jâyning yâqqan-yâqmaganligini bilib bolmasdi.

Ketayätganimizda kampir, meni yälğizlatma, Nebmatim kelgunça şu erda tura qâl, oğlimdek bolib qâlding, Nebmatimga qiyâmatlik aka bol, deb yälindi. İkki kundan keyin koçib kelaman, deb yüpatdim. Yolda ozimdan-ozim kâyindim. Ahir nega ikki kundan keyin dedim, bugunâq kelaman desam bolmasmidi!

Nazarimda kampir nâtaniş uyda ğarib bolib otirgandek, men yoğimda yüm-yüm yiğlayätgandek tuyüldi. Toğânga kotarilganimda kozlarim beihtiyâr orikzârdagi sadaqayrağâçga tuşaverdi. İşimni tugatdimu, korpa-toşagimni kotarib, kampirning uyiga qarab ketdim. U eşik âldidagi harsangga otirganiça zavâd quvuridan çiqayätgan tutunga qarab hayâl surardi. Uyga kirdik. Hali boyäq hidlari kelib turgan ayvânda ança vaqtgaça gaplaşib otirdik. Kampir samâvar qoyib keldi. Yigitlar daryâdan baliq tutişgan ékan, ikkitasini berişgan édi, yüvib, tâzalab keldim. Kampir baliq emasligini aytdi. Baliq tâzalanganiça qâldi. Nân-çây qilib qoyâ qâldik.

Kampir jây sâlib berdi: Çirâqni oçirib, içkari uyga kirib ketayätganida tohtab, baliq emasligining sababini aytib berdi.

— Rahmatlik âtang şu daryäga çokib ketgan. Kim biladi, uni şu baliqlar eganmi...

Uning âvâzi titradi. Qârânği bolganidan başarasini korâlmasdim, yiğlayätgandek boldi. Qattiq çarçagan bolışimga qaramay uhlayâlmadim. Kampir juda barvaqt uyğâñib, hâvli supurdi, samâvar qoydi. Huddi oz uyimda, oz ânam âldida yürgandek râhat qilardim. İşga ketayätganda kampir értarâq qayt, sanğib yürma, tãmâğing sâvub qâladi, deb tabkidladi.

Oşa kuni iş juda kop boldi. Butun samâsvallar tâş taşışga qoyilgan édi. Daryäning éski yoli tosilyäpti. Tinmay koprikdan tâş taşlab turibmiz. Daryä quturadi. Tâşlar ustidan sapçib, éski yoliga âtiladi.

Suv ahir boyin égdi. U tâş tosiqlardan otâlmay mayda tolqinlarni zarda bilan arqaga silkitdi. İkki kun deganda daryä butunlay tosilib, suv kotarila bâşladi. Toğân darvâzalaridan faqat bittasigina âçiq. Suv orikzâr tãmânga ormalay bâşladi. Toğân tepasida âdam kop. Tâ qâş qaraygunça âlâmân tarqamadi. Bir mahal qarasam, yânimda kampir turibdi. U qârânğida arang korinib turgan sadaqayrağâçdan kozini uzmasdi. Âhiri qârânğida orikzâr korinmay ketdi. Értalab kampir men bilan yâna toğânga keldi. Orikzâr éndi butunlay suv âstida qâlib ketgan édi. Faqat sadaqayrağâçning uçi korinib turardi. Kampir oşa yâqqa tikilib turib:

— Âtang rahmatlik ékkan édi,— deb horsinib qoydi.

Garajdan maşina âlib çiqib kelayätganimda dokân âldida bir toda âdam oralaşib turganini korib qâldim. Yäna kelib qarasam, kampir erda yätibdi. Bir hâtin yüziga suv sepyäpti. Kabinadan sapçib tuşdim.

Nebmatdan kelgan hatni qârâvul âlib qoygan ékan. Açib kampirga oqib beribdi. Hatda Nebmat gâspitalda âyâğini kesib taşlaşganini aytibdi. Kampir huşidan ketib qâlibdi.

Uni kabinaga çiqarib, uyga âlib ketdim. Értasiga ham, indiniga ham işga çiqâlmadim. Kampirning ahvâli âğir édi. U bir âydan ârtiq yâstiqdan bâş kotarmadi. Faqat bir gapni aytardi:

— Bâlam, bâlaginam. Oz qoling bilan tuprâqqa qoy. Toyingni ham kora âlmadim, heç bolmasa diydâringni bir koray...

Yoq, oğlining diydârini koriş unga nasib bolmadi. Oğliga ihaq bolib koz yümdu. Uni dafn qilişga ançagina âdam yiğilgan édi. Bâlasining orniga bâla bolib, tâbutining âldiga tuşdim. Yol-yolakay yät, begâna kişilar marâsimga qoşilaverdi. Kanal qaziyätganlar işni tohtatib, tâbutni elkama-elka otkazib bârişardi.

Katta yolga çiqqanimizda bir harbiy yigit yük haltasini erga qoyib, âqsâqlana-âqsâqlana tâbutning bir qanâtini elkasiga âldi. On qadam ham yürmay âyâği qaltirab çetga çiqdi. Nihâyät, marâsim ârçasidan ança vaqtgaça qarab turdi-da, haltasini âlib, toğân tarafga jadal yürüb ketdi.

Qaytib kelganimizda oşa harbiy yigitni uyda korib hayrân boldik. U yâğâç âyâğini çiqazib, ayvân labidagi ustunga bâşini tirab, qimirlamay otirardi. Éndi bildim: bu Nebmat édi. U ânasining bâşqa uyga koçganini bilmay, orikzârga bârgan. Bâyä kimning tâbutini kotarganini ham bilmay qâlgan...

Har gal yolim şu tãmânlarga tuşganda, pâezd toğânga yâqinlaşşi bilan vagân âynasini âçib, oşa orikzârga qarayman. Suv betiga çiqib, barg yâzişdan tinmagan sadaqayrağâçning kom-kok uçlariga tikilaman. Bu yâşil nâvdalar menga juda kop vâqealarni éslatib qoyädi. Nazarimda, daryäga çokkan qahramân âta suvdan bâş çiqazib, atrâfda çaqnagan sânsiz çirâqlarga qarayätgandek, azamat toğândan quyilayätgan şarşara tâvuşiga qulâq sâlayätgandek boladi. Suv jimjimalariga âq toşini urib uçayätgan qaldirğâçlar, ârçasida ayri iz qâldirib suzayätgan viqârli âppâq ğâzlar menga oşa surânli yillarda hammaga mehrini barâbar sâçgan munis âna çehrasini, uning âppâq pahtadek sâçlarini éslatadi. Frânt yoliga ilhaq tikilgan

kozlarini éslatadi. Qaynâq ânalik tuyğulariga toymagan bálani fikran qidiraman. Qaysi jabhada ékan u?

Şunday átaning, şunday ánaning bálasi hayátda oz ornini tãpib álganiga işánaman. Nazarimda, u áldinda, hammaning áldida şitáb bilan álğa ketayátgandek.

Habar ber, habar ber, qaydasan, uka!

1961 yil.

PÁYQADAM

Vây qudamdan aylanay, ana kelişadi, mana kelişadi, deb ikki kozim koçada boldi-yä, toy andâq otganiniyäm bilmadim. Vây boylaringizga tasadduq. Huş kelibsizlar. Hây, Nigârahânni uyğâtinglar. Dadalari bilan âyilari kelişdi.

Vahâbjân bilan Manzurani quda ana şunday sozlar bilan kutib áldi.

Quda yâşi éllikdan áşgan bolsa ham yûzidan pardâz arimagan jikkakkina hâtin édi. Uning yûzlari huddi şarbati siqib álingan anâr postiga ohşab ketardi. Qolidagi qoşa-qoşa uzuklar, boynidagi har biri nohatdek keladigan dur marjânlari, égnidagi yâşiga yâraşmagan gulli krepdeşin koylagi uni allaqanday baçkana qilib korsatar édi.

Vahâbjân atrâfğa nazar taşladi. Katta hâvlining bâşidan âyâğigaça qoyilgan stállardan hali dasturhân yiğilmagan, gullar ârasida boşagan şişalar, sorilarda toyda hizmat qilib çarçagan kişilar eçinmay yätib qâlišgan, eroçâq áldida dasta-dasta yüvuqsiz laganlar yätardi. Hattâ daraht şâhlariga ilingan lampâçkalar hali yäquğlik turardi.

Quda ayä sorida eçinmay uhlab yätgan kişining âyâğidan silkib uyğãtdi.

— Turing, hây turing, qudalarinigiz kelişdi.

Qâra sâqâl bir kişi yästiqdan bâş kotarib atrâfğa alangladi. U Vahâbjânlarni korib iyä, iyä, deb ornidan turarkan, korpaça qatlarini titkilab nimanidir qidirardi.

— Hâjar, tişimni kormadingmi?

— Yoğ-a, qayäqqa qoygandingiz? Avval qudalarinigiz bilan korişib äling, keyin qidirarsiz.

Çäl ildam yürüb Vahâbjânlar bilan quyüq korişdi. Yol başlab uyga älib kirdi.

— Qani, qani, otirişsinlar, otirişsinlar, äbbâ quda-ey, kop kutdik. Juda kop kutdik. Toyga etib kelälmadinglar-da. Hay mayli, sizlarga başqa toy qilib beramiz éndi. Hây, Hâjar, dasturhân keltir, kelingni uyğât, oğlingni uyğât, qaynata, qaynanalari bilan tanişib qoysin.

Çäl uzr aytib tavâze bilan yüvingani çiqib ketdi. Ér-hâtin uy jihâzlariga mahliyâ bolib indamay otirişardi.

Ular kirgan uy mehmânâna bolsa kerak, nihâyätde serhaşam édi. Torda pianinâ, burçakda kurant sâat, devârda ham, erda ham, divan ustida ham gilam. Şifta billurin qandil. Javânlarda hitây çinnilari, televizâr ustida har hil çinni oyiñçâqlar. Derazalarga ham tor, ham bahmal parda tutilgan.

Vahâbjânning ési ägib qâldi. Butun umrini mehnat bilan otkazgan, rozğârini bir mebyârda älib bârgan Vahâbjânga bu haşamlar allaneçuk korinib ketdi. Ér-hâtindan sadâ çiqmasdi. Manzura kaftini iyägiga tiraganiça hayâl surardi.

Nigâra ularning bittagina bâlasi. Vahâbjân tuğilib osgan qişlâği Ganjiravânda ottiz yildan beri oqituvçilik qiladi. Butun Ganjiravândagi kişilarning yärmidan kopini şu Vahâbjân oqitgan. U qizini Tâşkentga oqişga yübârayâtganda ne-ne umidlar qilgan édi. oqisa, institutni bitirib oziga ohşab oqituvçi bolsa, şu. Ganjiravânga kelib âtasining işini davâm éttirsa. Kuyävi ham oqituvçi bolsa. Muallimlik qanday. Yâhşi hunar. Qizi tuşmagur nima qilib qoydi. Bir ägiz na âtaning, na ânaning râziligini älmay ozbâşimçalik qilib qoyibdi. Kuyäv nima iş qilsaykin? Oqiganmikin, ylmi bârmikin? Birân hunarning bâşini tutganmikin? Ozi ahlâqlikkina bâlamikin?

İçkariga oqdek âtilib Nigâra kirdi. U ânasining boyniga âsilib, u yüzidan, bu yüzidan çopillatib opa bâşladi. Dadasining elkasiga âsilib érkalandi. Kopdan sâğintirgan bâla âta-ânaning yûragidagi gina-kudratni bir dam bolsa ham nari quvib yübârdi. Nigâra bahtiyâr édi. Uning égnida yaşnab turgan nikâh libâslari oziga biram yäraşibdiki.

Nigâra çirâyli qiz édi. Äta-âna tâpganlarini şu qizga sarflaşardi. Ayniqsa u boyga etib, qâmati tolişa başlagan paytlarda kiyinib koçaga çiqqanda Ganjiravân yigitlari ésdan ägib qâlişardi. Uning qoşiqlari, uning jarangdâr kulgilari, boyi basti, keksa tâllar sâyä taşlagan

anqâr boylarida hayälçan kezişlari Ganjiravânga biram yäraşardi, biram yäraşardi, Qışlâq yigitlari atayin tegajâğlik qilib uning âldidan «Men seni kordim yäna Ganjiravân koçasida», deb qoşiq aytib otişardi. Nigâra ham ularning hazillariga hazil bilan javâb qaytarardi. Nigâra tuğilib osgan qışlâğining şaydâ yigitlarini hasratda qâldirib kimni tâpdियkin? Äna ana şu toğrida oylardi.

Kuyäv kirdi. U nihâyätda çirâyli, qâra qâş, gavdasi quyilgandek, qirra burun, jingalak sâç yigit édi. Égnidagi tugmasi çala qadalğan yol-yol yâşil pijamasi oziga juda yäraşib tuşgan édi. U âdâb bilan qayin âtasiga, qayin ânasiga salâm berdi. Keyin ularni narigi uyga taklif qildi.

Vahobjân bilan Manzura beihtiyâr orinlaridan turişdi. Ular bu zinadan tuşib u zinaga kotarilişar ékan, Vahâbjânda kuyävga allaqanday mehr uyğângandek boldi. Ammâ bu tuyğu yäsatilğan uyga kirişganda ozi ham mabnâsiga tuşunib etmagan allaqanday hislar bilan aralaşib ketgandek boldi. Nigâraning uyi bâyägi uy haşamidân on çandân afzal édi. Vahâbjân âltmiş yâşga kirgan bolsa, şu âlis umr davâmida koriş u yâqda tursin, hayälige ham keltirmagan buyümlar bâr édi bu uyda. Hattâ derazalarning yûqâridagi kozlariga rangli şişalar sâlingan édi.

Nigâraning yûzida, kozida: érim yâqdimi, degan mabnâ pârlab turardi. Taşqarida qayin âtaning zardali tâvuşi éşitilardi. Kuyäv kulib derazadan hâvliga qaradi.

— Keçirasizlar, bâbâyning yäsama tişlari yoqâlib qâlibdi, tâpâlmay hunâb bolyäptilar,— u Nigâraga yûzlandi,— iş bolmasa çây âlib kelmaysizmi?

Nigâra çiqib ketdi. Kuyäv keça toyning juda yâhşi otganligi, araqning ozidan etmiş şişa ketganini, mehmânlar kabâbga toyib qâlib mantiga qaramaganlari, mast bolmagan âdam qâlmaganini gapirardi.

— Bizning bâbây ham mast bolib qâlganlaridan bilavering toyning qanaqa bolganini. Ahir u kişini unça-munçaga mast qilib bolmaydi-yä.

Vahâbjânga bu uydagi buyümlardan târtib âdamlarigaça begâna, kuyäv bolsa koziga allaqanday baçkana, yâqimsiz bolib korindi. Qani éndi vaqt otmagan, toy bolmagan bolganda u albatta qizining qolidan etaklab çiqib ketardi. Na çâra, bolar iş bolgan. Undan taşqari oz yolini ozi tâpadigan yâşga etgan qizining taqdiriga u qanday qilib hâkimlik qila âladi.

Ikki şışa kânbyäk kotarib quda kirdi. Uning égnida yängi ton, başida tort karjli surma rang doppi.

— Éndi, quda aybga buyürmaysiz-da, bálalarimizning bahtli bolişiga andek tanavvul qilamiz-da! İkrâmjân, rümkalarni âl. Éndi sen içma. Keçagiga ohşab dâvdirab yürma.

Derazadan isitilgan manti uzatişdi. Vahâbjân içmadi. Âta-bâla bir şışani boşatişgandan keyin Vahâbjân uzr sorab ornidan turdi.

— Meni aybga buyürmanglar, qiladigan işlarim bâr édi. Ânasi mayli qâlsin. Értaga bir habar âlarman.

Kayf qilib âlgan quda unça qarşilik korsatmadi, kuyävning kozlari suzilib hadeganda tilla tişini korsatib iljayáverdi. Ammâ, quda ayâ yâlinib ési ketdi.

Vahâbjân taşqariga çiqib toyib nafas âlgandek boldi. Sal narirâq bârib birdan kongli buzilib ketdi. Uning bu kayfiyâti uyiga ot ketganda bâlasi qâlib ozini qutqargan kişining ahvâlini éslatar édi.

Vahâbjân şu kuni keçgaça şahar koçalarida tentib yürdi. Mehmânhânaga kirib yâtib yâtâlmadi, otirib otirâlmadi. Yâna koçaga çiqdi. Keç kirdi. Fântan atrâfi âdamlar bilan gavjum boldi. Bâla etaklagan juvânlar, hassasiga tayângan keksalar şaffâf tâmçilarning salqinida beâzâr sayr qilişardi. Hamma şâd. Hammaning yüzida allqanday bahtning, quvânçning tabassumi pârlaydi. Faqat Vahâbjân tajang. Şahar çirâqlari siyraklaşdi, fântan atrâfi boşab qâldi. Âhiri kokka intilgan tâşqin fântan ham asta-sekin erga singandek tindi. Vahâbjân maşaqqat bilan ornidan turib mehmânhânaga yol âldi.

Qattiq uhlab qâlgan ékan, telefân tâvuşi uyğâtib yübârdi. Bâşqa nâmer adaşib tuşib qâlibdi. U qayta yâtâlmadi. Sâatiga qarasa allapalla bolib qâlibdi. Koçaga çiqdi. Qizinikiga bârişga yûragi betlamay, mehmânhâna âstânasida kunini keç qildi.

Qâş qaraygan mahalda Manzura keldi. U ham mabyüs édi. Ér-hâtin bir-biriga birân gap bilan âzâr etkazib qoymaslik uçun sunbiy iljayiş bilan içkariga kirişdi.

— Nigâra qalay, hafa émasmi?— dedi Vahâbjân.

— Binâyidek oynab-kulib yüribdi, Nega bârmadingiz, hayrlaşib ham kelmadingiz.

Vahâbjân gap tâpâlmay gardanini qaşib qoydi.

— Biletni értangi pãezdga áloveraymi, yã bir-ikki kun turasanmi?— dedi Vahãbjãn.— Agar hop desang, ãaharning u yãq-bu yãgini korsatay.

Manzura qizini taãlab ketiãga kongli bolmay, yûragining bir çeti uzilib qãlayãtgandek bolib turgan édi.

— Mayli, ozingiz bilasiz,— deyã uning oziga taãladi.

Bugun Vahãbjãn ozi oqitgan ganjiravãnlik vraç bãlani uçratgan édi. U uyiga taklif qilgan. Vahãbjãn vaqt bolsa, albatta bãriãligini aytgan édi. Ñu tãpda vabdasi ésigã tuãdi.

Ñu keça na ér, na hãtin qudalaridan gap açmadi. Ammã, tãng átgunça tolãanib çiqdi. Értalab ular éndi nãnuãtagã tayyãrlanib turiãganda kimdir éãikni bezãvta taqillatdi. Vahãbjãn ãããib açsa, nãtaniã bir kiãi kozlari besaranjãm bolib turibdi.

— Tez bãrarmiãsizlar. Darrãv, darrãv...— u ãunday dedi-yü, ãããilgãniça ketib qãldi.

Ér-hãtin nima gapligiga tuãunãlmay apil-tapil yolga tuãiãdi.

Nigãraning hãvlisi suv quygandek jimjit. Hãvlidagi sorida çãl peããanasini uãlagãniça qimirlamay otiribdi. Vahãbjãnning yûragini birdan vahm bãsdi, Nigãragã bir gap bolmadimikin! U átilgãniça uyga intildi. Íçkaridan çiqib kelayãtgan qudasi Hãjar unga sãvuq nazar taãlab otib ketdi. Nigãra uyning ortasida qimirlamay turardi. U áyãq tãvuãini éãitib ogirildi, dadasini korib hongrab yiãlab yûbãrdi. Manzura kirdi.

— Peããanam qursin, tãleim qursin!

— Nima boldi?— dedi Manzura hayãjãn bilan.

— Íkrãmjãn akamni qamãqqa álib ketiãdi. Hamma narsani hatlab ketiãdi.

Hãjar derazadan bãã suqdi.

— Kelinning áyãgi «qutluã» keldi-da! Ha, qadami «yãqdi».

Vahãbjãn beihtiyãr otirib qãldi. Atrãfãgã ããmgin nazar taãladi. Uy jihãzlari koziga sãvuq korinib ketdi. Bu buyümlarning hammasi hatlangan, hammasining égasi bããqa, bular yûrtning rizqidan yûlib álingan narsalar. Bu uyda ãu bitta Nigãragina halãl édi. Yoq, u ham oãirlangan, ozi ham, bahti ham oãirlangan.

— Hafa bolma, qizim,— dedi Vahâbjân,— ilâjimiz qançâ, begunâh bolsa çiqib qâlar. Sabr qil.

Çâl kirdi.

— Quda, bu işning şundâq bolışini kim biluvdi, deysiz. Çaquvdan boldi. Yâmân âdam kop. Bâr bolsang korâlmaydi, yoq bolsang berâlmaydi. Éndi bundâq qilsak.— U yânidan buklâgliq qâğâz çiqarib Nigârâga uzatdi.—Şu royhatdagi narsalarni âtamnikidan âlib kelganman, ozimniki deb sudga ariza yâzsangiz.

Vahâbjân qizning qolidan qâğâzni âldi. Royhatda tahminan yângi pulda on beş ming somlik buyüm yâzilgan édi.

— Yoq,— dedi qatbiy âhangda Vahâbjân.— Bunaqa işga qol urmaydi Nigâra.

Çâl bâşini sarak-sarak qildi.

— Ozlaringizga qiyin boladi, mayli, mayli. Hâjar derazadan bâş suqdi.

— Konişmayâptimi? Bu tagi past qişlâqilardan yâhşilik çiqadimi? Aylanay qudalar, hop deb qoyâ qâsanglar âlam gulistân boladi-yâ!

— Qoying, jinâyâtlaringizga bizni şerik qilmanglar.

— Umid bilan quda bolgandik, mayli ozlaring bilasizlar. Nigâra hattâ râzi bolışga ham tayyâr turganda, kampir yâna gapga suqildi.

— Aylanay Nigârahân, bu er ham oz uyingiz, bizni unutvârmay tez-tez kelib turasiz-a!

Nigârâning kozlari yâlt étib açilib ketdi. Kelinlik libâslari muzga aylanib badanini sâvutib yübârgandek boldi. Kozlariga ğazab tolib atrâfqa jâvdirab bâqdi-yü, şaht yürüb narigi uyga çiqib ketdi. Bir âzdan keyin u oz ânasi tikkan oşa âq krepdeşin koylagini kiyib, studentlik çamadânçasini kotarib çiqdi. Dadasiga mabüs bâqib dedi:

— Meni keçiring, dadajân. Ozini ozi oğriga tutqazib bergan, bahtini ham, ozini ham oğirlatgan qizingizni keçiring.

Nigârâning kozidan yâş çiqmadi. U dadil gapirar édi.

Vahâbjân bilan Manzura qizini bundan uç kun avval çiqib ketgan yâtâğida qâldirib, yâna Ganjiravânga qaytib kelişdi. Nigâra uyiga éndi ilgarigidek tez-tez hat yâzmas, toğrisi

nima deb yazişini bilmasdi. Özganda ham sağ-salâmatman deyişdan nariga otmasdi. Āradan uç āy otganda Nigāradan tort varaq hat keldi. Hatda u İkrāmning katta jināyātçi ékanligi sudda āçilgani, ozi on yilga kesilib, uy-jāylari musādara qilinganini yāzgan édi. Hatning āhirida u: értaga davlat imtihānlari tugab, diplām qolimga tegadi. Ganjiravānga qaytib bārişga éndi yūzim çidamaydi, Hārazmga yollanma berişlarini soradim. İltimāsimni qaytarmasalar kerak, depti.

Manzura: «Jān bālam, dadang qarib qāldi, bir hafta boldi, pensiyāga çiqdi, Ganjiravānga kel, dadang orniga ozing oqituvçi bol. Jān bālam, yoq dema», deb hat yāzdi.

Nigāra kelarmikin? Kelsa, Ganjiravān koçalarida toda-toda maktab bālalarini érgaştirib yūrsa, qandāq yāraşadi unga. Kelarmikin?

Ammā, ānaning hati Nigāraga etmadi. U oğirlangan bahtini izlab vagān āynasidan qum barhanlariga tikilib ketmāqda édi.

1957 yil.

BEGĀNA

Hayri bāqçadan oğlini ālgani kirganda tarbiyāçinining fiğāni falakka çiqib turgan édi.

— Keç qāldingiz-ku. Bugun dam āliş arafasi, iş vahlik tamām boldi. Hamma bālalarni āta-ānalari ālib ketişdi. Faqat sizni kutib turgan édim.

Hayri ayālga uzr aytib, oğlini etaklab ketayātgan édi, tarbiyāçi uni tohtatdi.

— Birpas sabr qiling. Bir ādam sizga sāvğa qāldirgan édi.

Tarbiyāçi yūgurib içkariga kirib ketdi-da, hayāllamay darrāv ārqaga qaytdi.

— Tort ming som pul, bir kiyimlik krepdeşin va Ğayratga matrāsça koylak. Ğalati ādam ékan. Sizga tāpşiriş uçun mendan tilhat āldi.

Hayri şaşib tugunni eçdi. Unnig içida allaqañça pul va kiyimliklar bār édi. Tarbiyāçi unga kånvert uzatdi.

— Bu hatni ham oşa kişi qâldirdi. Hayri kânvertni yirtib, hatni âldi.

«Hayri, meni keçir, kor édim. Éndi kozim açildi. Dissertatsiyä yâqlabsan, gazetada éblânni oçiganimda hayjânimni bäsâlmay, tuni bilan uhlamay çiqdim. İnstitutga bâray desam yüzim çidamadi... Tort ming som pul va mayda-çuyda qâldirdim, kam-kostingga yâratasan. Keçir meni, âyâgingga bâş qoyib, yâlvârib kâluvçi, Hasan».

Hayrining rangi âqarib ketdi. Hat tutib turgan qollari bilinar-bilinmas titrardi.

— Nima boldi, hatda kongilsiz birân gap yâzilganmi? Tarbiyâçi uning bilagidan uşlab, skameykaga otkazdi. Hayri hatni ğijimlab, âyâqlari âstiga taşladi.

Ānasining mabüs kozlariga tikilib turgan Ğayrat kissasidan bir siqim kânfet âlib, Hayriga uzatdi.

— Ayâ-çi, ayâ, bitta kişi menga ança kânfet berdi. Hayri yâlt étib tarbiyâçi ayâlga qaradi. U ésa şaşib izâh bera bâşladi:

— Mumkin émas, desam ham qulâq sâlmadi. Umuman, bâlalar âldida şunaqa qiliş toĝri kelmaydi.

Hayri Ğayratning peşânasidan siladi. Tarbiyâçi ayâl hayrân, ğâh Hayriga, ğâh Ğayratga qarab, kozlarini pipiratairdi.

Hayri ornidan turib, bâyâgi narsalarni tarbiyâçiga uzatdi:

— Mana şu narsalarni égasiga qaytarib bering.

— Juda iltimâs qilgan édi-da, âlmasa mening nânimdan yâdvârib sorang, deb aytgan édi.

— Hâtiningiz sizni allahaçân unutibdi, sadaqalaringizga muhtâj émas ékan, deb ayting. Éndi kelsa, Ğayratni unga korsatmang. Ozingiz keçqurun biznikiga marhamat qiling. Dissertatsiyä yâqlaganimga institutdan mehmânlar kelişmâqçi. Albatta keling. Sizni kuttirib qoyganim uçun keçiring.

Hayri tarbiyâçi bilan hayrlaşib, darvâzadan çiqdi.

U serqatnâv koçadan oğlini kotarib kelar ékan, koz âldiga Hasanning qiyâfasi keldi. Bir vaqtlar kozga uyqu bermagan şirin hayâllar, qalb ortanişlari éndi kopdan unutilgan. U kunlar Hayri uçun éndi yüzini kul bâsgan çoğdek oz nurini, harâratini yoqâtgan édi.

Bugun Hasan uning yolida yâna paydâ boldi. Hâtin yûragida songan hislarni yâna qozğatmâqçi. U éndi ozini Hayrining âyâqlariga taşlamâqçi, uzilgan ipni yâna ulamâqçi.

Hayri qançâ urinmasin, Hasan uning tasavvuridan surbetlik qilib nari ketmas édi. Hayri uni hâtiridan quvlamâqçi, bahâr manzaralariga bâqib, ozini alahsitmâqçi bolardi. Birâq kozi âldiga tutundek yâpirilib kelgan hayâllar uni engdi.

«Hasan!

Seni qançalar sevganimni bilarding. Bu sevgi boynimga bâğlangan âğir tâş boldi. Şu tâş meni ozi bilan suv tubiga târtar, ğarq bolışimga qaramay, mana şu tâşga yâpişib âlgan édim. Çunki şu tâşni sevardim.

Éslaysanmi, sen bilan faqat bir yilğaça tâtuv yâşadik, hâlâs. Kop içadigan, sayâq yûradigan qiliq çiqar-ding. Umr boyi mehnat bilan kun keçirgan, frântda halâk bolgan bir işçining yâğâna qizi uçun qâldirgan uy jihâzlarini sâtib bitirding. Bir soz demadim. Çunki seni sevardim. Qâra kozlaringga termilganimda hamma narsani unutib, faqat seni oylardim. Sen restâranlarda mastu alast bolib yûrganingda uyda yâlgiz otirib qân-qân yiğlaganman, koz yâşlarimni sendan yâşirganman. On yillikni tugatganimda âtam mukâfât puliga sâtib âlib, menga taqdim qilgan âltin sâatni sekretaringning qolida korganimda yûrak-bağrim ézilib ketgan édi. Ahir, oşa sâatning ârçasiga mening ismim oyib yâzilgan édi. Şunda ham senga bir soz demadim.

Sen bilan birga keçirgan bir yillik hayâtimda yûragimda oçmas qâra izlar qâldi.

Birinçi bâr hâmilalilikni tuygan, ây-kunim yâqin qâlgan kunlar sira-sira ésimdan çiqmaydi. Quvânçimga şerik bolış orniga masharalagan éding. Yüzimga hâmilalilik dâğlari tuşganda «ajina» deb aytganning ésingdami? Şunda sendan butun vujudim bilan nafratlanganman.

Tuğilgan kunimdan bâşlab ânam qoliga igna âlib men uçun tikkan palakni bâzârga âlib ketayâtganingda: «Qoy, tegma, ânamdan yâdgâr» dedim. Şunda sen «uç talâq!» deb çiqib ketding va nihâyât tuğruqhânada tolğâq azâbini keçirgan va oğlimning yüziga bâqqanimda, âtasiz oğlim uçun aççiq-aççiq yiğlaganman. Tolğâq azâbidagi hâtin uçun dunyâda éng yâqin

âdam ér ékanligini bilmading. Şunda men irâdamni qolga âlib, qalbimdan seni sidirib taşladim. Bir yilgi hayätimda érkin nafas âlişim ham şu édi, çunki boynimdagi oğir tâşdan— sendan halâs boldim.

Oz yolimni tâpib ketdim. Yârim yolda qâlib ketgan oqişimni davâm éttirdim, oğlimni âtang yoq deb işântirâldim. Oğlim bilan baravar men ham qayta hayât bâşladim. Sensiz yâşaş menga ozligimni qaytardi.

Bugun, bahâr nafasi gurkirab turgan kun, yâna yolimda paydâ bolding. Pul bilan, bir parça latta bilan konglimni âlmâqçi, korgan kunlarimni unuttirmâqçi bolding...»

Maşina signali Hayrining hayâlini boldi. Kimdir uning qolidan uşlab çetga târtidi. Yânginasida taqqa tohtagan maşina kabinasida şâfyâr bâş çayqadi. Uning kozlari taşvişli édi. Hayri hijâlatda erga qaradi...

...Hasan derazasi koçaga qaratilgan uy âldiga kelganda qadamini sekinlatdi. Qolidagi guldastani salmâqlab kordi-da, bâtinmasdan éşik yânbâşidagi tugmaga qol uzatdi. Uning qoli titrar, yûragi tez-tez urar édi. Titrâq panjalar qonğirâq tugmasini âjizgina bâsdi.

— Hayrining ozi çiqsa-yâ,— u miyâsiga kelgan bu hayâldan çoçib, bir neça qadam ârqaga çekindi. Éşik âçilib, orta yâşlardagi bir hâtinning bâşi korindi. U Hasanning qolidagi guldastani korib, uni içkariga taklif qildi.

Hasan uyga kirdi. Did bilan bezatilgan yâruğ uyda mehmânlar kop édi. Hâtin qoşni uyga qarab qiçqirdi.

— Hayrihân, mehmânni kutib âl!

Hayri Hasanni korişi bilan jâyida qâtib qâldi. Hasanning gul tutgan qoli havâda muallaq qâldi.

Bir âzdan song, Hayri arang:

— Nega keldingiz?— deb piçirladi.

Hayri undan javâb kutmay, ây nuri tuşib turgan râvân tãmân yûra bâşladi. Mehmânlar Hasanning asta-sekin yûrib Hayrining ketidan râvânga çiqayâtganini sozsiz kuzatib qâlişdi.

— Hayri,— Hasanning âvâzi titradi,— keçir meni, adaşgan, hayâtda oz yolini yoqâtgan badbaht éringni keçir!

Hayri indamadi. Gullab turgan orik şahlari aralab tuşib turgan ay nuri uning elkasida, aq aralagan saçlarida lip-lip oynardi.

— Senga azraq pul yubargan edim, algandirsan... Direktar bilan chiqishmay savhazdan ketdim. Hazir ishim yahshi, katta havlini satib, pulini singlim bilan baravar bolib aldim. Amanat kassada ham uncha... muncha...

Hayri ogirilib unga qaradi. Ay nuri endi Hasanning yuzini yaritib turardi.

«Ozgarmabdi, yuziga sal-pal ajinlar tuşibdi, hals, hali ham chirayli, yaqimli...» deyä dildan otkazdi Hayri. Uning konglida yilt etib chaqnagan muhabbat hislari bir nafas uni oz aguşiga algandek boldi. Biraq Hayri ozini juda tez onglab aldi. Songan chozni puflab alangalatiş qiyin edi.

— Oglimiz uqun, Hayri...

— Oglimning atası yoq.— Hayri şunday dedi-yü, tamagını boğib kelayatgan içki dardni yaşiralmadi, kozlaridan yüm-yüm yaş tökildi.— U sizni tanimaydi. Uni oz familiyamga otkazib alganman. Oglingiz, hatiningiz barligi endi yadingizga keldimi? Qolimdan iş keladigan bolganda esingizga keldimi? Sizni unutib yubarganimga kop bolgan. Endi biz birbirimizga mutlaqa begana, nataniş kişilarmiz.

— Endi pul kopayib qapti-da, a? Yigit bashingizni egib kelgan edik...

Hayri keskin burilib uyga kirdi.

— Kim ekan u?— dedi eşik açgan hatin.

— Begana kişi, biznikiga yanglişib kirib qapti.

1956 yil.

ALLA

Azada işdan chiqib, tramvayga otirmay, yangi barg yazgan serdaraht, gavjum koçadan uyiga qaytdi.

Hamma yäqda bahâr nafasi gurkiraydi. Devâr âşa koçaga éngaşgan orik şâhlaridan yollarga tanga-tanga gullar tokilgan. Jildirab âqayätgan ariqlar betida ham orik gullari âqadi.

Äzâdaning bu koçadan yürmaganiga beş yil boldi: Bu koça daraht va jildiragan ariqlar uning éng huşnud kunlari— kongliga muhabbat âlâvi tuşgan, hayätga birinçi bâr qadam taşlagan, birinçi bâr hâmilalikni tuygan ânlarining guvâhi.

Uni bu koçadan qayta yürişga majbur qilgan narsa na muhabbat hâtiralari va na bahâr manzaralari boldi. Äzâda bu koçaga burilganida butunlay bâşqa, ozi ham mabnâsiga tuşunib etmagan qandaydir ğayri tabiiy bir kuç uning vujudida hâkim édi. U qaysi koçada ketayätibdi, bu koça unga tanışmi, yoqmi, bu hakda oylamasdi.

Hâzir u uyga qaytadi. Éri Hâmicân işdan qaytgandir. U hâtinini har kungidek âçiç çehra bilan kutib âladi. Ä, uning kozlari naqadar çirâyli. Mana şu uç yillik birga keçirgan hayätde Äzâda uning kozlariga neça bâr termilgan, uzun kipriklar ârasida çaqnab turgan qâra kozlar Äzâdaga âlam-jahân baht, râhat bağışladi. Mana hâzir ham u Äzâdaning yoliga koz tikib otiribdi.

Mana şu mehru muhabbat tola kozlarga bâqiş Äzâda uçun qançalar âğir. Keyingi kunlarda érining mehru muhabbat tola kozlarida solğinlik, pinhâniy iztirâbning tabsiri sezilib qâldi. Äzâda bu dardni biladi. Birâq u érini yüpâtişga, mana şu mabüs kozlarga tik bâqişga qâdir émas. Oz hayätida birinçi bâr oyninqarâqlik, engiltaklik bilan qol urgan jinâyâti uni beş yildan beri alam girdâbiga sudraydi. Qani éndi u şu işni qilmagan bolsa édi. Atrâfda mavj urgan koklam nihâllari, quvnâq kulgilar uning kongliga bâşqaçarâq tabsir korsatgan bolarmidi.

Stâlbalarda çirâqlar yändi. Derazasi koçaga qaragan uylardan trâtuarning har er-har eriga âq çâyşab yâzgandek, âppâq nur tuşib turibdi. Ärqa koçadan guvillab otayätgan tramvay dugasida çaqnagan nur baland imâratlarning peştâqlarida bir yält étib, yâna sonadi.

Äzâda orik gullarini bâsib asta-asta qadam taşlab ketar ékan, fikran érining mabüs kozlariga duç keldi. U beihtiyâr seskanib erga qaradi. Bu seskaniş unga oz qilmişini— bugungi iztirâbning bâisini ésga sâldi. Ortda qâlgan kongilsiz hâtiralarga nazar sâlmâq qançalar qiyin va kongilsiz...

Kongliga birinçi bâr muhabbat âlâvi tuşgan kunlar qanday yâhşi édi-yâ. Keçalari kokka termilib Murâcân haqida hayâl surardi. Értagi kunni, Murâd bilan uçraşuv ânlarini

ârziqib-ârziqib kutardi. ZAGS âstânasidagi éntikişlar, toy, qadaharning jaranglaşi, maşşâqlarning hânişi va nihâyât, birga keçirgan şirin va âsuda kunlar...

Murâd tâğ ékspeditsiyasidan sâqâllari osib, qârayib, âzib qaytardi. Âzâda érinig qaytişiga hâvlining burçidagi hammâmni qizdirib, sâqâl âladigan buyümlarni katta tâşâyna âldiga terib, kiyimlarini dazmâllab qoyâr, tâ u hammâmdan çiqqunça stâl ustini yâsatib, hattâ u yâhşi koradigan «Marsala» vinâsini havâ rang billur grafinga quyib qoyişni ham unutmasdi.

Mana şunday qaytişlarning birida Murâd hâtinini mabüs kordi. Hammâm ham qizitilmagan, stâl ham yâsatilmagan édi.

— Nima boldi?— Murâd uning jiyâklari qizargan kozlariga termildi.

Âzâda javâb bermay, içkari uyga kirib ketdi. Murâd ham uning ketidan kirdi.

— Gapirsangiz-çi, nima boldi?!

Âzâda yâşli kozlarini ümib javâb berdi:

— Hâmiladârman.

Murâd mast kişidek dâvdirab qâldi.

— Râstmi?!— Murâd uni bağriga bâsib, dast kotarib âldi-da, uyni ikki marta aylantirib çiqdi. Uning kozlari pârlar, yûragi sevinçdan gupillab urardi.— Nega hafa bolasan?

Bu uning birinçi bâr hâtinini sen deb ataşi édi. Bolajak farzand Âzâdani unga şunçalik yâqinlaştirib qoygan édiki, goyâ u Âzâda, Âzâda ésa Murâd bolib bir-biriga aralaşib ketgandek édi.

— Nega yiğlaysan? Ahir...

Murâd sevinçi içiga siğmay, telbalardek gapi gapiga qâvuşmay qâldi.

— Yoq!— dedi Âzâda,— istamayman. Hali yâşman, halitdan bâlani bâşimga uramanmi?

— U yiği aralaş sekin gapirdi:— Kuningiz tâğu tâşda ota, uyda bâla baqib otiramanmi?

— İstasang, qışlâqdan ayâmni âldirib kelay, istasang, singlim kelib tursin, dissertatsiyâmni bitkazib âlay...

Âzâda ériga şunday oqrayib qaradiki, uning bu qaraşida Murâdga nisbatan nafrat va ğazab ifâdasi bâr édi.

Zebu ziynat, oyin-kulgiga organgan hâtin uçun bâla âyâqning kişani bolib tuyûlardi.

Âzâda çinakam gozal édi. U mâdani, tantsani, teatr va sayillarni sevardi. Bolajak bâla hali dunyâga kelmay turib uni ana şu râhatlardan begâna qilib qoyâyâtgandek édi.

Murâd boşaşib stulga otirib qâldi. U bâşini panjalari ârasiga âlib uzâq oyladi. Âhiri ornidan turib papirâs çekdi-da, qolini ârçasiga qilib, uyning u bâşidan-bu bâşiga yûra bâşladi. Divanning bir çekkasi-da otirib piq-piq yiğlayâtgan hâtinining tepasiga kelib uzâq oylab turdi Keyin uning yâniga çoqqaydi-da, bâşini silab, içki dard bilan gapira bâşladi:

— Âzâda, durustrâq oylab kor.

— Oylab qaradim, âldirib taşlayman.

— Nima?!

— Ha.

— Birinçi bâla. Mumkin émas, umrbâd mayib bolib qâlasan-a!

— Mayli... Nima bolsa bolsin.

— Şundaymi?!

Murâd ğazabdan sapçib ornidan turdi. Muşt bilan stâl qirğâğiga urgan édi, stakanlar jiringlab sakrab ketdi. Bilagidagi sekundâmerli âltin sâatning âynasi çil-çil boldi.

Uy içi suv quygandek jimjit bolib qoldi. Âçiq fârtâçkadan kirgan şamâl tor pardani silkitdi, halqa-halqa bolib muallak suzib yûrgan papirâs tutunlarini tozğitib yübârdi.

Murâd hâtinining qarşisiga kelib tiz çokdi:

— Âzâda, unday qilma. Nima kilsang qil, faqat bu işni qilma. Umrbâd âyâğing âstida sudralib yûrişga râziman, bunday qila korma.

— Gap bitta. Yâş umrimni bâla bâqiş bilan otkazmayman.

— Hali şundaymi?!— Murâdning kozlarida ot çaqnab ketdi.— Hali şundaymi?!
Unday bolsa...— U gapini tugatâlmadi.

Âzâda uning kozlariga dadil qaradi:

— Gap şu. Hâhlangiz şu. Bolmasa ketaman.

— Keyin puşaymân bolasan, Âzâda. Âzâda bâş çayqadi.

— Unday bolsa sen bilan...

— Yâşay âlmayman, demâqçisiz, şundaymi?

— Ahir, ozing oyla.

Ér-hâtin uzâq vaqt bir-biriga sozsiz qarab qâlišdi. Âzâda ornidan turib, narigi uyga kirib ketdi. U kiyinib, çamadân kotarib çiqqanda ham Murâd hamân tiz çokkança turardi. U koçaga çiqib, toy-tamâşalar bilan kirib kelgan, yâşlikning éng beâzâr, bahtli kunlarini otkazgan uy darvâzasiga ogirilib bir qaradi-yü, dadil yürüb ketdi...

Murâd u ketgaç, uç marta uning uyiga bârdi, yâlvârdi, bolmadi. Âhiri bâlani âldirib taşlagandan keyin yüraginging bir parçasini uzib taşlagandek undan umidini uzdi. Singlisini uyda qâldirib, uzâq muddatli ékspeditsiyâga jonab ketdi.

Vraçlar Âzâdaga éndi tuğmaysan, deyişdi. U bunga ham parvâ qilmadi. Âradan ikki yil otdi... U Hâmicân degan oqituvçiga turmuşga çiqdi.

Âzâda mana şu bahâr âqşâmida élekr nurlarida tâvlanib turgan orik gullariga termilib kelar ékan, oz hayâti va otmişini hâtirladi. Bu uning umrida birinçi bâr oz otmişiga çuqurrâq nazar taşlaşi va bu hakda birinçi bâr oziga hisâb berişi édi. Horsindi. Âqar suvlar âqib ketdi. Éndi uni oz yolidan qayta âqizib bolmasligini angladi. Jinâyât, jinâyât, deyə lablari beihtiyâr piçirladi. U şunday hayâllar bilan kelar ékan, quloğiga ğalati âvâz éşitildi. Tohtab atrâfga alangladi. Koçaning narigi betidagi uyning âçiq derazasidan hâtin kişining allasi éşitilardi. Âzâda atrâfga alangladi.

Bu uy uning birinçi uyi édi. U beihtiyâr koçaning u betiga otib, yâhşirâq qaradi: ha, bu uning birinçi uyi— Murâcânnig uyi édi. Qandaydir sehrli bir kuç uni bu âstânaga etaklagan édi. «Balki uy daftarida ustiga çiziq târtilgan ismim hali ham turgan bolsa kerak» deb dilidan otkazdi u. Derazadan uy jihâzlarini kuzatdi. Hamma narsa oz jâyida. Faqat şiftga belançak

âsilgan, hâlâs. Yâşgina bir juvân belançakni tebratib, alla aytyâpti. Uning yüzida ânalik bahti aks étib turibdi. U mayin tâvuş bilan alla aytar, bu allada uning ârzu-umidlari, bâlasiga baht, uluğ istiqbâl tilaklari ifâdalanar édi... Murâd oşa, Âzâda oz qoli bilan qoygan âyna âldida turibdi.

Murâd deraza âldiga kelib, çamandek açilib ketgan akatsiyâ gulini qoli bilan selpib, panjalarini hidladi. Akatsiyâ hidi Âzâdaning ham dimâğiga urildi. Murâdning koziga élektir nuri tuşib turgani uçun uni kormasdi.

Bu yâruğ uyning derazasi huddi kinâ ékraniga ohşardi. Murâd şu ékranda butun bârligi bilan korinib turardi.

«Sâçiga âq âralab qâpti-yâ»,— deb dilidan otkazdi Âzâda.

Murâdning qâşi ustiga tuşib turgan, hâzir âq âralab qâlgan qâra sâçlarini Âzâda juda kop silagan.

Âzâdaning kozlarida yâş yiltiradi. Oz bahtini ozi kaltak âlib quvlagan hâtin ozini ozi tahqirlab aççiq-aççiq yiğlardi. Uning yâş tola kozlariga bundan beş yil âldingi Murâd korindi.

Tiz çokib yâlvârgan édi-yâ. Umrbâd mayib bolib qâlasan, degan édi-yâ. Mana éndi.. Ozimni bahtdan âlib qâçdim... Meni heç kim keçirmaydi. Ozimni ozim ham keçirmayman.

Murâd deraza pardasini tuşirdi.

Âzâdaning kozi âldida pârlab turgan yâruğ uy hira parda ârçasiga yâşirindi.

U yâqdan-bu yâqqa engil uçib turgan belançakning sâyâsi tor pardaga tuşib jimirlar, hâtinning mayin âvâz bilan aytayâtgan allasi éşitilardi.

Âzâda zor qiyinçilik bilan derazadan uzâqlaşdi. Ây havâlanib azim teraklar ustiga kotarildi.

1956 yil.

KEÇIKKAN SEVGİ...

Sekretarb hâtin barakning brezent éşigini kotarib içkariga kirdi. İsmâiljân tikka turganiça alyümin krujkadan labini çoççaytirib qaynâq çây hoplardi. Sekretarb stâlga qâğâz qoyib indamay çiqib ketayâtgan édi, İsmâiljân uni tohtatdi.

— Bu nima?

— Başâratning arizasi. İşdan boşatışingizny sorab yâzibdi.

— Nega ozi kirmadi?

— Bilmasam.

U elkasini qisib qoydi.

— Ozi kirsin!

Sekretarb çiqib ketdi.

Başârat qurılışda desyâtnik. Ozi unça çirâyli bolmasa ham allaqaeri âdamga juda yâqadi. İstarasi issiq deganlari şumikin? İsmâiljân şu toğân qurılışiga bâş injener bolib kelganda ham Başârat şu erda édi. Ular bir-birlari bilan juda kop gaplaşışgan. Negadir Başârat İsmâiljân bilan âçilib gaplaşmasdi. Birâq nima aytadigan bolsa betiga qaramay ergami, bätinkasining uçigami tikilib turib aytardi. Uning bu ğiliğidan kopinça İsmâiljânning énsasi qâtardi. Ammâ Başârat işiga pişiq qiz. Buni qurılışdagilarning hammasi ham tan âlišadi.

Brezent éşik kotarilib sekretarb hâtinning yüzi korindi.

— Kirmasmiş, qol qoyib beraversin, deb aytdi.

İsmâiljân arizani âlib yâna oqib çiqdi. Aytarli tuzuk-quruq gap yoq. Oz ihtiyârim bilan depti. U qoliga qalam âlib arizaning çetiga yâzmâqçi boldi-yü, yâna tohtadi. Bu nima qilgani, meni pisand qilmaäptimi? Gaplaşışni ham istamaydi.

— Ozi qaerda?—dedi İsmâiljân hamân brezent éşikni paranjiga ohşab bâşiga taşlab turgan sekretarb hâtinga.

— Taşqarida otiribdi. İsmâiljân hâtinning ketidan çiqdi. Äyâq tâvuşini éşitib Başârat ornidan turdi. Uning qâvâğidan qâr yâğardi.

— Nima boldi, nega boşaysan?

— Ketyäpman,—dedi u İsmâiljânning betiga qarab émas, erga otirib étigini bâşqatdan kiyäyätgan ékskavatârçiga qarab.

— Ketişingga birân sabab bârmi?

— Sabab yoq. Şundâq. Bâşqa qurilişga ketaman.

— Birântasi hafa qildimi? Başârat bâş çayqadi.

— Arizamga qol qoyib bering, gapni aylantirmang! Vassalâm!

İsmâiljânning zardasi qaynab ketdi. Quriliş bâş injeneri bilan şunaqa gaplaşadimi? Haddan âşib ketibdi-ku, bu qiz!

— Hop, hâzir qol qoyib beraman.

U şunday dedi-da, içkariga kirib ketdi. Birpasdan keyin Başâratni sekretarb çağirib buyruqni berdi. Başârat buyruqqa âarab turib seskandi. Kozi tindi. Nahâtki ikki yil işlab mehnati singan jâyni taşlab ketadi?

— Hisâb-kitâbni bâşqarmaga bârib qilasan,— dedi sekretarb va bâşini sarak-sarak qilib barakka kirib ketdi.

Başârat yâlgiz qâldi. U bâş injenerning baragiga mabüs qarab turdi-da, bitta-bitta qadam bâsib yoliga ketdi.

Ékskavatârlarning şâvqini âlamni toldirgan. Skreperlar qiyqillaydi. Élekr payvandi âftâbda şişa siniğidek yâltiraydi. Samâsvallar har gal şağal ağdarganda mâmaqaldirâqqa ohşagan âvâz çiqadi. Betân qâruvçi maşina qaldir-quldir qilib qulâqni bitiradi. Maşinalar hamma yâqni çangga toldirib u yâqdan-bu yâqqa otib turibdi.

Bu şâvqinlarga Başârat kopdan konikib ketgan. Éndi qayâqqa bâradi? Nima qilmâqçi ozi? Buni ozidan bâşqa heç kim bilmaydi. Faqat şu erdan ketsa bolgani. Qança tez ketsa şunça yâhşi.

Başârat bahtini bâşqa erdan izlamâqçi. U bu erdan bahtini tâpâlmadi. İzzat-nafsi kâyigan qiz şu şâvqin-surânga tolğan joydan ketyäpti.

U mabyüs qadam taşlab dong aşganida qarşisida tozân kâtarib gazik kelardi. Başârat darrâv tanidi. Bu İsmâiljânning maşinasi, Başârat qolini kotardi. Gazik tohtadi. Hali égnidagi harbiy gimnastyârkasi éskirmagan şâfyâr bâla kabinadan bâşini çiqardi.

— Ha, âpa, tinçlikmi? Qayâqqa ketyâpsiz?

— Bitta hat yâzib beraman, hojayiningga berib qoyâsan.

— Hop, hop, âpa.

Başârat çamadânçasidan daftarçani âlib maşina kapâtiga qoyib nimadir yâzdi, oçirdi, yâna yâzdi. Yâzganini yirtib taşladi. Oylab turib bâşqatdan tez-tez yâzdida, buklab şâfyâr bâlaga berdi.

— Oziga ber!

Bâla hatni yân çontagiga sâlib qoydi. Maşina u yâqqa, Başârat bu yâqqa ketdi.

İyûlb quyâşi adirga tegay-tegay deb turibdi. Yâna bir intilsa adir ârçasiga dumalab tuşib ketadi. Atrâf qârângilaşadi. Quriliş maydânida sânsiz çirâqlar yânadi. Prâjektârlarning nurli barkaşi dongdan dongga sakrab oynaydi. Élekr payvandning çaqini bir daqiqadayâq âlis-âlislarga etadi-da, hamma yâqqa yâşil nur purkab sonadi.

Başârat mana şu nurli, mana şu şâvqinli hayât ârasidan bahtini qidiringan édi. Uni tâpğan ham édi. U baht deb diliga quvânc, kongliga işânc-ilinj tuğdirgan narsa bahti émas ékan. Ana şuning uçun ham u ketyâpti.

Balâgat yâşiga etib, dilida muhabbat hislari uyğângan qiz bâlaning nâumid bolişidan âğirraq narsa yoq. Bolmasa kattadan kiçigi qaddân bolib qâlgan jâydan ketiş âsânmi? Qim biladi, hali ham bolsa iziga qaytgani durustmidi? Yângi jây, yângi âdamlar, yângi muhabbat... âsânmi? Umr— âqar suv. Huv étadi âqadi, ketadi.

Şu hayâl uni bir daqiqa tohtatdi. Qiz atrâfqa qaradi. Quyâş adirga yârim belidan bâtib turibdi. Azamat teraklarning uçi şamdek yâniib kozni âlmâqçi. Ufqda ikkita uzun-uzun kimhâb kamardek bulut qimirlamay turibdi. Âsmâni zaminda bitta laylak aylanyâpti. Uning qanâti huddi şamga ohşab yânadi. Gâhi-gâhida u, huddi şişadan yâsalganga ohşab ketadi.

Teraklar uçidagi şamlar oçdi. Atrâfni nim qârângilik bâsdi. Faqat laylak çirâqqa ohşab hamân pârlaydi.

Quriliş şavqini ham éshitilmay qáldi. Uni dam-badam árqangga qayt, degandek éshitilib turgan bu távuşlar tingandan keyin Başaratning áyâq álişi tezlaşdi.

Qışlâq yâqin qáldi. Uzâqda hânadánlarning çirâqlari miltirab korindi.

Başarat éndi árqaga qaytiş ilinjidan qutuldi.

Árqadan gurullab mâtâr távuşi keldi. Zum otmay otkir nur uning sâyâsini ozidan éllik metrça nariga ulâqtirib taşladi. Başarat ogirilib qaragan édi, yâruqdan kozi qamaşdi. Maşina uning yánidan otib ketdi-da, sal nari bârib yolning ortasida kondalang turib áldi. Mâtâr şavqini tindi. Çirâq ham oçdi. Qârângilikda érkak kişining ávâzi éshitildi.

— Başarat!

Bu İsmâiljâning ávâzi édi.

Başarat titrab ketdi. Oşa! Qiz qalbiga tâş átgan, qiz konglida uyğângan birinçi muhabbat hislarini pisand qilmagan kesak!

— Nega kelding?— dedi Başarat titrâq távuşda. Bu birinçi bâr uni senlaşi édi.— Tuşuntirgani keldingmi?! Qurilişda ábroying áşadi, şu erdan kotarilib ketasan, deb aytgani keldingmi?! Bu gaplarni sendan kop éshitganman. Sen faqat şu gapni bilasan, yâğâçsan, tâşsan, kesaksan. Darding yoq seni!

Başarat hongrab yiğlab yübârdi. İsmâiljân nima qilişini bilmay qâtib turardi.

Ásmânda yûlduz uçdi. Uning papirâs tutunidek ingiçka çiziği qâp-qâra ásmânda ança turib qáldi. Áhiri u ham sonib ketdi.

— Sizga nima boldi, Başarat? Sen uçun ketyâpman deb hat bervâribsiz?

— Sizlama meni. Bilmading-a, sezmadning-a! Yüragingda zarraça darding bolganda bilarding, sezarding!..

— Nimani bilaman, nimani sezaman?

— Ahir tentak, bir yildan beri dardingda kuyib yânaman. Bir yildan beri meni uhlatmaysan. Bir yildan beri seni deb yâşayâpman. Bilmaysan, sezmayasan. Aminman, sezasan, nazar-pisand qilmaysan. Meni érmak qiliş uçun atayin şunday qilasan.

— Vây, menga qara...

İsmâiljân şu gapdan keyin ança jimib ketdi. Papirâs çekdi. Gugurt çaqayâtganda qoli titrayâtganini Başârat kormadi.

Yülduzlar birin-ketin koz açaverdi. Uşatilgan nândek bolib ây ham çıqdi. Ammâ İsmâiljândan hali ham sadâ çıqmasdi. Yük maşinasi keldi. Yolda kondalang turgan maşinadan otâlmay signal berdi. İsmâiljânning huşi oziga kelib maşinasiga yügurdi. U tâ maşinani çetga âlgunça şâfyârdan râsa sokiş eşitdi. U gazigini çetga âlaman deb ârqa gildiragini ariqqa tuşirib yübârdi. U maşinani onglagunça Başârat çamadânçasini bağriga bâsganiça qimirlamay turaverdi. Âhiri İsmâiljân yâna âldiga keldi.

— Keçir, meni Başârat. Bilmabman. Bilsam nahâtki senga şunaqa muâmala qilardim. Men, olay agar, bilmabman. Ahir ozing oyla, men ozimni senga munâsibmasman deb yürardim. Umrimda bir qizni sevmaganman, bunaqa işlarni bilmaganman. Sevişni bilmaganman. Toğri aytding, yâğâçman, kesakman. Sevişga, işq qoyişga vaqtim bolmagan. Oqişni bitirdimu şunaqa qurilişlardaman.

Başârat ham titrab, qaşşab gapirardi.

— Nima kiysam sen korgin deb kiyârdim. Ammâ sen tabelb tahtasidagi Başâratning nârma bajarişiga qararding. İşdan hârib, çarçab kelamanu uhlamay âstânada yülduzlarga tikilib otiraman. Seni oylayman. Sora, şu yülduzlardan sora. Ularni har kuni koraman. Har kuni gaplaşaman. Şu yülduzlarning qaysi biri menikiligini bilâlmayman hâlâs. Birân marta meni oylaganmisan?

İsmâiljân gap tâpâlmay ğudrandi.

— Menga qara, Başârat, meni kop qiynama. Birpas ozimga kelib âlay. Âyâğimning tagida er yoqqa ohşaydi, Ke, otiraylik. Manavi erga otiraylik.

İsmâiljân Başâratning qolidan uşlab tâl tagiga âlib otdi. Şundagina uning qoli titrayâtganini bildi. Qiz koksida nimadir ğalayân qilardi. Bu u çekkan iztirâblarning mukâfâtimi, unga keçalari uyqu bermagan yigitning koksida sevgi âtaşini yâqib intiqâm âliş tantanasimi, bilmasdi. Nima bolsa bolsin, Başârat dilidagisini tokib sâldi. Agar şunday qilmaganda bir kun okinardi. Qaçânlardir bir kun ilk muhabbat êsga keladi. Êsga kelganda ham galati hislar bilan, ajib hâtiralar, éng mabsum, éng beğubâr tuyğular bilan aralaşib keladi. Oşanda ilk muhabbat oz bağriga çaqiradi. Butun gozalligi, butun jâzibasi bilan, tiniqligi, beğubârligi bilan çaqiradi. Oşanda muhabbat ozining heç qaçân qarimasligiga iqrâr qiladi.

Bir çirâyli, bir yâqimli şamâl turdi. Tâl şâhlari bir-biriga ayqaş-uyqaş bolib erdagi ây tangalarini uçiradi, yândiradi, supuradi.

— Éndi men gapiray. Kulmaysanmi, mashara qilmaysanmi. Jim otirsang aytaman.

— Gapir!

U iztirâb bilan otgan bâlaligini éslab ketdi. Godak diliga âzâr bergan, murğak hâtirada bir umr oçmas iz qâldirgan âta qilmişini, oz bâlasining kokragidan itargan âna qilmişini alam bilan ésiga oldi. Â, u kunlar unutilib ketsa bolmasmidi?

Ísmâiljân papirâs çekdi. Tâlning şâvullaşiga bir muddat qulâq sâlib turgandan keyin titrab gap bâşladi.

— Kimligimni bilib âl. Kimman, qanaqa âdamman, bilib qoyganing yâhşi. Sakkiz yâşarimda dadam bilan ayâm ajralib ketişi. Oşanda ayâm bilan qâlganman. Yârim yil otmay ayâmning koziga şumşuk bolib qâldim. İkki gapining birida, bahtimni qâra qilyâpsan, ârqamda érğaşgan bâlam bilan meni kim âlardi, deydigan bolib qâldi. Bu gaplarga bâla ékanman-da, tuşunmaganman. Keyin ayâm érğa tegdi, ogay dadam u yâqda qâlib ayâmning özi çiqiştirmadi. Dadamning âldiga bârdim. Uylangan ékan. U erga ham siğmadim. Koçada qâldim. Âta-ânam tirik bola turib detdâmgâ kirişga jurbat qilâlmadim. Maktabda yâtib qâlib oqidim. Birâvlarning nânini eb, birâvlarning kiyimini kiyib katta boldim. İstitutda oqib âdam bolişni astâydil niyât qilgan édim. Niyâtimga etdim. Yâtâqda yâtib oqidim. Oqigan maktabimning direktâri juda yâhşi âdam édi. Maktabdan dars âlib berdi. Ham oqidim, ham oqitdim. Yâzgi kanikul paytlarda ham kânstruktârlar bürâsidan çertyâj koçiriş işini âldim. Diplâm qolga tegdiyü işga tuşib ketdim. Sevgi işlariga, oyinkulgiga vaqtim bolmagan. Oz tenglarimdek yâyrab yâşnamaganman.

Başârat beihtiyâr uning qollaridan uşladi. İsmâiljân gapirâlmay éntikdi. Saldan keyin özini onglab yâna gapira bâşladi.

— Otgan yilning ozida ikki marta sudga tuşdim. Dadam sudga beribdi. Hâtini olib ikki yâş bâla bilan qâlibdi. Yârdam sorab kelişga yûzi çidamay nafaqa undiriş uçun sudga bergan ékan. Sud hukm qilib berdi. Sal otmay ayâm sudga berdi. Éri qamalib ketgan ékan, ogay bâlalari çiqiştirmay uydan haydaşibdi. Éndi kerak bolibman. Nafaqa undirdi. Negadir oz ânamga ohşamaydi. Korib yûragim jiz étmadi ham. Şahardan jây tâpib koçirib âlib bârib qoydim. Bârib turaman, bâramanu begâna âdamning âldiga bârgandek bolaman. Uylanib

rozğâr qiladigan paytimda yâna taşviş. Ogay ukalar, dadam, ânam... Ozim qâlib ularning taşvişi bilan bandman. Bâlaligimni juvân marg qilişgan édi. Éndi katta bolganimda ham şular ğâv. Qani aytçi, qaçân sevaman, kimni sevaman? Qaysi bir beçârani taşvişlarimga şerik qilaman?

Ularning ikkâvi ham jim qâlişdi. İsmâiljân ust-ustiga çekar, har çekkanida papirâsning qip-qizil çoği yüzini âjizgina yâritardi.

Başârat oylardi. U haligaça İsmâiljânning tongligidan, oziga beparvâligidan kâyinardi. U beçârani nimalar demadi? Kesak, dedi, tâş dedi. Başârat yârimta ây atrâfni arang yâritib turgan nim qârânği sâkin dala çetida otirib şu paytgaça diliga ham âzâr, ham quvânç bergan yigitning korgan kunlariga iç-içidan açinib ketdi. Éng yâqin kişilari oğir lab ketgan şâdligini, bâlalik quvânçlarini qaytarib kelgisi, muhabbatga jây bermagan koksini parmalab âtaş sâlgisi, qolidan etaklab qoşiqqa ohşagan, nurga ohşagan, allaqanday ajâyib âhanglarga ohşagan muhabbat koçalariga bâşlab ketgisi keldi. Qizlik ğururini çetga surib qoyib éntikib-éntikib gapirdi:

— Meni kim sevardi deding. Men sevaman. Qaysi bir beçârani taşvişimga şerik qilama, deding. Men şerik bolaman! Âdam bâlasining qalbida sevgigayâm, ğazabgayâm, ğamtaşvişgayâm jây tâpiladi. Qalbga kirib âlgan çinakam sevgi taşvişniyâm, ğamniyâm, ğazabniyâm haydab çiqaradi. Şunaqa...

Yülduzlar hamân oçib, yânadı, qiysiç ây terak uçıga jiğa bolib, qonib turibdi.

Terak uçıdan ây dumalab tuşib ketdi. Tâng âtib kelardi.

İsmâiljân Başâratning qolidan çamadânçani âlib, maşina tâmânga yürdi. Sal otmay mâtar gurulladi. Başârat maşinaga intildi.

Eru kokka nur purkab âtayâtgan şu tâng Başâratga izlagan bahtini tâpib bergandek édi.

Eru kokka nur purkab âtayâtgan şu tâng İsmâiljânga yoqâtgan şâdliklarini qaytarib bergandek édi.

— Şu mening çinakam bahtimmikin?—deb oylardi Başârat.

— Şu mening çinakam şâdligimmikin?— deb oylardi İsmâiljân. Kâşki édi...

BAHAR QIZLARI

Şahlâ qaerga bârsa, albatta, kulgi boladi. U «Yängiâbâd» kâlhâziga mehanizatsiyä boyiça rais muâvini bolib tayinlanganda yig'in ahli bab-baravar kulib yübordi. Ammâ bu kulgilar Şahlâga aslâ tabsir qilmadi, hattâ qâşining bir uçi ham qimirlamadi.

Negaki, u bundan avval âblastda éng qâlâq «Kattaçek» kâlhâziga tayinlanganda bundan ham battar bolgan édi.

Majlisda nâmezâdi korsatilganda âdamlar «Ozlarini bir koraylik» deyişdi. Şunda kopçilik ârasidan saçlari balandraq turmaklangan, lablariga qizil surtilgan, qulâğida uzun, marjân nusha ziraklar yiltiragan, qâşi bulbul âyâğidek ingiçka bir qiz ornidan turdi. Bu hâzircina mehanizatsiyä boyiça rais muâvini lavâzimiga nâmezâdi korsatilgan Şahlâ Qâdirâva édi. Zal kulgidan larzaga keldi. U er-bu erdan piçinglar éşitilib qâldi.

— İşlarimiz «Bahâr» ansambli-ku!

— Kâlhâzimizga ham halq artisti yâraşadi.

— Kunduzi kâlhâzda işlab, keçqurun televizârda diktârlik qilsa-yâ!

— Balet togaragining rahbarimi?

Rais ğâvurni zorġa bâsdi. Ammâ Şahlâ otirmadi. Hammaning kozida qimirlamay turaverdi.

Kâlhâzda demâkratiyâga amal qilmay aslâ ilâji yoq. Şahlâning nâmezâdi âvâzga qoyildi. Agar bitta âvâz bu tãmândan u tãmânga otganda Şahlâ çamadânçasini kotarib ketaverişga majbur bolar édi. Ammâ éllik bir præsent âvâz bilan Şahlâ rais orinbâsarligiga saylandi.

Érini qizġanadigan ayâllar albatta qol kotarişmadi. Keksalar ham. Faqat yigitqizlargina qol kotarib, uning nâmezâdini qollab yübârişdi. «Kattaçek»da ham huddi şunday bolgandi. Unda éllik ikki âvâz bilan otgan. Oşa kulgi qilganlar, Şahlâ bu yâqqa ketayâtganda qâling, deb qança yâlinişgan.

Értasiga rais Rahmân aka Şahlâni kabinetiga çaqirib, nasihat qilgan boldi:

— Qizimdek narsasiz, senlayveraman-da. Éndi mundâq qilsak. Manavu hurpaygan saçlarni âdamga ohşab orib âl. Bu bir. Betdagi boyâqlar ham sal évi bilan bolsin. Keçagi topalânni kording-ku. Qişlâq jâйда bunaqa narsalarni bâzâr kotarmaydi.

Şahlâ kuldi.

— Bâzâr kotaradigan qilamiz. Birinçidan, bunaqasi hâzir bir ozim bolgani uçun ğalati korinyâpti. Kopayişib qâlganimizdan keyin kozinglar organib ketadi.

Rais «dâd» deb yübâray dedi. Bu qiz nima demâqçi, ozimga ohşaganlarni şu qişlâqdan etiştiraman, deganimi bu? Bâşimga bu balâni qayâ qdan tâpib keldim?

Şahlâning Qişlâq Hojaligi instituti mehanizatsiyâ fakulbtetini tugatganiga ham tort yil boldi. U tâ oqişga bârgunça Yângiyoldagi kâlhâzda traktâr mingan. Binâyidek er haydab, binâyidek kulbtivatsiyâ qilgan. İşda qâramâyga belangani bilan keçqurun artistlardek tarang bolib âlib, hammaning kozida yâl-yâl yänib yürardi.

Şahlâ rais buvaning nasihatiga indamay qulâq sâlib turdi-da, âhiri iljayib, bu yägi bir gap bolar, degandek qilib çiqib ketdi.

Értasiga u işni kâlhâzning remânt ustahânasidan bâşladi. Uç-tort traktârçi qâramâyga belanib metall uyümlari ârasidan nimanidir qidirişardi. Şahlâ «Zapârâjets»ni özi haydab keldi. U hamân oşa fasânini buzmagan, atayin qilganmi, upani betiga sal qalindrâq surgan édi.

Traktâr tagida çalqança yätib işlayâtgan mehanizatâr kattakân kalitni âyâgi bilan surib, keyin özi çiqdi.

— İyâ, âpa, keling, bizni televizârga âlib çiqasizmi?

Şahlâ uning gapiga yâraşa javâb qildi:

— «Bahâr» ansambliga yâzildim deyâveringlar, qani kelinglar-çi, repetitsiyâni bâşlaymiz.

Yigitlar özlarini unga mabqul korsatiş uçun, biri sâqâl osgan iyâgini hijâlatlik bilan işqadi, biri bâşidan kir doppisini âlib bâşqatdan kiydi, biri şapkasi bilan taburetكاني artib, uni otirişga taklif qildi.

— Yolda ariqqa tiqilib yätgan traktâr kimniki?

Taburetka qoyib bergan yigit şâşib javâb qildi.

— Sâdiqniki. Keça értalab tiqilib qâlgan édi.

Sâqâli osib ketgan yigit hijâlat târtib dedi:

— Manâvilarga, târtiştârlaring, desam, sira koniştmayäpti. Bizga qaraştib yübârsang târtiştamiz, deyişti, qaraştâyman.

— Qani bâring. Hâzirâq ozingiz çiqazib âlib keling.

— Sveçasi yâramaydi. Zorğa şatgaça yürgizib kelganman.

Şahlâ maştinasiga bârib jemperini taştadi-da, gazetaga orağliq qâra halatni kiyib, çiqib ketdi. Yigitlar hang-mang bolib qarab qâlişti.

— Bârmaysanmi ârçasidan?— dedi Sâdiqqa şeriklari.

— Âyimtillaning iştlerini bir korib qoyâylik. Bari bir yürgizâlmaydi. Şarmanda bolib qaytib keladi.

Âradan yârim sâatça vaqt otdi. Traktâr gurillaşi éştilmasdi. Saldan keyin mâtâr bir pat-pat qilib oçdi.

— Bari bir yürmaydi,— dedi Sâdiq.

Uning gapi tugamay, mâtâr kuçli gurilladi. Şu gurillaganiça on-on beş minut patillab turdi. Bir-ikki daqiqadan keyin ustahâna devâri ârçasidan qâra tutun yâpirildi. Sâdiqning rangi quv oçib ketdi. Traktâr temir darvâzadan kirib kelgandi, hammalari hâvlida çurq étmay qarab turiştardi.

Şahlâ traktârni sada tagiga âpkelib, undan sakrab tuşt. Mâtâr hamân iştlab turardi.

— Qalay, bolarkanmi?

Sâdiq hijâlatlikdan erga qarab, iyâgini qaştidi.

— Âdam qanaqa bolsa, işt asbâbi ham şunaqa boladi. Mâtâr qurum ârasida qâlib ketibdiku. Sâqâlingiz osib yätganidan bilgandim, bu traktâr sizniki ékanini. Mâtâr qizigandan

keyin ikki çelak sâlyârka bilan yüvasiz. Yängi «Volga»dek yältirama, balet tuşışni orgatib qoyâman, şuni bilib qoying.

Şundan keyin Şahlâ bir ğildiragi çiqazilib, oqi tonkaga tirab qoyilgan traktâr yäniga keldi.

— Nima bopti?

— Pâdşipnigi eyilib ketgan.

— Éssiz, şunça pullik maşina. Uzellari mây degan narsani kormagan. Ana şuning uçun ham eyilib ketgan-da. Menga qarang.

Bâyâ şapkasi bilan taburetkani artgan yigit çâpib âldiga keldi.

— Şimingizning pâçasini kotaring. Men sizga aytyâpman.

Şahlâ yigit tizzasining kozini çertdi.

— Mana şu erda ilik bâr. Agar ilik bolmasa, ikki kunda tizzangiz edirilib ketadi, bildingizmi. Maşina ham şunday. Mây maşinaning iligi. Ozingiz mây eysizu, maşinaga bermaysiz. Sizlarga beş kun muddat. Şu beş kunda jamiki traktârlarni yüvib, artib, manâvi erga tizib qoyâsizlar. Agar muddatidan bir kun otsa bârmi, pravleniega qoyib balet tuşirtiraman.

U şunday dedi-yü qâra halatini eçib, maşina içiga taşladi-da, «Zapârâjets»ini haydab çiqib ketdi.

Kuni boyi bir-biri bilan gaplaşmay, qâramâyga belanib, temir-tersaklarga komilib otirgan yigitlar koksiga bir ğalati şabada tegdi-yü, yâna ğir étib narigi çârbâqqa otib ketgandek boldi.

Keça bu qizni âdamlar nimalar deyişmadi. Pardâzi bir gap boldi. Sâçi bir gap boldi. Bugun oşa gaplarning birântasi éslariga kelmadi, Sâdiq ézilib ketgan paçkadan «Belâmâr» âlarkan, jiddiy dedi.

— Balâning oqi-ku, bu qiz. Men bolsam unaqa... İkki kun deganda uç kişi raisga Şahlâning ustidan dâd deb keldi.

Şâp moylâv bulbdâzerçi şapkasini stâlga urdi.

— Hâtin kişiga men bâş égmayman!

— Nega?— dedi rais qiziqib.

— Nega-pegasi yoq! Umuman aytyäpman.

Raisning bu gapdan habari bâr édi. Bulbdâzerçi maşinani yol ortasida qâldirib, tâl tagida uç-tort yolâvçi bilan karta oynayätgan ékan. Şahlâ kelib, qoying, işni qiling, desa, bu, bâr buyruğingni özingga ohşagan yâliftaga qil, depti. Şunda Şahlo ortadagi kartalarni yülib âlib, burda-burda qilib taşlabdi. Moylâv uray desa hâtin kişi, urmasa ğazabini qandâq qilib bâsişini bilmaydi. Jahl ustida:

— Âl-e, âl, bulbdâzeringni ânangga ber,— deganiça kâmbinezânini elkasiga taşlab, uyiga jonab qâlipti.

Şahlâning özi bulbdâzer kabinasiga otirib, keçgaça yol tekislab, keçqurun maşinani özi garajga keltirib qoyipti.

Rais bolayätgan bu işlardan astâydil zavqlanardi. Yâş bâşi bilan, ayâl bâşi bilan hammani âyâqqa turğizişiga qâyil qâlardi. Rais bu ojar mehanizatârlarga qattiq gapirâlmasdi. Toğrisi, maşina içida nimalar bârligini bilmaganidan sal yâlingannamâ gaplaşardi. Bu Şahlâ degani balâning yâi. Bilmagan narsasi yoq. Mâtâr tâvuşidan qaerida nimasi yâmân işlayätganini darrâv biladi. Érkaklarga qattiq-qattiq gapiraveradi. Qiz bâla bolganidan heç kim unga bir narsa deyâlmaydi ham.

Rais Şahlâ ustidan dâd deb kelganlarga bir hil javâb qilardi.

— Ozi bilan gaplaşlaring, temir-tersakli narsaga men aralaşmayman. Yâhşisi, uzr sorab, âldiga bâringlar.

On-on beş kundan keyin âdamlar, raisga arz qilişning fâydasi yoq ékan, yâhşisi, bu ojarning konglini âliş kerak, degan hulâsaga kelişdi.

Hammaga, Şahlâ qizim baraka tâpsin, mehanizataiyâdan meni tinçityäpti, deb yürgan rais buvaning özi sal kunda bay-baylab qâldi.

— Bu mâtârni «HVS» terim maşinasidan âlib qoyilgan ékan. Jâyiga qoyämiz. Siz oz mâtâringizni tâpib âlarsiz.

Rais qip-qizarib ketdi. Moylâvining bir uçi silkindi. Urişay desa âdamlar bâr. İkki rais çiqışmayäpti, degan gap boladi.

— Yähşi qilmayäpsan, qizim,— dedi sekin.

— Terim maşinasida tâvuqlar joja açib yätibdi. Siz mâtârni çiqarib âlibsiz. Şunça pullik narsa, uvol émasmi!

Rais indamadi. Jahl bilan doq-doq yürüb çiqib ketdi.

Traktârçilar rais bilan betma-bet âlişgan bu qizga hang-mang bolib qarab turişardi.

Bu rais bilan birinçi toqnaşuv édi. İkinçi toqnaşuv raisning uyida boldi. Âblispâlkâmdan vakil kelgan édi, rais uyiga âş buyürdi. Şahlâni ham taklif qildi. Şahlâ mehmân âldida rais buva bilan hâtinini râsa tuzladi.

— Bu qanaqasi, hâlâdilbnikni yätadigan uyga qoyipsiz?

— Şunça pullik buüm, narhiga qarab jây tanlaydi-da.

— Manâvi, umivalbnik olgur ham uyning torida. Bu dahlizda turişi kerak.

Rais mehmân âldida yâmân izza târtidi. İkinçi uni uyiga taklif qilmaydigan boldi. Lekin mehmân ketgaç, hâlâdilbnik va umivalbnikni Şahlâ aytganidek kilib qoydi.

Kâlhâzda mehanizmlar remânti ança tartibga tuşib qâldi. Ustahânadagilar aytganini qilmasak, balâga qâlamiz, deb muddatida beşta traktârni yüvib yältiratib, hâvliga qatâr qilib koyişdi.

Şahlâ kelib oz kozi bilan kormaguñça har kun artaverişdi. Şahlâ remântdan qutulgandan keyin maşinasini haydab qizlar işlayâtgan dalaga çiqdi. Har hil rangdagi tugunçaklar ilingan tâl tagida maşinasini qâldirib şudgârga kirdi. Baland pâşna tufli bilan qiynalib-qiynalib qizlar âldiga bârdi.

Qizlar işlarini tohtatib, unga qarab turişardi. Şahlâning sâçi baland turmaklangan, ustidan kaprân durra tanğigan. Qâşlari ipdek ingiçka. Beli qol sâatning tasmasi bilan bâylasa boladigan darajada hipça. Havâ rang neylân koylak âstidan içidagi puşti tasmaçalar bermalâl korinib turipti. Qizlarning bir hili havas bilan qarasa, kelinçaklar sâvuq nazar taşlaşardi.

— Hârmanglar!— dedi Şahlâ.

Biráv javâb berdi, biráv indamay turaverdi. Şahlâ ketmân dastasiga tirsagini qoyib tikilib turgan qizning barmâğiga qaradi.

— Bu nima, qollaringga qarasang bolmaydimi? Qiz bâla ham şunaqa boladimi? Bunaqada âstânangga sâvçi qadam bâsmaydi.

Qiz ham şaddâdgina ékan, bâplab javâb berdi:

— Manâvi ketmânda ikki kun işlang, qanaqa bolişini bilasiz.

— İkki kuning nimasi, yârim sâatgina işlab korsin, biladi.

Şahlâ qizga dadil qaradi:

— Étikni eç!

Qiz étikni eçdi. Şahlâ uni kiyib, qolidagi ketmânni âldi.

— Qanaqa işlaşni korsatib qoyâymi? Mana korasan! Şahlâning bâlaligi dalada otgan. Ketmân ham çâpğan, traktâr ham mingan, pilla ham tutgan, kanal ham qazigan édi. Bu işlar unga bâlaligidan âşna.

U kaftlariga tuflab ketmânni kotardi.

Hamma undan koz uzmasdi. Şahlâ bir marâmda, belini bukmay, qaddini ğâz tutib ketmânni erga urar, koçgan tuprâqni asta yânbâşiga taşlardi. Heç kim bas, boldi, demadi. Şu alfâzda bir sâatça ketmân çâpdi. Paykal bâşiga etib, er çâpib ârqaşiga qaytib kelganda qizlar tâl tagida tik turib kuzatişardi.

— Boldimi, éndi. Yâ, yâna çâpaymi?

— Boldi!— dedi qiz.

— Manâvi sizga mukâfât,— dedi bâyâ unga piçing qilgan juvân bir bâylam gunafşani unga uzatib.

Şahlâ hidlab çakkasiga taqib âldi. Tuşlik bâşlandi. Şahlâ ariqda terlagan betlarini muzdek suvda yûvarkan, belining égilişini kuzatib turganlar konglida bir gap bâr édi. Ketmân çâpğanida bu nâzik beli uzilib ketmaganini qara-yâ!

Şahlâ betini yüvganda pardâzi sidirilib ketgan édi. Qizlar uning asl başarasi qanaqa ékan, şuni bilişmâqçi édi. Yoq, pardâz qilmasa ham bolarkan. Bepardâz ham beti tiniq. İkki yüzi qip-qizil. Ong yüzida yära izi bâr ékan. U ham oziga juda yäraşib tuşgan.

Çâydan keyin Şahlâ sumkasidan âynak, u-bularini âlib, pardâz qildi. Qizlar atrâfini orab, tãmâşa qilişardi.

Şahlâ qizlarning qiziqayâtganini bilib asl maqsadiga koçmâqçi boldi. U oz âdati boyiça işni âldin hujumdan bâşlaşi kerak. Bâyä ketmân çâptirgan qizga qarab:

— Koylaging olgur munça uzun. Engi kampirlarning engidan qâlišmaydi. Neçançi asrda yäşâyâpsan? Bunaqa koylakni ming yil âldin kiyişardi.

— Nima, tizzadan yûqâri koylak kiyâymi?

— Tizzadan yûqâri bolişi şart émas. Fasânini keliştirib, englarini kaltarâq qiliş kerak. Betlaring, qollaring yârilib ketibdi. Yâğupa surtiş kerak. Értaga kelaman. Hammalaringga yâğupa âlib kelaman. Boptimi? Értalab surtib âsanglar, şamâl tabsir qilmaydi. Yâna bir hili bâr, keçqurun işdan qutulgaç, yüvinib, surtib yâtasizlar. Betlaring yümşâq boladi. Olay agar, pâççam rahmat deydi.

Şahlâ aytganini qildi. Bir talay yâğupa âpkelib, qizlarga ulaşib çiqdi. Bir-ikki kundan keyin bir yâş çevarni bâşlab kelib, hamma qizlarga, bitta katta kitâbdan koylak fasânlarini korsatdi-da, hâhlasa-hâhlamasa olçatib âlib ketdi.

Érkaklar yâna donğillaşdi.

— Vây dâd, uyga kirib bolmaydi, gup-gup atir hidi bolib ketgan. Bu qanaqasi. Uymi, sartarâşhânami?

Rais bir nima deyişga hayrân. Bu Şahlâsi tuşmagur hâtinlarni ham qozğab qoyibdi. Mayli. Bir iş qilsa bilib qiladigan qiz ékan. Érkaklar bir-ikki kun bay-baylaşib, keyin tuşib qâlišdi.

Çigit qadaladigan kuni rais butun kâlhâzçilarni yiğib, qoş âşi berdi. İdâra âldidagi sorilarga âdam siğmaydi. Rais bir buzâq bilan bitta qoy soydirgan.

Bir yâqda âş damlanyâpti, bir yâda kabâb qorasidan ajib şirin hidli tutun çiqyâpti.

Yiğın başlanışdan âldin bir yük maşinasida tola qizlar kelişdi. Bularni âldin rais tanimadi. Yâqin kelişganda qarasa, âltinçi brigadaning qizlari. Hammasining sâçi bâşqaça, kaprân româl, kiyimlari ham ozgargan. Âyâqlarida baland pâşna tufli. Pardâz-andâz jâyida.

— Tavba, qizlarimiz şunaqa çirâyli ékanmi, şu paytgaça bilmay yürğan ékanman-a!— deb yübârganini özi ham bilmay qâldi. Rais otirgan jâyda mikrâfân bâr édi. Uning bu gapini yiğilganlardan taşqari butun qişlâq éşitdi.

Hamma yâqni atir hidi tutib ketdi. Kimdir:

— «Bahâr» ansambli keldi, öyin qiziydigan boldi,— degan édi, hamma gurr étib kuldi.

Şahlâ tez-tez yürüb kelib, mikrâfânni qoliga âldi.

— Bu «Bahâr» ansambli émas. Çinakam bahâr. Éşitmaganmisiz, ânangni dadangga bepardâz korsatma, degan gapni.

— Bâplading, qizim,— dedi rais huzur qilib.— Nima, pardâz şaharlik qizlarga yâraşadi-yü, qişlâq qizlariga yâraşmaydimi. Qâyil!

— Sigirni kim sâğadi, buzâqni kim bâqadi?

Bu gap kimdan çiqqanini Şahlâ bilâlmadi. U yâq-bu yâqqa alanglagan édi, tunâv kungi şâp moylâvli bulbdâzerçining tirjayib turganini kordi.

— Sal tekisrâq hâtin yâningizdan otsa, kozingizni uzâlmay qâlasiz. Nima, özingizniki yâmânmi? Hâ, Nafisa, beri kel!

Ottiz beş yâşlardagi çirâyli bir juvân uning âldiga keldi.

— Mana, hâtiningiz. Qaysi bir jânândan kam? Şâp moylâv ornidan turib ketdi:

— Nafisamisan? Vây-vây,— deb yübârganini özi bilmay qâldi.

Qiyqiriq, kulgi bolib ketdi. Rais qol kotarib ġâvurni bâsdi. Dalaga qoş çiqişiga bağışlangan marâsim bâşlandi. Şahlâ gul-gul açilib, prezidiumda otirardi.

Rais kiriş sözida bahâr kelganini aytarkan, Şahlâga qarab qoydi.

— Qişlâğimizga bu yil bir émas ikki bahâr keldi. Hammaning dimâğiga atir hidi urildi.

ÇOL HİKÂYĀLARI

ÇOL BURGUTİ

I

Çol burgutini izlab Āltiariqdan Yäzyävânga âtda jonadim. Hali quyâş bâtmagan, uning keçki qizğış nurlari barglari sarğaygan oriklarni, terak uçlarini lâvillab yändirayätgandek. Āsmân kom-kom, ufqda huddi atayin boyâb qoygandek, qip-qizil bulut parçasi sudralib yürüibdi.

Kanal koprigidan âşib, çol tāmânga jilâvni burdim. Āt negadir tihirlik qilib, yürmay turib âldi. Jānivâr bir-ikki qamçidan keyin ham âldinga jiliş orniga ârçasiga tisarilib, taysallardi. Jahl ustida qamçi bâsmâqçi bolib qol kotargan ham édimki, kimdir qiçqirdi:

— Oğlim, jānivârni suğâring. Kormayâpsizmi, suvga intilyâpti.

Ogirilib qaradim. Suv labida belbâğiga yüz-kozini artayätgan âltmiş yâşlardagi qariyâga közim tuşdi. U şundâq yüvâş âtni besabab qamçilaganimga açingandek, ildam yürüib kelib jilâvdan âldi. Pastga tuşdim. U ât jilâvidan uşlab, qirğâqqa etakladi. Āt âldingi âyâqlarini lâyga bâtirib, tumşuğini suvga tiqdi. U har zamân-har zamânda bâş kotarib, menga qarab qoyâdi-da, yâna suvga intiladi. Uning bu harakati çanqaganimni bilmading-a, deb tabna qilayätgandek tuyüldi. Jahl ustida qamçi bâsganimda éti dirillab ketganini éslab, konglim ranjidi.

— Yol bolsin, safaringiz qay tāmânga?— dedi çâl âtni qaytarib qiçqaç.

— «Pahtakâr»ning «Ĝalaba» uçastkasiga.

— Undâq bolsa, yolni ong tāmânga sâling.

Çalga minnatdârçilik bildirib, yolga tuşdim. Atrâf biy dala. Quyâş bâtib, pâyânsiz çol birdan huvillab qâldi. Ufqdagi bâyâgi qizil bulut asta kengayib, birpasda butun âsmânni égallab âldi-da, taqir çolni qizğimtir hira parda ârasiga orab qoygandek boldi. Kimsasiz çolda Çol burguti bilan uçaşuv haqida oylab ketmâqdaman. Nazarimda, Çol burguti deb atalgan kişi yüzlarini şamâllar qâraytirgan, yâqinida turgan âdamga ham huddi âlisdan qarayätgandek

kozlarini qisib, boynini bir tãmanga égib bāqadigan, birāv bilan korişgani qol uzatganda şamālga qarşi uçışga hāzirlanib, qanātini yāzib, āldinga intilib turgan burgutga ohşaş bahaybat bir kişi bolib korinardi. Mening bu fikrimni tasdiqlayātgandek, āt bāşini silkitib qoyādi.

Kissamdan papirās ālib, harçand gugurt çaqaman desam ham, éplay ālmadim. Āt dupurini éşitib, jilāvni tārtdim. Yüz qadamlar çamasi ārqada ātliq kelardi.

— Gugurtni hāvuçingizning ārasiga ālib çaqing, yigit. Çol şamāli ojar boladi.

Çālني tanidim. U bāyāgi yol korsatgan kişi. Ātlarimiz baravarlaşganda, jilāvni boş qoyib yübārdim.

— Hizmat, oğlim? Sizni yāzyāvānga qaysi şamāl uçirdi?

— Çol burgutini korgani kelyāpman.

— Ha! Korsa arziydigan yigit. Burgut deganiça bār.

— Taniysizmi uni?

— Bu atrāfda uni tanimaydigan ādam yoq. Bu çollarda u yānbāşlamagan tepa, ātining tuyāgi tegmagan sāy qālmagan. Ālāv bāla. Çolda āt çāptirib kelayātganini korsangiz tonining ikki bari şamālda hilpirab, huddi burgut qanāt qāqib uçib kelayātgandek. Ğayratini aytmysizmi, qāni tāmīridan tāşib çiqib ketayātgandek. Nimaga qol ursa, gullatadi. Qoli gul deb şuni aytsa boladi. Kanalning berigi tāmānidagi erlarga kozingiz tuşdimi? Ha, balli. Burgut ābād qilgan. Hāzir oşa erga klub qurilyāpti. Juda gaşli er bolgan-da. Burgutning yigitlari şu atrāfdan éllik gektar er açib, mevazār qilişdi. Uç yil boldi. Ha, uç yil boldi, çolning qāq ortasidan er açgani bāla-çaqasi bilan çiqib ketganiga.

— Burgut asli şu erlik yigitmi, yā koçirmami? Çāl ança vaqtgaça jim qāldi. Tuyāq tāvūşiga qulāq sālīb bir muddat yol yürganimizdan keyin savālimga javāb qaytardi.

— Burgut şu erning bālası. Yāşligida ham ot-ālāv édi. Frāntga ketmasidan āldin qişlākdagi Āynisa degan bir qiz bilan dān ālişib yürgan édi. İkkāvi ahdu paymān qilişib, gapni bir jāyga qoyişgan yili uruş bāşlanib, Burgut frāntga ketdi. Şu ketgança undan hat-habar bolmay qoydi. Qiz kutib-kutib, āhiri özimizning qişlāqlik Nubmānjān degan bālaga tegdi. Āradan sal otmay uruş tugab, Burgut qaytib keldi. Āarasa, qiz érge tekkan. U çamadānini samāvarda qāldirib, toppa-toğri Nubmānjānning uyiga bāstirib bārdi. Ér-hātin hāvlidagi sorida çāy içib otirişgan ékan. Burgut, he yoq, be yoq, qizning qolidan uşlab koçaga etaklab qālsa

boladimi, koçaga yiğildi âdam, yiğildi âdam! Qariyâlar nasihat qilişdi, qani éndi unga gap uqtirib bolsa, yoq. Ojarligi tutib, tavba, ikki yârim âylik kelinçakni oz uyiga etaklab ketsa boladimi! Şu, desangiz, qiz ham jân deb turgan ékan, âldiga tuşib, pildirab ketaverdi. Bir haftagaça Nubmânjân Burgutning uyi atrâfida oralaşib yürdi. Éplâlmadi. Rayânga bârib, u yâq-bu yâqqa arz qilmâqçi boldi, bolmadi. Zorlikni qarang-a! Qişlâqçilik émasmi, Nubmânjân sâddalik qilib, kelin bilan hali ZAGSdan otmagan ékan. Uning gapiga heç kim qulâq sâlmadi. Tavba!

Oşa kezlari Burgut bâsar-tusarini bilmay, medallarini jaranglatib, otganning orâğini, ketganning ketmânini âlib yürdi. Yoq, sal fursatda insâfga kelib, işga şongib ketdi. Ammâ lekin, dimâğ baland. Birâv buyürgan işni qilmaydilar. Brigadirni pisand qilmay, bir çekkada öziga er ajratib âlib, ketmân çâpib yürdi. Ketmâni qanaqa deng, temirçining miyâsini açitib, tepasida turib barkaşdek qilib yâsatib âlğan. Raisimiz éсли bâla. Aldabsuldeb Burgutni yolga sâldi. Özi ham yâhşi gap bilan ilânni inidan çiqazadigan hilidan. Kâlhâz qizlari bir kuni qiziqçilikka ketmânining sâpiga isiriq bâğlab ketişibdi, degan bir gap ham bolgan édi çâğimda. Oşa yiliyâq Burgut kâlhâzda nâm çiqarib, İkrâmjânning orniga brigada bâşliğı boldi. Kelasi yil, ârden âlib, qurultâyga ham bârib keldi. Yâpiray, qurultâydan keldi-yü, bâşqa âdam boldi-qoydi. Çolga ât sâlgani sâlgan. Öziga ohşagan yigitlarni ham çolga bâşladi. Rabbimsan, deb çunânam ketmân çâpişdiki, haş-paş degunça allaqança erni çoldan yülib âlişdi. Şu, nazarimda, Burgutning yûragi tanasiga siğmayâtganga ohşaydi. Çolni siqsam, tanâbini târtsam, deydi. ğayratingga balli-e, azamat!

Otgan yili gektaridan qirq ikki yârim tsentnerdan pahta bergan brigadalar Burgut er açgan oşa çoldan âbro tâpişdi-da.

— Nubmânjân nima boldi, keyin uylandimi?

— Ha, Burgut oğil bâlalik qildi. Toyiga ikki bordâqi etaklab bârdi. Kuyâvnavkarda ham Nubmânjânning yânida otirib, râsa qiziqçilik qilib, âdamlarni kuldirdi. Hâzir Nubmânjân Burgutning brigadasida.

— Hâtinini undan qizğanmaydimi?

— Avvallari qizğanardi. Hâzir bir oğli, bir qizi bâr. Nubmânjânga quda bolamiz, deb tegişgani-tegişgan.

Çol ortasidagi yol ikkiga bolinib, çâl âtining jilâvini târti.

Çålning jilâv tutgan ong qolining ikkita barmâği qoşalâq bitib qâlganini körüb qoldim.

— Oğlim, men bu yâqqa ketaman. Éndi yolni âtning özi tâpib ketaveradi. Hayr, oğlim. Burgutga mendan duâ deb qoying.

Çâl bilan hayrlaşdik. Toppa-toğrimdan ây kotarildi. Bâyägi qizil bulutlar éndi sarğimtil tusga kirib, koz âldimda rangini özgartiraverdi-da, birdan sinkaga sâlgandek zangâri rangga boyâldi. Ây juda tez balandlab, hamma yâqni havâyi bir tusga ğarq qildi. Erga urşa kokka saçraydigan ajâyib tabiatli Çol burguti bilan uçraşışga âşiqdim. Beçâra ât yâna bir marta qamçi edi-yü, halâskâri çâldan ajraganiga afsuslangandek bâşini sarak-sarak qilib, ildam yürüb ketdi. Şu ây nuriga ğarq bolgan çollarda Burgut parvâz qilib yürügendek, ây ham uning qadami tekkan erlarni koz-koz qilmâqçi bolgandek, yânada ravşanlaşayâtganga ohşardi.

Burgut haqida kitâb yazib, uning butun qiliqlari, nuqsân va fazilatlarini tasvirib, mana şu bepâyân çolning peşânasidagi asriy şorni yüvib, zor hâsil âlişiga oquvçini işântirib bolarmikin?

Şunday hayâllar bilan «Ĝalaba»ga etganimni bilmay qâldim. Hali atrâfğa devâr âlinmagan yângi uyda yâşi ottiz beşlarga bârgan, nihâyâtda kohlik bir juvân meni kutib âldi. Bu Burgutning hâtini édi.

— Punktdalar, pahta jonatyâptilar, halizamân kelib qâladilar.

— Yâhşi uy bopti, atrâfğa devâr âsanglar juda şinam hâvli boladi,— dedim.

Juvân kuldi.

— Rahimjân akangiz şundâq katta çolga siğmaydila-ru, hâvliga devâr âlarmidilar.

Dahlizdan âyâq tâvuşi keldi. Birpasdan keyin past boyli, âzğın, korimsizgina bir yigit kirdi. Bu yigit Burgutni yoqlab kelgan gumân qilib, yol yürüb çarçaganimdan, u bilan bâş irğab engilgina salâmlaşib qoyâ qâldim.

Juvân gap qâtdi:

— Rahimjân aka, mehmân sizni yoqlab keptilar.

Gapning âçiğini aytsam, juda ham hafsalam pir boldi. Yol boyi ming hil hayâllarga bârib, afsânaviy pahlavânlarga ohşatib zavqlanib, havas qilib kelgan Burgutim har kuni korib

yürğan áddiy kişilarday, jussasi ham, yüzi ham, közi ham, qaraşlari ham áddiy, paçaqqina bir yigit bolib çıqdi.

Burgut mening kayfiyatimni sezib turgan ékan şekilli, qol berib korişayátganda panjalarimni şunday siqdiki, burgut çangaliga tuşgan jojadek çiyillab yübârişimğa âz qâldi.

— Juda sâz bopdi-da kelganningiz, gaplaşib yâtamiz. Bugunça iş bitdi. Éndi âtamlaşsak boladi.

Âş ustida gapga sâlsam, özi haqida unça-munça gapirib berar deb oylagan édim. Yoq, u juda kamgap ádam ékan. Uzi haqida bir âğiz ham gapirmadi. Faqat «Daydi» kinâfilbmining ikkinçi seriyâsini kormagani, u yâğida nima bolışini bilmay qâlganini afsuslanib aytdi.

— Çolga qaçân kelganningizni, qanday qilib çolni âbâd qilganningizni aytib bersangiz?

U kuldi. Âriq panjalari bilan peşânasini uqalab, koz qiri bilan menga qarab qoydi.

— Qandâq desam bolarkin? Şundâq çolga çıqdigu, bir tãmândan traktâr sâlib, kopçilik bolib ketmânni çâpib ketaverdik. Şu!

Uning bu gapidan kamtarlik qilâpti, deb oyladim-da, yâna soradim:

— Ahir, şu işlar âsângina bolmagandir?

— Mehmân degan unaqa sergap bolmaydi,— dedi u ayyârça kulib.— Értaga ozingiz korasiz. Bâlalar aytib berişadi. Çarçagandirsiz, yâting.

Undan özi haqida tayinli bir gap âliş qiyin ékanligiga işânganimdan keyin, yâstiqqa yânbâşladim. Çol burguti çirâqni pasaytirib, narigi uyga çiqib ketdi.

Nazarimda, u uydan çıqdi-yü, qanât qâqib, ây nurida yâşnab yâtgan çol âsmâniga uçib ketgandek boldi.

Uyqum qâçdi, fikr-hayâlim Çol burgutida. Nahâtki, áddiy kiçkinagina jussada burgut qalbi, burgut parvâzi bolsa? Nahât, u burgut etâlmagan fazâlarda uça âlsa?

Şu keça çol tângi yârişib kelayâtgan subhisâdiqda, uluğ niyâtlar insânni uluğ istiqbql sari qanâtlantirişiga, Çol burgutiga ham qanât bergan mana şu niyâtlar ékaniga iqrâr boldim.

II

Értalab nānušta vaqtida Nubmānjān kelib qāldi.

— Ha, Toppānça, nima qilib ivirsib yūribsan?

— Maşina qaysi uçastkaga bārsin? Şuni soragani kelgandim.

Burgut uning qoliga bir piyāla çāy tutqazdi.

— Hali tayinlagan édim-ku!

— Hājimuqān hali yol āçmagan ékan, mehanik bārmayman deyāpti.

Ularning suhbatidan heç narsa tuşunālmadim. Faqat Burgut tā nānuştagaça çolni şamāldək gir aylanib kelganini sezdim, hālās. Nubmānjān ketdi. Biz Burgut bilan taşqari çiqdik. Keça qāğāngida kelib çolning nimaligini bilmagan ékanman. On uçta yāngi āq imārat. Narirāqda tepasi şiypanli idāra, uylar āldidagi qatār ékilgan yāş teraklarning bargi qahrabādek sap-sariq. Artezian ğuduğidan çiqarilgan suv boy baravar balandlikdagi quvurdan şaldirab āqib yātibdi. Undan narida tepasi tāl bilan āmānatgina yāpilgan sarāy içiga selitra tokib qoyilgan, ikki-uç bāçka kerāsin, qāplangan tsement, ğişt, tahta, hādalar uyib taşlangan. Şiypan āldida Markaziy Farğāna steptārgining avtālavkasi turibdi. Uning bir ğildiragi orniga ğişt tahlanib, oqiga tirgāviç qilib qoyilgan. Āq halat kiygan sātuvçi vağillab turgan primus ustida buğ purkayātgan mis çāynakka çāy damlayāpti.

Burgut lavkaga bāş suqib qaradi. Pālkalarda sān-sanāqsiz arāq, vinālar, paçka-paçka mayda tuz terib qoyilgan. Qizlarning sāçiga taqiladigan har hil lenta, ustiga zar qāplangan sigara, elpiğič, upa, fātāuveliçitelb kabi māllar tolib-tāşib yātardi.

Sātuvçi nimadir demāqçi édi, Burgut qol siltadi.

— Dokānni bekiting. Tuz çolda ham kop. Upa qoyişga hātinlarning hāzir qoli tegmaydi. Elpiğičsiz ham şabada bolib turibdi. Arāqni bolsa keçqurun maydalaşarmiz.

Burgut idāra tāmāndan kelayātgan Nubmānjānni imlab çaqirdi:

— Bu kişini āla ket. Dokānni keçqurun āçadi. Bir gramm tersa ham harna-da! Burgut hijālat bolgandek qāşini kerib menga qaradi.

— Mehmân, işimiz qiziq boldi-ku. Sal bemavridrâq kelib qâldingiz-da. Uyimiz betta bolgani bilan, pahtamiz âlti kilâmetr narida. Şu turgan erimiz kelasi yilga bârib çolning tsentri boladi. Men bilan yürsangiz, çarçab qâlasiz. Yâhşisi, Toppânça pâlvan bilan ketavering. Hâjimuqânning erida uçaşamiz.

Burgut âtga minib qaygadir ketdi. Biz Nubmânjân bilan yolga çiqdik.

Ât-arava, maşina şibbalab yüborgan tekis yoldan sal yürganimizdan keyin ârquamizdan sâtuvçi yigit hallâslab etib keldi. Tâ u kelgunça gapimiz qâvuşmay turgan édi. Gapni nima va kimdan bâşlaşimni bilmay jimgina bârardim. Taniş-biliş yoq. Burgutdan gap aylantiray desam, Nubmânjânning kongliga qattiq båtmasmikan, deb hijâlatda édim. Tâleimga sâtuvçi sergapgina yigit ékan. Yol boyi âğzi tinmay steptârgning inspektâridan şikâyat qilib bârdi.

— Nafsi buzuq âdam. Jindek çozib qoymasang, mâlning yâhşisini âlâlmaysan. Aka, ozingiz oylang, kiçkina dokân bolsa, haridârning sâni yigirmadan âşmasa, bâzâr yâqin bolmasa, ahir, bâla-çaqali âdamimiz.

Nubmânjân yümşâq kongil, qizdekkina yigit ékan. Uning qaddi-basti, hatti-harakatlari dehqândan kora sartarâşga koprâq ohşab ketardi.

Âyâq tâvuşlari engil, gapi ham mulâyim, qalin qâra qâşlari âstidagi sargimtil qoykozi hamişa kişiga kulib turgandek. Uning şu tâpda yânimda pildirab bârişi çolda ketayâtgan âjiz çumâliga ohşab, sira manzilga etâlmaydigandek korinadi. Buning nimasi toppânçaga ohşaydi, tavba.

Uzâqdan tutun burqsidi. Bu tutun bir zumda tarqab, uning ornida yânbâşlab qâlgan terim maşinasi körindi.

— Bir balâ bopti,— dedi Nubmânjân besaranjâm bolib.— Burgutdan balâga qâlamiz, qani, yüguringlar!

Uning mulâyim qoykozlari dumalâqlaşib, borining köziga ohşab, kokimtir tusga kirgandek boldi. U çöl ortasida şamâldak âldinga yügurib ketdi, bâyâ çumâlidek uvâq köringan qizdek yigit, éndi kiyikdek el quvib âldinda uçib bârardi.

Biz hallâslab yârim yolda qâlib ketdik. Keçasi kop çekkanimdan bolsa kerak, yûragim gupillab urib, tilim âğzimga siğmay qâldi.

— Toppânçaning oqiga ohşaydi-yä!— deyä äldim éntikib.— Toppânça pãlvãn deganiça bår ékan.

— Bu Burgutning qoliga tuşgan quyãn— şer, çumãli - fil bolib ketadi.

Maşina tohtagan erga etib keldik. Yãmğir suvi halqab bolib qãlğan çuqurlikda maşinaning bir ğildiragi båtib qãlibdi. Mehanik-haydãvçi yãrim sãatdan beri çiqazãlmay, mâtãrni guvillataverib, yãnilğini tugatayãzgan ékan. Nubmãnjãn sãtuvçini árqaga qaytardi.

— Aravada yãnilği álib kel!

Yigit énsasi qãtganidan gardanini qaşib, kamhafsallik bilan árqaga qaytdi. Nubmãnjãn ésa étigini şalãplatib bãtqãqqa tuşdi-da, hijãlat bolgandek menga qaradi.

— Mehmãn, kemaga tuşganning jãni bir. Qani, pãtinkani eçing. Bir ha-halaşib yübãraylik.

Tizzadan lãy keçib uning yãniga bãrdim. Nubmãnjãn ingiçka áyãqlarini erga qadab, elkasini maşina qanãtiga tiradi.

— Qani, hayda!

Mâtãr gurillab, maşina áldinga intildi. Intildi-yü, keyingi çap ğildiragi turgan jãyida pildirab aylanib, aft-başaramga lãy purkab yübãrdi. Nubmãnjãn boğiq ávãz bilan yãna bir marta «hayda» deb maşinaning çap qanãtini ázãd kotardi. Maşina árqasiga tutun qaytarib, áldinga lapanglab siljidi.

Bu yigitda şunça kuç bãrligiga hayrãn qãldim. Ahir, u şunça áğir maşinani elkasi bilan itarib, yolga çiqarib qoyganini öz kozim bilan korib tursam ham bunga sira-sira işãngim kelmasdi. Nahãt, şu uvãqqina jussada şunçalar katta, işanib bolmas pahlavãn kuç yãşirinib yãtgan bolsa. Buni «Toppânça pãlvãn» deb bekãrga aytmagan ékanlar.

Nubmãnjãn tonining bari bilan yüz-koziga saçragan lãylarni artib bolib, menga iljayib qaradi.

Uning kozlari biram mulãyim, biram yãqimli. Har qanday tãş yürakni ham éritadigan ajãyib kozlar édi!

Bu yigit men tasavvur qilgan çol yigitlariga sira ohşamasdi. Nãzik barmãqlari faqat dutãr çertişga, sabza urgan moylãvlari ástida kulişga hãzirlanib turgan lablari faqat jãnãn

qizlarning yuzidan bosa alişga yaratilgandek korinardi. Kişining taşqi qiyafasi babzan intilişlariga, fikr-oylariga qançalik qarama-qarşi bolışiga éndi işándim.

Maşina ártidan érgaşib, tayin qilingan erga keldik. Áppaq açilib yätgan ğozalar árasidan «Alif-Laylá»dagi kozaçadan çiqqan Ahraman devdek baland, har yäĝriniga bittadan ádam minsa boladigan ottiz beş yaşlardagi nârĝul yigit maşinaga qarab kelardi. Uning uzun çakmâni darahtga şâlça yäpib qoyganga ohşardi.

Qaş va kipriklari sariq, ammâ öziga juda ham yäraşib tuşgan moylâvi, negadir, lâkdek qâp-qâra édi. Moylâvini boyäsa kerak, deb dilimdan otkazdim.

— Hâjimuqân şu boladi.

Hâjimuqân ildam yürüb kelib, huddi yâş bâlani kotarişga çâĝlangandek, éngaşib, ikki bukilib Nubmânjân bilan korişdi. Uning áldida Nubmânjân huddi dadasiga talpingan yâş bâlaga ohşab korinardi.

— Ha, Toppânça, munça hayállab qâlding? Uning ávâzi qulâĝimga mâmaqaldirâqqa ohşab éşitildi.

— Maşina lâyga tiqilib qâlgan ékan, çiqazgunça sal tohtalib qâldik.

Maşina yângi açilgan erdan égatga kirib ketdi. Hâjimuqân devqadam bilan uning árqasidan érgaşdi. Atrâfğa qaradim. Bu erlar qaerdan suv içarkin, deb hayrân bolib Nubmânjândan soradim.

— Farĝâna kanalidan álamiz. Suv masalasidan nâlimasak ham boladi. Ariq qaziydigan yângi maşina çiqqan. Ávâzini éşityäpsizmi?

Nubmânjân kunbâtar tãmânga qarab qulâq sâldi.

— Kelasi yili huv oşa tãmândan qirq gektar er açamiz. Şunda erimiz Qoşâq átaning eri bilan tutaşadi.

Keça átimni suĝârib bergan çâlning ikki barmâĝi qoşalâqligi, ayrilişga kelganda çâl oşa tãmânga burilganini éslab, Qoşâq áta degani şu kişi bolsa kerak, deb gumân qildim.

Terim maşinasi égatning bâşiga etib, yângi ariqdan qaytdi. Brezent palatkadan çiqqan orta yâşar bir hâtin saçini bâşiga turmab, maşina ketida kelayätgan Hâjimuqânga qol siltadi. Keyin oşa tãmânga ğoza áralab, yügurib ketdi.

— Hâjimuqånning hâtini. Juda ham gapga biçganda. qâfiyâli qilib gapiradi. Ammâ Hâjimuqån şu gavdasiga hâtinidan olgudek qorqadi.

Oşa palatkadan yâşi yigirma beşlardagi suluvgina bir ayâl çıqdi-da, Nubmânjânga qaradi.

— Çây içib âlinglar!

Keyin u fartugini boyniga ilib, bâyâgi hâtinning ârçasidan yügurdi.

— Bu kişi bizning «malikai dilâzâr» boladilar,— dedi Nubmânjân kulib.

— Siz ham hâtiningizdan qorqasizmi? Nubmânjân gardanini qaşidi:

— Dunyâda hâtinidan qorqmaydigan âdam ham bâr ékanmi?

Palatkaga kirib, éndi bir piyâladan çây hoplagan ham édikki, ât çâptirib Burgut kelib qâldi. Vajâhatidan hâzirgina birâv bilan urişib kelganga ohşardi.

— Ha, Burgut, turq-tarâvating bâşqaça, bir gap boldimi?— deb soradi unga piyâla uzatarkan, Nubmânjân.

— Kartinkangdan orgildim! Keçadan beri sarsân qiladi-yâ.— Uning gapiga tuşunâlmay bir-birimizga qaraşib âldik.

— Sâçiga tarâq tegmagan, ikkita kalta şimlik âlifta bir maşina aşqâl-daşqâl bilan kepti. Kartinkaga âlaman deb, u yâqqa qarasam ham durbinini toğrilaydi, bu yâqqa qarasam ham durbinini toğrilaydi.

Keça raykâm binâsi âldida kinâhrânikaning maşinasini korganimni ésladim.

— Tavba, âftâb çıqayâtgan tãmânga qarab, çakkamga pahta qistirib, ong qolimni kotarib turganimni kartinka qilarmiş. Kartinka qilsang, artisingni âla kelmaysanmi! Mehmân, siz bilan Yâğâç pâlvânning erida uçraşamiz.

U çâydan boşagan piyâlani pildiratib bir irğitib ilib âldi-da, hayr, deb çıqib ketdi. Bir âzdan keyin çolning ufq bilan tutaşgan erida ât oynatib ketayâtganini arang kozim ilğab qâldi. Nubmânjân ham boyniga fartuk ilib, maşina âlâlmay qâlgan pahtalarni tera bâşladi.

Paykal bâşida yâlgiz qâlib, koz ilğamas pahtazârda javlân urib yûrgan terim maşinasini tamâşa qilib turdim. Şamâl qulâğimga allaqaerda şudgâr ağdarayâtgan traktârning âvâzini

ohtin-ohtin uçirib keladi. Ariq qaziyätgan maşinaning bori uliganidek okirişini bir dam älib keladi-da, yäna qayâqlargadir surib ketadi.

Ät sälib otgan fätihlarning, qonğırâq çalib otgan karvânlarning surâni uyğâtılmagan asriy mudrâq çolni yängi ädam jilâvlagan polat mâtârlarning zabardast turtkisi uyğâtgan édi.

Sätuvçi yigit aravada bir bâçka kerâsin älib keldi. İkkävlaşib bâçkaga rezinka içak sälib, baklarni toldirib äldik.

— Mehmân, Burgut sizni Yägâç pâlvanıning eriga älib bâr, deb tayinladi.

Aravaga çiqayätganimda mehanik yigit bunkerni boşatib, yänilgi älgani paykal çetiga çiqayätgan édi.

Égarga qiyşiq otirib älgan yigit, yol-yolakay Burgutning yigitlarini tabriflab ketdi.

— Burgutning yigitlari hali kuraşda elkasi er kormagan pâlvanlar. Hâzir bu pâlvanlarga Farğâna tãmânda tarafkaş yoq. Yägâç pâlvan deb nâm çiqargan Miraziz otgan yili parkentlik pâlvanıdan yiqilib qâldi. Burgut şundan keyin Yägâç pâlvanıni brigadadan haydab yübârdi. Oşa pâlvanıni yiqitib kelmaguningça, kozimga korinma, deydi. Yoq, bultur kuzdagi pahta bayramida Farğânada kuraş bolib, Yägâç pâlvan oşa pâlvanıni çarhpalak qilib erga urdi-yü, yüzi yäruğ boldi.

— Burgut uni brigadaga qaytarib äldimi

— Äldi. Lekin bitta şart bilan äldi. Ketmân işlatmay, pahtani maşinada ékib, maşinada teriş şarti bilan. Hali bârganda korasiz. Har ğozalarki, bir tupidan bir korpalik terib älaverasiz. Özi ham antiqa ädam. Hâzir aytsam qiziği qâlmaydi.

Songgi marta hirillab nafas älayätgan bemârdek şikâyätâmuz ğiyqillab bârayätgan arava ustida tevaragi ufqqa tutaşgan çolni tamâşa qilib bâraman. Bu uyqusi qâçgan kohna pahlavân çol bilan bellaşayätgan, huddi şu çoldek bağri keng, ammâ navqirân, har qaysisi alâhida kitâbga qahramân bolsa arziydigan, biri biriga ohşamagan tabiatli yigitlarni korayätganimga, ular bilan hamsuhbat bolayätganimga iç-içimdan sevinaman.

Bu uçraşuvlarda ularning qiliqlarini, boy-bastlaridan târtib, koz qaraşlarigaça yädda saqlab qâlmâq uçun tikilib-tikilib qarayman.

Çol ortasini devârdek tosib otgan dongni âşib otganimizdan keyin yol gavjum bolib qâldi. Har qadamda quriliş materiallari ârtgan yük maşinalari, ustiga bâçka yüklangan briçkalar uzun yoldan ketma-ket otib turardi. Âra-sira mâtâtsikl patillab otib qâladı-da, çol bağriga okdek sançilib, bir zumda yoq bolib ketadi. Bâyä Hâjimuqânning erida éşitilgan gurillagan tâvuş şu tãmândan kelayätgan ékan. Ékskavatâr halqumini çozib, quyqa bâsib qâlgan zâvurdan lây çiqazayätibdi. Çolning qâq ortasida yänbâşiga tuprâq purkab kanavâkâpatelb ariq qazimâqda. Uning tâvuşi goyâ bahaybat bir muşuk muttasil âyna timdalayätgandek qiyqillaydi. Ânda-sânda kurib qâlgan otlarni çimdib yürgan pâda uçrab qâladı. Yol yâqasidan artezian suvi şildirab âqib yätibdi. Undan tuşgan şaffâf suv tsement hâvuzçadan tâşib, yol çetida kolmak hâsil qilgan. Suv atrâfida osgan giyâhlar hali kom-kok. Kolça yüzida koy va éçkilarning qumalâqlari suzib yüribaldi.

Kâlhâz pâdasi şu erdan suv içsa kerak deb oyladim.

— Çol qişlâqqa şu tãmândan tutaşadi,— dedi hamrâhim, qamçi dastasi bilan uzâqda sarğimtil tusga kirgan darahtlarni korsatib.

Rayân markazidan yolga çiqqanimda, çolga kâlhâz eridan otib bârsak kerak, deb oylagan édim. Bu oyim yänqliş çiqdi. Hamrâhim égarga yâna qiyşiq otirib âldi.

— Çol asli şu tãmândan siqib kelinyâpti. Bâyä siz korgan Hâjimuqânning eri kâlhâz âçadigan qoriqning âhirgi nuqtasi. Undan u yâği bâşqa kâlhâzning zimmasiga tuşgan.

Birdaniga çolning havâsi ozgardi, érta kuz bolişiga qaramay, éşib turgan ilimiliq şabada orniga qandaydir dimâqqa huş yâqadigan, bâğlardan ésadigan yâqimli şamâl kela bâşladi. Hâzir biz bir tãmâni hali bezrayib yätgan çol, bir tãmâni ésa âbâd bolgan erning hududida turardik.

Étagi âlislarga çozilib ketgan çol toquvçi dastgâhidagi tandaga, yângi âbâd bolgan jâylar ésa şu tandaning asta-sekin toqilib kelayätgan sergul matâsiga ohşardi.

Şağal yätqizilgan yolning ikki çetida hali usti yâpilmagan bir qavatli binâlar, hâm ğişt devâriga tâlb taşlab, ustidan tâş bâstirib qoyilgan çala uylar, babzan şahmat katagiga ohşagan tsement pâydevârlar uçrab turardi. Bu erlarda hali âdam yâşamay turib, yâş terak va qayrağâçlar allaqaçân erga parça-parça sâyâ taşlab ulgurgan édi.

— Yâğâç pâlvânning eriga etib qâldik,— dedi hamrâhim, ât jilâvini ong tãmânga burib.

Biz yol âlğan soqmâqning bâşi usti şâh-şabba bilan yâpilğan çaylaga bârib qadalar édi. Çayla âldidagi hirmânda Burgut âftâbga pahta yâymâqda. Tahminan on beş gektar keladigan pahtazârning ikki tãmânida ikki terim maşinası gurillab yürüb turibdi. Tâ biz çaylaga etib bârgunimizça yânimizdan otib ketgan kul rang «Vâlga» maşinası ustimizga çang yâpirib, çaylaga etmay tohtadi. Şamâl çangni bir zumda erga yânbâşlatib ketdi.

Maşinadan orta yaşlardagi sal qârin qoygan, qalin qâşlari kozlarini tutib ketgan bir kişi tuşdi. Ârqa éşik açilib, moylâvli, ayâlga ohşaş bir yigit körindi. Uning sâçi ârqasidan taralib peşânasıga kelganda yâna tepaga qaytarib yübârilğan édi. Uning bu qiyâfasi menga pâpişakni éslatdi. Âğzida muştuk; égnida pâçası târ, kalta çiyduhába şim. U fâtâapparat tasmasini uzuk taqilğan barmâğiga orab âlğan édi.

— Mana, özingiz ayting, ortâq partkâm, sira u kişini kondirâlmayâpmiz,— der édi u qâra qâş partkâm yigitga.

— Hoş, nima gap?— dedi partkâm qanârga pahta jâylayâtgan Burgutning yâqiniga bârib.

— Parvâ qilmang, Mirjalil aka, mendan artist çiqmaydi.

— Yâhşi émas, atayin Tâşkentdan kelişipti. Tez bol, u yâq-bu yâğingni paratka qil. Qani, yânga, bâyâgi narsani bering!

Çayla ârqasidagi bak âstiga ot qalayâtgan Âynisa uning gapini yâhşi éşitmadi şekilli, ornidan turib savâl nazari bilan qaradi.

— Bâyâgi tugun qani?

Âynisa çayla tirgâviçiga ilib qoyilğan kamzulining çontagidan şâhi dastromâlga tugilğan narsani âlib, partkâmning qoliga berdi.

Burgut toniga ilaşgan pahta tâlalarini kafti bilan sidirib bolgaç, doppisini tizzasiga urib qâqdi. Uning bu harakatlarini kuzatib turgan baland boyli, âzğın, qâp-qâra yigit gap qâtdi:

— Qâşingga osma qoyib qoyâymi? Yânga, upangizdan bering!

Bu gapdan Burgutning énsasi qâtib, er âstidan homrayib qaradi.

Partkâm tugunçadan ârden va medallarni âlib Burgutning kokragiga taqa bâşladi. Tâ Burgutning «pardâzi» bitgunça, kalta şimli yigit «Vâlga»dan kinâ aparatini âlib çiqib, ularning yâniga keldi.

— Şu kişi nima desa ğiring demay bajarasan. Hariş âtga ohşab taysallamay, hap tursang-çi!

Burgut bilan âperatâr pahtazârga kirib ketişdi. Âperatâr yolda qoşalâq âçilgan pahtadan uzib âlib uning çakkasiga taqib qoydi. Butun kâlhâz yigitlariga soz bermay çolda javlân urib yûrgan burgutsimân bu âdam ayni zamânda âperatâr qolida ming âhangga tuşar édi. Gâh ong qolini kotarib terim maşinasini bâşqarayâtgan mehanikka nimalardir deb qiçqirar, gâh kunçiqar tãmânga burgutga ohşab tâlpinib qoyârdi.

Âhiri u «artist»likdan zerikdi şekilli, qol siltab, jahl bilan paykalga qaytib keldi. Uning ketidan érgaşib kelayâtgan âperatâr nârâzi âhangda nimadir dedi. Burgut yâna qol siltadi.

— İkki kundan beri şu kişining ketida âvâraman. Yâna jinday qâlgan édi-yâ!

— Burgutni bir kunda âvlab bolmaydi. Ketidan ikki-uç kun çol keziş kerak, yâhşi yigit,

— dedi bâyâgi taraşadek qâtma nâvça yigit.

— Şuni aytmaşanmi, Yâĝâç pâlvân.

Yâĝâç pâlvânni darrâv tanidim. Uning suratini otgan yili fizkulbturaçilar gazetasida korgan édim. Respublika musâbaqasida parkentlik pâlvânni yiqitib, Özbekistân çempiâni bolgan Asad pâlvân İbrâhimâv şu kişi édi.

Partkâm terim maşinasining mehanigiga «birpas tohta» degandek işâra qilib, paykalga çaqirdi. Bâşqalarni ham çayla âldida topladi.

— Qoşâq âtaning qirqmasi râsa bolib beribdi. Maşinaga ikkita taşlab qoygan édi, birga baham koramiz.

Şâfyâr har biri koydek keladigan ikkita çol qâvunini inqillab kotarib keldi-da, tizzalab şâlçaga dumalatib yübârdi.

Dasturhân ustida Yâĝâç pâlvânning tabrifi bâşlandi.

— Yăġaç— âdam!— dedi jiddiy turib Burgut.— Lavzli âdam u. On sakkiz gektar erni ketmân tegizmay maşınada qâyil qilib yübârdi. Koryäpsiz-ku, ikki maşinalab ham terib tamâm qilib bolmayäpti.

Men ham gapga aralaşdim:

— Bu kişi ham hâtinlaridan qorqadilarmi?

— Be,— dedi Yăġaç pâlvân qol siltab,— gunâh qilgan yigit hâtinidan qorqadi-da! Biz hali gunâh qilganimizça yoq. Nima deysan, Burgut?

Burgut bâşini sarak-sarak qilib kuldi.

— Uç-tört ulfat bir bolib, gapdan gap çiqib, «kim hâtinidan qorqsa, ornidan tursin» degan taklif tuşibdi. Şunda hamma örnidan turibdi-yü, bir pâlvân yigit jâyidan qozġalmapti. Undan, nega turmading, 1 hâtinidingdan qorqmaysanmi, deb soraşibdi. Pâlvân yigit nima depti, deng, hâtinimning nâmini êşitişim bilanâq ikki âyăġim şâl bolib, örnimdan turâlmay qâldim, depti.

Qâtib-qâtib kuldik.

— Bizning Yăġaç pâlvân ham şunaqa pâlvânlardan,— dedi Burgut uning biqiniga turtib.— Ha, dost! Qâma-tingga qâyilman! Yăġaç pâlvân qizarib ketdi.

— Heç-da, içadigan vaqtimda, râst gapi jindakkina qorqardim. Oşanda ham hadeb maşmaşa qilavergandan keyin yăġândakasi qorqqanga ohşab turardim.

Qâvundan keyin bir piyâladan çây içib, hamma oz işiga tarqadi.

— Burgut, értağa maşinaning birini Qoşâqvây âtağa yübâr. Yăġaç pâlvânning pahtasi éndi siyraklaşib qâlibdi. Maşina bekâr turmasin. On ucinçidan korak uzadiganini yübâraman.

Yăġaç pâlvon erga bir koz yügurtirib çiqdi-da, şundâq qilsak ham bolar ékan deb partkâmning soziga râzi boldi.

Partkâm ham, kinââperatâr ham ketdi. Burgut maşina ârqaşidan qarab turdi-da, iljayib qoydi.

— Mehmân, biz çiqqan kartinkani Tâşkentda koradigan boldingiz. Biz tãmânlarda ham korsatar, deyman. Qoşâqbây âtani âlganda juda intrsniy çiqardi.

Hirmânda şamâllatilgan pahtalar qanârlangunça şu erda boldim. Qişlâqdan pahta ârtib ketgani maşına keldi. Yägâç pâlvân qanârlarni huddi yâstuqdek engil kotarib maşınaga irğitar, Burgut ésa ularni épçillik bilan târtib âlib, ğişt tahlagandek kuzâvga jâylar édi. Qanârlar bir-biriga minib lapanglab qâlgunça tahlandi. Burgut erga sakrab tuşib, şâfyârga darrâv qaytişini buyürdi-da, kokragida jaranglab turgan ârdenlarni çiqazib, bâyâgi şâhi româlçaga tugib, hâtiniga uzatdi.

— Âlib qoy, plan tolğan kuni taqqamiz éndi.

— Éndi menga javâb bersangiz, Burgut, şu maşınada qişlâqqa etib âlay,— dedim unga.

— İe, birân kun qâlmaysizmi? Értaga Yägâç pâlvânning toyini qilamiz. Âşini eb ketasiz-da!

— Şu baçkanaliging qâlmadi-qâlmadi-da. Yägâç pâlvân zarda bilan nari ketdi.

— Yägâç pahta punktidagi labârant qiz bilan nari-beri bolib yürar ékan. Hâtini bilib qâlib, uyiga kiritmay qoygan édi. Râsa yigirma kundan beri çolning qâq ortasida majnun bolib, koylak-poylagini ham özi yüvib yürğan édi. Otgan kuni qazili âş qilib berişni boyniga qoyib, yâraştirib qoygan édik! Nasibangiz qoşilmagan ékan.

— Bolmagan gap, işânming bu gapga, mehmân. Sirtqi tehnikumda oqiyman-da! İmtihânga yâqin qâlganda labârant qiz, agrâtehnikadan özim orgatib qoyâman, degan édi. Manâvi bemabni qayâqdagi gaplarni hâtinimga aytib, urıştirib qoysa boladimi. Ahmâq bolib, yâna özi yâraştirib qoydi.

— Qoy-e,— dedi Burgut menga koz qisib qoyib,— bir balâsi bolmasa, şudgârda quyruq na qilur. Ha, dost! Pismiqsan, Yägâç! Pismiqsan!— Burgut şu gapni aytib, tizzasiga urib, qâtib-qâtib kuldi.

— Mehmân, tağın şu gaplarni ham kitâbga tirkab qoymang.

Ular bilan samimiy hayrlaşib maşınaga çiqayâtganimde Burgut, papirâs çekmang, mehmân, yolda pâjarniy ştraf qiladi, deb tayinladi.

Maşına havâni kesib, bir tekis elib çol ortasida bârar, men ésa uçaşuvlardan âlğan taassurâtларimni qay tartibda qâğâzga tuşirişni oylab ketardim.

Maşina keça Qoşâq âta bilan ajraşgan jâyga kelganda quyâş étagiga bâtib, âsmânning yârmî anâr suvi saçragandek qip-qizil tusga kirgandi. Atrâfda traktârlar, ékskavatârlar şâvqin sâladı. Ularning guldiraganini şamoâl çol boylab aylantirib ketadi.

Huddi tepamda bir çol burguti bahaybat qanâtini yâzib, gir aylanib uçib yüribdi. Şâvqinga tolğan çolda makânini yoqâtgan bu sahrâ sultâni, qonalğa tâpâlmay, âsmânda çarh urib kezardi. Çolning asriy uyqusiny buzgan er burgutlari éndi uning kohna maskanini égallagan édilar.

Burgut qizğimtir kokda uzâq aylanib yürdi-da, âhiri bir-ikki marta umidsiz qanât silkiib, quyâş bâtayâtgan ufqqa qarab suzib ketdi.

1958 yil.

ORİK DÂMILA

Men bu âdam haqida birinçi marta Yâzyâvân çolining qâq ortasida, Çol burgutining çaylasida éşitgan édim.

Çol burguti yângi açilgan qorikdan yigirma beş gektar erni bâğ uçun ajratib qoyganini va bu erni âbâd qiliş uçun rayispâlkâmning alâhida qarâri bilan Orik dâmlaning özi kelayâtganini aytgan édi.

Ajab! Bu Orik dâmlasi kim boldi? Burgutdan bu âdam haqida soramâqçi bolib turgan édim. Yâğâç pâlvân gap bâşlab qâldi:

— Kelmaydi. Şundâq bâğini taşlab kelarmidi. Bâğiga kirganmisan? Yâ tavba, bir âdamning qolidan şunça iş kelişiga aqling bâvar qilmaydi.

— Keladi!— dedi işânç bilan Burgut.— Bâği târlik qilib qâlgan, yângi koçatga jây qâlmapti. Çolga koz tikib yûrgan émiş.

Yâğâç pâlvân yâyilib kuldi:

— Çâl tuşmagur ham bizga ohşab qariganda çol «jinnisi» bopti-da.

Orik dâmlaga qiziqib qâldim. Bu âdam haqida unça-munçani bilib âlmâqçi bolib, çaylada ikkâvimiz qâlganimizda Burgutdan suriştirdim.

— Ajâyib âdam. Özi olgudek ézma. Tajanglikda tengi yoq, orikdan bâşqa gapni bilmaydi. Toy-poyga bârib qâlsa, aşula éşitayâtganlarning énsasini qâtirib, orikdan gap bâşlaydi. Asli âtini haligaça heç kim aniq bilmaydi. Ammâ Orik dâmla desang, boldi, kattadan-kiçik taniydi! Jâni dili orik. Rayândagi kâlhâzlarning bâğida hâzir şigil meva berib turgan oriklar şu dâmlaning koçatidan boladi. Âdamlar Kavkazga dam âlgani bârişsa, Orik dâmla danak yiqqani bâradi. Bâğida dunyâdagi orik navining hammasidan koçat bâr, deyişadi. Âblastdan kimki çet élga bâradigan bolsa, hamma işini yiğiştirib qoyib, uni vâkzalgaça çamadânini kotarib kuzatib qoyâdi. Danak âlib kelişni tayinlaydi.

Burgut hikâyâsi şu erga kelganda tizzasiga urib, qâtib-qâtib kula bâşladi.

— Nega kulyâpsiz, bir gap boldimi?— dedim uning bemavrid kulgisidan ajablanib.

— Bir vâqea ésimga tuşib ketdi. Kelini bilan urişib qâlgani ham şu orik hususidanda! Otgan yili katta toy qilib, oğlini uylantirgan édi. Toy ham juda antiqa bolgan. Avji orik pişigi édi. Toyga kelgan hâtinlar nima bolsa ham dâmlaning közini şamğalat qilib, origidan bir-ikkita uzib eyişni niyât qilib qoyiştan ékan. Domla peşânasiga zambarakning âğzini toğrilab bursang ham, orikka qol tegizdirmaydigan hilidan. Tajriba orik-da, ahir! Dâmla nima qilibdi deng: qorğânçadan bâqqa kiradigan éşik âldiga ikki âbdasta suv, éşik halqasiga uçta ton bilan salla ilib qoyibdi. Beçâra hâtin-halaj, qariyâlar tahârat âlgani kirib ketiştan ékan, deb bâqqa yâqin keliş âlmabdi. Kallasi işlaganini qarang bu dâmlasi tuşmagurning! Qâyilman. Maladés!

Burgut yâna kula bâşladi. Dâmlaning kelini bilan ârasi buzilganining sababini bilâlmaganim uçun yâna soradim:

— Kelini bilan nega urişib qâlgan édi?

— Ha, aytgança, hali aytdim-ku, dâmla çet élga kim bârsa, danak âlib kel, deb tayinlaşini. Sayâhatçilar uning yûzidan otâlmay, oşâqlarda orik esalar, danagini taşlamay âlib kelaveriştibdi. Dâmla şunday qilib bir halta danak yiqqan édi. Kelin beçâra uning «danak jinnisi»ligini bilmay, dâmla yoğida şu bir halta danakni çaqib eb qoyibdi. Bâşqârânği ékan-da, beçâra. Dâmla koçadan kelsa bir hâvli danak poçâği yâtgan émiş. Koribdi-yü, tutqanâği tutib qâpti. Huşiga kelib, butun hâvlini bâşiga kotarib dâd sâlibdi. Qoni-qoşnilar yiğilibdi. Uning

feblini bilganlar lâm-mim deb âgiz âçişâlmabdi. Kelinning rangi quv âqarib ketgan, dađ-dađ titrar émiş. Keyin dâmla ođliga odađaylabdi:

— Bu uyda yâ men turaman, yâ hâtinig turadi! Albatta yângi kuyâv bir nima deyâlmay til çaynab, anqayib turaveribdi.

Bu gap kelinning hamiyâtigâ tegib, kiyim-bâşini tugib âtasinikigâ ketib qâpti.

Burgut yâna bâşini sarak-sarak qilib kuldi.

— Şunaqa. Dâmla orik deganda hattâ âtasini ham ayâmaydi...

Keyingi Yâzyâvân safarimda Çol burgutidan Orik dâmlani suriştirdim.

— Qalay, dâmla çolga keldilarmi?— Keldi,— dedi Burgut kulib,— yüring, sizni dâmla bilan tanıştirib qoyây.

İkkâvlaşib bâğ uçun ajratilgan qoriqqa qarab ketdik. Havâ bulutli bolsa ham, çol ustidan iliq şamâl évardi. Kaftdek tekis erlarda qâr korinmas, faqat har er-har erda yiğilib qâlgan kolmak suvlar huddi âsmândek kul rang tusga kirgan, ésayâtgan şamâlda ularning beti jimirlab, qorğâşindek âjiz yiltirab qoyârdi.

Şâhlari yâlanğâçlanib qâlgan buta âstidan ikkita qirğâvul patillab kotarildi-yü, sal narirâqqa bârib tuşdi.

— Éh, qoştığ bolmadi-da... Râsa semiz ékan, uzâqqa uçâlmadi-ku.

Bir âz jim bârdik.

— Dâmla yânigâ Toppânça pâlvân bilan Yâğâç pâlvânigâ âlib, bir keçadayâq bâğidagâ yângi yâş koçatlarni kâvlab, ikki gruzâvâyda çolga âlib keldi. Hâzir bâlalar havâning ğanimatida âlatasir koçat otkazişyâpti. Hâzir çolga dâmlaning işqi tuşib qâlgan. Kelganidan beri rayânga ikki marta tuşdi, hâlâs. Özi ham bâğmisan-bâğ boladiganga ohşaydi,— dedi Burgut yâna.

Dong âşganimizdan keyin bundan uç ây avval korganimda kanavâkâpatelb ariq qaziyâtgan jâyda qatâr otqazilgan nihâllarga közim tuşdi. Uç-tort âdam bir jâyga ğuj bolib, nimadir qilayâtgan édi. Qadamni tezlatib, ularning âldigâ bârdik. Yâğâç pâlvân bilan Toppânça pâlvân yâş nihâllar tanasigâ âhak surtişyâtgan ékan.

— Dâmla qanilar?— dedi Burgut.

— Hâzir kelib qâladilar,— deb javâb berdi Yâğâç pâlvân, aftini buruştirib, qaddini râstlar ékan.

Yâğâç pâlvânga éndi sal-pal jir bitib qâpti. Toppânça pâlvân ésa hali ham oşandek çaqqân, sermulâzimat. Çirâyli kozlari pârlab turibdi.

— Bu jinqarça koçatlarni âhaklayman deb belim qâtib ketdi. Manâvi pakar éngaşmay tik turib âqlasa, men ikki bukilib âqlayâpman!

Darhaqiqat, bu uzun boyli yigitga hadeb éngaşaveriş âsân tuşmas édi. Toppânça pâlvân piçing qildi:

— Hâzir menga maza-yü, senga azâb, orik pişganda senga maza-yü, menga qiyin boladi. Negaki, sen tikka turib uzaverasan, men bolsam tagimga tonka qoyib çozilaman.

— Senga bu dâmla hali-beri orik uzdirib qoyâ qâlmas-âv, nima deysan, Burgut?

Burgut uning gapiga kulib qoyâ qâldi. Çoqqi sâqâl, bâşiga pati tozib ketgan surma rang doppi kiygan kozâynakli, âltmiş yaşlardagi çâl velâsiped minib kelib qâldi. U, u yâq-bu yâqqa qaramay, salâm-alikni ham unutib, Burgutga bir qâğâz uzatdi.

— Telegrammaga javâb. Şreder stantsiyâsidan uç yüz tup koçat âladigan boldik. Raisga aytsangiz: ikkita gruzâvây bersa, értaga Tâşkentga ketaman. Mirzaçoldagi tajriba stantsiyâsidagi agrânâm Êşânhânâv bilan birga ostirgan koçatlarimiz bâr. Qaytişda âla kelaman. Qalay, mabqulmi?

Çâl gapini tugatib bolgandan keyingina biz bilan korişdi. Korişdi-yü, yâna oz gapi bilan âvâra bolib ketdi:

— Havâ râsa bolib berdi. Koçat hâzir mast uyquda. Koçatni uyqusida bâsgan yütadi. Értalab Riştândan éllikta koçat keladi. Agar Tâşkentga ketib qâlsam, Burgut bâlam, özingiz bâş bolib, anâvi radga éktirasiz-da!

Orik dâmla yânginasida turgan koçatning uzun bir nâvdasini égib, gulqayçi bilan kesayâtganda, Burgut qulâğimga şivirladi:

— Boldi éndi, orikdan bâşqa gap yoq. Suv içmay ikki sâat gapiradi.

Darhaqiqat, Orik dâmla orikdan gapirib kunni keç qilsa-yâ! Qantak orikning vatani asli Riştân bolib, Kânibâdânga keyinçalik bârib qâlgani,âq orikning Riştândan kora, Andijânda yâhşi hâsil berişi, «pâşşâyi»ning turşagidan qilingan şarbatni bahârda içilsa, medani tâzalaşi, haşaki orikning qâqisini mâlga qaynatib içirilsa— qotir bolmasligi, «kal yoldâş»dan sâlingan bargakni âltingugurtning tutuniga dimlansa— huddi tillaga ohşab sap-sariq bolişini râsa tuşuntirib ketdi.

Uning gaplari meni aslâ zeriktirmas édi. Oz hunariga butun umrini bağışlagan bu qariyâ etuk bir âlim bolib tuyûlardi. Ahir, u âltmiş yillik umrida hasislik bilan kokartirgan qançadan-qança koçatlari butun-bir vâdiyning sanâqsiz bâğlarida yâşnab turganini oylaganim sari unga havasim kelar, yûragimda çuqur hurmat tuyğulari qozğalardi.

Keç kirib atrâfni qârânği bâsdi. Uzâqda, yângi pâsyâlkada çirâqlar miltiradi. Tortâvlân ârqaga qaytdik.

— Domla,— dedi Burgut yolning ârmiga etganimizda,— Toşkentga ketmasingizdan avval qudangiznikiga borib, kelinni kôrib ketsangiz bolardi.

Çâl nimadir deb tongïlladi. Çol şamâli uning âvâ-zini ârqa tâmânga âlib ketdi. Yâna âzrâq yol yûrdik.

— Bir halta danak-a, Hindistândan, Afğânû Arabistândan, Qaşqaru Kaşmirdan kelgan danaklar édi-yâ. É, attang!

— Bolar iş boldi, dâmla, éndi yâraşib qoyâ qâling. Keçiring uni, bilmasdan qilgan-da.

— Sira keçirmayman. Bir halta danak éng kamida ikki yûz tup koçat bolar édi. Qanaqaligini ham bilâlmay qâldim.

Çâl éndi bâşqa gapirmadi. Tâ qişlâqqa etib kelgunimizça undan sadâ çiqmadi. Kelini eb qoygan danagi yûragini yâna ézib yûbârdi şekilli, «steptârg»ning avtâlavkasi âldida biz bilan hayrlaşar ékan, boşaşib qol uzatdi. Dokândan tuşib turgan çirâq şublasida uning yûzlari huddi ğijimlanib, ôzi birdan qarib qâlgandek kôrindi.

— Kôrdingizmi ojarligini,— dedi Burgut, uyga kirganimizda.— Danak vâqeasi juda yâmân tabsir qilgan, qaçân ézmalik qilib gapni gapga qâvuştirmasa, atayin danakdan gap âçib qoyâman. Dami içiga tuşib ketadi. Hâzir dunyâda bitta duşmani şu kelini, korarga kôzi yoq.

Biz Burgut ikkâvimiz alla-palagaça uhlamay, çol haqida, çolni ozlaştirayätganlar haqida gaplaşib yätдик. Bâyä dâmla orik haqida qanday tolib taşib gapirgan bolsa, Burgut ham qulfi dili açilib, çol haqida huddi şunday miriqib gapira ketdi. U şunday yäyrab gapirar édiki, etuk bir şâir ham çolni unçalik tabriflay âlmas édi.

— Bilasizmi, mehmân, yâz keçalari uydan daydib çiqib ketaman. Âsmân tola yülüz, ây çol ustiga kelganda pastlab otadi, yâ menga şunaqa tuyüladimi, yâ râstdan ham özi şunaqami, bilmadim. Tunda turna uçganini korganmisiz? Men juda kop korganman. Juda gaştili boladi. Huddi qoy haydagan pâdaçiga ohşab «qure-qure» deb âsmâni zamindan otaveradi. Ayniqsa, âydin keçasidagining gaşti juda bâşqaça boladi. Sinkaga sâlingan âq dâka ârқasidan uçib otayätganga ohşardi. Şamâl qiş-lâq tãmândan ğalati islar âlib keladi. Qoyingçi, çolda yâz keçasi çalqança yätib uhlamagan âdam, bu gaplarning mabnâsiga etmaydi.

Burgut yähşi bir qoşiq eşitayätgandek tez-tez közini yümib, past âvâz bilan gapirardi.

— Hay mayli, uhlaylik éndi, mehmân. Burgut éndigina korpaga burkangan ham édiki, koça tãmândagi derazani birâv çertdi.

— Burgut bâlam, men! Toppânçaga ayt, âtni bersin, Qişlâqqa tuşib çiqaman. Burgut şaşib kiyinib çiqib ketdi. On-on beş minutlardan keyin qaytib keldi. U uyquli kozlarini işqalab hadeb kular édi.

— Orik dâmlaning kelini oğil köripti. Âğzining tanâbi qâçgan. Bir jâyda turâlmaydi. Hiring-hiring kuladi. Ât âlib berdim, qişlâqqa ketdi. Bâyä kelinini korgani kmzi yoq édi, ha, farzand ékan-da! Tuğruqhânadan çiqişi bilan çolga koçirib kelaman, deydi. Hali korarsiz, nevara toyi qilib beradi. Pul kop bu çâlde. Tâşkentda orik hususida mana bundâq katta kitâbi çiqqan. Ha, aytgança, kinâni kördingizmi? Qiztalâq kinâçilar huddi özimni âpti-qoyipti-yâ. Qurultâyda qoyib berişdi. Mirzaçoldagi Ğanişerni ham âlişgan ékan.

Delegatlar ikkâvimizga ham «ériysanlar» deb turib âlişdi. Mehmânhânada ziyâfat qilib berdik. Ğanişer bilan uriştirib içdim. İkkâvimiz oşa erda qol âlişdik. Nima deysiz mehmân, Ğanişer zor-a?!

— Siz ham çakki émassiz,— dedim.— Ahir, sizni kimsan Çol burguti deyişadi-yâ!— Men Çol burguti bolsam, Ğanişer Mirzaçolning şeri.— Şer bilan burgutning taşlaşgani qiziq boladi.

Burgut kula-kula çirâqni oçirib, korpaga kirdi. Uyqum qâçdi. Kozimga çol ortasida âtini eldirib ketayâtgan Orik dâmla körinib ketdi. Nazarimda, u bulutlar ârasida gâh yänib, gâh oçib turgan yulduzlarga, âtining yälini siypab oynayâtgan çol şamâllariga ham orik haqida gapirib bârayâtgandek, atrâfida yâstanib yâtgan tekis çolga orik koçatlarini bir tekis tikib ketayâtgandek, yängi tuğilgan nevarasiga savatda orik âlib bârayâtgandek édi.

Çollarda bâşlangan yängi hayât va yängi âdamlarning qissasini yâzib tugatib bolarmidi!

Bu qissaning ham hali davâmi bâr.

1959 yil.

LÂÇIN

Értalab Orik dâmla rayândan qaytib keldi. Uning âğzi quloğida, qiqir-qiqir kuladi.

— Nevaralar mubârak bolsin, dâmla,— dedi Burgut unga çây uzatar ékan.

— Qulluq, qulluq, bâlam, âmân-ésân qutulibdi işqilib.

Dâmla çây ustida qiziq bir hangâmani aytib berdi.

— Tuğruqhânaga ketayâtsam raytârg Umaralining uyida qars-badabang oyin-kulgi. Qizini çiqazayâtgan ékan. Êşigining tagiga maşina tiqilib ketgan. İçkariga qistaşdi, uzrimni aytdim. Qaytişda kirişga vabda berib otib ketdim. Konglim hâtirjam bolib qaytib kelsam, toyhânada âlatasir topâlân. Umarali ğirt mast, âğzidan bâdi kirib, şâdi çiqib hâtinini sokadi, yâr-yâr aytayâtgan yällaçining qolidan çirmandasini âlib, közimning âldida jahl bilan ketmân dastasiga urib qâlsa boladimi, çirmandani dastaga teşikulça qilib kiygizib qoydi. Nima gapligini heç kim bilmaydi, hamma hayrân.

Kuyäv Umaralining étagidan uşlab âlgan. Huddi yängi tuğilgan buzâqqa ohşab âyâğida arang turadi. Yürsa gandraklab, korga ohşab âdamlarni paypaslaydi, âz bolmasa er oçâqqa tuşib ketay dedi. Hayriyât, âşpaz étagidan târtib qâldi.

Şivir-şivir gap bolib qâldi. Nima deysan, kelin huştâri bilan qâçib ketibdi.

İçkari hâvlidan hâtin kişining çapak çalib yiğlagani, érkak kişining sokkani eşitildi. Toy tarqadi. Kuyävning âtasi bergan qalinini qistab qâldi. Umarali satta özini mastlikka sâlib gapni çalğitadi:

— Tápaman, erning qabriga kirib ketgan bolsa ham tártib çiqaman. Ásmånga uçib ketgan bolsa— bår mul-kimni, «Påbedam»ni ham, hâtinimning boynidagi on dört qavat durni ham, hâvli-jâyni ham sâtaman. Sputnik sâtib âlib, ârçasidan quvib çiqaman.

Umarali şu gaplarni aytdi-yü, sabzi toğrab qoyilgan boyraning ustiga yiqilib, uçib qâldi. Kuyäv bâyâ qaynotasi çirmandasini teşib qoygan yällaçining peşânasini silab, tâlei yoqligidan, avvalgi hâtini ham bevfâlik qilib bâşqa biråvga tegib ketganidan nâlib, yiği bâşladi. Yällaçi şilqimlik qilayâtgan «betâle» kuyävni siltab taşlab çiqib ketdi.

Hijâlatlikda tâmâğimdan bir qultum ham çây otmadi. Çiqib ketdim.

Orik dâmla hikâyâsini tugatib, sâvub qâlgan çâyni şimirdi.

Men uning gaplariga qulâq sâlib otirib, «hah, orik aralaşmagan gaping ham bår ékan-ku!» deb dilimdan otkazdim.

— Hay, mayli bâlam, éndi menga javâb. Havâ yâşnab keldi, koçatlardan habar âlib qoyây.

Çâl haylaşib çiqib ketdi. Burgut koçagaça uni kuzatib qaytişda âltmiş yâşlardagi kampirni bâşlab kirdi.

— Hizmat, ayâ, bâbây yâhşi yüribdilarmi?

— Şukur, şukur, bâlam.

— Ğanivây qalay, körinmay qâldi-ku?

Kampir Burgutning sorâğiga javâb bermay, közini erga qaratdi.

— Nima boldi?

Kampir besaranjâm bolib qâldi:

— Yoq, heç gap bolgani yoq.

— Aytavering.

— Özingizga aytadigan gapim bår.

Bularning gapiga halaqit berayätganimni sezib qâldim. Kampir huşyârlilik qilib Burgutni hâvliga imladi. Uining ketidan çiqib ketgan Burgut ança hayâllab qâldi, sal fursatdan keyin hâvlidan uning otin yârgandek qarsillab kulgani êşitildi.

Burgut uyga qaytib kirar ékan, özidan-özi kular, hadeb «maladés, maladés» deyâr édi.

— Qani yüring, mehmân, bir jâyga bârib kelamiz.

— Bir gap boldimi, tinçlikmi?— dedim hayrân bolib.

— Bir gap émas, ming gap deyâvering, yüring, yolda aytib beraman. Taşqariga çiqdik, yâlgizâyâq yoldan çölni kesib, Qoşâq âta zvenâsiga qarab piyâda jonadik. Âlisda, şu yolning ufqqa singib ketgan jâyidan bâyâgi kampir hassasiga tayänib jadal bârar édi.

— Hoş, desangiz, men sizga aytsam, bâyâ Orik dâmla aytgan toydan kelinni haligi kampirning oğli âlib qâçgan ékan. Yârim keçasi «Pâbeda»da âlib kelibdi. Kampirning otakasi yârilib, tâng âtgunça mijja qâqmay, ana şarmanda bolaman, mana şarmanda bolaman, deb yûragini hâvuçlab çiqibdi. Qizning âtasi Umarali zakânçi, kop âdamga zulmini otkazgan yâramas narsa. Beçâra kampir, Ğanivâyga nasihat qil, qizni éltib qoysin, deb kelibdi.

— Qiz bilan Ğanivây avvaldan dân âlişib yûrişarmidi?— dedim qiziqib.

— Dân âlişganda qandâqqi, ikkâvi oninçini birga bitirgan, bitirgandan keyin Farĝânaga bârib traktârçilar kursida ham birga oqib kelişgan. Özi juda suluv qiz. Şaddâdlikda tengi yoq. Ésimda bâr, yâş vaqtida oğil bâlalar bilan kuraş tuşaverardi. Kapkatta bâlalarni urib yiğlatardi. Zor narsa özi. Bir yılça boldi âtasi işga çiqazmay qoygan. Bolmasa MTSda binâyidek ÇTZ haydab yûrgan édi, medalb ham âlğan. İşga çiqmaganiga işhânasi ham aralaşdi, nima boldi-yü, iş bâsdi-bâsdi bolib qâlaverdi. Umarali zakânçi, yolini qilgan-da. Hudâ urgan yâramas âdam dedim-ku, sizga bâyâ. Yâqinda şivir-şivir gap bolib qâldi. Umarali qizini istansadagi dârrestâranning bufetçisiga berayätganmiş, deb êşitdik. Alamiga çidâlmagan Ğanivây mast bolib, bufetçining bâşiga butilka bilan urib, on ikki kun melisada ham yâtib çiqdi. Qizini astâydil yâhşi korar édi-da. Bu ham özi bâevây bâla. Âriyâti kuçli. İgnani tuşga bâtirib, bilagiga sançib, yûrakning suratini uç burçak qilib işlatibdi, bir yâğiga Âyşa, bir yâğiga Ğani deb yâzib qoyibdi, vâý ten-tag-éy. Şu qiliğiga majlisda râsa osal qilişgan.

Gap bilan bplib, Qoşâq âtaning qorĝâniga etganimizni bilmay qâlibmiz. ,Qoşâq âta tutning tagida çoqqayib, bokib qâlğan sigirga tuz yâlatayätgan ékan, bizni korib ornidan turdi.

— Keldingmi, bálam, é, mehmân, zerikib qálmadingizmi?

Çálning bu gapidan, sen nima qilib yüríbsan, seni çaqirtirganim yoq édi-ku, degan mabnâni anglab, juda mulzam boldim.

— Ğanivâyning özi qani?— dedi Burgut çálga.

— Uyda, ikkâvi ham uyda. Boyning uzilmagurlarning qilgan işini qara. Éndi nima qilamiz?

— Hayrânman,— dedi Burgut elkasini qisib.

— İçkariga kiringlar, yâhşilab nasihat qilinglar, malâmatga qálmaylik.

Hâvliga kirdik. Juda ham çirâyli, yigirma tort yâşlardagi, qâmati huddi quyib qoygandek bir qiz ariq boyida jâmaşâvda gupillatib kir yüvyâpti. Havoning salqin bolişiga qaramay, mayka kiygan şâp moylâv yigit behi şâhiga kir yâyiş uçun arkân bâğlayâpti. Qiz bizni korib, tizzasiga yiğilib qálgan étagini tuşirib, ornidan turdi.

— İe, kelinglar,— dedi şâp moylâv yigit arqânni taşlab, korişgani qol uzatar ékan.

— Ha, Ğanivây,— dedi Burgut qizga imlab,— elmay-yügurmay kuyâv bolib âlibsanmi?

— Nega elmay-yügurmay bolar ékan, keça toyimiz bolgan, faqat toy harajatini bufetçidan nasiyâ qildik-da,— dedi Ğanivây kulib,— qani, içkariga kiringlar. Âşşahân, çây qoyib yübâring darrâv!

Âşşahân ayvân labida turgan âq samâvarni kotarib, âşhâna tâmânga otib ketdi. Kampir kirdi.

— Özinglar tuşuntiringlar, gapiraverib jağimda jağ qálmadi.

Qoşâq âta gapga aralaşmadi, hântahtaning çetida bâlişni bâğriga târtib, nimalarnidir oylab tek otirardi. Kampir ozlaring bir nima denglar, degandek bizga qaraydi. Hamma jim. Bu jimlikni Qoşâq âta buzdi.

— Juda hunuk iş boldi-da. Ânasi zâr qaçşab qidirib yürgandir. Âtasi bolsa...

Çálning gapi âğzida qáldi, Burgut «Âtasi çârt s nim» deb rusçalab yübârdi.

— Farzand-da, ahir. Boladigan bolsa— âçiq-âydin qiliş kerak édi... Értaga élning âğziga tuşadi, unda nima degan âdam bolamiz, halq nima deydi?

— Halqmi,— dedi Burgut,— halq, maladés, deydi.

Bâyattan beri sudga tuşgan gunâhkârdek hammaning koziga qarab otirgan Ğanivâyga birdan jân kirgandek boldi.

— É, diydâringdan aylanay. Burgutim, gapir, gapir şunaqa. Kampir tâpib kelgan nasihatgoyidan kuyganini bilib qâldi.

— Éndi gap şu,— dedi Burgut, çort kesib,— Ğanivây juda bâpta iş qipti, bunaqa işni yigitning horozi qiladi. Qiz râzi, yigit râzi, vassalâm. Kim nima desa deyâversin. Maladés! Qizni zorlab sâxadigan zamân otib ketgan.— Burgut hâvli tãmânga qarab qiçqirdi.— Ho, Âşahân singlim, bir baqqa qarab keting! Âşahân derazadan qaradi.

— Şu iş sizning râziligingiz bilan bolganmi, toğrisini aytavering.

— Agar özim râzi bolmasam, traktârga surgatib ham âpkelâlmasdilar.

— Şu gapdan, qaytmaysiz, a? Bopti, bitta universal sizniki, pâtilataverasiz. Qaysi zvenâga qoyâylik.

— Érim qaysinda bolsa meni ham şunga...

— Voy şorim,— dedi kampir yüzini tirnab,— na nikâh, na zakska qâğâzsiz, érim deydiyâ... Vây, musulmânlar, heç bolmasa Orik dâmlani çaqirib, nikâhlab qoyinglar.

— Kop vaysama,— dedi çâl zarda bilan,— Orik dâmla sen aytgan diniy dâmlalardan émas, ilm dâmlasi, yângiça kitâb oqiydigan dâmla! Râziman, rahmat sizga, qizim, bir bâlamni şunça izzat qilib, âsmân nikâhini buzib kepsiz, yüragingizga balli. Éndi mundâq qilsanglar, értaga rayân tuşib, dadangiz bilan énangizga yüz korsatib kelsangiz. Harna qilsa ham farzandlik qarzi, Mayli, Ğani ham bârsin.

— Bârmayman!— dedi Âşâ qatbiy qilib.

— Jân bâlam, aylanay bâlam, énangizga rahmingiz kelsin.

Maslahat bilan Âşâ uyga bârib keladigan boldi, faqat uç kundan keyin, éri bilan birga bârmâqçi boldi.

Burgut qiziqçilikka ularni «nikâhlab» qoydi.

— Bibi Āyşa ibni Umarali qizi, Yāzyāvān RTS mehanigi, ārdenli Ğani Qoşāq oğlini nikāhingizga qabul qildingizmi?

— Pajalsta, qabul qildim,— dedi Āyşa uçun atayin hātinça ingiçka āvāz bilan Ğanivāy.

Āyşaning özi ham piqillab kulib yübārdi.

Értasiga çillali kelin Burgutning uçastkasiga şudğār kotargani universal minib keldi. U qulāğiga bir dasta gunafşa qistirib, atayin kelinligini bildiriş uçun yüziga bilinar bilinmas qilib upa qoyib, kokragiga pastga qaratic, çuçmoma taqib ālgan édi. Undan gup-gup atir hidi anqir édi.

Burgut unga haydaladigan erni korsatib berdi. Āyşa mātārni ot āldirib, rulga otirmāççi bolib turgan édi, uzākdan māş rang «Pābeda» körindi. Āyşa bir nimani sezgandek qol siltab, traktārni haydab ketdi. Qişi bilan qār suvini şimib kopçigan er palahsa-palahsa bolib koça bāşladi. «Pābeda» keldi. Undan şirakayf «kuyāv» tuşdi. U yāq-bu yāqqa qaramay traktār ketidan yūgurdi. Āyşa atayin uni kormaganga sālīb rulb bāşqarib ketaverdi.

— Tohta, ottiz ikki ming sarf qilganman, sudga beraman.

Āyşa qol siltadi. Kuyāv eldek yūgurib traktārdan otib ketdi-da, yigirma metrça nariga bārib yolga uzala tuşib yātib āldi.

— Oligimning ustidan otasan.

Traktār unga tort metrça qālganda tohtadi.

— Tur-é, beting qursin. Hāzir bāsib qurvaqadek ézib ketaman...

— Özimni āsaman, javābgar bolasan.

Āyşa traktār ārçasidagi bir oram arqānni ālib unga ulāqtirdi.

— Özingni āssang, huv ana, sim tārtilmagan stālba bār. Āyşa zarda bilan yāna rulga otirdi. Uning harakatlarini kuzatib turgan Burgut:— Maladés!— dedi. Āyşa yūrib ketayātib traktār ustida tik turib ārqağa qaradi. Uning bu qaraşi, negadir, menga lāçinni éslatdi. Buni Oriik dāmla ham payqab turgan ékan.

— Ha, umringdan baraka tãp, lãçinning özisan-a!— deb yübãrdi.

Men çolda roy berayãtgan bu hãdisalarni, çol bağriga qol sãlib, uning yãşirgan bãyliklarini tãrtib ãlayãtgan bu tanti-mard ãdamlarni korib, yüragimdan ularga tahsin oqidim.

Çol burguti yãniga yigitlarni ãlib, Orik dãmla ãbãd qilgan yãngi bãğni aylanib, kanaldan lãy çiqazayãtgan èkskavatãrçilar ãldiga ãt çãptirib ketdi. Çölning ufq bilan tutaşgan erida ularning sãyãsi kãrindi. ãldinda Burgut elib bãrardi, ãrtidagi yigitlar gãh ãldinga otib, gãh keyinda qãlardi. Ularning bu korinişini huddi burgut bãlalarini parvãzga orgatayãtganga ohşardi.

Urik dãmla bilan ikkãvimiz qãldik. U yãna orikdan gap bãşlarmikin deb qorqib turgan èdim, yoq, işini qistãv èkan, bãğiga ketdi.

Yãlgiz qãldim. ãyşaning traktãr haydãşini kuzatib turib hayãlga tãldim. Burgutning yigitlari parvãz qilgan çolga yãna bir lãçin uçib kelgandek boldi. Bu şunday lãçinki, na uning qanãtini qirqib boladi, na özini qafasga sãlib boladi. U qafasni parçalab kengliklarga parvãz qilgan şaddãd çol lãçini èdi.

1959 yil.

ÇOL ŞAMÁLLARI

ÁDAM VA BORÁN

Kunduzi havã juda yãhşini èdi. Keçasi bunaqa borán bolishini kim bilibdi? Moylãv, Besardan yũkimni ãlib kelaman, deb maşina soraganda ãftãb çaraqlab turgan èdi-yã! Oşanda maşina berib çakki qilgan èkan. Haligaça koçada mãtãr gurillamaydi. Qaytmabdi-da!

Qozibãy u yãnbãşidan-bu yãnbãşiga ağdariladi.

Taşqarida borán quturgan. Darvãza toğrisidagi sim-yãğãçda yãnib turgan èlekr çirãğini lapanglab, hali barg yãzmagan nihãllarning sãyãsini erdan ãlib devãrga uradi, devãrdan ãlib erga uradi. Simyãğãçning sãyãsini bolsa oz atrãfida çir aylantiradi. Borán har huruj qilganda derazaga şitirlatib qum sãçadi. Çoyãn qãpqãğini ãçiq qãlغان peçka gãh boriga ohşab uvillaydi, gãh muşukka ohşab miyãvlaydi. Qozibãy uyğãq. Taşqariga qulãq sãlib, korpani elkasiga

tártganiça qimirlamay otiribdi. Qaerdadir jaranglab deraza âynasi sindi. Kimningdir éşigi qarsillab açilib yâpildi. Allaqaysi tâmdan şifer koçib, taraqlab erga tuşdi. Qozibây otirgan erida timirskilanib, şimining çontagidan papirâs âldi. Hâtinini uyğâtib yübârmalik uçun gugurtni hâvuçining ârasiga âlib çakdi. Zaif şubla panjalarini huddi qizil boyâqqa bâtirib âlgandek yâritdi. Hâtini Kâkila uyğâq, qârânğida nurli çizikdek nari bârib, beri kelib turgan papirâs çoğiga qarab jimgina yâtar édi.

— É, uhlamadingmi? Qorqyâpsanmi? Qorqma! Borânni éndi koryâpsanmi!

Hâtini indamadi.

— Borân quturişga quturdi. Şunaqa paytda tortta ulfat bolib nârin toğrab otirsang, râsa gaştlı boladi-da, hâtin.

Kâkila éri bu gapni uni alahsitiş uçun aytayâtganini bilib turardi. Bolmasa, qum quturgan paytda kim ulfatçilik qilibdi-yü, kim nârin toğrabdi? Érining âdatini bilganidan indamay qoyâ qâldi. Ér-hâtin ança vaqtgaça jim qâlišdi. Âhiri hâtini çidamadi:

— Meni âvutmay qoyâ qâling, sirayâm qorqayâtganim yoq. Qorqsam, yângi kelgan paytlarimda, yâlgiz özimni biy dalaga taşlab, rayânga seminarga ketgan paytlaringizda qorqardim.

— Bolmasa nimaga uhlamaysan?

— Özingiz-çi?

— Mening yoriğim bâşqa,— dedi Qozibây yâna papirâs tutatib,— bâşimda şunça iş... Saksândan âşiq uyni qaqqaytirib qoydik. Éndi yigirma beştasiga âdam keldi. Pahtani ikkâvimiz ékib, ikkâvimiz teramizmi? Şularni oylab uyqum kelmeyâpti, hâtin.

Hâtin érini yüpatmâqçi bolib, elkasini uning elkasiga işqadi.

— Judayâm taşviş qilavermang. Âdam keladi. Şu bugunning özida âlti hânadon koçib keldi. Értagayâm, indingayâm keladi. Hali qarab turing, qurgan uylaringizga âdam siğmay ketadi.

— Buni sendan yâhşi bilaman. Keladigan bolsa avji ékiş paytida kelsin-da! Boldi, éndi uhla! Nima balâ boldi, Moylâv hali ham qaytmadi-ku!

— Qaysi Moylâv?— dedi hâtini yâna yâstiqdan bâş kotarib.

— Bugun koçib kelgan baqalâq yigit-da. Matrâs bâla.

— Vây şorim, şaharga ketganmidi? Hâmiladâr hâtinini yälğiz taşlab-a? Organmagan jây, yüragi yâriladi-yâ! Qorqayâtgandır... Hâtinining gapi âğzida qâlib, Qozibây ornidan sakrab turdi. Çirâqni yâqib sâatiga qaradi: On ikkidan âşibdi.

— Nima qilmâqçisiz, bârmâqçimisiz?

— Habar âliş kerak.— Qozibây şunday dedi-yü, şâşib kiyina bâşladi.

Hâtin ham ornidan turdi.

— Men ham bâray, hâtin kişining yâniga keçasi bârsangiz, bilgan undâq deydi, bilmagan mundâq deydi. Érining ham kongliga kelişi mumkin. Meni oşa erga taşlab,özingiz qaytib kelarsiz. Uyda Bâbir yälğiz qâlmasin,— dedi Kâkila.— Beçâraning hâtinini juda pişib turgan édi. Dard tutib qâlmasin tağın.

Ér-hâtin hâvliga çiqişi. Borân hamân avjida. Qozibây közini qumdan saqlaş uçun çâpânini bâşiga yâpinib, hâvlining narigi tãmâniga otib ketdi-da, zum otmay, égarlangan ât etaklab çiqdi. Ér-hâtin âtga minişi. Hâtin érining ârçasidan mahkam quçaqlab, közini qumdan yâşirgança jimgina bârardi.

Şamâl guvillaydi. yâqında şağal tokilgan katta yol çetlaridagi nihâllar tagini qum orab âlibdi. Lapanglab turgan élekr çirâqlarining nurida qum quyüni huddi yânbâşdan yâğayâtgan qârga ohşaydi. Nihâllar tagida todalalayâtgan qum uyümlari ésa, asta-sekin ormalab, uni halqumidan boğmâqçidek.

Katta yol ârçada qâldi. Lampâçkalar âlida suzayâtgan kema çirâqlaridek tebranib miltiraydi. Ér-hâtindan sadâ çiqmasdi. Ularning har biri öz özi bilan band. Faqat âtgina huşyâr. U bâşini sarak-sarak qilib, indamay âldinga intiladi. Yâllarini buydalayâtgan borânni suzib taşlaydigandek boynini ğâz tutib qârângilik qabriga kirib ketmâqda. Ér mudraydi, hâtin hayâl suradi...

...Bir vaqtlar Kâkila oninçini bitirib, artistka bolişga ahd qilgan édi. Qaysi bir jurnalki bâr, yângi mâdaning rasmi çiqsa, suriştirib otirmay, şartta yitib âlardi. Toqqizinçida oqib yûrgan paytlaridayâq ânasidan bekitib surma qoyârdi. Sâçini, naq taqimiga tuşadigan qâp-qâra uzun sâçlarini elkasidan kestirmâqçi bolganda, akasidan râsa kaltak egan édi... Hammasi otdi-ketdi. Bâlalik ârzulari, şohliklari bitdi, éndi u balâğat âstânasidan allaqaçân hatlab otgan.

Mana şu Qozibây yolida paydâ boldi-yü, bälaligini şamâldek allaqayäqlarga tozitib yübârdi-qoydi.

Qozibây armiyâdan özining tuğilib osgan qışlâği Simsâyga qaytib kelganda, Kâkila havaskârlar gruppasi bilan Tâşkentga festivalga ketgan édi. Kâkila festivaldan ismi yâzilgan tilla sâat mukâfât âlib qaytib kelsa, bir vaqtlar özi «humkalla» deb laqab qoygan Qozibây armiyâdan qaytib kelib, qizlarning bâşini aylantirib yüribdi. Özi ham tolişib, savlatli, bolib ketibdi. Égnidagi irâqi kuylagining kokragi tirsillab turibdi. Kâkila uni kordi-yü, és-huşini yoqâtdi-qoydi. Uşa kuni kozlariga surmani qalin çaplab, Qozibâyning âldidan ikki-uç marta ataylab kaklik yürishi qilib otdi. Butun vujudidan muhabbat va yâşlikning faqat balâğatga etib, âvâzi dorillab qâlgan ospirinlargina biladigan ğalati ğamzasi yâğilib turgan qiz Qozibâyning ham közini tindirdi. Bâla ârâmini yoqâtdi. Atir hidi dimâğiga kirsâ, bezâvta boladigan, ingiçka âvâz eşitsa, közi suziladigan bolib qâldi.

Kâkila bir kun magazinga kirganda har balâga aralaşaveradigan, âti Usmân bolsa ham negadir, Âsmân deb laqab âlgan (balki laqabni ham Kâkila qoygandır), burni yâpasqi yigit siçqânning dumidek ingiçka moylâvini burab, unga mabnâli iljayib qoydi:

— Qozibâyni eding-a? Balâsan, balâ!

Kâkila énsasi qâtganidan labini çoççaytirib, indamay çiqib ketaverdi. Sal narirâqa bârganda, gap kâr qilib, ârçasiga qaytdi.

— Nima deding? Yâna bitta gapir-çi! Bunaqa paytlarda Kâkiladan yâhşi gap çiqmasligini bilgan Âsmân gapni aylantirmâqçi boldi:

— Menga qara, panbarhit keldi, bir âtrez âlib qoyganman, hali aytiş ésimdan çiqqan ékan.

— Bâyâgi gapni ayt deyâpman! Sen puçuq âbdasta olgurga kim qoyibdi birâvlarning işiga aralaşışni? Tegmaganimga alam qilyâptimi? Qozibâyga tegmâqçiman, bildingmi?

— É,— dedi Âsmân,— Qozibây âlib bopti seni, bâşiga uradimi?

— Nima, nima? Âlmay bopti?

Kâkila şunday dedi-yü, tars-tars yürüb çiqib ketdi.

Qiz aytganini qildi. Qozibây bedanaday patirlab Kâkilaning tuzâğiga tuşdi. Bir âydan keyin toylari boldi, ikki yârim âydan keyin turmuşlari buzildi. Qozibây şinelini elkasiga taşlab, uydan çiqdi-ketdi. Sâç-sâqâli osib, rangi royi bir hâlatda bolib, samâvarlarda yâtib yürdi. Kâkila har kuni guzarga çiqib, kopçilikning ortasida «Yâş umrimni hazân qilding!» deb uni yümma talar, gapga nonâq Qozibâyning dilini siyâh qilişini qoymas édi. Katta-kiçik âralariga ham tuşib kördi. Kâkila lolilik qilib, birâvga gap bermay bidirlar, Qozibây ésa tongïllar édi. Hullas, ularning murâsasi toğri kelmay qâldi.

Âralariga sâvuççilik tuşişining sababi şunday édi:

Kâkila Tâşkentga artistlikka oqişga ketadigan, lekin Qozibâyni taşlab ketgisi kelmay (qizlardan qizğanardi) uni ham şaharga birga âlib ketmâqçi boldi. Qozibây unamadi, jân deb oqirdimu, yâqinda armiyâdan keldim, toy qilaman deb unça-munça çiqimdâr boldim, uning ustiga, sendek kiyimga oç hâtinim bolsa, işlayman, deb turib âldi. Hullas, u gapga, bu gapga konmadi. Qozibây Kâkilaning janjalidan qâçib, çolga qarab ketdi. Kâlhâzning çol uçastkasi oşa paytlarda Qozibâyni çaqirib turgan édi. Armiyâ korgan, intizâmli, baquvvat yâş yigit işga yâpişdi-qoydi. Rais ham, partârg ham sevinib ketişi.

Âradan bir yil otdi. Qozibây avval brigadir, uçastka alâhida kâlhâz bolib ajralib çiqqandan keyin ésa, ôzi rais bolib qâldi. Éri çolga ketgandan keyin, undan kongli tinçimay, Tâşkentdan qaytib kelgan Kâkila taniş-bilişlariga: rozğârli âdamga oqiş bolmas ékan, deb bahâna qildi.

Kimdir, Qozibây uylanâpti, deb uning yûragiga vahima sâldi. Kâkila oşa kuniyâq çölmi bâşiga kotarib şanğillagança Qozibâyning âldiga bârdi. Şu bârgança qimirlamay qoyâ qâldi. Teatr haqidagi ârzulari ham, pardâz-andâz ham, Simsây koçalarini burqsitadigan atirlar ham ésidan çiqdi. Sâçini bâşiga turmab, engini şimarib, çolga işga kirişdi. Bitta oğil tuğib berdi-yü, ér-hâtin ârasiga mehriyâ tuşdi-qoydi...

Kâkila hâzir dâvulning guvillaşiga qulâq sâlib, şular toğrisida oylab ketmâqda édi. Qaerdandir, juda yâqinda bori ulidi. Qozibây hâtinini alahsitmâqçi boldi.

— Kâstyümimning étagiga qâra mây tegibdi. Értaga benzin âlib kelib beraman, tâzalab ber. Îndinga raykâm byürâsi bâr, şu ahvâlda bârmay, hâtin.

Kâkila indamadi. Huddi âtning tumsuğiga tegay-tegay deb bir bori âldindan yûgurib otib ketdi.

— It, it-ku!— dedi Qozibây uning boriligini bila turib.— Âtabâyning âvçarkasi, taniyman!

Hâtini ériga bildirmay piq étib kulib qoydi.

Çol çölligini qilarkan. Bâyatdan beri ong tãmândan ésib, qumni şâpirayâtgan borân éndi çap tãmândan ésar, allaqayâqlardagi qumlarni koçirib kelardi. Ât tizzadan qum keçib, dong âşgandan keyin, yâna yâlanglik bâşlandi. Âlisda miltirab çirâq körindi. Qozibây jilâvini târtmasa ham ât oşa yâqqa qarab yûra bâşladi.

— Qorkding-a?— dedi Qozibây hâtirjam tâvuşda,— bâyâgi it deganim bori édi.

— Sizdan âldin bilganman. Borini éndi koryâpmanmi? Yângi qişlâqqa kirib bârişdi. Bom-boş, huvillab yâtgan yângi, âppâq uylarning faqat bittasidagina çirâq yânardi.

— Hali yâtmabdi. Qorqqandir beçâra. Agar Moylâv kelmagan bolsa, sen yânida qâlasan. Özim qaytib ketaveraman.

— Qorqmaysizmi?

— Bori ermidi!

Qozibây éşik âldiga kelib, âtdan tuşdi. Qolini peşânasiga qoyib, derazadan içkariga nazar taşladi. Keyin, âtdan tuş, degandek hâtiniga qaradi. Kâkilaning uzangiga âyâq qoyâlmay qiynalayâtganini körib, tuşirib qoydi-da, qolidan etaklab deraza âldiga âlib keldi. İçkariga qaraşdi.

Hali jâý sâlinmagan uyning bir çetida samâvar, sandiq ustida şâlçaga tugilgan korpatoşak. Yüziga dâğ tuşgan qâraçagina bir juvân ârçasiga bâliş qoyib, tizzasida çaqalâqqa koylakça tikyâpti. Rangini âftâb âqartirgan âdeyâlga çalqamça yâtib âlgan moylâvdâr yigit yâlangâç qârniga bâlasini mindirib, nimalardir deb javraydi. Uni ât qilib minib âlgan bâlaning bir qolida teşikkulça, bir qolida qizil qâğâzli kânfet. Erda ham kânfet qâğâzlari. Yigitning kokragiga bâşi burgut, ta-nasi âdam, âyâq tãmâni baliqqa ohşagan surat sâlingan.

— Qâyilman, matrâs!— deb yübârdi Qozibây, unga havasi kelib.

Élekr çirâgi közni âladigan darajada yâritib turgan çöl ortasidagi uyda kişining havasini keltiradigan qandaydir bir halâvat, beâzâr, âsuda hayât gurkirab turardi. Taşqarida çol borâni quturib, qumlarni çâr atrâfga purkadi.

Qozibây bilan Kâkila borânda tebranib, nurda pârlayâtgan âsuda âila manzarasidan koz uzâlmay turişardi.

— Sen şu erda qâl, éndi men ketaman.

— Kiraylik, havâtir âlğanimizni aytaylik-da! Bilib oysin taşviş qilganimizni.

— Aslâ!— deb uning gapini boldi Qozibây— Kelganningni pisanda qilmâqçimisan? Yoq, hâtin. Birâvga yâhşilik qilsang, öziga bildirmay qil, kimga minnatdârçilik bildirişini özi ham bilmasin. Ana uning gaştı bâşqaça boladi.

Kâkila yâna derazadan qaradi. Éndi bâla «ât miniş»dan zerikib, dadasining qârnida otirib mudrardi. Birdan Kâkilaning ésigâ uyda yâlgiz qâlğan oğilçasi tuşdi. Yüragini vahima bâsdi. «Bâla beçâra uyğânib, yâlgiz uyda borândan qorqib otirgan bolsa-yâ!»

Kâkilaning köziga bâyâ yolni kesib otgan bori korinib ketdi. Şâşib bârib âtning égariga yâpişdi.

— Yüring, ketamiz. Bâbir uyğânib qâlğan bolsa...

Qozibây ildam égarga minib, hâtinining qolidan târtidi. Âtning sağrisiga beâzâr birikki qamçı tegizdi. Jânivâr bâşini silkib, yolga tuşdi.

Bâyâ qum bâsgan yollarni éndi ters ésayâtgan borân supurib qoygan édi. Borân quturgandan quturib yâtibdi. Bokiradi, uvillaydi. Şu dovulga kokrak tutib ketayâtgan ér-hâtin bahtiyâr. Ularning har ikkâvi ham vahimali tâvuşlarga kulâq sâlib, öz öyi bilan âvâra.

Âdamzâd qiziq bolar ékan. Bolmasa, Kâkila şu vahimali, dahşatli borânda keta turib ham pâšnasy bigizdek tufli haqida oylarmidi.

1961 yil.

ER UYĞÂNDI

Âmântâyınp bu erda halı tanış-bilişleri yoq. Qozibâyga suyanib qâlğan. Aynıqsa yângi kelgan künlari kılğan yâxşılıqların ola-olgunça esdan çıqarmaydı. Xâtını iltifâtxânnıng oğilçasi Tavakkaljândan konglı nâtinç edi. Âmântây bâlaga raisning xâtını Kâkila qarab

turganını aytib tinçlantirdi, çaqalâqqa yâxşı qaraşını tayınlab, tuğruqnanadan xâtırcam çıqıb ketayâtranda Közibây idara âldıda Usmânalı aka bilan gaplaşib turgan edi.

Âmântây Usmânalı akanı tanımaydı. Çıybaxmal gimnastyârkasınınp kokragıda ârden yâltırab turgan, qâşı, sâçı âppâq, lekin moylâvı tosedek qâp-qâpa bu âdamning âldıga bârışga xıjâlat bolıb, çetrâkda Qözibâyning boşaşını kutıb turdı. Qözibây nimalarnıdır gâh kulıb, gâh qızışib gapırrar, Usmânalı aka bolsa qolıdagı tâl nâvdasını karkı pıçâq bilan yonıb, uning gaplarıga diqqat bilan qulâq sâlar edi. Koçaning narıgı betida çang bâsgan, qanâtları boyâlaverib tâşbaqaning kâsasıdek âlaçıpâr bolub ketgan eski “Pâbeda” turardı. Usmânalı aka şâfyârğa nimadır dedi. Peşânasının çap tãmânı çandıq şâfyâr bâla mineral suvıdan boşagan şişasını korsatdı.

— Qâlmabdı, pokagı âtılib, tökilib ketibdi. Qözibây Usmânalı akaning çollaganını bilib, uyıga çây içganı taklif qılğan edi, konmadı. Maşınanı samâvarga burışını buyurıb, ikkâvı piyâda yolga tüşişdi. Qözibây yolda tohtab, Âmântâyga ogırıldı:

— İşing bârmıdı menda, matrâs? Qanı, yuraver, samâverda gaplaşamız.

Qözibây yolda unı Usmânalı aka bilan tanıştırdı.

— Matrâs bola. Bâltıqning xorâzlarından. Yâqında kelgan.

“Usmânalı aka uning quyıb qoygandek tıqmaçâq gavdasıga, kondalang beqasamga oxşaş telnyâşkasını yârvâraman deb turgan kokraklarıga, ikki qolâğıga etay deb turgan moylâvıga qaradı.

— Ustaxânaga, mexanıkka pâmâşnik qılıb qoysam taysallab konmayâtıbdı, traktâr berasan, özim ekib, özim teraman, deydi.

— Gapı toğrı-da, şundâq bâlani ustaxânada âlib otırasanmı? Qoy, dalaga çıqsın. Paxta eksin.

Kâlxâz qışılağı ârqada qâldı. Erta bahâr şamâlı gırıllab esib turgan yâssı çolning âlıs-âlıslarından traktâr gurıllaganı eşitiladı. Şudgâr qılınğan erlarda halı ham sâvuknafas karğalar alamzadalık bilan qağıllab qâr çaqırıp, uçıb-qondı yurışıbdı. Usmânalı aka qolını ârqasıga qılıb, keksalarga xâs âğır qadam taşılab bâradı. Uning kapakı sâlnaverib tag çarmı qalınlaşib ketran etigining qonjları bulklanıb çang yığılıb qâlgan. Atrâfi ajin bâsgan kozlarını qısıb, âlıslarga tikilib, jimgina oy surmâqda. Qözibây har zamân gap qâtıb, uning xayâlını boladı. Âmântây esa ârqarâkda allaqanday bir kuyun huştakka sâlib pildirab bâradı.

Bahor âftâbı yaşnab közni âladı. Iliq şamâl yüzga urıladı. Usmânalı aka toxtab, engaşıb, şudgârdan bir kesak âlıb, yüziga bâsıb kördi. Keyin panjalarının ârasıga âlıb, uqalab, yâna marzaga âtdı. U çang bolgan kolını xuddı çapak çalayâtrandek bir-biriga qâqıb, Qözibâyga qapadı.

— Er uyğânıbdı, uka.

Uning harakatlarını kuzatıb turgan Âmântâyning hayâliga bir narsa keldi. U Bâltıkda xizmat qıldı yurganda qırğâqqa kelgan bolalap çığanâqını qulâqlarıka tutıb korışardı. Çığanâkdan dengiz şâvqını, dâvıllar, tolqınlarning guvullaşı eşitilmış. Usmânalı akaning kesakını yuziga koyıb korışıdan, u xuddı er qa'ridağı sadâlarını eşitayâtgandek edi.

Âmântâyning kozlarını katta-katta açıb qarab turganını körib, Usmânalı aka iljaydı.

— Bu çâl nima qılyaptı, deb oylayâtgandırsan-a, matros oğlım? Ajablanma. Bahâr kezları, âftâb erni qızdırganda yâtıb qulâq sâl. Ziyrak bolsang bilib âlasan. Hâzır erning topâlân. Şâvkın-surân.

Âmântâyning qulâğıga erni turtıb çıqayâtran gıyâhlarning şıtırlaşı, tanasıga ılıq otgan daraxt tâmırlarının ilândek vışıllab çuqkılıkka kırıb ketayâtganı, qurt-qumursqalarning harakati, nam tuprâq tarıdakopçıb, postını taşlayâtgan uruğlarını qoyâş betini korışga şoşıb, erin çatnayâtganı eşitilib ketdi. Hâzır yânma-yân ketayâtgan kişi har kunı korıb yuradıgan âdamlarıdan şu gapı bilanâq ajraldı-koydı. Usmânalı aka er ilmını hammadan kora yâxşı biladıgan aqlı rasâ âdamga oxşaydı...

Bahâr bahârlığını qılıb, erni qızdırıb, timdalab, gıyâhlarning bâş kotarışıga yârdamlaşmâkda. Iliq şamâl erning âppâq korpasını qımırlatıb ketganıga halı unçalık ham vaqt utganı yoq. Boğâz er lârsıllab, tolğâq tutıb uyğandı. Gurullagan mâtâr şâvqınları unı bu yıl barvaqtrâq uyğatıb yubardı. Qadımdan xâtrjam, şâşılmay bâş kotaradıgan gıyâhlarnı âdamning qıstalangı, turtkısı, şâşırısı bedâr qıldı. Asrlar öz erki, öz ixtiyârı bilan yaşagan boz dala âdamga tbâe bolıb qâldı.

Huddı mana şu erlarning oyqusını qâçırğan Usmânalı aka boladı. U şu erlarnı gâh qadamlab, gâh âtda, gâh maşınada şamâldek kezib qarıdı. Uning bâlalığı ham, yigitligi ham şu erlarda qâldı.

Nârin suvları kanaldan âqıb, Yâzyâvân çolları âralab, halı erin qândırmay turıb, kanal boylarıga ekildan tâllar halı tuzukkına pâyâ bermay turıb, uruş bâş-lanıb ketdi. Çulga âtlanıb

turgan yigitlar şinel' kıyıp, dalanı ayállarga taşlab ketişdi. Çol çollığıça qálaverdi. Kanal yáqalarıda açılğan yängi erlargına ketmânlab çıkıt ekildi, hâlâs.

Usmânalı aka oşa paytlarda qırq beş yaşlarda, aynı kuçga tolğan, har elkasıda bittadan âdam kutara âladığan baquvvat yigit edi. Özi işlab yurgan “Zarkent” kâlxâzıda yigitlar birin-ketin frântga jonab ketib, miltıq kotarışga yäraydığan bir özi qálğanıda, xijâlatdan harbiy kâmissariatga ketayâtğanıda, rais Rahimberdi aka yoldan qaytarıb keldi. Usmânalı uning bir gapını ikki qılâlmasdı. U ittifaq boyıça bââbro raislardan sanalardı. Şunday bolsa ham, ikkâvlarıning ârasıda birâv sezmaydığan jindek sâvuqçılık ham bolıb otdı. Usmânalıga barı bir Rahimberdi aka bilan birga işlaş hasib qılmadı. Raykâm unı koz azamatlarını jangga kuzatgan, özi ne-hâyâtda kuvvatsızlanıb qálğan kâlxâzga raislikka tavsiyâ etdi. Usmânalı xâtınlarga ânabâşı bolub, uruş davrini ham otkazdı. Xattâ rayânda unı “xâtınlar kâlxâzınıng raisi” deb ham ataşardı. Uruş tugab, oşa “xâtınlar kâlxâzı” hammaning âğzıda dâstân bolıb qâldı. Usmânalı çoldan yängi jây açdı. Qözibây armiyâdan qaytıb kelgan yılı kâlxâzning kiçik bir uçastkası alâhıda kâlxâz bolıb ajralıb çıkdı. Yâş kâlxozga Usmânalı âtalıq qıldı. Çolda nimaiki barpâ qılğan bolsa pravlenieşu kâlxâzga hadyâ kıldı. Aynıqsa, Rahimberdi akaning vafâtı uning qaddını ança bükib koydı. Pravleniega arıza berdi. Halı yığılış bolmay turıbâk, çet el sayâhatı degan gap çıqıb, bir âydan âşiq aylanıb keldi. Keldi-yu, arızasını stâl ğaladânıdan âlib yırtıb taşladı. U har yığında, toyu haşamlarda faqat bitta gapını qaytaraveradığan bolıb qâldı:

— Korgan kunningga, egan nânıngga, kıygan kıyımingga mıng marta şükür qıl!
 Âdamzâdnıng xârlıgını öz közim bilan korıb keldimç belingda jindakkına quvvat bolsa, mehnat qıl, közingda zığınça nor bolsa, mehnat qıl. Âta-buvalarımızda bir gan bâr: haddingdan âşsang, mâzâr kez. Ne-ne zukkolarning qabrini, âdam bâlasınıng erda yâtganını körib, şükür qılasan. Man tiriklar mâzârını, aç-yälânğâçlar olkasını kezib keldim.

Âdam deranning xâr bolışını uşa erlarda kördim. Kördimü, öz uyımını, jannatga oxşarag yurtımını sâğımıb ketdim. Şunday qılıb, Usmânalı aka raislikdan tuşmadı. Faqat ikki kolını ârqaşıga qılıb, sal bukılıb yurışını, moylâvını boyâşını aytmasangız, qarılıgı ham unça bilinmay kâldı.

Çöl ortasidan kesib otgan katta yol yâqasidagi samâvarga etib kelişganda âftâb ança tik kelib qálğan édi.

«Bostân»ning çayhânasi Farğâna, Andijânga âlib bâradigan, çolni kesib otgan katta yolning yâqasida édi. »

Âlis yol bâsib, çol quvib kelayâtgan «uluğ»lar ham şu çayhânaga qonib, bitta yâhna kok çây içmasdan otâlmadı.

Bu erda qadimdan bir tup sadaqayrağaç bâr. Uning neça yâşga kirganini, kim qaçân ékkanini ham birâv bilmaydi. Şu qayrağaç bahâna bolib, uni nişân qilib çol kezganlar salqında dam âliş uçun yolni şu tãmânga sâlganlar. Vaqt-sâati kelib, Yâzyâvânga hujum bâşlaganda, yâna şu qayrağaç nişân bolib, haybatli maşinalarning ğildiragi uning roparasidan iz sâlib otdi. Mâtârlar gurulladi, artezian quduqlardan şaffâf suvlar çaşmasi âtilib çiqdi. Katta Farğâna kanalining botana suvlari çol qoyniga kirdi. Éndi oşa bir tup sadaqayrağaç atrâfida qum borânlarini elkasida silkitib taşlaydigan azamat teraklar, ğuj-ğuj tâllar qad kotardi. Kustanay, Kokçatâğ boz erlarning ğallalarini élevatârga taşib bolgan, tâ yângi hâsilgaça boş turgan sanâqsiz samâsvallar şu tãmânlarga quriliş uskunolari taşışga haşarga etib keldi. Qâğâzdek âppâq uylar, kaftdek tekis yollar, keçalari yolâvçılarni imlab çaqiradigan minglab çirâqlar çol jamâlini açdi.

Çolda birinçi marta hâsil âlinganda Âtabây qiziqçilikka: «Çol kelini suvdan tiniq çiqdi!» deb hammani kuldirgan édi.

Uçâvlaşib samâvarga kirişdi. Bâşmaldâğida ârtiği bâr samâvarçi sergapgina yigit ékan, Usmânali akani korib, bâsar-tusarini bilmay qâldi. Birpasda: akademiýadan kelgan præfessârlarga devzira guruçdan ozi âş qilib bergani, Tamarahânim «Bostân»ning bâğida kântsert kârsatganda parda ârçasida turib yâhna kok çây quyib turgani, ozining talabiga binâan Halimahânim radiâda ikki marta qoşiq aytib bergani, Orik dâmla kelini bilan arazlaşib qâlib, uning samâvarida yâna ikki keça yâtib qâlgani, Tâşkentdan kelgan bir yâş şâirga çolni «pâlniy» tuşuntirganini gapirib berdi. Usmânali aka uning gaplariga kulib, iljayib qulâq sâlardi.

Çây ustida Usmânali aka yâna çol kezib yürganining sababini aytib qâldi.

— Uka, ançadan beri bir narsa miyâmdan heç nari ketmaydi. Qizilsuvga bârdim, keçadan beri qirğâqlarda sanqib yürübman.

Qozibây hayrân bolib, uning âğziga tikildi. Usmânali aka çârvadan gap bâşladi. Kâlhâzlarning mâli to Âlây vâdiysiga bârgunça piyâda neça yüzlab kilâmetr yol bâşi,

semirib, kokatga toyib kuzda qışlávga qaytişida yäna şunça yol bäsib, báyägi-báyägidek äzib qalışi ançadan beri başini qátirayátganini aytdi.

— Agar şu tãmánlardan Qizilsuvga koprik qurilsa, yol qisqarişi mumkin-ku, ammá injenerlar bunga konişmayäpti. Qizilsuv bu tãmánlarda juda yáyilib áqadi. Koprik qimmatga tuşadi. Ular milliáning nari-berisiga hámçot qilişyápti. Beş-álti kálház birlaşib, şu işga qol ursak qandáq bolarkin, deb ataylab áldingga qondim. Nima deysan?— deb Qozibáyning áǵziga tikildi.

Báyátdan beri gapga aralaşmay bir çekkada moylávini oynagança jimgina quláq sálib otirgan Ámántáy Qozibáyga qaradi. Qozibáy çakkasini qaşib, nima deyişini bilmay, hayál surib qáldi.

— Oylanib qálding?— dedi Usmánali aka unga qarab.— Nima, yüraging dáv bermayäptimi?

— Kálház yängi bolsa, abzâ hali yüzga ham etmagan bolsa. Çárva ham, ozingiz bilasiz, hamin qadar. Kassada bolsa hemiri yoq. Quriliş başqarmasi uylarni nasyäga qurib taşlayäpti. Selbházbank bir kun kelib giribánimdan hippa boǵib, pulini qistaydi. Házirça koprikka unçalik muhtájligim yoqqa ohşaydi.

Usmánali akaning qáşlari kerilib, başarasi tirişdi.

— Haliyám hám ékansan-ku! Kálház şu etmiş uç başdan bolak koy bāqmaydi, şu bilan tamám deb yürübsanmi? Bekār aytıbsan. Yā puldan çoçiyäpsanmi? Agar çoçiyätgan bolsang, pulni mendan ál. Uç yil muddatga qarz beraman. Konasanmi? Mayli, oylab kor. «Gulistán» rázi.

— «Gulistán»ning puli kop-da!

— Qarab tur, seniki ham kopayädi. Harajatning yärmini davlat kotaradi. Yoq dema, bari bir, sen yoq desang, ozimiz ham quraveramiz. Keyin bu yoldan mál haydagani hijálat bolib yürasan.

Koprik toǵrisida başqa gap bolmadi. Usmánali aka u yáq-bu yáqdan gaplaşib otirgandan keyin qoşni kálházga otib ketdi.

Aradan beş kun otib, Âmântâyning qistâvi bilan Qozibây bu masalani pravlenie majlisiga qoydi: bu fikrni juda âzçilik mabqulladi. Kopçilik qarzga bâtişni istamay, hâzirça koprik zarur émasligini aytişdi. Pravlenie koprik hususida aniq bir fikrga kelmay tarqaldi.

Âmântây ikki marta mâtâtsiklda Qizilsuv boylarini aylanib çiqdi. U har gal oşa tãmândan qaytib kelganda injenerlarning hâmçot hisâbiga hayrân bolardi.

Keçasi oğlini uhlatib qoyib, muk tuşganiça qâğâzga nimalarnidir çizdi, nimalarnidir hisâbladi.

Âmântây bâla vaqtlarida ham temir-tersakka oç édi. Âta frântdan qaytmagan, yâlgiz qol âna nâgirânlikda dalada işlab durustgina rozğâr tebratâlmâs édi. Uyda pilla tutib, korpa qavib, tirikçilikni amal-taqal qilib turardi. Şoh-âlâv Âmântâyga kiyim çidamasdi. Bugun kiyganini értasigayâq yirtar, allaqayâqlardan temir-tersak surib kelib, kiyimlarini rasvâ ilar édi. Ânasi, Birinçi may arafasida ortâqlari âldida oksimasin, deb qoliga pul berib, ozini bâzâr kuni Margîlânga avtâbusda jonatdi. Ârçasidan: «Étik âl, şim âl, boynigga olçab ton âl. Belingdagi pulni Qâsim akaga ber, éhtiyât bol, yoqotib qoyma!» deb tayinlab qâldi.

Âmântây şaharni tâza aylandi. Magazin vitrinalari âldida velâsiped tuzatadigan ustaning dokâni âldida érinmay uzâq-uzâq turib qâldi. Ayniqsa, kulbtmagdagi yâp-yângi yâltirab turgan mâtâtsikl kozini oynatdi. Sira ketâlmadi. Hullas, şunday boldiki, Âmântây keçqurun uyga şalaği çiqib ketgan bir éski mâtâtsikl etaklab kirib keldi. Ânasining kongli âzib qâlay dedi. Yiğladi, siqğtadi. Umrida birinçi marta bitta-yü bitta oğlining yüziga şapalâq târtib yübârdi. Yâş bâlaga pul berib şaharga tuşirgan ozini kuyib-kuyib qarğadi.

— Kâşki ozimning pulim bolsa, birâvniki-yâ! Éndi nima qilaman, égasiga nima deyman? Bu gaplarga Âmântây kozini loq qilib, burnini târtib qulâq solar ékan, kozidan moltirab yâş âqayâtganini sezmasdi. Âna oğlining ahvâliga qarab içi açişdi. Âtasi bolsa unga nimalar qilib berardi! Unda nima ayb? Bâla bâla-da, havas qiladi! Dadasiz osib nima ârzu-havas kordi bâla? Âna beçâra ham nima qilsin, qolida bolsa qarab turarmidi. Orikka suyâ nib qiyşayib turgan mâtâtsiklga qarab âna yiğladi, bâla yiğladi. Âhiri Qâsim akaga érinning tilla sâatini yûragidan suğurgandek qarz orniga âlib bârganda juda hafa bolib ketdi.

— Singlim, hafa bolmang, bâla-da, sâatni éhtiyât qilib qoying. Âmântây katta bolganda taqadi. Marhum ortâğim şu umid bilan sizlarni menga taşlab ketganmidi? Pulga muhtâj émasman. Oşa pul sizlarga mening yârdamim bolsin. Mana bu pulga,— u yânidan pul âlib, sanab, uç yüz som uzatdi.— Âmântâyga bayramga unça-munça âlib bering, oksimasin.

Åna biråvning qoliga qarab qålganidanmi, yå Qåsim akaning ådamgarçiligidanmi, kirpik qåqib birdan yiğlab yübårdi. Qåsim aka uni yüpatib, åstanagaça kuzatib qoydi. Nimaiki kerak bolib qålsa, tårtinmay kelaverişini tayinladi.

Åna qaçånlardir, nasib qilsa bu sahiy, ådamgarçilikni biladigan muruvvatli kişiga bir.

Yåhşilik Qilişni diliga tugib Qoydi.

Åmåntåy oşa éski måtåtsiklning u yåq-bu yåğini titkilab, åhiri yürgizdi. Kålhåz ustahånasidagilarning miyå-sini açitib, hali undan u asbåbni, hali bundan bu asbåbni sorab, éşitadigan gapini råsa éşitdi. Bu hira, oz sozli båla åhiri ustahånadagilarning mehrini oziga tårtdi. Åmåntåy deyårli har kuni ustahånaga kelar, nima balålarni yåsab, uyiga ålib ketar édi. Yåz åylarining birida Åmåntåy birvarakayiga on kunça ustahånaga kelmay, yoq bolib ketdi. Båla oşa kezlarda tåmårqadagi hujraga kirib ålib, ådamning ğaşiga tegadigan tåvuş çiyazib temir arralar, darahtlarga sim tårtib, lampåçkalar ilar édi. Ånasi bir kun daladan qaytsa, ayvånning şiftida élekr yånib turibdi! Tåmårqada måtåtsikl tinmay påtillaydi. Håvli tola båla.

Ayvånning devåriga çåyşab åsilgan. Unda nima balålar lip-lip qilib korinyåpti. Bu Åmåntåyning «kinå»si édi. U ånasining kozåynagidan, nån qutisidan, qol maşinasining ğildiragidan kinå apparati yåsagan édi. Qişlåqqa keladigan koçma kinåning uquvsiz mehaniklari uzib taşlagan yåmåq lentalardan yiğib, ålaquråq «kinåfilmb» qilgan édi. Unda Tarzan, Rac Kapur, Çarli Çaplin, Bağdåd oğrisi hamda har hil jåsuslar bår édi.

Hamma yåqni ivirsitib yübårgan bålalarni haydaşga ånaning kongli bolmadi. Bir çekkada otirib u ham «kinå» kordi.

Ana şu våqeadan keyin Qåsim aka, bålani injenerlikka oqitiş kerak, degan oy bilan ånasiga maslahat såldi. Ammå Åmåntåy birdan matråslikka havas qilib qåldi-yü, oninçini bitirib, dengizga qarab ketdi.

Bugun Åmåntåy Qizilsuv boylarini aylanib kelgandan keyin koprik quriş haqida uni, injenerlar aytgança bir milliånga émas, ålti yüz ming somça harajat qilib, yåhşilab quriş mumkinligini isbåt qilmåqçi boldi. Håzir u muk tuşgança qåğåzda ana şularni hisåblab kormåqda. Vaqt allamahal bolib qålgan.

Tavakkaljån u yånbaşidan-bu yånbaşiga ağdarilib: «Ayå!» deb ijirğandi. Åmåntåy bårib uning yüzidan opdi-da, korpasini ustiga tårtib, yåstiğini tuzatdi.

Hamma vaqt şavqin-surân, topâlân bilan yaşagan, bala tabiati hattâ âta bolgunça saqlangan Âmantây oğliga qarab turib birdan katta bolib qâlganini sezdi. Bâlasining piş- piş nafas âlib yâtganini korib, oz dadasini, ânasini ésladi. Çolga tuz-nasiba târtib kelganidan târtib hâtini, şu çolda tuğilgan, hâzir tuğruqhânada tamşanib yâtgan çaqalâği Bostângaça bir-bir koz âldidan otaverdi. Ânasi tirik bolganda qanday bolar-di-yâ!

Nevarasining peşânasidan opardi, stâl ustidagi qâğâzlariga qarab: «Kopriring ham bitadi, mana korarsan!.. deb uning yûragiga dalda berardi.

Âmantây oğlining yûziga yûzini qoyib, birpas ârâm âlmâqçi boldi-yü, kozini uyqu bâsib, mudrab ketdi. Âtabâyning horâzi qiçkirganini ham sezmay, dâng qâtib uhlab qâldi. Taşqarida birâv gugurt çaqqandek, tâng yârîşib kelardi.

* * *

Âmantây Usmanali akani idâradan tâpalmadi. U Rahimberdi akaning qabriga marmar lavha ornatiş marâsimiga ketgan ékan. Qaçân qaytişi mablum émas. Âmantây yolâvçi maşinadan yâlinib bakini benzina tolatib âldi-da, neftb tâzalaş zavâdi qurilişi mântajçilariga yoliqmâqçi bolib, mâtâtsiklini pâtitlatib ketdi. Mântajçilar tuşlikka çiqib, ğâzi aka kântârada bâş injener bilan ğijillaşib turgan ékan. U Âmantâyga qaramay jahl bilan hâvliga çiqib ketdi. Âmantây unga darvâza âldida etib âlib, zarur iş bilan kelganini aytgan édi, u sal yümşab nima işi bârligini soradi. Âmantây gapini aytdi. Ğâzi aka uni qolidan etaklab yâna kântâraga âlib kirdi. Çertyâjlarini korib, taşlab ke-tişini soradi.

— Şu bugunâq korib çiqaman. Rasçyâtni toğri âlğanmisan işqilib?

Âmantây bâş irğab kozlarini pirpiratdi. Ğâzi aka uning kiftiga qâqdi.

Âmantây oşa kuni qişlâqa qaytmadi. Armiyâdan kelganidan beri qoli tegib Qâsim akadan habar âlmagan édi. Ânasining mabrakasida bir korganiça qayta kormagan. Bârâlmaganiga hijâlat bolib yûrardi. «Şu bugun hânasi kelib qâldi, bâbây bilan bir gaplaşib yâtay» deb bazârdan unça-munça sâvğa âlib, Qâsim akanikiga qarab jonadi.

Éşik âldida âltmişlarga barib qâlgan âppâq sâqâlli bir çâl âtirardi. Çâl uni korib bir-ikki qadam âldinga yürdi. Yürdi-yü, âyâğidan quvvat ketib, çokkalab yiqilay dedi.

Âmantây ildam bârib uning qoltiğidan kotardi.

Bu çâl, toqigan atlaslari vâdiyga âvâza boladigan Usta Qâsim édi. U Âmântâyning dadasi bilan qadrân, yaşlikdan ortâq édi. Éndi qarib, zah dokânda ârttirgan bâdi kuçini korsatgan édi. U Âmântâyning qaddi-qâmatiga, şâp moylâviga qarab, kozlari yaşnab ketdi. Âmântây unga dostini éslatgandek boldi.

Âmântây kop vaqtlardan beri suvga tuşsa buzilmaydigan qol sâat âlib qoygan édi. Oşa sâatni âlib, çâlga tutdi.

— Hâjati yoq, bâlam, menga sâatning zarurligi yoq. Ozing taq, yaş narsasan!..

— Âling, âling, âta, ataylab sizga âlman. Ânam şunday deb vasiyât qilganlar.

Âta bir vaqtlar kampirning qarz orniga tilla sâat âlib kelganini ésladi. Kulib turgan kozlarini mabyüslik bâsdi.

— Marhuma tâpilmaydigan hâtin édi.

Çâl tâ yârim keçagaça uning dadasidan, ânasidan gapirib berdi. Értalab ketayâtganida koziga yaş âlib, uni duâ qildi. Tez-tez kelib turişini soradi:

— Ğanimat bolib qâldim, bâlam,— dedi.

...Qâzi aka Âmântâyning lâyahasiga ançagina ozgartişlar kiritibdi.

— Aniq hisâbda oşa injenerlarning hâmçotiga qaraganda uç baravar arzân bahâda koprik quriş mumkin!— dedi.

Âmântây lâyihani unga taşlab, ozi Usmânali akani hursand qiliş uçun Zarkentga qarab jonadi.

* * *

Bu bahâr ham çol şamâllari maysa-giyâhlarni silkib oynayâtgan tângda yâna Markaziy Farğonaga bârdim. Âmântâyning qizi Bostânhân tây-tây turadigan bolib qâlibdi. Tili ham çiqay-çiqay deb turibdi. Allanimalarni çuğurlab gapirardi. Âmântâyning işi bolsa juda jadal, kallayi saharda çiqib ketganiça yârim keçada qaytadi. Bâlalari kutib otirib uhlab qâlişar ékan. Kâkila hali ham oşa-oşa. Havaskâr qizlarga oyin orgatib, dala şiypanlarida kântsert qoyib yûribdi. Radiâ-uzelga éga çiqib, âdamlarga gap eşittirmay, nuqul magnitafândan hindça qoşiq eşittirgani eşittirgan. Qozibây rais hali ham undan zirillaydi.

Usmānali aka maşinasida yāngi koprikka ālib bārdi. Āmāntāy ham, Qopzibāy ham oşa erda ēdi. Çol kālhzāleri Çong Ālāy yāylāvlariga pāda haydaşayātgan ēkan. Āmāntāyning sâç-sâqāli osib ketibdi. Āsma koprikdan otayātgan qoylarga qarab ikki qolini beliga qoyib, çiranib qarab turardi. Pastda hayqirib āqayātgan Qizilsuv şarşaralariga parvā ham qilmaydi.

Dengiz dāvullari bilan ālişgan matrās bunaqa mayda tolqinlarni tolqin dermidi! Uning kekkayışiga ançadan beri razm sālīb tikilib turgan Usmānali aka zavqlanib ketdi:

— Yāşavār-ē, Moylāv, çol Zigaşini ēkansan-ku!..

TOYBOŞI

Qozibāy raisning bugun şunday işi kopayib ketdiki, «dād» deb yübārişiga sal qāldi. Hali u kiradi, hali bu kiradi, hammasi ham ataylab qilgandek, janjalli iş bilan kelgan. U idāra āldida toplanib turgan kişilarning baravariga gap bāşlaganidan ikki qulāğini berkitib: «Vāy, baraka tāpkurlar, qārnim āçib, kozim tinib ketyāpti, uyga bārib, jinday bir balā eb kelay»— dedi-da, qāçgandek yūgurib çiqib ketdi.

Oçakişganday, uyda ham Kākila tuşlik qilmabdi. Āyāq maşinada gumburlatib atlas koylak tikyāpti.

— Hāy, insāfing bārmi, oldim-ku, nahātki tortta kartāşka bilan bir çaynam goştıni qāzānga taşlab qoyiş qişin bolsa!

Kākila labi-labiga tegmay, bābillab berdi:

— İşim bāşimdan āşib yātibdi-yü, şu mahalda sizga āvqat pişirib otiramanmi! Sizni kim aytadi, rais deb? Har raislar bārki, qārni mana bundāq. Raissiz, haddingiz siğmaydimi.

Ātabāyga ayting, tuşlikka āş buyürib qoysin.

— Ātabāy tuyāning dumi erga tekkanda āş qilib beradi,— deb pongılladi Qozibāy énsasi qātib.

Ātabāy kālhzāning ham hojalik mudiri, ham buhgalteri. Kālhzā hali yāş, kiçik bolgani uçun har ikki vazifani uning ozi bajaradi. Ātabāy hasis bolganda ham unça-munça hasislardan

émas, bitta gugurt çopini ikki bolib yâqadiganlardan. Âdamlarning aytişlariga qaraganda, u âmbârdan dâñ berayâtganda tarâziga işânmay dânalab sanab berarmiş. Bir kuni reviziyâ kâmissiyâsining raisi: bitta âş qilib bersang-çi, keçasi hisâbât tayyârlaymiz, uyga bârib otiramizmi, deganda: palâvni olsam— yil âşimda eysan, degan ham mana şu Âtabây boladi.

Âtabây aslida Zarkentdagi kâlhâzning zavhâzi édi. «Bostân» yâş kâlhâz deb Usmânali aka uni bu yâqqa ataylab «qarz»ga bergan édi. Hali birânta kâlhâzning zavhâzi mukâfât âlmagan, ammâ Âtabây şu vazifada turib bir marta «Hurmat belgisi», ikki marta «Şavkatli mehnati uçun» medali bilan mukâfâtlangan.

«Bostân» âyâqqa turib, belini kotarib âlgandan keyin Usmânali aka: éndi boldi, Âtabâyni ozimga ber, deb qıstab kelganida Qozibây yârim hazil, yârim çin qilib: çolga kelgan âdam qaytib ketmasdi-ku, dedi.

— Qandâq boldi, Âtahân, hamma oz âdamini âlib ketaversa, çolda kim âladi?.. Yâna ozingiz bilasiz!..

Usmânali akaning bir nima deyişga tili bârmay, gapi âğzida qâldi. Huddi Âtabâyni jânidan suğurib berayâtgandek, arang râzi boldi.

Şu-şu boldi-yü, Âtabây çolda qâlib ketdi. Bu erda uni yâmân koradiganlar ham âz émas. Yâmân korişining sababi, har narsaga tihirlik qilaverişidan. Keçasi kelib idârani bir aylanadi, qâpqâği âçiq qâlgan siyâhdânlarni korsa jâni hiqildâğiga keladi: «Bu nima? Siyâh qurib qâladı-ku, ha, kâlhâzniki-da, ayâma-yâ, ayâma!» Çirâq yâniq qâlsa: «Stantsiyâni tekinga qurganmiz, yâqaver, beli âğrimagan» deb şâvqin sâladı. Şâförlarni aytmysizmi, undan zirillaşadi. Benzin âlgani kelişganda albatta kilâmetrajni tekşirib koradi, agar moljaldan ârtiq sarflangan bolsa, bâbillab beradi: «Ha, Âtabâyning benzin anhâri bâr, şundâq çelakni bâtiradi-yü, âlib beradi. Kirakaşlik qilişni bilasanlar, bir litr benzin sâtib âlsalaring asakalaring ketadi. Bâr, tâşingni ter, kim kataysa qilgan bolsa, ben-zinni oşa bersin!» Traktârçilar bilan bolsa dâim ğijillaşgani-ğijillaşgan. Agar birânta traktârçi moljaldan âldin kâmbinezân âlaman deb kelsa bârmi, âldiga sâlib quvlaydi: «Ha, hâtinçangizning qollariga hasmâl çiqkanmi, bundâq yüvib, yirtiğini yâmab bersalar».

Âtabây koçada yürganda ikki kozi tâmda, Mabâdâ birânta bâla tâmdagi kaptarga taş âtsa, şiferi teşasan, tirmazak, deb uyigaça quvib bâradi.

Raykâm sekretari byüro majlisiga kelganda maşinasining yâği tugab qâlgan ékan. Qozibây jindek bering, deb Âtabâyga hudâning zârini qildiyâmki, bari bir konmadi.

— Hây, birâdar, mening maşinam hisâbidan bering. Értaga piyâda yürsam yürarman, keling, uyâtga âldirmang!

Âtabây bari bir unamadi. Uning feblini sekretarb ham bilar ékan, kulib koyâ qâldi. Bir amallab etib âlarman, deb jonab ketdi. Şu vâqedan keyin âdamlar sekretarb Âtabâyni sağ qoymaydi, bir kuni qasdini âladi deb yürişgan édi. Ammâ sekretarb rayân pahtakârlarining slyâtida Âtabâyni râsa maqtabdi. Qani éndi, bâşqalar ham kâlhâz mulkini Âtabâydek tejasa, debdi. Ana şundan keyin Âtabây battar boldi. Simyâğâçga çiqib élekr tuzatayâtgan mântyârlarga ham baqiradigan boldi.

— Hay, ésing jâyidami, arra kavuşingni sekinrâq bâtir, hâdani timdalavârasan!

...Qozibây ana şundâq âdamga âş buyüradimi? Kâki-la bu gapni oylab gapirdimi, yoqmi! Qozibây yâlinişga otdi.

— Jân hâtin, heç bolmasa bitta çây damlab ber, idârada âdamlar kutib qâlišdi. Kâkila tikayâtgan işini çetga âlib qoyib, çâynak kotarib hâvliga çiqib ketdi. Qozibây korpaçaga yânbâşladi. U neça yillardan beri Kâkila bilan yâşab, haligaça uning febliga tuşunâlmasdi. Bir qarasa, undan mehribân âdam yoq, bir qarasa tepa tonini teskari kiyib oladi. Şu tâpda qilib otirgan işini qarang! Mehanik Rahmatulla uylanayâtibdi, kelinga koylak tikib otiribdi. Çevarligimni korsatib qoyâman, deb értalabdan beri atlasni âldiga yâzib, u yâğidan olçaydi, bu yâğidan olçaydi. Yâqinda hamma yâqni ivirsitib, on âltita atlas koylak tikkan édi: havaskâr qizlar kântsert koyişar émiş. Bu atlaslarni Âtabâydan undirgunça naq Qozibâyning âna suti âğziga keldi. Qozibây hâzir yân-bâşlab yâtib kozi ilingan ékan, Kâkilaning kulgisidan uyğânib ketdi.

— Turing, tura qâling, rais buva, Âtabây ataylab bir tâğâra sâmsa yâptirib berib yübâribdi. Qozibây qarasa, stâlda buği çiqib turgan bir lagan sâmsa.

— Tuşimmi, a! Şu ozimizning Âtabây yübâribdimi-a, yoq-é!

Kâkila kulib yübordi:

— Âling, sâvumasin. Âtabâydan qişda qâr, yâzda âftâb sorasangiz ham bermaydi. Ozim yâpdim. Keça, sâmsa egim kelyâpti, deganday édingiz.

Qozibây toyib sâmsa eb bolgandan keyin hâtinini «duâ» qildi.

— Krujâgingning rivâjini bersin. Oyinçi qizlaring Mukarramhân bolib ketsin! Yâşa, hâtin, juda bâpta boldi.

U şâşilganiça idâraga yûgurdi. Kop âdamlarning işini sekretarning ozi bitkazib yübâribdi. Bir toda kâmsâmâl qizlar uni kutib turişgan ékan, baravar çuvillaşib idâraga kirişdi. Yâqinda kâmitet sekretarligiga saylangan Anzirat degan qaqaşân qiz bidirlab gapira ketdi:

— Bilasizmi, bilasizmi, rais aka, yângiça toy qilmâqçimiz. Bilasizmi, Rahmatulla Naimani âlyâpti. Taniysiz-ku!

— Ha, taniyman. Hoş, nima qil deysizlar!

— Bilasizmi, şu haligi toy harajatlarini kâlhâz boyniga âlsa, kelin bilan kuyâvning sarpâlarini ham...

Qozibây bâşini qaşidi. İljayib, éntikib turgan Anziratga qaradi.

— Hop. Âtabâyga aytinglar, hamma narsani toğrilab bersin.

Anzirat tizzasiga şapatilab urib, stâlga otirib qâldi. Bâşqa qizlar ham hafsalalari pir bolib, bir-birlariga er âstidan qarab âlişdi. Anzirat kozlarini pirpiratib ornidan turdi.

— Mayli, qoyâ qâling bolmasa. Ozimiz bir amallab éplaştiramiz. Kunimiz Âtabây akaga qâlgan bolsa, tâza bolgan ékan.

Qiz hali gapini tugatmagan ham édiki, éşik açilib Âmântâyning moylâvi korindi. Rais şâşib qiçqirdi:

— Hây, Moylâv, bu yâqqa kir! Sâvuq suvdan ham zarur bolib turgan éding. Âmântây nima gap degandek bir qizlarga, bir raisga qarab angrayib turardi.

— Âğayni, manâvi qizalâqlarning dâdlarini éşit. Qozibây unga hâzirgi bolgan gapni aytib berdi. Âtaboy Omontoyni juda âhşi korardi. Uning qiziq-qiziq gaplarini éşitib qâtib-qâtib kular, ğayratiga, qilgan işlariga qâyil qâlardi. Âmântây ham uni éritis yollarini bilardi. Heç kim, hattâ rais ham undirâlmagan narsalarini Âmântây ikki âğiz gap bilan undirib ketardi.

Maslahat bilan Átabâyni şu erga çağıradigan, gapni avval Ámântây başlaydigan boldi. Zum otmay, qolida kalit, kozâynağı peşanasida Átabây kirib keldi. U hamma bilan bir- bir korişib çiq-qaç, raisning stâliga bir qâğâz qoyib, hitâb alâmatidek, qaqqayib turib âldi.

— Bu nima?— dedi Qozibây qâğâzga qarab.

— Çâyhânadagi televizârni tuzattirişgan ékan, pulini buzgan âdam tolasin, men tolamayman. Qozibây, bu iş bir gap bolar, deb qâğâzni stâl târtmasiga sâlib qoydi.

— Ámântâyning sizga gapi bâr ékan, éşiting. Ámântây bir yotalib gap bâşladi:

— Átabây aka, qizlar sizni toyga aytib kelişibdi. Kuyâv etim bâla. Quda tâmân bilan âliq-sâliqqa ozingiz turib berasiz. Toybâşi qilib pravlenie sizni tasdiqladi. Bilib qoying, agar toy yâhşi otmasa, ozingizni yâhşilab muhâkama qilamiz. Toyda mundâq sâqâl-pâqâlni taraşlab, ârdenlaringizni taqib âling.

Átabây yâyilib iljaydi.

— Bâplaymiz, matrâs bâla, bu yâğidan hâtirjam bolavering. Kuyâvni menga ropara qilib qoying, dastmâyâsini ékânâm qilib, yâhşi toy qilib beraman.

Ámântây doppisini peşanasiga surib, qâq miyâsini qaşib raisga mabnâli qarab qoydi. Rais, boş kelma, degandek unga imladi.

— Gapimga tuşunmabsiz,— dedi Ámântây unga jiddiy tikilib.— Toy kâlhâz hisâbidan boladi.

— A? Harajatni qaysi mâddadan âlaman?

— Qaysi mâddaga toğri kelsa oşandan-da!

— Reviziyâ kâmissiyâsi naq meni ğajib taşlaydi-ku!

Qozibây «hâtirjam bolaver» deb uni sâvuta bâşladi.

— Bu yâğini kelişib âlğanmiz. Madaniy-âqartuv fândimiz hisâbidan smeta qilinglar. Bilib qoying, çolda birinçi toy bolâpti-yâ! Bu halqarâ iş. Eşlar bilan hazillaşmang, agar şu işni buzsangiz, keyin çatâq boladi, bir aytib qoradim-da, ha.

Raisning popisa qilib «halqarâ iş» deganidan keyin Átabây sal boşaşdi. Lekin, javâbgarligini âlmayman, âldin qarâr çiqarib, hujjatlarni miyday qilib berasizlar, deb turib

aldi. Rais râzi boldi. Qizlar keçqurun Âmântây bilan uning âldiga keladigan bolişdi. Bir sâat âldin hamma gapga konib çiqib ketgan Âtabây keçga bârib aynidi-qoydi.

Kitâb-daftarlarini râsa varaqlab: «Heç qaysi mâddaga toğri kelmaydi» debdi-yü, âmbârni qulflab ketibdi. Kâkila qidirib, uni uyidan tâpdi. Bir çelak iliq suvga margantsâvka sâlib, âyâğini bâtirib otirgan ékan. U Kâkilani kordi-da, şimining pâçasini tuşirib, tizzasini yâpdi. Hâtini Şâdmân hâla oçâqdan bir hâkandâz çoğ âlib çiqayâtgan édi, şâşib qâlganidan Kâkila bilan hâkandâzni uning elkasidan âşirib korişdi.

Şâdmân hâla Âtabâydan etti yâş katta, babzi hazilkaşlarning gapiga qaraganda, u harajatdan qâçib, surnayçiga ham pulmi deb, atayin ozidan katta hâtinga uylangan émiş. Ularning toylari ham unçalik dabdabali toy bolmagan. Kâlhâzning gâdâvây toyi kuniga toğri keltirilgan. Ularning ZAGSdan otişlarini birâv éşitsa, kulaverib içagi uziladi.

Muhabbatdan mast, karaht bolgan Âtabây ZAGS mudirining savâllariga pâyintarsâyintar javâblar berib éskirayvergan. U şunçalik éskiraganki, yânglişib, hâtinining familiyasiga otib ketganini ozi ham bilmay kolgan. U hâzir tort bâlali boldi, hali ham hâtinining familiyasida!

Şâdmân hâla elib-yûgurib Kâkilani torga otqazdi. Âtabây âyâğini çelakdan çiqazib, nima gap degandek, Kâkilaga qaradi. Kâkila he yoq, be yoq birdan bidirlab ketdi.

— Qani, şu toy buzilsin-çi, qani buzilsin-çi, radiâuzeldan gapirib şarmanda qilarman, yâşlarning bahtli turmuş yoliga ğâv sâlyâpti, deb âvâza qilaman. Gazetaga ham yâzvâraman.

Âtabây munaqa poiisalarni éşitaverib éti olib qâlganidan pisand qilmadi. Qaytaga, jahli çiqib ketdi.

Âmântây aralaşmasa iş buziladigan. U Âtabâyni engidan kirib yâqasidan, yâqasidan kirib engidan çiqdi. Toy yânagi haftaga tayin qilindi. Âtabây toybâşi boldi. U oşa kuni ârdenlarini taqib, mehmanlarni kutib, dasturhâanning kam-kostidan habardâr bolib turdi.

Toy qizigandan qizib ketdi. Tâ yârim keçagaça umrida oyun-kulgi kormagan çolda hâfizlarning hânişi éşitildi. Çirmanda qarsillar, nâğâra taraklar, yigit-qizlarning qiyqiriği, gurillab yânayâtgan gulhan uçqunlari çol şamâllari qanâtida âlis-âlislarga uçib ketardi.

Âtabây kayf qilib qâldi. Gandiraklab ortaga tuşib, Kâkilani oyindan tohtatdi. U qol kotarib şâvqinni bâsaman dedi-yü, yiqilay dedi. Âdamlar birdan jim bolişdi.

— Ortâââqlarr! Qanča toying bolsa korsat! Âike, çolingniyâm uylantirvâraman! Qanča kerak? Pulning hammasi Âtabây akangda-da!

Âmântây uni dast kotarib, davradan âlib çiqdi-da, soriga yâdqizib qoydi. Kâkila gulhan atrâfida yorğalar, Âmântây matrâsçasiga âyâğini erga urib, qulâç yâzib, unga iyâk qâqib bârardi. Qiyqiriq, kulgi, çapak... Şu keça çol ham uhlamadi, âdamlar ham...

1961 yil.

SENİ İZLAB...

Şarafatga âta uyidan çiqib ketiş âsân bolmadi. Bu işning butun âğirliğini yolning yârmiga etganda sezdi. Koça muyülüşiğaça érgaşib kelgan ânasining mabyüs kozlarini, âstânada bâşini égib qâlgan dadasini ésladi-yü, qadami sekinlaşgandek boldi. Bir nafasda uyi, hâvlisi, çiqib kelayâtganda miyâvlab âyâğiga suykalgan muşugi koz âldiga keldi, tarang çozilgan rezinka ip qoldan çiqib oz nuqtasiga qaytgandek, fikran uyida paydâ bolib qâldi.

Bir qanâti âçiq qâlgan derazadan ariqdagi suvning har hil âhang çiqarib şildiraşi, juda lisda âğir yük tarta yâtgan parâvâzning bâsiq gupillaşi éşitiladi. Uy içida ğâyât sekin sudralgan oyning tort burçak şublası karavât qubbasini, çinni idişlarnı, râyâlb ustidagi oyınçâqlarnı birma-bir yâritib, yâna derazadan taşqariga çiqib ketdi. Qâra bahmalga qadalğan zar tugmaçalardek yâltirab turgan yûlduzlar birin-ketin oçib, âsmân beti âhak surtilgandek âqara bâşladi. Şarâfat hamân uyğâq. Qaerdadir it ulidi, qaerdadir horâz çaqirdi. Boğât labida tinimsiz miyâvlayâtgan muşukka kimdir kesak âtdi. Yâna hamma yâq jimjit bolib qâldi. Şarâfat hamân uyğâq, hamân oylardi.

Ketiş kerak. Âmânning âldiga ketiş kerak. Mana şu qimmatbahâ buyümlarga tolğan, kuyâdâri isi ornaşib qâlgan uydan ketiş kerak.

Şarâfat şuni oylardi. U har gal sadaf klavişlarini bâsganda, titrâq sadâleri kongil dardlarini ârzu qanâtida uçiradigan râyâlb royâbga çiqmagan oşa ârzular guvâhi bolib jim turardi... Âh, tezrâq tâng âta qâlsaydi, deyâ ârziqib derazaga kozlarini javdiratib qaradi u. Tâng allaqaçân âtgan, daraht uçlariga âltin hal surtilgandek édi. U sapçib ornidan turdi. Koça éşigiga tâlpinganda ayâsi yolini tosdı. Âtasi éşikni lang âçib berdi. Bu keça âta ham, âna ham

uhlaşmagan édi. Qizning qarârini, konglini asir qilgan, qiz qalbiga uyä qurgan oşa yigit âta muhabbatidan ham, âna mehridan ham zor kelganiga ularning ikkâvlari ham éndi iqrâr bolişgan édi. Qiz âstânanadan ikki qadam ham nari ketmay, âta tilga kirdi:

— Beri kel, bâlam.

Âta tâvuşidagi titrâq qizni tohtatdi.

— Qayda bolsang ham bâşing âmân bolsin,— dedi u.— Seni qaytarişga éndi heç qurbim etmaydi. Şu paytgaça qolingdan etaklab senga baht izlagan édik. Kongil qoli etmagan dargâh baht bermas ékan. Éndi oz bahtingni ozing izla. Éndi senga ikki narsani merâs qilaman: biri— muhabbatim, biri— qahrim. Muhabbatsiz âdam âdamga yâv boladi. Qahrsiz âdam yâvga em boladi. Éndi bâr, yoling âydin bolsin, bâlam!

Âta qizining peşânasidan opdi. Şundan keyin Şarâfat nima bolganini bilmaydi. Qanday qilib avtâbusga otirdi, qanday qilib çol ortasidagi yâlgizâyâqqa bu-rildi— éside yoq. Koksidagi bir vaqtlar Âmân taşlagan çoĝni oçirâlmagan, oçiriş qayâqda, battar baĝrida tutaşib, âta uyidan âlib çiqâ âlgan hislar çol ortasi-da kezdirib, uni oşa Âmâni âldiga sudradi. Éndi Âmâni unga avvalgidek qararmikin? Uni keçirarmikin? Qalbida yâna unga jây berarmikin? Uni ilgarigidek ébzâzlarmikin? Şarâfat bu toĝrida oylamasdi. Nima bolsa ham Âmâni korsa, aççiq-aççiq alamli sozlar aytsa ham, mayli. Şu çollarda uning ketida sâyâsidek érğaşib yürsa, âlisdan qârasini korsa, uzâqdan tâvuşini éşitsa bolgani. Şarâfat şu Âmâni deb çol kezib kelyâpti, ahir! Âmâni uni keçirarmikin?

Şarâfat şunday iztirâbli oylar bilan kuyâ egan postindek u er-bu erda giyâh kokargan çol ortasida âsmânda vijirlab uçayâtgan qaldirĝâçlarning qoşığiga mahliyâ bolib, yântâqlar tagidan sap-sariq kozlarini savuq moltiratgan kaltakesaklardan hurkib «Bostân»ga etib keldi. qatâr âq imâratlar âralab, yâş nihâllar kolanka taşlagan hiyâbânlardan otib, kâlhâz idârasiga kirdi. Qozibây âbedga çiqib ketgan. Âtabây telefân trubkasiga: «Bermayman, ustavni buzişga haqqim yoq!» deb baqirardi. Şarâfat burçakdagi kursiga âmânatgina otirdi. Âtabây trubkani jâyiga ilib, unga qaradi.

— Singlim, menda işingiz bârmidi?

— Âmân akani izlab kelgan édim.

— Qaysi Âmân? Kâlhâzda tortta Âmân bâr, qaysi biri?

— Âmân Şaripvv.

— É, ha,— dedi Átabây.— U Âmânmi? U Âmân Çong Âlâyda. Çarvada. Şu payt telefân jiringlab qâldi. Átabây trubkani âlib, kim bilandir şaşib-pişib gaplaşdi-da, oqdek âtilib çiqib ketdi. Şaroâfat yâlgiz qâldi. U Çong Âlâyning qaerdaligini éşitgan: Qizilsuvning naryâğida. U tâmânlarga etiş âsân émas. Boşaşib taşqariga çiqdi.

Âftâb kozni âladi. Şifer tâm tepasidagi televiziân antennaga qongan musiçaga ikki bâla tâş âtadi. Yol çetidagi qirğâqqa sapçib âqyâtgan lâyqa suvda bir bâla qâğâz kema âqizadi, uning ketidan érgaşgan bâla, doppisidan kom-kok dâvuçça âlib, qarsillatib çaynaydi. Muyülişga etmasdan ikki hâvli berida yângigina, hali nâmeri ham yoq yâşil «Mâskviç» turibdi. Dâvuçça çaynayâtgan bâla maşina derzasiga tirmaşib, signal berib qâçdi, narirâqqa bârib éşik ârqaşiga berkindi. Maşina signaliga uydandan bir yigit çiqdi. U yâq-bu yâqqa alanglab bâlani kordi-yü, yâlgândan popisa qilib, uni quvlamâqçi boldi. Bâlaqâçdi, yiqilib doppisidagi dâvuççalar tokildi, yiğladi, be-rigi uydandan yûgurib çiqqan Kâkila bâlani dast kotarib, tuprâqqa belangan yûzidan, kozidan opa bâşladi. Keyin bâyägi maşinaning éşigini açib, bâlani kabinaga otqazib qoydi. Éndi bâla kuçining bâriça signal berar, qiyqirib kulardi.

Bularni kuzatib turgan Şarâfat beihtiyâr kulib yübârdi. Kâkila nâtaniş juvâanning âldiga keldi.

— Ha, ortâq, siz ham çol quvlaşga keldingizmi? Juda sâz bopti-da!

— Âmân akani izlab keldim,— dedi Şarâfat Kâkilaga bâşdan-âyâ q qarab.

— Âmânjân çarvadalar. Hali sâat târtida Âlâyga vertâlyât ketadi. Yol yûrib çarçagandirsiz. Yûring, tamaddi qilib âling.

Şarâfat unga itâatkârlilik bilan érgaşdi. Éndigina palagi niş urib çiqayâtgan qâvun pâlizni âyâqalab kâlhâz mehmânhânasiga kelişdi. Kâkila éşik âldida yâstiq jiddi, sâçiq, korpa ğilâflarini yûvayâtgan semiz bir juvâanning biqinini çimdib oziga qaratdi.

— Hây, bokitik, bitta çây damlab ber!

Juvân bilagidan sâvun kopiklarini sidirar ékan, qâşlarini çimirdi:

— Ana, samâvar qaynab turibdi, nima, ozing damlab âsang ét-beting kamayib qâladimi!

— Raisning hâtini bir nima degandan keyin darrâv hop degin.

Baqalâq juvân qolidagi sâçiq bilan Kâkilaning ikki orim sâçi savalab turgan jâyiga bir urdi. Yâlcândan qoçmâqçidek lapanglab çâynak kotarib uyning ârçasiga otib ketdi. Ular içkariga kirişdi. Mehmânâna içida surat sâlinmagan birânta devâr qâlmagan, şifta ham, şkof âynalarida ham surat. İkkita karavât tepasida kleyânka ârçasiga işlangan manzara. Kol, âq ordak, qizil âsmân, yârmi kok, yârmi qizil suv. Bu suratlarni mutlaqâ sanbatga alâqasi bolmagan boyâqçi işlagani şundâqqina bilinib turardi. Bu suratlarning birida daryâ, koprik, yol tasvirlangan. Âsmânda samâlyât, koprikda pæzd, daryâda kema, yolda pahta ârtgan yuük maşinasi.

Kâkila mehmânning suratlarga qarab ajablanayâtganini korib, izâh bera bâşladi:

— Âtabây olgurning qilgan işi-da. Arzân tuşadi deb şahardagi arteldan patnis boyâydiganni êrgâştirib kelibdi. Şiftadagi gullar hâsilâtning uyidagi patnislarga qarab sâlingan.

Şarâfat uçun bu suratlar dadasining qançâ ming somlab sarf qilib çizdirgan suratlaridan, bu uy uning qimmatbahâ jihâzlar bilan tolib ketgan yâtağidan sâddaligi bilan ming marta ablâ édi. Şarâfat ikki piyâla çâyni qaynâq-qaynâq içib, kozi ilina bâşladi.

Kâkila âyâq uçida taşqariga çiqib ketdi.

Şarofat qizlarning qoşığidan uyğândi. Qançâ uh-ladi, qaerda yâtibdi, bu mehribân âdamlar kim, bilâlmadi. Derazadan taşqariga qaradi. Radiâda Kâkila éblân êşittirmâqda:

— Çârvada éri bâr hâtinlar, kiyimlarini yüvib, dazmâllab bolgan bolsalar, mehmânânaga âlib kelişsin! Âtabây aka! Âtabây aka! Tortta batareyâ âlib keling! Âyşa, Âyşa! Ğanijân sâqâl qiradigan piska soragan, darrâv âlib kel! Salima! Rahimingga «Sinçalak» bilan «Qutluğ qân»ni qaydan bolsa ham tâpib kel! Âtabây aka, gazeta bilan «Muştum» ésingizdan çiqmasin! Qaytaraman, sâat tortda Âlâyga vertâlyât uçadi.

Keçikmanglar!

Semiz juvân kâsada şavla âlib kirdi.

— Yolga ketadigan âdamsiz, eb âling. Gurullagan tâvuş ularning suhbatini boldi. İkkâvi ham şâşib taşqariga çiqişdi. Âsmânda bahaybat çigirtkadek pirillab vertâlyât uçib kelardi. Dalaning u er-bu erida yürgan kişilar qollarini peşânalariga sâyâbân qilib, âsmânga qaraşardi. Mâtâtsiklning lyûlbkasida bir bâylam gazeta bilan Kâkila keldi.

— Qani, mehman, ketdik!

Şarâfat mâtâsiklning ârçasiga mingaşib âldi. Semiz juvân ârquadan qol siltab qâldi. Vertâlyât qongan jâйда on çağli hâtin toplanan édi. Hammasining qolida tugun. Uçuvçi yigit ikkita yângâqni şapkasiga bekitib, nayrangbâzlik qilar, hâtinlar qiqir-qiqir kulişardi. Âtabây arqân şâtiga tirmaşib, kabinaga tugunçalarni taşir, âra-sira uçuvçiga nimalardir deb tongillardi. Şarâfat vertâlyâtga çiqqanida bâyə doppisiga dâvuçça sâlib eb otirgan bâlani kotarib âlğan, ong qâvâğida qâp-qâra hâli bâr bir ju-vân hallâslab etib keldi. U yûgurib kelganidan yânâqlari terlagan, ozi hansirardi. Juvân qolidagi tugunni Şarâfatga boy çozib uzatarkan: Âmân akamga salâm deng, uydagilar, bâlalar tinç ékan, deb ayting, deb tayinladi. Qolidagi bâla ham unga doppisini çozib:

— Daddaga, daddaga,— derdi.

Mâtâr gurullab hamma ozini çetga âldi. Bahaybat parrak çir aylanib, vertâlyât havâga bigizdek tik sançildi-yü, er pastda qâldi. Qol siltayâtgan ayâllarning qizil, kok durralari sekin-sekin kiçrayib, âhiri kozdan ğâyib boldi.

Agar şu polat quş hâzir erga qonsaydi, Şarâfat oşa juvânni, Âmânning muhabbatiga sazâvâr bolgan, uning éng ézgu hislariga qalbidan jây bergan koksiga ihlâs bilan bâş qoyârdi, qâvâğidagi oşa kohlik hâlidan toyib-toyib opardi... Éndi u Âmânning âldiga nima deb bâradi? Unga nimalar deb aytadi. Hâzirgina uni kuzatib qâlgan juvânlarıning yüzini, kozini ésladi. Qanday bahtli hâtinlar-a! Ularning kozlarida sâğınç, âlisda, tâğ étaklarida lâlalarga burkangan yân bağirlarda éntikib yollariga koz tikkan éng aziz kişilari âldiga uçayâtgan polat quşning qanâtini ham opişga, mehr bilan silab-siypalaşga tayyâr.

Pastda yâşarib, yâşillanib kelayâtgan çol yâstanib yâtibdi. Şu çol kokatlariga jân berayâtgan hâtinlar oz yânlaridan unga jây berişarmikin? Kâşki édi, uning birinçi peşâna teri şu erlarga tokilsa, çol şamâllari uning ham âppâq bilaklarini qâraytirsâ...

Juvân koksining allaqaeridan sadâ çiqqandek boldi.

— Qâl, şu erlarda qâl, Şarâfat! Bahting şu erda! Şu bağri keng, har bir giyâhidan târtib yântâğigaça tabiiy, insân qoliga, peşâna teriga zâr çollarning allaqaerida sening ham bahting yâşirinib yâtibdi. Qidir, izla! Tunlari çol âsmânida pârlagan yûlduzlarıning çoğini kormagansan hali! Çolda ufqni qizartirib çiqadigan âftâbga yüzingni tutmagansan hali!

Kokatga çalqança yâtib, yârmi qizil, yârmi âq bulutlarga qarab şirin oy surmagansan hali. Qâl!

Qâl şu erda.

Pastda çol çir aylanar, kom-kok maysazârlar ârasidagi yol parqi âçilgan sâçdek bolib korinardi, qârli çoqqilar tizmasi ésa âyâq qoysa etgudek yâqinda yâltirardi.

1961 yil.

HAZINA

«Hunarni asrabân netgumdir âhir,

Âlib tuprâqqami ketgumdir âhir.

Navâiy

Hamrâhim «Temir koprik»da qonib otişimizga unça royhuş bermagan bolsa ham, avtâbusdan qoyârda-qoymay âlib tuşdim.

— Nima qilasiz vaqtni bekârga otkazib, çây bolsa Çimqorgânda içardik-da.

— Bitta dutâr éşitib ketaylik. Ajâyib bir maşşâq bâr. «Tanavâr»ni undan zor çaladigani yoq. Éşitib ozingiz ham qâyil qâlasiz.

Hamrâhimning peşanasi tirişib ğalati qaraş qildi.

— É, suf sizga-e, hali şunga yoldan qâlib otiribmizmi?! Zap ğalati âdatlaringiz bâr-da! Radiâdan dutâr éşitmaganmisiz?

Uning mendan juda hafsalasi pir bolgani kozidan bilinib turardi. Men ham şunday zavqsiz âdamga yoldâş bolganimdan kâyinib, indamay ketaverdim. İkkâvimiz şu koyi bir-birimizga qaramay koprikdan otib, kanal boyidagi çâyhona tãmânga burildik. Éndigina barg yâzgan kekxa tâllar tagidagi sorilarda çâyhorlar unça kop émas édi. Âldi çiy bilan tosilgan qatâr oçâqlar âldida şahardan çiqqan âşhorlar ivirsib yûrişibdi.

Kanal boyidagi soriga otirib, dastyâr bälaga kok çây buyürdik. Hamrâhim hali ham çehrası açılmay suvning qirğâqqa sapçib urilişiga beparvâ qarab otirardi. Âhiri u yânidan buklangan gazeta âlib «Tamakining zarari» degan kattagina bir maqâlani oqişga unnab ketdi.

Bu kamgap, ğalati âdamning konglini nima bilan âlişni bilmay hijâlat bolib qâldim. Bu erga qonib otişdan maqsad unga Usta Maqsudning dutârini eşittiriş, hârdiq çiqariş édi. Ozim ham bu sâzandaning maşqlarini bundan yigirma yil avval eşitganman. Âradan şunça vaqt otgan bolsa ham, u çalğan kuyning âhanglari hali-hali qulâğimdan nari ketmas édi. U vaqtda Usta Maqsud yigirma beş yâşlardagi, vujudidan kuç yâğilib turgan baquvvat yigit édi. Katta Farğâna kanali qurilişida muhbirlik qilib yürüb, şu «Temir koprik»ka har kelganimda allapallagaça çây içib otirib, uning maşqlarini eşitardim. Kuni bilan tuprâq qazigan quruvçilar tâ yârim keçagaça çâyhânada qâlib ketişar, âğir mehnat çarçâğini ijrâ étilyâtgan kuyning sehri bilan unutişardi. Usta Maqsud, ayniqsa, «tanavâr» yollarini bilar, ularni ajib bir mahârat bilan ijrâ étardi. Bir kuni keçasi redaksiyâga telefânda material berib, keçrâq çâyhânaga kelsam, sorilarda jây qâlmabdi. Hamma jim.

Ortadagi sorida Usta kozlarini çirt yümib «Farğâna tanavâri»ni çalardi. Çetrâqdagi sorida Yoldâş âta kuy maqâmiga tebranib otiribdi. U har zamân tizzasiga âriq barmâqlarini beâzârgina urib qoyâr, kozlarini Ustaning târ çertayâtgan barmâqlariga tikib hayâl surardi.

Men azim tup tâlning bujur tanasiga suyänib, keksalar qalbida allaqaçân uhlagan yâşlikning qaynâq hislarini uyğâtib yübârgan, yigitlar koksida yilt étgan muhabbat uçqunini alanga âldirayâtgan sehrlı kuy sadâlariga berilib jimgina otirardim. Usta târ çertişdan tohtab, atrâfga kulimsirab bir nazar taşladi-da, dutârni éhtiyât qilib yâniga qoydi.

Âdamlar uyqudan uyqânib ketgandek atrâfga qarab âlişdi. Usta Maqsud ularni huddi qollaridan uşlab yâşlik koçalariga etaklagandek: qara, yâşligingga bâq, birinçi muhabbatingni ésla, lâla tergan adirlaringni, çomilgan sâyylaringni kor, deyâyâtgandek, hayât maşaqatlaridan sen bilan yânma-yân turib otgan umr yoldâşingning koksingga birinçi bâr bâş qoyib işqingga iqrâr bolgan paytidagi hayâjânini ésla, bu kunlarga etâlmay ârzu- armânlarini senga taşlab ketganlarni unutma, degandek bolardi.

Hamrâhim «Tamakining zarari»ni oqib bolguniça oşa unutilmas sirli tunni ésladim. Şu tâpda Usta Maqsuddan yâna bir marta oşa kuyni eşitgim keldi. Atrâfga alanglab uni qidira başladim. Qayrağâç tagidagi sorida âldiga çâynaq qoyib yâlgiz ozi hayâl surib otirgan ustani korib, hamrâhimni turtib qoydim.

— Ana şu kişi Usta Maqsud boladi. Hâzir iltimâs qilaman, yoq demaydi. Âdatini bilaman.

Şu gapni aytdim-u, çâyhânaçi bâlaga dutâr keltirişni buyürib, ozim ustaning âldiga qarab ketdim. U bir qaraşyâq meni tanidi.

— É, muhbir uka, bârmisiz? Biz tãmânlarga sira kelmay ketdingiz.

Hâl-ahvâl soraşdik. Kanal qurilişidagi qaddânlarini ésga âldik. Men unga Yâzyâvânga keta turib, atayin u bilan uçaşgani «Temir koprik»da tuşib qâlganimni aytdim.

— Yoldâş âtaga çalib bergan maşqingiz hali ham qulâğimdan nari ketmaydi. Malâl kelmasa bir éşitib ketsam. Juda kopdan beri ârzu qilaman.

Usta besaranjâm bolib qâldi. Sal fursat otmay kozlarini bir nuqtaga tikib, âğir tin âldi. Hijâlat çekayâtgandek iymanib dedi:

— Dutâr uşlamaganimga on beş yilça bolib qâldi. Şunaqa...

U gapini tugatmay tonining engini bilagigaça şimardi. Kozlarimga işânmay qâldim. Çap qolining tirsagidan pasti yoq. Bir vaqtlar târlarni beqiyâs çertgan, sanbatiga koplarni qâyil qâldirgan barmâqlar éndi yoq édi. Nahâtki...

— Dutâr çaladigan qolni uruş kesib taşlagan. Nima deyişimni, nima qilişimni bilmay ésankirab qâldim. Târlarni çertişga, pardalar ustida yorğalaşga mâhir bolgan qollar kezi kelganda miltiq tepkisini bâsişga ham qâdir ékanligi haqida sira oylab kormagan édim. Şu tâpda âddimda otirgan kişining sevgan sanbatidan, kasbidan ajralganini, uning ajâyib mahâratidan kişilar benasib bolganini korib, bu uruş yâlgiz şaharlarnigina vayrân qilmadi, yâlgiz âtani bâladan, bâlani ânadan judâ qilmadi, balki âmân qâlganlarning ham tanasida jarâhat izlari qâldirib ketganini korib turardim. Âraga juda nâqulay jimlik tuşdi. Usta âq âralab qâlgan moylâvining uçini buragança nimanidir oylab, erda lip-lip oçib-yâniib oynayâtgan âftâb tangalariga tikilib otirardi. Bu sâvuq sukunatni çâyhânaçi bâla buzdi. U yol-yolakay çangini artib kelgan dutârni tinğillatib bir çertib, korpaça ustiga qoyib ketdi.

Usta hayrân bolib bir menga, bir dutârga qarab kiprigini pirpiratdi. Mening juda ham mulzam bolganimni sezgan Usta Maqsud ornidan turib dutârni qoliga âldi.

— Dutâr éşitgingiz kelayâtgan bolsa, baqqa yüring!

Itâatkârlîk bilan unga érğaşdim. Çâyhânanadan çıqmay turib hamrâhim bârligini, agar malâl kelmasa uni ham bâradigan jâyimizga âla ketişimizni soradim. Usta râzi boldi.

Ammâ, hamrâhim énsasi qâtgandek peşanasini tiriştirib zorğa kondi.

— Aslida ozim ketaversam bolarkan. Nega ham gapingizga kirib avtobusdan tuşib qâldim- a!

Koprikdan otganimizdan keyin Usta dutârni menga berib, koça betidagi éşikka kirib ketdi-da, hayâl otmay yâna qaytib çıqdi.

— Înâbat âltinçining erida ékan, oşaqqa bâramiz. Înâbat kim? Âltinçi brigadaning dalasida nima qilamiz? Bu toğrida undan soraşga jurbat qilmay ârquasidan érğaşib ketaverdik. Hamrâhim har zamân menga qarab bir homrayib qoyârdi. «Nima, umrida dutâr éşitmagan ékanmanmi, namunça zarur bolmasa» deb ustaga bildirmay mingillar édi. Şudgâr qilingan katta erdan aylanib otişimiz bilan birdan traktâr şâvqini éşi-tildi. Tutzârdan bir gala zağça qağ-qağ qilib âsmânga kotarildi. Usta hamân çurq étmasdi. Dala şiypaniga etib kelganimizdan keyingina uning çehrası açilgandek boldi. Bu erda on çağlik kişi dalaning har er-har erida nima bilandir maşğul bolib yürardi. Şudgâr qilingan dalaning u bâşidan bu bâşiga sim târtilib, traktâr şu sim yâqalab çigit qadab kelardi. Hali gullamagan yâvvâyi jiyda tagidagi eroçâqqa ot qalab otirgan hâtin bir dasta kâsa kotarib ariq tâmânga otdi. Usta tepaga kelgan quyâşga kozini qisib qarab: «Ayni tuşlik paytida kelibmiz», dedi. Traktâr erning narigi bâşida tohtab, undan kânbinezân kiygan orta yâşar bir juvân tuşdi. U şiypan tâmânga qarab âldida olçâv simiga qâziq kâqayâtgan kişiga nimadir deb qiçqirdi.

Birin-ketin şiypanğa âdam yiğila bâşladi. Traktârçi juvon Ustani korib: «Ha, dâmlaka, nima qilib yüribsiz!»— dedi uning qolidagi dutârga hayrân bolib qararkan.

— Mehmân bâşlab keldim, qizim. Dutâringni éşitgani ataylab uzâqdan kelişibdi. Yoq demay çalib ber, Înâbat qizim.

Înâbat qâramây bolib ketgan qollarini latta bilan artib, dutârni âldi. Tik turganiça bir tizzasini sal bukib kotardi-da, dutâr pardalarini qulâği yâqiniga âlib bârib sâzlay bâşladi.

— Nimani çalib beray?— dedi u şiypan zinasiga âyâq qoyâr ékan.

— Nimani çalib bersin?— deyâ bizga yüzlandi Usta.

Men undan Usta akaning Yoldaş átaga çalib bergan «Farğana tanavâri»ni çalişini iltimâs qildim.

Înâbat korpaça ustiga ornaşib otirib âlgandan keyin dastromâlini hollab, târlarni artib, ustasining salâbati bâsayâtgandek jurbatsizlik bilan kuyni bâşladi. Er âstidan hamrohimga qaradim. U goyâ heç narsa bolmagandek oçâkdan çiqayâtgan tutunga lâqayd qarab otirardi. Avvaliga hissiz, şunçaki bâşlangan kuy birdaniga otirganlarning hayâlini âlib qoydi. İnâbat kozlarini yümib, ozi çalayâtgan kuydan ozi tabsirlanib tebranar, gâh kozini açib âftâbda gulhandek yânayâtgan adirdagi lâlalarga qarar, gâh bâşini sal ârqaga taşlab şiftdagi qaldirğaç uyâsiga tikilganiça kiprik qâqmay turib qâlardi. Qollari pardalar ustida érkin yorğalar, goyâ dutâr dastasini ézib undan anvâyi âhanglarni siqib âlayâtgandek, barmâqlari ésa târlarni huddi qalbni tirnayâtgandek timdaldardi. Âdam qalbiga tâğ havâsidek yâqadigan kuy yâratayâtgan mana şu qollar bundan bir neça minut ilgari âğir traktâr murvatlarini bâşqarganiga sira işângim kelmasdi. Bu kuy menga yâşligim, bâlaligimni yâna qaytarib keldi. Târlarning gâh dengiz dâvullaridek şiddatkâr, gâh sahar ellaridek yümşâq sadâleri yillar otib qalb qabrida unutilib ketgan ajib bâlalik hislarini tuğyânga keltirdi. Vujudimda haligaça heç kim bilmagan va heç kim qilâlmaydigan allaqanday zor, juda ham zor işlar qila âlişga qâdir bir kuç paydâ bolayâtgandek édi. Dutâriga jor bolgim, atrâfda mavj urib turgan bahâr manzaralarini qoşiqqa sâlib kuylagim kelardi. Hamrâhimga qaradim: uning kozida yâş yiltirardi. U iyâgini kaftlari ârasiga âlib jimgina otirar, elkasi tez-tez silkinayâtganini sezmasdi.

Negadir Usta Maqsudning yüz-kozida hayâjân sezmadim. U kuyning âdamlarga tabsiridan kora, ijrâçining târni qanday çertişiga, pardalarni qanday bâsişiga koprâq diqqat qilardi. Ustaning koz qaraşlarida, yüz ifâdalarida adaşmâsmikan, usuldan çiqib ketmâsmikan, degan taşviş sezilib turardi.

Nazarimda, bu usta sanbatkâr uzâq yillar mehnat maşaaqqat bilan tâpgan hazinasini éritib, şâgirdining qalbiga quyâyâtganga ohşardi. İnâbat ésa bu sanbat gavharining ustidagi çang-ğubârni artib, unga yângi jilâ, yângi sayqal berib kişilar yûragiga âlib kirardi.

1960 yil.

MUNDARIJA

Halq sevgan adib. A. Sharafiddinav

Sarab

Azrail otgan yollarda

Qishdan qalغان qarğalar

Buqalamun bilan uçraşuv

Azab

Qarakoz majnun

Mehriban

Muhabbatning tuğilişi

Kozlaringda ot bar edi

Tolqinlar

Yalpiz hidi

On sakkiz yaşing

Zumrad

Motti

Sumbul

Laylak keldi

Taq afsanasi

Suvlar aqib ketdi

Uchinçi minara

Hatin

Bahâr suvlari

Turnalar

İqbâl çirâqlari

Rahmat, azizlarim

Ânajânlar

Pâyqadam

Begâna

Alla

Keçikkan sevgi

Bahâr qizlari

Çol hikâyälari

Çol burguti

Orik dâmla

Lâçin

Çol şamâllari

Âdam va borân

Bostân

Er uyğândi

Toybâşi

Seni izlab

Hazina

BÖLÜM IV

SONUÇ

Çalışmamızda, Özbek Türkçesinde zarf-fiiller konusunu Özbek edebiyatında hicivleri, romanları, özellikle hikâyeleri ile tanınmış bir yazar olan Said Ahmad'ın "Tanlangan Asarlar" hikâyesi esasında inceledik. Öncelikle eseri Latin alfabesine aktardık, ardından Özbek Türkçesi için önemli bir yere sahip olan zarf-fiilleri, metni tarayarak örnek cümleler içinde verdik.

Çalışmamızda zarf-fiilleri, asıl zarf-fiiller ve zarf-fiil fonksiyonunda kullanılan birleşik şekiller olmak üzere iki başlık halinde inceleme yoluna gittik. Hikâyede "-b, -ib, -ib" zarf-fiil eklerinin diğer eklere göre oldukça fazla kullanıldığını gördük.

Çalışmamıza esas olan eserde tespit edebildiğimiz asıl zarf-fiiller şunlardır:


Asıl zarf-fiiller: - ä/-y , -ib, ib, -kan (ekan), - arak, - gäni, -käni, -qäni, -määdän, -may.

Zarf-fiil fonksiyonunda kullanılan birleşik şekiller: -gändä, -kändä, -qandä, -günçä, gän+dän kéyin, -gän+gä, -gändek, -gändan, mas+dän, -r/-är...-mä, -(i)ş+gä, -(i)ş+iyelik eki+gä, - (iş) + iyelik eki + dän.

Hikâyede tespit edilen zarf-fiiller toplamda 6945 tanedir ve dağılımı şu şekildedir:

- ä/-y zarf-fiil eki 180,
- ib, ib zarf-fiil eki 4953,
- kan (ekan) zarf-fiil eki 257,
- arak zarf-fiil eki 9,
- gäni, -käni, -qäni zarf-fiil eki 12,
- määdän zarf-fiil Eki 1,
- may Zarf-fiil Eki 610,

- gändä, –kändä, –qandä zarf-fiil eki 300,
- gändän zarf-fiil eki 55,
- gUnçä /- gänça zarf-fiil eki 115,
- gän+dän kéyin zarf-fiil eki 83,
- gän+gä zarf-fiil eki 50,
- gändek zarf-fiil eki 203,
- mas+dän zarf-fiil eki 20,
- r/-är...-mäs zarf-fiil eki 42,
- (i)ş+gä zarf-fiil eki 18,
- (i)ş+iyelik eki+gä zarf-fiil eki 17
- (iş) + iyelik eki + dän zarf-fiil eki 20



Türk dili üzerine yapılan çalışmalar hem dilimizin gelişmesini sağlayacak hem canlılığını koruyacak hem de lehçeler arası aktarımlar kültür alışverişini kolaylaştıracaktır. Yapmış olduğumuz çalışmanın, Özbek Türkçesinde zarf-fiiller konusuyla ilgili çalışma yapacak araştırmacılar için kaynak oluşturacağı düşüncesindeyiz.





KAYNAKÇA

- Abdurrahmanov, G. A. (1994). “Özbek Halkining Etnogenezi ve Özbek Tilining Şakllanışı”, Belleten 1989, Ankara: TDK.
- Argunşah, M. (2013). Çağatay Türkçesi, İstanbul: Kesit.
- Atak, H. Ş. (2004). Özbek Türkçesinde Sıfat-Fiil ve Zarf-Fiiller, Yüksek Lisans Tezi, Balıkesir.
- Atar, Murat (2013), Abdullah Kadriy Ötken Künler Romanında Zarf-fiiller, Niğde Üniversitesi, Sosyal bilimler Enstitüsü, Yüksek Lisans Tezi, Niğde.
- Aydın, M. (2000). Anadolu Ağızlarında –ken Zarf-fiilinin Kullanımı ve Görevleri, Ankara.
- Aziz, Huda Hüseyin (2016). Türkçede –madan, -meden Ulaş Ekinin Yazılışı ve Kullanılışı, Journal of the college of Languages, Bağdat Üniversitesi.
- Banguoğlu T. (2015). Türkçenin Grameri, Ankara: TDK.
- Baydar, A. S. E. (2016). i- Fiili Üzerine, Türk Uluslararası Dil, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi, sayı:7.
- Bayniyazov, A. (2004). Kazak Türkçesi Grameri, Ankara; Gazi Kitabevi.
- Börekçi, M. (2009). Türkiye Türkçesinde Yapı ve İşlev Baimından Sözcükler, Erzurum: Eser Ofset Matbaacılık.
- Buran A., ALKAYA E. (2014). Çağdaş Türk Yazı Dilleri 2 Güneydoğu/ Karluk Grubu, Ankara: Akçağ.
- Buran A., ALKAYA E. (2015) Çağdaş Türk Lehçeleri, Ankara: Akçağ.
- Coşkun, M. V. (2014). Özbek Türkçesi Grameri, Ankara: TDK.
- Coşkun, V. (2000). Özbek Türkçesi Grameri, Ankara: TDK.
- Coşkun, V. (2015). Tarihi ve Çağdaş Türk Lehçelerinde Zaman Kavramı Taşıyan –a/-e, -o/-ö, -u/-ü, -y, Türk Dünyası Dil ve Edebiyat Dergisi, cilt sayı 11.

Çakmak, C. (2015). Birleşik Zarf-fiil Kavramı ve Çağdaş Türk Lehçelerindeki Görünümleri, Tokat: Dr. Gaziosmanpaşa Üniversitesi, Türkçe Öğretim Uygulama ve Araştırma Merkezi (GOÜ-TOMER), Dede Korkut Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi, c. 3, sayı 6.

Dizdaroğlu, H. (1963). Türkçede Fiiller, Ankara: TDK.

Durmuş, O. (2012/23:19-60). {-y)ArAK} Zarf-Fiil Ekinin Kökeni Üzerine, Türkbilig.

Eckmann, J. (2003). Çağatayca El Kitabı (Çev: Günay Karaağaç), Ankara: Akçağ.

Eckmann, J. (1998). Çağatayca Tarihi Türk Şiveleri (hızl. Mehmet Akalın), Ankara: Türk Kültürü Araştırma Enstitüsü.

Eckmann, J.(1996); Harezmi, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar, Ankara: TDK.

Eraslan, K. (2012). Eski Uygur Türkçesi Grameri, Ankara: TDK.

Ercilasun, A. (2012), Türk Lehçeleri Grameri, Ankara: Akçağ.

Ergin, M. (1990). Türk Dil Bilgisi, İstanbul: Bayrak.

Gabain, A. (2003). Eski Türkçenin Grameri (Çev: Mehmet Akalın), Ankara: TDK.

Gabain, A. (2000). Eski Türkçenin Grameri (Çev: Mehmet Akalın), Ankara: TDK.

Giray, E. (2009). “Askad Muhtar’ın “İldizlar” Adlı Eseri Örneğinde Özbek Türkçesindeki Geçici Birleşik Zarf-Fiiller”, Yüksek Lisans Tezi, Niğde Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Niğde.

Gülsevin, G. (2011). Eski Anadolu Türkçesinde Ekler, Ankara: TDK.

Gülsevin, G. (2001). “Türkiye Türkçesinde Birleşik Zarf-Fiiller”, Afyon Kocatepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Dergisi, C.II, S.2.

Hacıeminoğlu, N. (2003). Karahanlı Türkçesi Grameri, Ankara: TDK.

Hacıeminoğlu, N. (1996). Karahanlı Türkçesi Grameri, Ankara: TDK.

- Karaağaç, G. (2012). Türkçenin Dil Bilgisi, Ankara: Akçağ.
- Koç, Nurettin (1990). Yeni Dil Bilgisi, İstanbul: İnkılap.
- Koraş, H. (2008). Türk Lehçelerinde Hâl Ekleri ve İsim Çekim Ekleri ile Teşkil Edilen(Geçici) Zarf-Fiil Şekilleri ve Türkiye Türkçesinde Karşılıkları, Basılmamış Bildiri, Niğde.
- Korkmaz, Z. (2003). Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi), Ankara: TDK.
- Korkmaz, Z. (1995). Türkçedeki –arak, -erek Zarf-fiili (Gerindium) Ekinin Yapısı Üzerine Türk Dili Üzerine Araştırmalar I, Ankara: TDK.
- Korkmaz, Z. (1995). Türkiye Türkçesindeki –medin > -madın > -madan / -meden Zarf-fiil (Gerundium) Ekinin Yapısı Üzerine, Türk Dili Üzerine Araştırmalar cilt1, Ankara: TDK.
- Korkmaz, Z. (2003). Gramer Terimleri Sözlüğü, Ankara: TDK.
- Kuçkartayev İ., ÖZ A. (sayı 2) Özbek Edebiyatından Seçmeler, Türk dünyası dil ve Edebiyat Dergisi.
- Ölmez M., TEKİN T. (1999). Türk Dilleri, İstanbul: Simurg
- Öztürk, R. (2010). Yeni Uygur Türkçesi Grameri, Ankara: TDK.
- Öztürk, R. (1997). Uygur ve Özbek Türkçesinde Fiil, Ankara: TDK.
- Tekin T. Ölmez M. (1999). Türk Dilleri, İstanbul: Simurg.
- Toker, M. (1996). Halid Said'in "Osmanlı, Özbek, Kazak Dillerinin Mukayeseli Sarfı" Adlı Eseri ve Bugünkü Türkiye, Özbek, Kazak Türkçelerinin Karşılaştırmalı Grameri, Selçuk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Yüksek Lisans Tezi, Konya.
- Topal, E. (2012). Türkçede Ek Fiil (i-) Üzerine Düşünceler, Kastamonu Eğitim Dergisi, C: 20 No: 2.
- Üşenmez, E. (2012). Modern Özbek Türkçesi, Akademik Kitaplar, İstanbul.

Yavuz E. (2009). Said Ahmad'ın "Ufq" Romanı Esasında Özbek Türkçesinde Zarf-Fiiller, Niğde Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili Ve Edebiyatı Ana Bilim Dalı Yüksek Lisans Tezi, Niğde.

Yıldırım H. (2009). Özbek Türkçesi, Ankara: Gazi Kitabevi.

Yüce, Nuri (1999). Gerundien im Türkischen: Eine morphologische und syntaktische Untersuchung, İstanbul: Simurg.



EKLER

ÖZ GEÇMİŞ**KİŞİSEL BİLGİLERİ**

Adı ve Soyadı : Ezgi GÜLMEZ
Doğum Yeri : Osmaniye
Adres : Osmaniye Korkut Ata Üniversitesi
İletişim : ezgigulmez80@gmail.com

EĞİTİM BİLGİLERİ

Yüksek Lisans : Korkut Ata Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü
Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı,
2015-2017
Lisans : Adıyaman Üniversitesi, 2009-2013